

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

INNOVATION AND PROGRESS

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

***Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL***

**2026-yil, 1-son 2-qism
2026, Issue 1, Part 2**

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor.

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

N.Matyaqubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Qo‘chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.

Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Hasan – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

J.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O‘.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.M.Sodikov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
S.S.Zokirov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.A.Urinov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
U.A.Otajonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.T.Bayxonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.B.Mullaboyev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
 № 1 (36), Urganch innovatsion universiteti, 2026-yil.

MUNDARIJA:**FILOLOGIYA**

D.YULDASHEV, H.ORISLANOVA. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi fors taqvimiga oid oy nomlari haqida.....	6
F.BURXANOVA. Roman falsafasi.....	14
SH.XONQULOV. Hamza shariyatida ijtimoiy va madaniy masalalarning aks etishi.....	23
H.YUSUPOV. Ogahiy qasidalarida takror bilan bog‘liq lafziy san’atlar.....	28
B.TO‘XLIYEV. So‘z san’ati va talqin hayrati.....	36
A.TURSUNOV. O‘zbek tilshunosligida so‘z yasash usullarining shakllanishi va rivojlanishi (affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya asosida).....	40
G.JUMANOVA. Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asarida arabiy qatlam mavzusi.....	45
R.ALLABERGANOVA. Qadimgi turkiy tilga arab tilidan o‘zlashgan antroponimlar etimologiyasi.....	51
Y.AYITBOYEVA. Tog‘ay Muroding “oydinda yurgan odamlar” qissasi milliy o‘zlik va etno-madaniy dunyoqarash talqini misolida.....	56
D.QODIROVA. Ingliz tilida so‘roq gaplarning so‘zlashuv nutqidagi kommunikativ va funksional o‘rni.....	62
S.YULDASHOVA. O‘zbek adabiyotida kundalik hayot psixologiyasini ifodalashning lingvopoetik vositalari va ularning ingliz tiliga tarjimasidagi muqobillik masalalari.....	67
G.RAXIMOVA. Ogahiy lirikasida vaqt falsafasining raqamlardagi ifodasi.....	72
G.RAXIMOVA. O‘zbek tilining xorazm shevasi va ingliz tilidagi frazemalarning qiyosiy tadqiqi.....	76
N.SOBIROVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida mifologik obrazlarning qiyosiy tahlili.....	80
D.NIYAZMETOVA, M.SABIROVA. Ingliz va o‘zbek tilida bolalar adabiyotida qo‘llaniladigan frazeologizmlarning kommunikativ vazifalari. ...	85
S.RAXIMOVA. Shoh va shoirlar nazariga tushgan adib.....	93
D.XURRAMOVA. O‘zbek tilida oqova suv va tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlarning berilishi hamda lug‘atlardagi tavsifini takomillashtirish	100
I.MIRZAYEVA. Hohish-istak konsepti semantik maydoni.....	109
G.ABDULLAYEVA. Nemis tilida qo‘shma gaplarda “es” shaxssiz olmoshining ishlatilishi va uning o‘zbek tiliga tarjimasining chog‘ishtirma tahlili.....	116
M.HAKIMOV. Lirik obrazlilik ildizlari va uning falsafiy-estetik tadriji.	122

G.KAZAKOVA. Zamonaviy o‘zbek essenavisligida shaxs va ijod talqini (Muhammad Ismoil esselari misolida).....	127
S.JUMANIYOZOVA. Siyosiy diskurs – tilshunoslikdagi yangi yo‘nalish sifatida.....	132
K.ABDULLAYEVA. Ixtionimlarning motivatsion tahlili: fanlararo va tillararo tahlil.....	138
D.YULDASHEV, SH. KALANDAROVA. Shuhrat Matkarimning “salav” qissasidagi o‘xshatishlar tahlili.....	146
I.ISMAILOV. Ibratli umr.....	154
D.DAMINOV. Arab va o‘zbek topishmoqlarida ramziy obrazlar va ularning madaniy asoslari.....	158
N.BEKCHANOVA. Erkin A‘zam nasrida badiiy detal va uning funksiyasi.	165
M.TURSUNOV. Badiiy matnda iboralarning transformatsiyasi va estetik funksiyasi (Ahmad A‘zam asarlari misolida).....	170
M.ATABOYEVA. Jek Londonning “Martin iden” romanida badiiy konsepsiyasini ifodalashda obrazlarning ahamiyati.....	179
M.SULTANOVA. Erkin Vohidov ijodida urush davri manzaralari.....	185
Z.MARUFOVA. Semantik valentlik va emotiv ma‘no: badiiy matnning lingvopoetik mexanizmi.....	189
G.OLIMJANOVA. Adabiy til me‘yorlari va uning bugungi ijtimoiy tarmoqlardagi ahamiyati.....	198
A.YUSUPOVA. Belgi-xususiyat bildiruvchi til birliklarida namoyon bo‘ladigan antropomorfizm: lingvomadaniy yondashuv.....	203
A.KULDASHEV, V.OCHILOVA. “Diskurs” tushunchasining umumlingvistik mavqei masalasi	211
I.ISHONXANOVA. Aleksandr Borovkovning “Alisher Navoiy” maqolasi haqida mulohazalar.	216
U.MASHARIPOVA. O‘zbek va qoraqalpoq tilida qora leksemasi.....	226
R.NURJANOVA. Funktsional yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.....	233
G. ERKINOVA. Arab tilida vaqt tushunchasining lingvistik talqini.....	240

FILOLOGIYA**“QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR”
ASARIDAGI FORS TAQVIMIGA OID OY NOMLARI HAQIDA****UO‘K 95(575.171)**

**Doniyor Yuldashev,
filologiya fanlari
doktori (DSc), prof.**



**Hamida Orislanova,
UrDU
mustaqil izlanuvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida qayd etilgan fors taqvimiga oid oy nomlari onomastik va etimologik jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье проводится ономастический и этимологический анализ персидских названий месяцев, упомянутых в труде Абу Райхана Беруни “Памятники древних народов”.

Annotation: This article analyzes the names of the months in the Persian calendar, as recorded in Abu Rayhan Beruni's work “Monuments of Ancient Peoples”, from onomastic and etymological perspectives.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, fors taqvimi, atoqli ot, vaqt birliklari nomi, Avesto, zardushtiylik, teonim.

Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, персидский календарь, имя собственное, название единиц времени, Авеста, зороастризм, теоним.

Key words: Abu Rayhan Beruni, Persian calendar, proper name, names of time units, Avesta, Zoroastrianism, theonym.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham atoqli otlarni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlari va etnografik xususiyati haqida muhim axborotlarni uzatuvchi milliy-lisoniy birliklar sifatida tadqiq etish kuchaymoqda. Har bir xalqning yozma yodgorliklarida saqlanib qolgan tilning milliy-madaniy komponentlarini o‘rganish fan taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Tilshunoslikda atoqli otlarni

o'rganuvchi sohaga onomastika deyiladi. Onomastika doirasida shaxs nomlari, joy nomlari, etnonimlar bilan bir qatorda vaqt birliklari nomlari, xususan, oy nomlari ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Chunki oy nomlari xalqning qadimgi kalendar tizimi, kosmik tasavvurlari, diniy-e'tiqodiy qarashlari hamda tabiat bilan bog'liq dunyoqarashini o'zida mujassam etgan lisoniy birliklardir.

Jahon tilshunosligida vaqt nomlari, voqea-hodisalar, xalq bayramlarining tarixi, taraqqiyoti, turlari, jamiyatning madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy takomilidagi o'rni, nomlanishi, variantlari tilshunoslikning onomastika yo'nalishida I.V.Bugayeva, L.V.Gayvoronskaya, O.L.Orlov, N.V.Andreyeva, O.V.Artoshenko, S.V.Tixomirova, Y.A.Filatova, S.A.Remmer kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida vaqt birliklarining nomlari bilan bog'liq tushunchalar N.Uluqov, A.Ashirov, M.Hakimova, X.Salixodjayeva kabi olimlarimizning ilmiy ishlarida qisman tahlilga tortilgan.

Ma'lumki, yozma yodgorliklarimiz tarkibidagi turli onomastik birliklar – antroponim, toponim, etnonim, teonim va xrononimlarni tahlil qilish o'sha davr kishilarining dialektik tafakkuri, vaqt va makon haqidagi konseptual tasavvurlari, diniy-idealogik qarashlarini qayta tiklashda zaruriy manba bo'la oladi.

Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi fors xalqining vaqt birliklari nomlarini tadqiq qilish ham ana shunday madaniy-ma'naviy qadriyatlarning til birliklarida aks etishini ko'rsatib, o'sha xalqning qadimgi onomastik tafakkurini ham aniqlash imkonini beradi. Maqolada oy nomlarini tahlil qilish jarayonida tasviriy, tasniflash, qiyosiy-tarixiy kabi metod va usullardan foydalanildi. "Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rnini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi [3, 257]".

Yozma yodgorliklarimizning lug'at tarkibi atoqli otlarga nihoyatda boy bo'lsa ham, uning barcha turlari hozirgacha etarli darajada tizimli ravishda jamlanmagan va to'liq ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ilmiy manbalarda ayrim atoqli otlar turli darajada tilga olingan bo'lishiga qaramay, ularning ko'pchiligi maxsus onomastik tahlilga tortilmagan. Ana shunday etarlicha tadqiq etilmagan atoqli ot turlaridan biri vaqt birliklari nomlari bo'lib, ular xalqning tarixiy tafakkuri, madaniy-ma'naviy qarashlari hamda taqvimiy

tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklar sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab etadi.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy o'z davrida ilm-fanning barcha sohalarida ijod qilgan qomusiy olim hisoblanadi. U nafaqat astronomiya va geografiyada, balki tilshunoslikda ham chuqur iz qoldirgan qomusiy mutafakkirdir. Ayniqsa, uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi onomastik birliklar tadqiqi qadimgi xalqlar dunyo tafakkurini namoyon qilishda muhim manba hisoblanadi. Asarda antroponim, toponim, etnonim, xrononim hamda kosmonimlar bilan bir qatorda vaqt birliklarining nomlari ham keng yoritilgan. Abu Rayhon Beruniy turli xalqlarning vaqt birliklari nomlanishidagi o'ziga xosliklarga alohida e'tibor qaratib, har bir xalqda kun, oy va yil kabi vaqt birliklarining qanday atalishini tizimli ravishda tahlil qiladi. Shu maqsadda muallif asarda ayrim xalqlarning vaqt birliklari nomlariga bag'ishlangan alohida boblarni ajratib, ularni tarixiy, diniy va madaniy kontekstda izohlaydi. Bu haqda olimning o'zi ham asarda shunday yozadi: "Har bir xalq o'ziga xos yil hisobini ishlatishi haqida yuqorida aytib o'tdik. Bu yil hisoblari bir-biridan farq qilgani kabi, oylarning boshlari, har bir oyning necha kundan iborat bo'lishi va buning sabablari masalasida ham farq qiladi. Biz bulardan faqat bilganlarimizni bayon etamiz, aniq bilmaganimiz va u haqda ishonchli kishilardan bizga biron ma'lumot etib kelmagan narsalarni bayon etishga urinmaymiz [5, 81]". Beruniy dastlab forslarning yil hisobiga e'tiborini qaratadi. "Forslar hisoblaydigan oylar ham o'n ikkita [5, 81]".

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fors taqvimidagi oy nomlari tasodifiy emas, ular qadimgi diniy-mifologik qarashlar, tabiat hodisalari hamda zardushtiylik ta'limoti bilan uzviy bog'liq. Shu sababdan ularni etimologik jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Farvardin moh – ushbu oyning nomini tadqiqotchilar diniy-mifologik tushuncha bilan bog'laydilar. Xususan, M.Minoviy fikricha, *Farvardin* – pahlaviy (III-VII asr) forshasidagi *fravartīnām* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qo'riqllovchi farishta" ma'nosini anglatadi. Umar Xayyom *farvardin* atamasini pahlaviycha so'z sifatida izohlab, uning "jannatlar" ma'nosini anglatishini, bu oyda o'simliklar o'sish jarayoni boshlanishini hamda ushbu oyning Hamal burjiga oid bo'lib, Quyosh oy davomida shu burjda bo'lishini qayd etadi. Ushbu qarashlar asosida *Farvardin* oyi nomining yuzaga kelishida diniy hamda tabiat hodisasi bilan bog'liq tushunchalar asos bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Hozirda ham *Farvardin moh* Eronda yilning boshi, bahor faslining birinchi oyi nomi

hisoblanib, Grigoriy taqvimi bo'yicha taxminan 21-martdan 20-aprelgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi [4].

Urdibihisht moh – Beruniy asarida ***Urdibihisht*** – olov va nur farishtasi sifatida talqin qilinib, “Alloh bu farishtani o't va nur ishiga, dori-darmonlar va oziq-ovqatlar orqali illat va kasalliklarni ketkizishga, rostni yolg'ondan, haqni nohaqdan qasamlar bilan ajratishga vakil qilgan [5, 257]”, deya tariflangan. “Yangi Avesto”da esa Ashah vahishta – eng yaxshi Ashah ma'nosida “Bahman”dan keyin ikkinchi o'rinni egallagan eng muhim amshosipandlardan birining nomi [7, 51]”, deya izohlangan. “Avesto”da *O'rdibehisht (Ardibehisht)* ko'pincha Ashah shaklida uchrab, nihoyatda ulug'lanadi. Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, uni do'st tutinganlar samoviy olamda oliy mukofotga sazovor bo'luvchilardir, deb ishonganlar. **Demak, *Urdibihisht moh* nomining yuzaga kelishida zardushtirlikdagi iloh tushunchasi asosiy unsur bo'lgan. “Osor ul-boqiya”da xorazmliklarning taqvimida bu oy nomi *Ardvst* shaklida uchraydi. Zamonaviy fors tilida ushbu oy nomi *Ordībehešt* fonetik variantida uchrab, bu oy zamonaviy taqvimda taxminan 21-apreldan 21-maygacha bo'lgan davrga mos keladi.**

Xurdod moh – ushbu oyning nomini tadqiqotchi M.Minoviy qadimgi forschadagi *haurzatat* – “butunlik” so'zidan kelib chiqqan deya ta'kidlaydi. Olima M.Tillayeva ilmiy ishlarida “Xurdod: (“Avesto”da *Havravatot* va pahlaviyda *xurdot* yo *xurdod* – “kamolot va etuklik” ma'nosida). Gohlarda Ahura Mazdaning sifatlaridan biri, “Yangi Avesto”da Sipandarmoz va Amurdod bilan birga, bosh ilohlar guruhini tashkil qiluvchi etuklik, kamolot ilohasining nomi [7, 57]” sifatida talqin qilgan. Demak, *Xurdod moh*ning yuzaga kelishi diniy tushunchaga asoslangan bo'lib, u qadimgi eroniy mifologiyada kamolot va etuklik g'oyalarini mujassam etgan ilohiy nomning vaqt birligi nomiga ko'chishi, ya'ni transonomizatsiya natijasida yuzaga kelgan nom sifatida shakllangan. Beruniy asarida xorazmliklarning uchinchi oy nomi ham *Hrvdod* shaklida uchraydi. Zamonaviy fors tilida oy nomi *Xordād* shaklida uchrab, taxminan 22-maydan 21-iyungacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi.

Tir moh – ushbu oyning atalishi “Avesto”da tilga olingan kosmonim – *Tishtiriya* yulduzining nomi bilan bog'liq. Zardushtiylik manbalarida yozilishicha, Tishtiriya yulduzining ko'rinishi yomg'ir, koinot suvlarini ko'paytiradi. Shu sababli uni suv va serhosillik bilan bog'liq ilohiy kuch sifatida tasavvur etib, unga suv tangrisi sifatida topinganlar. Demak, *Tir moh* nomining

yuzga kelishida ham diniy-mifologik qarashlar etakchi motiv sifatida namoyon bo'ladi. Bu oy nomi qadimgi Xorazm taqvimida *Jiri* deb atalgan. Hozirda ham yoz faslining birinchi oyi nomi Tir deb atalib, taxminan 22-iyundan 22-iyulgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi.

Murdod moh – Zardushtiylik manbasi bo'lgan "Avesto"da *Amirih tota* nomi "mangulik" va "boqiylik" g'oyasini ifodalovchi ilohiy tushuncha sifatida talqin qilingan. Ushbu atama pahlaviychada *Amurdod* yoki *Amertat*, fors tilida esa *Amurdod* yoki *Murdod* ko'rinishida bo'lib, ushbu oy nomining yuzaga kelishida asosiy unsur bo'lgan. Beruniy asarida oy nomi quyidagicha ifodalanadi: "Murdod"ning ma'nosi "maxluqotning o'lmay abadiy qolishi" demakdir. Murdod – dunyoni saqlash, ochlik, yomon holat, kasalliklarni ketkazuvchi o'simliklardan bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlarni tayyorlash uchun vakil etilgan farishta [5, 259]". Oy nomi qadimgi xorazmliklarda *Hmdad* shakliga ega. Zamonaviy fors tilida ham oy nomi *Murdod* shaklida uchraydi va taxminan 23-iyuldan 22-avgustgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Shahrivar moh – bu oy nomini Beruniy *Shahrivar* nomli farishta bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, "Shahrivar – ettita qimmatbaho narsaga, ya'ni turli san'atlarga, dunyo va dunyo uning ahli mavjudligi uchun bo'luvchi oltin, kumush va boshqa ma'danlarga vakil qilingan farishta [5, 259]". Shu bilan birga, ayrim manbalarda oy nomining etimologik asosi qadimgi fors tilidagi xšavarešvayrim – "talab qilinayotgan mamlakat" ma'nosini anglatuvchi birlik bilan izohlanadi. Bu hol Shahrivar moh nomining diniy-mifologik talqini bilan bir qatorda, hokimiyat va mamlakat tushunchalari bilan ham semantik jihatdan bog'liqligini belgilaydi. Hozirda oy nomi Shahrivar ko'rinishida bo'lib, 23-avgustdan 22-sentabrgacha bo'lgan davrga mos keladi.

Mehr moh – ushbu oy nomi qadimgi eroniy teonimlar asosida shakllangan nomlardan biridir. Mazkur nomning etimologik ildizi zardushtiylik manbasi bo'lgan "Avesto"da "quyosh" ma'nosini ifodalovchi Mitra ilohi nomi bilan bog'liq. Mitra so'zi "Avesto"da *Mitr* yoki *Mixr* shaklida ham uchraydi. Pahlaviy tilida esa *Mehr* shakliga ega. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bu nomni sharhlab, *Mehr*ni quyosh bilan bog'liq nom sifatida izohlaydi. Ushbu dalillar *Mehr moh* nomining shakillanishida diniy-mifologik tasavvurlar muhim onomastik omil bo'lganini ko'rsatadi. Hozir ham forsiy xalqlarda kuz faslining birinchi oyi nomi Mehr deb atalib, taxminan 23-sentabrdan 22-oktabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Obon moh – ushbu nomning shakllanishi ham qadimgi eroniy diniy dunyoqarash, xususan, zardushtiylik dinidagi suv kultiga oid ilohiy tushunchalar bilan bevosita bog‘liq. Pahlaviy manbalarda *Obon* nomi *Opon* shaklida qayd etilib, u barcha suvlarning homiysi sifatida e’tirof etilgan ilohiy timsol bilan bog‘lanadi. “*Obon*: (pahlaviychada *Opon*) hamma suvlar ilohi va Ariduyasvar Ana-Hito ilohasi sifatida pahlaviy yozma yodgorliklarining birida *Burzyazddi* deb atalgan va Apam Napot – Napot Apam bilan bir hisoblangan, oyning o‘ninchi kuni va yilning sakkizinchi oyi shu nom bilan ataladi [7, 50]”. Ushbu holat *Obon moh* nomining shakllanishida ham diniy-mifologik tasavvurlar, ayniqsa, suv kultining onomastik jihatdan muhim nominativ omil bo‘lganini ko‘rsatadi. Hozirda oy nomi *Abon* fonetik variantida bo‘lib, taxminan 23-oktabrdan 21-noyabrgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi.

Ozar moh – “Avesto”da olov homiysi bo‘lgan iloh nomi *Otar* va *Ozar* shakllarida, pahlaviy manbalarda *Otur* va *Otaxsh* tarzida uchraydi. Mazkur olov tangrisi – Ozar nomi oy nomining shakllanishiga asos bo‘lgan. Umar Xayyom “Navro‘znoma” asarida “...pahlaviy tilida ozar “olov” deganidir. Bu oyda ob-havo soviy boshlaydi va olovga muhtojlik paydo bo‘ladi, ya’ni bu olov oyidir [11, 13]”, deya qayd etgan. Oy nomi hozirda *Azar* shaklida uchraydi va 22-noyabrdan 21-dekabrgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Day moh – ushbu oy nomining etimologiyasi ilmiy manbalarda turlicha talqin qilinadi. Manbalarda bu nom qadimgi forschadagi *dazvah* – “yaratuvchi” so‘zidan kelib chiqqanligi takidlanib, u zardushtiylik ta’limotida oliy iloh Ahura Mazda timsoli bilan bog‘lanadi. Ayrim manbalarda esa quyidagicha izohlanadi: “... pahlaviy tilida *day* “dev”ni anglatadi. Bu oyni “day” deyilishiga sabab, u qahrli va bu oyda er ko‘karishdan yiroqdir [11, 13-14]”. Ushbu ikki xil qarash *Day moh* nomining yuzaga kelishida diniy tushuncha bilan birgalikda tabiat hodisasi motivi mujassam ekanini ko‘rsatadi. Zamonaviy fors tilida qish faslining birinchi oyi nomi ham *Dey* shaklida uchrab, taxminan 22-dekabrdan 20-yanvargacha bo‘lgan davrga mos keladi.

Bahman moh – ma’lumki, “*Baxman* بهمن “Avesto”da *Vehumana*, pahlaviyda *Vehuman* bo‘lib, “yaxshi”, “ezgu” ma’nosidagi *vehu* hamda “o‘y”, “fikr” ma’nosidagi *man* so‘zlaridan tarkib topgan. Tabariy uning ma’nosini arabchada الحسن النية deb beradi. U zardushtiylik e’tiqodidagi amshospandlardan biri bo‘lib, yilning o‘n birinchi oyi va har oyning ikkinchi kuni *bahman* deyilgan. Bu so‘zning boshqa ma’nolari hamda atoqli ot sifatida “farishta, tog‘, aholi

yashash joyi”ni anglatishi ushbu lugʻatda batafsil berilgan. Bu soʻz turk adabiyotida ham oy nomi sifatida “Qisasi Rabgʻuziy”da uchraydi: “Kechti *bahman* zamharir qish, qolmadi qori, buzi” [12, 105]. Beruniy oy nomining kelib chiqishini ilohiy tushuncha bilan ifodalaydi. Unga koʻra, *Bahman* odamlarning hayoti va ehtiyojlari uchun zarur boʻlgan chorva mollariga vakil qilingan farishtadir. Ayrim manbalarda Bahman nomi zardushtiylikdagi Vohu Manahning zamonaviy shakli deb ham qaraladi. Zardushtiylik taʼlimotida Vohu Manah sof aql, ruh yoki mutloq ong mazmunlarini ifodalovchi muhim ilohiy tushuncha hisoblanadi [2]. Shu asosda, ilohiy-teonim nomning vaqt birligi nomiga koʻchirilishi natijasida Bahman moh nomi shakllangan. Hozirda ham oy nomi Bahman shaklida uchraydi. Bu oy taxminan 21-yanvardan 19-fevralgacha boʻlgan davrni qamrab oladi.

Isfandarmuz moh – “Avesto”da bu nom *Spenta armaiti*, pahlaviyda *Spandâr mat*, porsiyda *Spandor maz*, *Spandormoz* va goho *Spandor* shaklida uchraydi [9, 138]. Ushbu soʻz ikki komponentdan tashkil topgan boʻlib, *spand* “pok”, “muqaddas” maʼnosini ifodalaydi, keyingi qism *armati* yoki *armaiti* ham oʻz navbatida ikki qismga ajraladi: dastlabgi qism *arem* – “toʻgʻi”, “aniq” maʼnolarini ifodalagan holda, ikkinchi qism *mati* – “oʻylamoq”, “xayol surmoq” maʼnolarini anglatadi. Beruniy talqinida *Isfandarmuz* erga hamda soliha, nomusli, savob ishlarni qiluvchi va eriga muhabbatli ayolga vakil qilingan farishtadir. Shu tariqa, ilohiy-teonim nomining er, baraka, axloqiy poklik ramzlarini mujassam etishi asosida mazkur nom oy nomi sifatida qabul qilingan. Oy nomi qadimgi xorazmliklarda *Isfandaraji* shaklida uchraydi. Hozirda mazkur oy *Esfand* shaklida uchrab, taxminan 20-fevraldan 20-martgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan fors taqvimiga oid oy nomlari qadimgi eroniy xalqlarining, shu jumladan, qisman qadimgi xorazmiylarning diniy-eʼtiqodiy qarashlari hamda ijtimoiy-madaniy hayotini aks etgan vaqt birliklari nomlari hisoblanadi. Ushbu oy nomlarining aksariyati zardushtiylik dinida muqaddas hisoblangan ilohlar va farishtalar nomi asosida shakllangan boʻlib, bu holat vaqt birliklari nomlari nafaqat xronologik tushunchani, balki ramziy maʼnoni ham ifodalashini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mojtaba Minovi. Nowruznameh of Omar Khayyam. – Afghanistan: Armanshahr, 2014.
2. Mehta P.D. Zarathushtra the transcendental vision. – Element Books, 1985.
3. Rasulov Ravshanxo‘ja. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2010.
4. Uz.wikipedia. org.
5. Аҳмедов А. Абу Райхон Беруний “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” (“Осор ал-боқия”). – Тошкент: O‘zbekiston, 2022.
6. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
7. Дўсимов З., Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва «Авесто». – Тошкент: Фан, 2010.
8. Исҳоқов М. Авесто. «Яшт» китоби. – Тошкент: Шарқ, 2001.
9. Маҳмудов Р. Ўзбек тилида авестизмлар (монография). – Хива: Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2020.
10. Салиходжаева Х. Ўзбек тили хрононим ва геортонимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Фарғона, 2020.
11. Умар Ҳайём. Наврўзнома. – Тошкент: Меҳнат, 1990.
12. Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2020.

FILOLOGIYA**ROMAN FALSAFASI****UO‘K 95(575.171)**

Burxanova Feruza,
Nizomiy nomidagi
O‘zMPU dotsenti,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste’dodli nosir Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” nomli romanining g‘oyaviy-badiiy xususiyati, yozuvchi uslubiga xos ramziylik, sinkretizm, metoforik, spiralsimon ifoda, mifologik motivlarga murojaat tahlillar misolida yoritilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются идейно-художественные особенности романа «Запретный плод» талантливого романиста Назара Эшанкула, характерные для стиля писателя символизм, синкретизм, метафоричность, спиралевидность экспрессии, обращение к мифологическим мотивам.

Annotation: In this article, the ideological-artistic features of the novel “Forbidden Fruit” by the talented prose writer Nazar Eshanqul, the symbolism, syncretism, metaphorical, spiral expression, mythological motifs characteristic of the writer's style are covered in the examples of analysis. , the greatness of divine love is written in the pen.

Kalit so‘zlar: adabiyot, detal, diniy-ilohiy mazmun, obraz, ramz, roman, metafora, motiv, mifologik motiv, uslub, xronotop, xronikali-assotsiativ syujet, spiralsimon ifoda, ishq-muhabbat.

Ключевые слова: литература, деталь, религиозно-богословское содержание, образ, символ, роман, метафора, мотив, мифологический мотив, стиль, хронотоп, хронико-ассоциативный сюжет, спиральное выражение, любовь.

Key words: literature, detal, religious-theological content, image, symbol, novel, metaphor, motif, mythological motif, style, chronotope, chronic - associative plot, spiral expression, love.

Nazar Eshonqul o‘zining ko‘plab badiiy, adabiy-estetik qarashlari aks etgan asarlari, adabiy etyudlari bilan nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki xorijlik olimlar, kitobxonlarning ham e’tiborini qozongan iste’dodli adiblardan biridir. Yozuvchi qalamiga mansub hikoya va qissalar hamda “Go‘ro‘g‘li yohud hayot suvi” romani adabiy jamoatchilikda keng muhokama va munozaralarga, turli xil

talqinlarga asos bo‘lib kelmoqda. Yozuvchi uslubiga xos ramziylik, sinkretizm, quyuq bo‘yoqdorlik, ayniqsa, qora ranglardan maqsadli foydalanish, metoforik, spiralsimon ifoda, folklorga, mifologik motivlarga murojaat ijodkorning original, individual ijodiy qiyofasini belgilaydigan muhim omillardandir. Bunday xususiyatlar adibning “Taqiq mevasi” nomli romaniga ham xosdir. Romanning diniy-ma’rifiy mazmuni tilga olingan poetik unsurlarning barchasini qo‘llash imkoniyatini yaratgan.

Romanning kompozitsion qurilishi ham o‘zgacha bo‘lib, sarlavhadan so‘ng “ikki novelladan iborat roman” deya izoh berilgan hamda “Havo”, “Malak”, “Avval”, “Munozara”, “Marsiya” kabi qismlardan tashkil topgan. Bu qismlarning har biri syujet mazmunini, yozuvchining g‘oyaviy konsepsiyasini ifodalashda yaxlit shaklda uyushtirilgan. Sarlavha ma’nosining o‘ziyoq odam yaralganidanoq iblis tufayli gunoh ish qilishga moyillik “qismati” (mahkumligi) yashirin sirga daxl qilishiga ishora qiladi.

Ma’lumki, muqaddas kitobimiz hisoblangan Qur’oni Karimning “Baqara” surasida ham Odam alayhissalomning yaratilishidan tortib “Taqiqlangan daraxt” (Taqiqlangan daraxt - uzum yo anjir yoki olma yohud bug‘doydir, deb izohlangan) [9; 6] mevasini shayton vasvasi bilan iste’mol qilib gunohga botishi, qilgan gunohi uchun tavba-tazarru qilishi, Alloh uning tavbasini ijobat qilishi haqidagi oyatlar keltirilgan. N.Eshonqul romanda mana shunday diniy-ma’rifiy xabar asosida uni yangicha “libos” bilan tasvirlab insoniyatni ulug‘ xavfdan ogoh etishga harakat qiladi. Yozuvchi asarda Odam Ato va Momo Havodan boshlangan gunoh, iblis qutqusiga aldanish, muhtalolik, muqarrarlik qismati keyingi avlodlarga ham “meros” ekaniga ishora qiladi. Romanning “Taqiq mevasi” deya nomlanishida ham shunday ramziy ma’no bor. N.Eshonqul talqinida “taqiq mevasi” bu - qalbning kirlanishi, ilohiy ishq, muhabbatning zavolidir. Ma’lumki, pokiza qallda ilohiy ishq tajassum etadi. Aslida romanning har ikki qismida ham IShQ asosiy mavzu sifatida qalamga olinadi. Asar bosh qahramoni O.ning isyoni ham shundan. O.ning ishq yo‘lida chekayotgan azob-uqubatlari, ilohiy ma’rifatni egallashda mashaqqatlidir. Ruhiiy-ahloqiy kamolot, ilohiy ishqqa erishishda esa Havo va Malak obrazlari vosita, ko‘prik vazifasini o‘tagan. Romanga epigraf sifatida keltirilgan A.Navoiyning quyidagi bayti ham asarning g‘oyaviy mazmuniga va yozuvchining ijodiy konsepsiyasiga mutanosiblikni ifodalagan:

“Bu tiftl iligiga bir varaq ber,

Lekin manga ishqdin sabaq ber!” [12; 279]

Ushbu baytni quyidagicha sharhlash mumkin: bu bolalar iligi - qo‘liga bir varaq, ya’ni qog‘oz, tasavvufiy ma’noda zohid ahliga ishq haqida kitob berish lozimligi aks etmoqda. Bu o‘rinda zohid ahli tasavvufning birinchi darajasi -



shariat bosqichida ekanligi nazarda tutilgan. Ikkinchi misra mazmunida aks etgan haqiqiy ishqdan saboq olish istagi esa tasavvufiy mazmuniga ko‘ra ma‘rifatga intilish ekani ayon bo‘ladi. Bu o‘rinda Navoiy o‘zini tasavvufning 3-darajasi yoki ma‘rifat bosqichida ekanligiga ishora qilgan va ma‘rifat hosil qilishni maqsad etadi. Nazar Eshonqulning nazdida ham ishq – ilohiy ma‘rifatga chorlovchi, o‘zligini anglatuvchi nafs va moddiyatdan poklovchi vositadir. Shu jihatdan yozuvchi ijodida Sharq islom falsafasidan ijodiy oziqlanish, mumtoz adabiyotimiz, xususan A.Navoiy ijodidan ilhomlanish kuzatiladi. Romanning ilk va so‘ngi jumlasida ham ana shu diniy-ma‘rifiy mazmun va ilohiy ma‘rifatga intilish istagi ustunlik qiladi.

“Aynan shu joyga kelganda hammasi boshqatdan boshlanardi: yana qayta farishtalarning ham so‘lagini oqizadigan darajada mevalari g‘arq pishgan daraxt yonida turgan ayolni, unga meva uzib berayotgan qop-qora sharpani qayta-qayta tasavvur qilar, bu manzarani suratini o‘zimcha chizardim” [12; 279].

Ilk jumladagi mazmunda moddiyat, nafsga tobelanish jarayoni ifodalangan bo‘lsa, so‘ngi jumlada ruhni moddiyatdan poklanishi va asl o‘zaniga intilish holati aks ettiriladi.

“...Men telba emasman, men bu dunyodan, Sh.dan muhabbatimni asrab qolgan bir oshiqman, xolos. Muhimi, men bir marta Iblisdan g‘olib keldim. Iblisga muhabbatimni o‘g‘irlash imkonini qoldirmadim. Aybim ham, kasalligim, tavqi la‘natim ham shunda. Mag‘lubligim ham, zafarim ham shunda. Doktor ketadi. Men yana tuynukdan osmonning – arshi a‘loning bir parchasiga tikilib qolaman” [12; 362].

Qahramon muhabbatini ichiga yashirib, dunyodan uni qizg‘onib yashaydi, nazdida Malak ilohiy hilqat bo‘lib, hali uning visoliga erishadigan darajada ulg‘aygani, poklangani yo‘q. *“U faqat tasavvur va ko‘ngil etib boradigan yuksakda yashayveradi, men uni har lahza xuddi quyoshni ko‘rganday ko‘rib, unga talpinib yashayveraman. Menga u olamlarni birlashtirib turgan ostonaga o‘xshaydi”* [12; 355]. Keltirilgan parchadan ham qahramon uchun Malak - ilohiy ishqqa erishishdagi bir vosita ekanini ko‘rish mumkin.

Yozuvchi asarlarida tasviriy san‘atga, musavvirlik olamiga alohida urg‘u beriladi. Buni yozuvchining o‘zida bolalikdanoq tabiatan rassomlik iste‘dodi borligi bilan izohlash mumkin. Shu bois adibning deyarli har bir asarida san‘at asari badiiy detal sifatida turli badiiy-estetik vazifada muvaffaqiyatli qo‘llanadi, san‘at asarlaridagi rang tasvirlardan ramziy mazmunni ifodalashda, tasavvur olamini yaratishda mohirlik bilan foydalanadi. Zero, san‘at va adabiyotning tasvir obyekti, maqsad va vazifasida mushtaraklik bor. Har ikkala san‘atning tasvir obyekti olam va odam hisoblanadi, uning turfa xil zohiriy va botiniy

manzaralarini tasvirlash, estetik zavq va hissiy ta'sir orqali ruhiy-ahloqiy mukammallikka, go'zallikka, komillikka etaklash asosiy fazifalardan sanaladi.

Roman asar bosh qahramoni O. tilidan bayon etiladi. Asarning birinchi "Havo" qismida teatr eskizlarini chizib, suratlarida Havoni taqiq daraxti yonida tasvirlamaslikka uringan muallif muqarrarlikka qarshi o'ziga xos isyon qiladi.

Romanning birinchi qismida roviy-qahramon (ya'ni O.) Havoga bo'lgan muhabbati tufayli teatrga ishga kiradi. Syujet voqealari ham asosan teatrdagi kechadi va qahramon xayollari, ichki kechinmalari fonida rivojlanib boradi. Aslida, teatr – ma'rifat o'chog'i, ibrat maskani hisoblanadi. Biroq romanda bu makon ramziylik kasb etib, qahramonlarning o'zligini namoyon qiluvchi, tazarru maskani ma'nosini anglatgan. Asarda tasvirlangan teatr, sahna, pyesa – bu dunyoning o'tkinchiligi, soxtaligi ramzi hamdir. Sahnadagi adolatsizlik, haqsizlik, shuhratparastlik kabi illatlar hayotning badiiy modelini ham ifoda etadi. Unda rol o'ynayotgan aktyorlar ma'budning "mahkumlari" edi. Aktrisa Havo obrazi ham o'z qismatini o'zgartirishga ojiz, "sahna uchun qurbon bo'lishga tayyor betiyiq istak" sohibasidir. U sahnada o'ynagan har bir rolda xuddi yozuvchi o'z asarlarida o'zligini, qalb tubidagi dardlarini ifodalagandek, o'zini, o'z tazarrusini ifodalashga urinadi. Buni roviy-qahramonning quyidagi kuzatuvlarida ham ko'rish mumkin: *"U sahnada kimning qiyofasida bo'lmasin menga o'zi haqida, taqdiri, qismati, kechmishi va orzuparast ko'ngli haqida gapirayotganday, o'zining dardi holini butun zalga bildirayotganday tuyulardi. Aslida ham shunday edi, uning har bir roli uning tazarrusi, uning arzi holi, sarkash tuyg'uyu kechinmalarining izhori edi"* [12; 284].

Mazkur qismning asosiy obrazlari Havo, Ma'bud va roviy-qahramon (ya'ni O.) hisoblanadi. Syujet voqealari ham shu uchlik o'rtasida yuz beradi. Havoning ayanchli bolalik qismati, ota mehriga muhtojlikda o'tgan darbadar hayoti, o'g'irlangan bolaligi uning dunyoqarashi, ruhiyatining (e'tiqodini) o'zgarishiga sabab bo'lganini yozuvchi mantiqiy asoslar orqali badiiy gavdalantirgan. Bolaligida otasidan ololmagan mehrni o'z ideallaridan: eron shoirasi Furug' Farruxzod she'rlaridagi dardchillikdan, Frida Kalo suratlaridagi ilohiy rangdan, Ma'budning soxta mehr-inoyatidan topishga urinardi. Ilohiy mehrga intilish yo'lida uchragan zarbalar, tasavvuriga, orzulariga qo'yilgan ta'qiq, zo'ravonlik, insonda alamzadalik hislarini o'yg'otib, ruhiyatiga kuchli ta'sir qilishini N.Eshonqul retrospektiv tarzda Havo obrazi timsolida yoritadi. Xudodan har kecha otasining mehrga muyassar bo'lishni, uni himoya qilishi, tushunishi, bir olam orzularini boshqa otalar kabi eshitishini, onasiga ozor bermaslikni so'rab iltijo qiladi. Biroq zolim ota qizining teatr to'garagiga qatnashish istagiga qarshi chiqib, uch kun qo'lidan torga osib, to hushidan

ketgunicha oyog‘iga xivchin bilan savalab jazolaydi. Bu zo‘rovonlikdan so‘ng bir hafta maktabga borolmagan Havoning mas‘um ko‘zlarini bolalik allaqachon tark etganini yozuvchi mahorat bilan tasvirlagan. Bu epizodlar asar dramatzimini kuchaytirishga, Havo ruhiyatidagi o‘zgarishlarni mantiqiy dalillashga xizmat qilgan. Havo o‘zining bolalik dardkash do‘sti, roviy-qahramonga u timsolida Yaratganga qarab : *“Bilasanmi, senga aytganim, izlaganim, shuncha yillar sog‘inganim xudo yo‘q ekan! Xudo yo‘q bo‘lsa, unda Iblis bor! Men shu paytda Iblis bilan birga o‘sha taqiqlangan mevani egan bo‘lardim!”* [12; 297] deya g‘azablanadi. Alam, g‘azab, isyon tuyg‘usi shaytoniy sifatlarni avj oldirib, qalbni ilohiy nurdan uzoqlashtiradi. Mazkur syujet liniyasining asosiy tuguni ham Havo obrazining aldovga mushtoqligi, ruhiyatidagi (g‘alayon natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliq) mo‘rtlik tufayli sodir bo‘ladi. Syujet tugunining boshlanishi Havoning aldanishi, Ota timsolidagi johil, Ma‘bud timsolidagi iblis obrazlari Havoga “taqiqlangan mevasi”ni uzib berib, qalbini kirlashga, gunoh qilishga sababchi bo‘ladi. Yozuvchi voqealar xronologiyasini sabab-natija qonuni asosida mantiqiy va psixologik jihatdan asoslab berib, kitobxonni o‘zi yaratgan badiiy haqiqatga ishontiradi. Romanda bir necha syujet liniyalari mavjud bo‘lib, ularning har birida syujet unsurlari turlicha namoyon bo‘lishiga qaramay, markaziy tugun *ilohiy ishq iztirobidir*.

Ma‘bud obrazi asar bosh qahramoni O.ning ruhiy iztiroblarining kuchayishiga, konfliktni yuzaga keltirish, dramatzimni ta‘minlashga xizmat qilgan. Ma‘bud – his-tuyg‘usiz, xudbin, johil, shuhratparast, kibrli, isyonkor obraz sifatida gavdalantiriladi. Uning qilmishlari, aldovlari asar qahramoni O. tomonidan tavsiflanadi. Biroq uning individual qiyofasi u qadar yorqin ochilmagan. Yozuvchi uni qilmishlari, xarakter xususiyatlarini bayon qilish bilangina cheklanadi, xolos. Ruhiy olami tasviriga u qadar chuqur kirib bormaydi, tavsifiylik etakchilik qiladi. Ma‘budning kibr, manmanlik illatlari bilan birga zakiylik xususiyatlari asarning keyingi qismlarida tasvirlanadi. Biroq bu zakiyligi doimgidek qora ishlarga xizmat qiladi. Iblis, shayton obrazlari Nazar Eshonqul asarlarida tez-tez uchrab turadi. Jumladan, “Qora kitob” qissasida cho‘qqi soqol qiyofasida butun bir davr avlodlarini mafkura malayiga aylantirishga uringan yo‘lboshchi, “Tun panjaralari” qissasida asar qahramonini yozgan asarlarini taftish etib, undan illat izlovchi g‘alamis, shaytonlar saltanatini yaratgan rahnamo timsollarni ifodalaganligi ma‘lum. Tahlilimizdagi romanda esa to‘g‘ri yo‘ldan ozdiruvchi, fosod daryosiga g‘arq etuvchi, ilohiy ishq o‘g‘risi, qalblar qotili sifatida tasvir etiladi.

Iblis romanning birinchi qismida Ma‘bud, ikkinchi qismida esa Sh.qiyofasida namoyon bo‘ladi. Sh. talabalarga o‘qiyotgan ma‘ruzalarida muhabbat ilohiy tuyg‘u bo‘lib, undan odam emas farishtalar yaralishini,

odamzotning tabiati muhabbatga munosib emasligini, uni arshi a'loga qaytarish kerakligi haqidagi mulohazani bayon etish asnosida o'zini fosh etib boradi. Insondan bu ilohiy tuyg'uni qizg'onib, undan insonlarni mahrum etib, insoniyatni yirtqichga aylantirishni ko'zlaydi va o'z zurriyodini, so'ngi odamni dunyoga keltiradigan ayolni izlaydi. Olma daraxti bilan ko'p xotiralari borligi, ma'ruzalarini shu daraxtga va Malakka qarab o'qishidan ham uning iblisligi oydinlashadi. Romanning ikkinchi qismida Hosiladan so'ng Malak uning qurboni, o'ljasi ekanini ilg'agan O. ilohiy in'omni asrab qolish maqsadida Malakni o'ldiradi. Aslida bu g'ayrioddiy tasvir va ifodalar ramziy mohiyat kasb etib, inson a'molidagi rahmon va iblislikning doimiy kurashini bildiradi.

Romanning birinchi qismida asar bosh qahramoni O.(Odam Atoga ishora-) bo'lib o'tayotgan voqealarning kuzatuvchisi, "tomoshabin maqomida" garchi botinida kurash, ruhiy iztiroblar kechsa-da, muqarrarlikka qarshi chiqolmaydi. Ikkinchi qismida esa Odam Ato qilgan xatoni qaytarmaslikka urinadi va iblis ustidan g'alaba qozonadi. Yozuvchi O.ning ruhiy holatidagi sarkashlikni oksimoron usulidan foydalanib quyidagi obrazli tasvir asosida chizadi: *"Shunday paytlari ko'nglimda Havoni deb o'sgan gullardan bir uyum xashak va qirindilar qoldi degan qarorga kelar, ammo uni ko'rganda yana o'sha xazonlar gullarga aylanardi"*[12; 289]. Birinchi qismdagi O.ning Havoga bo'lgan muhabbati qizdan ham ko'ra uning ruh va ko'ngilni yuksaltiruvchi dard va og'riqlariga hamdardlik hissi ekani ayonlashadi. Bu holat qahramon anglamlari ekani romanda quyidagicha ifodalangan *"...ruhni va ko'nglini yuksaklarga, arshi a'loga olib chiqadigan dardlarini, og'rig'ini sevib qolganimni angladim"*[12; 289]. Ayon bo'layotirki dard, iztirob, og'riq, taskin, hamdardlik, g'amxo'rlik ruhni yuksaltiruvchi, qalbni poklovchi tuyg'ular bo'lib, insonni ilohiyotga daxldor etadi.

Romanning "Malak" deb nomlangan ikkinchi qismida oshiq O.ning ishq tufayli chekkan iztiroblari insoniyatning yaralishi, Odam Ato va Momo Havo hijron azobida million yillar davomida sarson kezib, poklanib, tazarru qilib U(n)ga intilishi bilan hamohang tarzda tasvirlanadi. O.ning ishq yo'lidagi izlanishlarini tasavvuf tariqati bosqichlarini bosib o'tib, quyosh timsolida Ollohga intilayotgan solihning ruhiy holatiga miqoyasa qilish mumkin. Qahramon izlagani o'zidaligini (ishq tufayli ilohiy nur jilvalangan qalbi, ruhi borligini) anglaydi va haqiqatga, ilohiy muhabbatga intiladi. Qahramonning quyidagi kechinmalaridan ishqsizlikni o'linga qiyoslanishini ko'rish mumkin: *"Men quyoshni yo'qotib qo'ygan edim. Ustimga dunyo kafani yopilgandi. Jasadimni itlar olib borib ko'mishdi. Endi murdalar orasida yotardim. Ulardan badbo'y ishqsizlik hidi anqirdi. Men dimog'imni bu murdalar hididan qutqarish uchun nafas oldim,*

shunda dimog'imga olma guli hidi urildi"[12; 309]. Tasvirdagi quyosh, kafan, murda, it, olma guli ramziy ma'noda qo'llanilgan. Quyoshni yo'qotib qo'yish - qalbning nurdan yiroqlashishi, dunyo kafani - moddiyat(nafsoniy istaklar)ning ustun kelishi, jasadni itlar ko'mishi - nafsning g'alabasi, ruhning mag'lubiyati, murdalar - ishqsiz qalblar, olma guli - ishq-muhabbatning kurtagi. Demak, ishq, muhabbatgina insonni yuksaltiruvchi, qalbni poklovchi ilohiy tuhfa ekani ramzlar qatiga singdirilgan ma'nodan anglashiladi.

Romanda olma daraxti detali bir necha ma'noni anglatadi. Avvaliga taqiq mevasini iste'mol qilish orqali gunohga yo'l qo'yilishdagi vosita; O.ning mehrga mushtoq qalbiga o'lgan onasidek mehr, tasalli beruvchi dardkash va nihoyat olma guli – ishq-muhabbat ramzlarini ifodalaydi.

Romanda tush motivi ham qahramon ruhiyatidagi gunohkorlik, aybdorlik hissini ifodalashga xizmat qilgan. Hosilaning bevaqt o'limida o'zini aybdor sezgan O.ning tushiga kasalxonada Hosilani bo'g'ib o'ldirayotgan qiyofasiz qotil kirib, uni ta'qib qilganda o'zi ekani ma'lum bo'ladi. Demak, tush motivi qahramon qalbidagi g'alayonni, azobni ifodalagan. Qotilning qiyofasizligi esa Hosilaning o'limida asl aybdorning boshqalarga noma'lumligidir. Qizning rad etilgan muhabbati tufayli xatoga yo'l qo'yganida o'zini ayblab, vijdon azobida qolgan qahramon ruhiyatidagi iztirob (xo'rsiniq) kechinmalari, inson psixik holati tush orqali ta'sirli, haqqoniy tasvirlangan.

Romanda O.ning bolaligi, onasining o'limi, o'gay ona zug'umlari, olma daraxtini onasidek ko'rib undan tasalli olishi epizodlari biografik asosga ega. Ona mehrga mushtoqlik, o'ksik bola ruhiyati, dard-iztirob tug'yoni va albatta ilohiy iste'dod keyinchalik qalqib chiqib, adib qo'lga qalam olishiga turtki bo'lgan bo'lishi mumkin. N.Eshonqul asarlaridagi dardchillik, mung va tushkunlik ruhining ustuvorligi faqat ijtimoiy muhitdagi adolatsizliklar, g'arbona ifoda ta'sirigina emas, balki (bola)yozuvchi qalbidagi og'riqlarning ifodasi ham bo'lishi mumkin. Zero, "ijod dard va og'riqlardan yaraladi".

Insoniyat muhabbatdan yaralgan ekan, bu tuyg'u uning qalbini, mohiyatini nurlantirib turadi. O.ning Odam Atoning xatosini takrorlamaslikni istab qo'lgan "jinoiyati", istagi ham aslida muhabbatni, bani basharni Iblis changalidan asrab qolishga bo'lgan intilishi edi.

Asarning so'nggi - "Marsiya qismida" tergovchi, shifokorlar nazdida telbaga chiqarilgan muallif kechinmalarlarida uning ruhan bu olamda emasligi bayon etiladi: *"Ular meni o'zlari turgan tomonda deb o'ylashadi. Ular shuning uchun ham ayblashadi. Men esa tasavvurdan sakrab o'tdim va vaqtning narigi tomoniga o'tib oldim. Hammasiga o'sha tomondan turib qaradim, o'sha tomondan baho berdim, keyin o'zim ham o'sha tomonda qolib ketdim. Hozir ham*

o'sha yoqdaman. Bu tomonda faqat jismim. Ruhim allaqachon u tomonga o'tib olgan..." [12; 361].

Nazariy adabiyotlarda badiiy asarlarda ifodalangan go'zallik kitobxon ruhiy olamiga uch xil yo'l bilan ta'sir etishi qayd etilib, ular quyidagicha tavsiflanadi: birinchisi o'zida chin insoniy fazilatlarni jamlagan obraz yaratish; ikkinchisi, ijobiy qahramon obrazi tasviriga bog'liq bo'lgan fojeiy holatlarning tasvirini berish va shu orqali estetik idealini o'tkazish; uchinchidan hayotning xunuk va kulgili tomonlarini hajviyot vositasida inkor qilish, inkor qila turib san'atkor idealidagi, hayotdagi go'zalliklarni nisbiy ravishda ulug'lash. Nazarimizda, tahlilimizdagi romanga ko'proq ikkinchi tamoyil mos keladi. Sababi asar bosh qahramoni O. o'zida chin insoniy xususiyatlarni jamlashga urinayotgan, ishq vositasida poklanish yo'lini tutgan, kamchiliklardan holi bo'lmagan murakkab obraz sifatida tasvirlanadi. Uning ishq-muhabbat yo'lidagi ruhiy iztiroblari kitobxonni ham o'ziga kechinmadosh qila oladi. Shuning uchun muhabbatni asrab qolish yo'lidagi "qilmishlari" o'z fojiasi sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi ishqsizlik, qalbning mehr-muhabbatdan mahrumligi insoniyatni ma'nan tubanlashtiruvchi fojea ekanidan kitobxonni ogoh etadi. Mazkur romanda ilgari surilgan ishq-muhabbat g'oyasi umuminsoniy xarakter kasb etib, insonning o'zligini, hayotning mohiyatini anglashga, nafs va iblislikni engishga, qalbni poklashga, ruhni yuksaltirishga undashi bilan muhim ma'rifiy ahamiyatga ega. Zero, romanda insonning yaralishi, amallari, botinidagi rahmon va shaytonning murosasiz kurashi, ilohiy ishqning buyukligi qalamga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, adib romanda diniy-ilohiy mazmun bilan bugungi zamonni odamzodning imon-e'tiqodi, qismati bilan chambarchas bog'liq holda parallel chiziqlarda tasvirlashga intilgan. Shu orqali asar odamzod qismati azaliy va abadiy taqiqqa, gunohga mahkum ekanligidan ogoh etishni maqsad qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. II-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. –382 б.
2. BURKHANOVA, F. The Use Of Myths And Legends In Creation Of Story In Modern Uzbek Prose. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(2), 2795-2800.
3. The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons //Journal of critical reviews, 2020. – №5. – Б. 1631-1641
4. Burkhanova, F The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X (Dec 03, 2021) P. 32467-32472



5. Глобаллашув: бадий талқин, замон ва қаҳрамон. – Тошкент: Фан, 2018. – Б.352.
6. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2015. –Б.354.
7. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1979– Б. 448.
8. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири.(Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз МАНСУР.) – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. – Б. 626.
9. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. –Б. 400.
10. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2018. – В. 480 b.
11. Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Toshkent: Sharq, 2019. – Б.712.
12. Эшонкул Н. Сайланма II.– Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 576.

Internet saytlari:

13. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/xurshid-dostmuhammad/>
14. <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.05.279>
15. <http://www.turkjphysiotherrehabil.org/>
16. http://www.journal-aquaticscience.com/article_134329.html

FILOLOGIYA

HAMZA SHERIYATIDA IJTIMOIIY VA MADANIY

UO‘K 94:323 (575.1)



Shavkat Xonqulov,
FDTU “Ijtimoiy
fanlar va sport”
kafedrasi dotsenti,
t.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Milliy ozodlik bayrog‘ini baland ko‘targan jadid adabiyotida Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘ziga xos o‘ringa ega. Hamza lirikasida ilm-ma‘rifat, ozodlik, erk uchun da‘vat etish masalalari etakchi o‘rinda turadi. Shoirning bir qator she‘rlarida Turkistonning yorug‘ kelajagi haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Mazkur maqolada “Ilm-u ahloq-u adab”, “Ey ko‘ngil”, “Turkiston” kabi she‘rlari tahlil qilingan.

Аннотация: В джадидской литературе, поднявшей флаг национального освобождения, Хамза Хакимзода Ниязи занимает особое место. Вопросы просвещения, свободы и крик о свободе занимают центральное место в лирике Хамзы. В ряде своих стихотворений он воплощает свое видение светлого будущего Туркестана. В данной статье анализируются его стихотворения «Илм-у ахлоқ-у адаб», «О сердце», «Туркестан».

Annotation: In Jadid literature, which raised the national liberation flag, Hamza Hakimzode Niyazi has a special place. Issues of enlightenment, freedom, and the cry for freedom are central to Hamze’s lyrics. In a number of his poems, he embodies his vision of a bright future of Turkestan. In this article, his poems “Ilm-u ahloq-u adab”, “O heart”, “Turkestan” are analyzed.

Kalit so‘zlar: Hamza, ilm-ma‘rifat, ozodlik, Turkiston, jadid, ta‘lim, maktab.

Ключевые слова: Хамза, просвещение, свобода, Туркестан, джадиды, образование, школа.

Key words: Hamze, enlightenment, freedom, Turkestan, jadid, education, school..

Professor Naim Karimov o‘tgan XX asr haqida quyidagilarni yozgan edi: “XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko‘p qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergan bo‘lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi... Bu asrda sodir bo‘lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo‘lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o‘chirishga urinish

bema'nilikdir. XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo'lmagan. XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o'z ortidan etaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi". [1. 24] Hamzaning dunyoqarashiga jadidchilik harakati jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hamza ijodi jadid adabiyotining asl namunalari qatorida turadi. Hamza lirikasidagi ilm, odob, erk masalalarini o'rganish dolzarb masalalardandir.

"Hamza ijodining boshlanmasi 1905-yillarga to'g'ri keladi. U dastlabki she'rlariga "Nihon" ("Yashirin") taxallusini qo'ygan. Hamzaning dastlabki she'rlarida Muqimiy va Furqat singari ma'rifatparvar shoirlar yo'lidan borish sezilib turadi". Bu hol Hamza g'azallari vazni, qofiyasi, radifi, mavzusida ko'rinadi. Shoirning "Ey ko'ngil" she'rida zulmatda qolgan qalblarga chirog' bunday ta'riflanadi: "Ey ko'ngil, istar esang zulmat qulubingga chirog', Ahli donish suhbatidan bo'lmagil hargiz yirog', "Xo'sh, donolar suhbatidan ne foyda? Shoir bunga qanday javob beradi? "Matlabing rahmat esa hulq-u adabda qoin ul, To iki dunyoda topgil davlati fazl-u farog'. Hamzaning ilm-u adab borasidagi qarashlari "Ilm-u ahloq-u adab" nomli she'rida o'z badiiy ifodasini topadi: "Kimki ko'rmas maktab-u ustod-u ta'lim-u adab, Farqi yo'q hayvondin oni bo'lsa ming oliy nasab. Odamiyat mevasi, insoniyat bog'i aro, Beadablar biyd yanglig' bo'lg'usi oxir xatab".

Hamza yangicha mazmunni yangicha shaklda ifodalash uchun kurashib, poetik shaklni mukammallashtirish, badiiy asar tilini jonli xalq tiliga yaqinlashtirish borasida jiddiy izlanishlar olib borgan shoirdir. "Ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, millatparvarlik, yurtsevarlik g'oyalari Hamza ijodining bosh yo'nalishini tashkil etadi. Hamza "Yig'la, Turkiston", "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston", "Dardiga darmon istamas" kabi she'rlarida hamon g'ofillik uyqusidan uyg'onmagan Turkiston o'lkasini uyg'onishga, ma'rifatga, taraqqiyotga chaqiradi" [3. 76].

Bu xalqchil va dolzarb asarlarda Hamza she'riyatining g'oyaviy-estetik xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. "Shoirning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasiga kirgan "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Safsar gul", "Atirgul" deb nomlangan she'riy to'plamlari shundan dalolat beradi. Hamza atrofdagi voqelikka loqayd qarab tura olmasdi, shu bois shoir o'z davrining muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qila boshladi. Bu ma'noda Hamzaning 1915-1917-yillarda yaratgan "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" nomli majmuasi alohida e'tiborga loyiq. Bu majmuada davr ruhi, millat turmushi, orzu-umidlari, echimini toppish lozim bo'lgan muammolar o'z

aksini topgan. Shoir xalq baxtsizligiga faqatgina ma'rifat va millat birligi barham bera olishiga ishongan. Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" nomli uch darsligi va dastlabki "Devon"ida ham diniy va ma'rifatparvarlik mavzusidagi asarlar anchagina o'rin egallagan. Hamza ko'plab mamlakatlarda bo'lib, ulardagi hayot va rivojlanish darajalarini o'z yurtidagi holat bilan solishtiradi va ijtimoiy qoloqlikdan qayg'uga tushadi. Hamza bunday holatning asosiy sababi – ilmsizlikdir degan xulosaga keladi, xalqni ilmi bo'lishga, ma'rifat egallashga da'vat etadi. Boshqa millatlar turli ixtirolar qilayotgan bir paytda millati o'z erki uchun ham kurasha olmayotganidan eziladi va bunday yozadi: "Olim bo'lsak dunyoda, Kelur har ish bunyoda, Biz ham suv osti kezib, Ham ucharmiz havoda".

Hamza Hakimzoda "Turkiston" she'rida: Turg'il, dardun jismingni sag'la, Turkiston, Danish o'tiga bag'ring chog'la, Turkiston, Belga himmat kamarin bog'la, Turkiston, Ma'rifatga etmoqni chog'la, Turkiston, deya jaholatga qarshi ilm-ma'rifatni targ'ib etgan. "Hamza Hakimzoda 1914-1915-yillarda yozilgan "O'qi!", "Ilm ista", "Olim bo'laylik", "Kitob", "Qalam", "Maktab", "To'g'ri so'zla", "To'g'riso'z bola", "Ilm-u ahloq-u adab", "Qimorning boshi", "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" kabi pedagogik she'rlarida ilm-ma'rifat, ahloq-odob, to'g'rilik, halollik, chin do'stlikni targ'ib qiladi" [2. 39].

"Ilm ista" she'rida shoir mehnatkash ommaga qarata deydi: "Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi ilm, Olamning zulmoti tundir, odamning madori ilm". Bu tasvirlardan ko'rinib turibdiki, shoir kunni olamning xurshidi bo'lgan quyosh qanday yoritisa, ilm ham insonni shunday go'zallashtiradi. Ilm – odamning xurshididir. Agar tun olamning zulmati bo'lsa, ilm insonning madoridir. Mana shu o'rinda Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riy san'atlardan mohirlik bilan foydalanishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni shoir kun-tun, xurshid-zulmot so'zlarini qo'llash orqali tazod san'atini yuzaga keltirmoqda. Hamza asarlaridagi g'oyalar xalqlar do'stligi tamoyillariga asoslanadi. Hamzaning 1915-1916-yillarda nashr etilgan "Oq gul", "Qizil gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Pushti gul", "Safsar gul" nomli she'riy to'plamlarida xalqparvarlik g'oyalari bo'rtib turadi. "Mardikorlik voqealari deb nom olgan xalq ozodlik harakati, tabiiyki, o'sha davr Turkiston vaqtlı matbuotida o'z ifodasini topmadi. Chor senzurası bunga yo'l qo'ymas edi" [5. 35].

U biroz keyin 1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng ko'rindi. Mashhur Hamza Qo'qon va uning atrofida bo'lib o'tgan xalq g'alayonlarini tasvirlar ekan: "Na kun

o‘lmishdi, na xil o‘lmishdi zamon, Nechaning qo‘lida dandoni, to‘luv og‘zida qon.

Necha minglab kishilar o‘ldi vatan birla xazon, Butun ovozi jahon tutdi musulmonni yomon...” [4. 76] deb yozadi. Shoir bu satrlarda nima demoqchi bo‘ladi? U millatining, Vatanining yorug‘ kunga chiqolmayotganini aytadi. Yurtdagi savodsizlik qa‘riga tushgan, johillik botqog‘iga botgan insonlar xuddi ongsizdek bo‘lib qolganlar. Bunga chidolmagan musulmonning ovozi esa butun dunyoni tutgay. Mana Vatan, millat taqdiri qay darajaga qadar etib borgan edi. O‘z davrida Alisher Navoiy “insonni so‘z ayladi judo hayvondin” deb aytgani barchamizga ma‘lum. Hamza Hakimzoda Niyoziy esa ta‘lim-u adabdan yiroq kishini hayvondan farqi qolmasligini ta‘kidlaydi. Hamza xuddi shu holatning sababini yigitlar va qizlar o‘rtasidagi aytishuvda keltiradi: Erlar: Tanda g‘ayrat, ko‘zda ibrat, dilda himmat yo‘q, Ilm-u adab, hulq-u ismat, or-u iffat yo‘q. Xotin dunyosida sizdek, jonim onalar, Milliy burchin o‘tolmagan hech millat yo‘q. Qizlar: Tanda g‘ayrat, ko‘zda ibrat, dilda himmat ko‘p, Milliy burchni o‘tamakka ilm-u san‘at yo‘q. Ruhoniylar, ota-onalar millata mas‘ul, Chunki bizning yo‘limiz masdud, hech HURRIYAT yo‘q”.

Ko‘rish mumkinki, bora-bora barcha ilmsizlik va qoloqliklarning yagona ustuvor sababi – erksizlik, hurriyatga ega emaslik. Hamzaning savol-javob shaklidagi bu munozarasi ham badiiy tasvirga boy. Masalan, tan, ko‘z kabi so‘zlar tanosubni yaratmoqda.

Ta‘kidlash kerakki, mumtoz she‘riyatning ifodadagi an‘analarini davom ettirgan holda unga mazmuniy yangiliklar kiritishga intilish o‘zbek jadid she‘riyatining ilk bosqichlariga xosdir. Keyinroq, jadidlarning ijtimoiy faolligi ortgan 10-yillarning o‘rtalariga yaqin she‘riyatda xalqona ohang va xalqona ifodalar tobora kengroq o‘rin egallay boshlaydi. Negaki, davr kayfiyati endi yangicha ifodani yanada o‘tkir taqozo etayotgan, uni aks ettirish uchun mumtoz she‘riyatdagi obrazlarni mazmunan yangilashning o‘zi kamliq qilayotgan edi. Ehtimol, shuning uchundir, ilk ijodida mumtoz she‘riyat an‘analari doirasida qalam tebratgan Hamza ham, Avloniy ham bu davrga kelib asosiy e‘tiborni “milliy she‘r”ga qaratdilar. Va she‘riyatda endi obrazdan ko‘ra xitob ko‘proq e‘tibor topa boshladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy yangi o‘zbek adabiyoti poydevorini qo‘ygan zabardast asoschilaridan biri va shunday bo‘lib qoladi.

Hamza ijodida mustaqillik va ma‘rifat masalalari yonma-yon tasvir etiladi, buning sababi esa bu ikki tushunchaning o‘zaro bog‘liqligidadir. Ilmsizlik va qoloqlikning yagona sababi – erksizlik, hurriyatga ega emaslik. Jadid shoirlari ijodini kuzatib, shoir sevgisining majnunlik darajasiga etishi uchun faqat bir suluvi

qiz bo‘lishi kerak emasligini, ya’ni Vatanni, millatni ham junun bo‘lib sevish mumkinligining guvohiga aylanasiz. Ular yaratgan yuzlab she’riy asarlarni el-yurt baxt-u iqboli, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning solnomasi deb aytishimiz mumkin. Hech mubolag‘asiz aytishimiz mumkinki, jadid lirikasi o‘zidagi hurriyat uchun kurashga da’vati orqali adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini yana bir bor isbotlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr mening taqdirimda. “Jahon adabiyoti” jurnali. – Toshkent.: 2001,156-bet.
2. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. – Toshkent.: “Fan”, 2005. 140-bet.
3. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2004.
4. Hamza.To‘la asarlar to‘plami. – Toshkent.: “Fan”, 1988. 546-bet.
5. Ahmedov Sh. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida). – Toshkent.: 1992. 178-bet.

FILOLOGIYA**OGAHİY QASIDALARIDA TAKROR BILAN BOG‘LIQ LAFZIY
SAN‘ATLAR****UO‘K 95(11)**

**Hikmat Yusupov,
Urganch davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiy qasidalarida qo‘llanilgan takror bilan bog‘liq lafziy san‘atlar tahlil qilingan va shoirning poetik mahorati ko‘rsatib berilgan.

Аннотация: В статье анализируются словесные приемы, связанные с повтором, используемые в касыдах Агахия, и демонстрируется поэтическое мастерство поэта.

Annotation: This article analyzes the verbal arts related to repetition used in Agahiy's odes and demonstrates the poet's poetic skill.

Kalit so‘zlar: qasida, lafziy san‘atlar, tovush takrori, so‘z takrori, misra takrori, tavze’, takrir, mukarrar, tardi aks.

Ключевые слова: касыда, словесное искусство, повторение звука, повторение слова, повторение стиха, тавзе, такрир, мукаррар, тарди акс.

Key words: ode, verbal arts, sound repetition, word repetition, verse repetition, tavze’, takrir, mukarrar, tardi aks.

She‘riyatda qo‘llaniladigan lafziy san‘atlardan bir guruhi takror bilan aloqador bo‘lib, ularni quyidagilarga bog‘liq tarzda tasniflash mumkin:

1. Tovush takrori: tavze’, e‘not.

2. So‘z takrori: takrir, mukarrar, tardi aks, iltizom, tasdir, tasbe’, radd ul-qofiya, hojib.

3. Misra takrori: radd ul-matla’.

Muhammad Rizo Ogahiy qasidalarida mazkur tasnifdagi birinchi va ikkinchi guruhga mansub lafziy san‘atlar muvaffaqiyat bilan qo‘llanilgan bo‘lib, biz ushbu maqolamizda ularning asosiylarini ko‘rib chiqamiz.

Tavze’. “Ulashmoq, “taqsim qilmoq” degan ma’nolarni ifodalovchi bu san‘at tovush takroriga asoslanib, unga ko‘ra baytda yonma-yon keluvchi uch va undan ortiq so‘zlar bir xil tovush bilan boshlanadi. Ba’zan ketma-ket qo‘llanilgan so‘zlar o‘rtasi va oxirida kelgan bir xil tovushlar ishtirokida ham bu san‘at yuzaga kelishi mumkin. Lekin tavze’ning so‘zlar boshida keladigan xili ko‘proq

tarqalgan va ommalashgan. Aynan Ogahiy qasidalarida ham tavze'ning shu turidan unumli foydalanilgan.

Aslida, tavze'da tovushlar takror qo'llanmaydi. Shoir unda bir xil tovush bilan boshlanuvchi so'zlarni ketma-ket keltiradi. Bu go'yoki har bir so'z boshida tovushlar takroran ishlatilganday tasavvur tug'diradi. Shu sababli shartli tarzda tovush takroriga asoslangan she'riy san'at sifatida izohlanadi. Tavze' rus va Yevropa adabiyotshunosligida **alliteratsiya** deb yuritiladi.

Ogahiy qasidalarida tavze' san'atiga 20 dan ortiq o'rinda murojaat qilingan bo'lib, bu san'at vositasida shoir bayt va misralarning yanada ohangdor hamda jozibali chiqishini ta'minlagan:

Rub'i maskun arsasining yo'qturur kunjoyishi,
Kasrati amvoli-yu ag'nomi-yu abqorig'a¹.

Lashkari behisob birla borib,
Topibon obro'-yu, amon keldi².

Keltirilgan misollarda tavze' san'ati faqat bir misra doirasida qo'llanilgan bo'lib, oldingi baytda **unli** (amvoli-yu ag'nomi-yu abqorig'a), keyingi baytda esa **undosh** tovushlar (behisob birla borib) ishtirokida yuzaga kelgan.

Ba'zida shoir baytning har ikki misrasida ham tavze' san'atini qo'llash orqali badiiy nutq jozibasini yanada oshirib ifodalaydi:

Fayzi bahor er yuziga etti, o'ylakim
Rashki behisht bo'ldi bari ko'h-u dasht-u tal. (514-bet)

Tavze' san'ati unli va undosh tovushlar ishtirokida yuzaga kelishiga qarab quyidagicha ko'rinishlarga ega:

1. Faqat unli tovushlar uyg'unligiga asoslangan tavze':
Matla'i oning budurkim, diqqati mazmun ila,
Filhaqiqat, aylar afzun ahli donish hayratin. (528-bet)

O'lja aylab ayol-u atfolin,

¹ Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Devon. Qo'lyozma. 1905-yil. O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Saqlanish raqami 938. – B. 533. (Bundan keyin iqtiboslarni shu manbadan olganda qavs ichida faqat sahifa raqamini ko'rsatamiz).

² Муҳаммад Ризо Эрнийзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н. Жабборов. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 177.

Qilib asru jig'on-big'on keldi¹.

Tavze'ning bu turi Ogahiy qasidalarida ko'proq "a" tovushi yordamida yuzaga kelgan.

2. Faqat undosh tovushlar uyg'unligiga asoslangan tavze'. Ogahiy qasidalarida undoshli tavze' asosan "b", "d", "m", "y" tovushlari ishtirokida hosil qilingan va misralarning yanada jarangdor chiqishiga xizmat qilgan:

"B" undoshi:

Baxshishi birla bo'lub ahli tamavvul dahr eli,
Qolmadi bir kimsa faqr-u foqa nang-u orig'a. (532-bet)

"D" undoshi:

Lam'ayi tig'i erur hiddat aro barqi balo,
Din-u davlat dushmanining xirmanini a'morig'a. (531-bet)

"M" undoshi:

Yo rab, ul uch qulzumi zoxiri kavsari xos
Bo'lsun abad muddati mavjzan-u mustaqim. (514-bet)

"Y" undoshi:

Yer yuzi ahli jahong'a bo'ldi ishratxonaye
Kim, tuganmak yo'qdurur yuz yil oning tazkorig'a. (531-bet)

3. Ham unli, ham undosh tovushlar uyg'unligiga asoslangan tavze':

Nasab birla anga shahlar qachon bo'lg'ay barobarkim,
Bari obo-vu ajdodi amir-u xon-u sultondur. (507-bet)

Afzil to arozil maskan aylab manzili maqsud,
A'oliy to asofil masti sahboyi tamannodur. (484-bet)

Odatda, tavze' san'ati ketma-ket keluvchi 3 va undan ortiq so'zlar asosida yuzaga keladi, chunki misralarda yonma-yon kelgan 2 ta so'zda tovush takrori u qadar xushohanglik bermaydi:

Hamisha xoni ehsoni navolidin olib bahra,

Duoyi davlatining shog'ili ahli zavoyodur. (485-bet)

Ushbu baytning 2-misrasida "duo" va "davlat" so'zlari bir xil tovush bilan boshlansa-da, u qadar diqqat-e'tiborni tortmaydi. Biroq shoir ikkitadan bir xil tovushli har xil so'zlarni bayt doirasida qo'llasa, o'ziga xos ohangdorlik va musiqiylik yuzaga keladi hamda o'quvchining zavqini qo'zg'aydi. Bu degani

¹ Мухаммад Ризо Эрнӣзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н. Жабборов. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 178.

baytda ketma-ket keluvchi bir xil tovush bilan boshlanadigan kamida ikkitadan soʻzlar ishtirokida ham tavzeʼ sanʼati vujudga keltiriladi:

Ichib bazmi ishratda sahboyi jom,

Tarabnok boʻldi bori shayx-u shob. (518-bet)

Mazkur baytda yonma-yon kelgan “boʻldi” va “bori” soʻzlaridagi “b”, “shayx” va “shob” soʻzlaridagi “sh” tovushlarining takrori yordamida badiiy jozibadorlik yuzaga kelgan.

Quyidagi baytda ham ikkita ikki xil tovushlar ishtirokida tavzeʼ sanʼati yaratilgan boʻlib, unda ham undosh, ham unli tovushlar uygʻunligi asos qilib olingan:

Ravzayi rizvon aro aylab maqomingni baland,

Aylasun onda nasibing hur-u gʻilmon xizmatin. (530-bet)

Baʼzan bir baytda 3 ta soʻzlar juftligi asosida ham tavzeʼ sanʼati yuzaga keltiriladi:

Shukuh-u shavkatini koʻrdi to garduni gardankash,

Tutib taʼzim rasmin ajz ila ollida xam qaddur. (538-bet)

Takrir. “Takror” degan maʼnoni anglatadigan bu sanʼat bayt yoki baytlarda soʻz yoxud soʻzlarni qayta qoʻllash asosida yuzaga chiqadi. Poetikaga doir qoʻllanmalarda alohida izohlanadigan anafora, tasdir va tasbeʼ usullari takrirning ichki turlari sanalsa, qaytarish sanʼati uning sinonimi hisoblanadi.

Ogahiy qasidalarida takrir sanʼati quyidagicha qoʻllaniladi:

1. Bir misra doirasida:

Shahanshoheki, kasbi eʼtibor aylab shahanshahlar,

Janobi tufroqigʻa kecha-yu kunduz jabinsodur. (484-bet)

Barham urub nizomi salotin nizomini,

Sharʼi nabi nechukki erur nosixi milal. (515-bet)

2. Bir bayt, yaʼni ikki misra doirasida:

Boʻstonlar ichra yuz xushrang gullar ochilib,

Qildi jannat gullarin farsuda gʻayrat xorigʻa. (530-bet)

Adli ul gʻoyatdakim, koʻrsa agar Noʻshiravon,

Javr-u zulmni aylar gumon oʻz adli birla nisfatin. (527-bet)

3. Ketma-ket keluvchi baytlar doirasida:

Toki olam qasridur avlodi Odamdin toʻlo,

Toki soir qilg‘usi gardun mahi tobonini.

Toki bo‘stoni jahonda ochilur gul har bahor,

Toki aylar nag‘ma birla andalib ilhonini. (487-bet)

Ogahiy takrir san‘atini qasidalarining nasib va madh qismlarida ko‘proq misra va bayt doirasida, duo qismlarida esa ketma-ket keluvchi baytlar miqyosida ishlatgan.

Takror kelgan so‘zlar ba‘zi o‘rinlarda o‘zining asl ma’nosida, ba‘zi o‘rinlarda esa ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan.

Haq Sulaymon-u Sikandar davlatin ro‘zi qilib,

To abad cheksun bu davlat birla umring muddatin. (529-bet)

Ushbu baytda birinchi misradagi “boylik, mol-mulk, hashamat, obro‘-e’tibor” ma’nolarini o‘zida jamlagan “davlat” so‘zi ikkinchi misrada ham aynan shu ma’noda takrorlanib kelgan. Shoir baytni “davlat” so‘zi atrofida yuzaga keltirib, o‘quvchining diqqat-e’tiborini shu so‘zga qaratgan holda haq taolo Sulaymon va Iskandarga ato qilgan ne’matlarni o‘z hukmdoriga ham nasib qilishini hamda uning davlati va umri abadiy bo‘lishini tilaydi.

Nargisi shahlo ochib ko‘z noz ilankim, rashkdin

Xiyralik etkurdi xo‘blar nargisi bemorig‘a. (530-bet)

Mazkur baytda nargis guli noz bilan ko‘zini ochganda go‘zallarning rashk tufayli bemor bo‘lgan ko‘zlari (nargislari) ni qamashtirib qo‘ydi degan mazmun ifodalangan bo‘lib, uning 1-misrasida “nargis” so‘zi o‘z ma’nosida gulning bir turiga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, 2-misrasida ko‘z so‘zi o‘rnida ko‘chma ma’noda istifoda qilingan va mazmunning go‘zal ifodasiga xizmat qilgan.

Ogahiy ba‘zi baytlarda qiyoslash maqsadida so‘zlarni takror qo‘llab, u so‘zlarga alohida ma’nolar yuklagan holda mazmuniy zidlikni yuzaga keltiradi:

Qayu sultonki, sultonlar umidi iltifotidin

Damodam ko‘rguzurlar qulluqig‘a o‘lgucha rag‘bat. (511-bet)

Ushbu baytdagi “sulton” so‘zida “yengilmas, qudratli, g‘olib”, “sultonlar” kalimasida esa “himoyaga muhtoj, kuchsiz, ojiz” ma’nolari jamlangan. Demak, shoir o‘zlari alohida saltanat egalari bo‘lsa-da, qasidada tavsiflangan hukmdor bilan hisoblashadigan va uning iltifotidan umidvor shohlar haqida yozar ekan, o‘z idealidagi podshohni ulug‘laydi.

Bo‘lib mulking sarosar gulsiton ochti tuman ming gul,

Guli Firdavs alarning ollida go‘yoki xor o‘ldi. (536-bet)

Mamlakat boshdan oyoq gulistonga aylanib, ming-minglagan gullar ochilgan, ularning oldida Firdavs jannatining guli go'yoki tikanga o'xshab qoldi mazmuni ifodalangan ushbu baytda gulzordagi gullar "chiroyli, xushbo'y, betakror" degan sifatlarni o'zida jamlasa, unga qiyosan olingan Firdavs guli "ko'zni quvnatmaydigan, hidsiz, diqqat-e'tiborni tortmaydigan" degan xususiyatlar mujassami sifatida qo'llanilgan.

Ayrim o'rinlarda Ogahiy takrirga murojaat qilar ekan, baytga umumlashtirish-ta'kidlash va yakunlash mazmunini yuklagan holda fikrni ta'sirchan qilib ifodalaydi:

Hama bo'ldilar komdin bahravar,

Hama bo'ldilar ayshdin bahrayob. (518-bet)

Ushbu misol Feruzga bag'ishlangan "Kel, ey soqiy, olib yuzungdin niqob" boshlanmali qasidaning nasib qismidan olingan bo'lib, shoir ungacha bo'lgan baytlarda Navro'z va yangi yilni nishonlayotgan bayram ahlini bir-bir sanab o'tadi, mazkur baytda esa jamlash ma'nosini ifodalovchi so'zlarni takror qo'llaydi va ular bilan bog'liq tasvirni xulosalaydi.

Mukarrar. "Qayta-qayta, ust-ustiga" degan ma'noni anglatuvchi bu san'at takroriy so'zlarni she'rda qo'llash asosida yuzaga keladi.

Ogahiy qasidalarida mukarrar san'ati 10 dan ortiq o'rinlarda ishlatilgan bo'lib, qo'llanish doirasi 2 xil ko'rinishga ega:

1. Baytning bir misrasi doirasida:

a) birinchi misrada:

Lahza-lahza topibon umring bahori tozalig',

Yetmasun hargiz xazon osibi barg-u borig'a. (534-bet)

b) ikkinchi misrada:

Ki, to hosil aylab havsala,

Ko'ngul daftarin axtarib bob-bob. (518-bet)

2. Ketma-ket keluvchi 2 bayt doirasida:

Gul yuzig'a sunbuli tar kokili

Tushti parishon o'lubon tor-tor.

Bulbuli bechora oning shavqida

Subh-u maso nola qilib zor-zor. (522-bet)

Bu baytlarda shoir mukarrar so'zlardan qofiya sifatida foydalangan.

Mukarrar san'atini yuzaga keltiruvchi so'zlar qanday ma'noni ifodalasa,

o'sha ma'noni bo'rttirib, kuchaytirib keladi.

Nur sipohini chekib favj-favj,

Qildi kudurat sipahin tor-u mor. (521-bet)

Mazkur baytda mukarrarga asos bo'lgan “favj-favj” so'zi “guruh-guruh” degan ma'noni anglatib, miqdor ma'nosi kuchaytirib bayon etilgan. Unda bahor faslidagi o'zgarishlar nur qo'shini guruh-guruh bo'lib jamlanib g'am-g'ussa askarlarini tor-mor qildi deya obrazli tasvirlab berilgan.

Ko'rsa shijoatini masof ichra Som agar,

Bo'lg'usi pora-pora anga zahra-yu azal. (516-bet)

Mukarrar san'ati “pora-pora” so'zi orqali hosil qilingan ushbu baytda qasidada madh qilingan hukmdorning jang maydonida ko'rsatgan shijoati va qahramonliklarini Eronning mashhur afsonaviy bahodiri Som ko'rganda edi, uning o't qopi qo'rquvdan parcha-parcha bo'lib ketgan bo'lar edi degan mazmun ifodalangan. Ogahiy mukarrar san'ati vositasida baytdagi mubolag'aviy tasvirni yanada kuchaytirib ifodalagan.

Zarni aylab tabaq-tabaq taqsim,

Sud topti-yu, beziyon keldi¹.

Shahzoda Inoqbekning (Muhammad Aminxonning – H. Y) Buxoroga qilgan harbiy yurishidan qaytishi munosabati bilan yozilgan qasidadan olingan bu baytda shoir mukarrar san'ati orqali janglarda fidoyilik va qahramonliklar ko'rsatgan askarlarga nisbatan shahzodaning qo'li ochiq ekanligini badiiy yo'sinda bayon qilgan.

Tardi aks. “Teskari takrorlash” ma'nosini anglatuvchi bu san'at bayt yoki misralarda ko'pincha 2 ta so'zning o'rnini almashtirish asosida yuzaga chiqadi. Tardi aks poetikaga oid manbalarda **aks**, **tabdil²** va **al-radd v-al-aks³** nomlari bilan ham atalgan.

Ogahiy qasidalarida 5 o'rinda qo'llanilgan tardi aks san'ati 2 xil usulda yuzaga kelgan:

1. Bir misra doirasida:

Sifoti pok ila mavsum o'lub zoti humoyuni,

¹ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н. Жабборов. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 178.

² Атоуллох Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ: (Аруз вази ва бадий воситалар ҳақида) Форс. А. Рустамов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 76.

³ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Балоғат илмлари). – Тошкент: Хазиана, 1996. – Б. 134.

Adab insonig‘a ayn-u, hayo aynig‘a insondur. (508-bet)

Berilgan baytning 2-misrasida “inson” va “ayn” so‘zlari o‘rni almashgan holda ishlatilgan.

2. Baytning 2 misrasi doirasida:

Bahor fasli kibi xurram o‘lsun ayyoming,

Jahon elini ham ayyoming aylasun xurram. (506-bet)

Bu baytda 1-misradagi “xurram” va “ayyoming” so‘zlari 2-misrada teskari takrorlangan holda qo‘llanilgan.

Keltirilgan baytlarda tardi aks san‘ati vositasida takrorlangan so‘zlar ta’kidlanib, mazmunning go‘zal ifodasiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy o‘z qasidalarida tovush va so‘z takrori bilan bog‘liq lafziy san‘atlardan o‘rinli foydalangan holda badiiy mahoratini namoyon qilib, baytlarda ifodalangan fikrlarning yanada jozibali chiqishini ta’minlay oldi.

FILOLOGIYA**SO‘Z SAN’ATI VA TALQIN HAYRATI**

Boqijon To‘xliyev,
professor, filologiya
fanlari doktori

UO‘K 95(11)

Annotatsiya: Ushbu matnda so‘zning ramziy imkoniyatlari va ko‘chma ma‘no orqali badiiy tafakkur qanday yuksalishi yoritiladi. Alisher Navoiy ruboiyining tasavvufiy talqini asosida “may” va “qadah” obrazlari orqali inson umrining ilm va ma‘rifat bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Muallif so‘z san’atining rang-barang talqinlarga yo‘l ochuvchi qudratini asoslab beradi.

Аннотация: В этом тексте исследуются символические возможности слов и то, как художественная мысль возвышается благодаря образному смыслу. Основываясь на мистической интерпретации рубаи Алишера Навои, связь человеческой жизни со знанием и просветлением раскрывается через образы «май» и «када». Автор обосновывает силу искусства слова, открывающего путь к разнообразным интерпретациям.

Annotation: This text explores the symbolic possibilities of words and how artistic thought is elevated through figurative meaning. Based on the mystical interpretation of Alisher Navoi's rubaiyat, the connection of human life with knowledge and enlightenment is revealed through the images of "may" and "qadah". The author substantiates the power of the art of words that opens the way to diverse interpretations.

Kalit so‘zlar: so‘z san’ati, ramz va istiora, ko‘chma ma‘no, badiiy tafakkur, tasavvufiy talqin, ma‘rifat va bilim, komil inson, umr ramzi, Sharq mumtoz adabiyoti.

Ключевые слова: Искусство слова, символ и метафора, образное значение, художественная мысль, мистическая интерпретация, просветление и знание, совершенный человек, символ жизни, классическая восточная литература.

Key words: word art, symbol and metaphor, figurative meaning, artistic thought, mystical interpretation, enlightenment and knowledge, perfect man, symbol of life, classical Eastern literature.

Rivoyatlar Alloh insonni yaratganidan keyin unga ko‘plab xislatlarni ham in‘om etgani haqidagi xabarlarini saqlab qolgan. Ularning biri undagi so‘zlash qobiliyatidir. Bu xislatning insondagi tafakkurga, aqlu idrokka qo‘shilgani holda so‘z san‘atiga oid ijodkorlikning yuzaga chiqishi va ravnaqida bosh omil bo‘lganiga shubha yo‘q.

Inson juda qadim zamonlarda – “ayyomi nofarjom”dayoq ko‘rinib turgan narsaga ham, xayoliy narsalarga ham nom berishni o‘rgandi. Hatto his-tuyg‘ularning ham alohida-alohida nom olishigacha ko‘tarila bildi. Nihoyat, nom va predmet orasidagi aloqalarning yanayam murakkabroq darajasini ilg‘ay olishgacha bo‘lgan yuksaklikka ham erishdi: so‘zlarni o‘z ma‘nosidan tashqari ularni ko‘chma ma’noda ham qo‘llay boshladi. Istiora va o‘xshatishning kashf etilishi uni ramzning ostonasigacha olib bordi. Bu ostonaga badiiyatning yangi olami sari muhtasham, siru sinoatlarga to‘la badiiyat dunyosi eshiklaridan ichkariga kirish imkonini berdi.

Dunyo adabiyotini qo‘yib turaylik. O‘zbek o‘zining turkiy bobolaridan meros qolgan bir dunyo so‘zlarning o‘z lug‘aviy ma‘nosidan tashqari ko‘plab qo‘shimcha, aniqrog‘i, ko‘chma ma’nolarini anglash va tasavvur qilishga, hech qiynalmasdan ularni tushunish va izohlash darajasiga ham etib keldi.

Bugun “gul” degan so‘z o‘simlikning nomini bildiradi deyishga zarurat yo‘q. Uning “inson”, “tashqi ko‘rinishi chiroyli, go‘zal va yoqimli bo‘lgan ayol” ma’nosi ham hech kimni ajablantirmaydi. Olma va shaftoli esa meva nomidan tashqari insonning ijtimoiy-ma’naviy hayotiga oid tushunchalarni ifodalay olishini Odam Atodan sal beriroqdagi bobokalonlarimiz o‘rgatib ketishgan, chamasi. Bo‘lmasa, professor Shomirza Turdimov uning “farzand”, “oila”, “bu oilaga begona shaxs”ligini o‘zining bilgani qolib, jonini kuydirgancha boshqalarga ham o‘rgatib yurarmidi?!

O‘rdak bilan g‘ozning, turna bilan quzg‘unning qush nomlaridan tashqari, bir dunyo qo‘shimcha ma’nolar tashishi ham bor gaplar qatorida turadi. Bo‘lmasa, Mirzo Boburning xayoliga:

Kabutar, eltasen xattim, ne bo‘lg‘ay gar qabul etsang,
Ko‘ngulni bog‘lasam ul noma yanglig‘ parru bolingg‘a”, –
degan ifodalar kelarmi edi?
Endi mana bu ruboiyni tinglab ko‘raylik:
Kunduz ko‘rsang o‘zungni mahzun, qadah ich,
Andoqki, quyosh ravshanu mavzun qadah ich.
Ul damki, quyosh botti, shafaqgun qadah ich,
Jomingni qilib nechukki gardun, qadah ich.

Bu misralar Alisher Navoiyga tegishli. Alisher Navoiyning har qanday ichkilikka bo'lgan qarashlari uning ko'plab asarlarida o'ziga xos va mos tarzdagi ifodalarini topgan. Buni g'azal, qit'a va ruboiylarni, ayniqsa, maktublarini qo'ya turaylik, "Mahbub ul-qulub" asari yoki "Sab'ayi sayyor" dostonini mutolaasi ochiqqina qilib isbotlab bera oladi. "Soqiynoma" – ularning yonidagi yana bitta qo'shimcha dalolatnoma.

Xullas, oddiy ko'ringani bilan hodisalarning barchasi ham tashqarisi qanday bo'lsa, ichkarisi ham shunday bo'lavermas ekan. Yusuf Xos Hojib bejiz, "qovunning tashqi ko'rinishi hali hech narsani bilirmaydi. Uning mazali yoki mazasiz ekani ichiga bog'liq" demagan.

Bir qarashda yuqoridagi ruboiy bir kecha-kunduzdagi inson holatlarini tasvirlagandek ko'rinadi. Aniqrog'i, insonning ertalabdan kechgacha o'z vaqtini qanday o'tkazishi lozimligi haqidagi "amaliy" ko'rsatmaday tasavvur hosil qiladi. Unga ko'ra, go'yo agar inson ertalab o'zini mahzun – kayfiyatsiz va aftodahol his etadigan bo'lsa, qadah ko'tarishi, ya'ni may ichishi lozim. Quyosh ko'kka ko'tarilib yorug' va chiroyli ko'rina boshlaganda, ya'ni kunduz kuni ham shu ish davom etishi maqsadga muvofiqdir.

Quyosh botganida, ufqning rangiga mos bo'lgan ichimlikni ichish, ichganda ham uning hajmini ancha ko'paytirgan holda ichish tavsiya etilayotganday. Zero, bunda qadahning gardun (osmon) darajasiga ko'tarish, ya'ni uning hajmini ko'paytirish taklifi mavjudday.

Aslida ham shundaymi? To'g'ri, gap inson umri, ammo uning bir kuni emas, balki butun boshli umri haqida bormoqda. Kunduzning boshlanishidan quyoshning botishigacha bo'lgan vaqt oralig'i inson umrining yaxlit timsolidir. Faqat bu erdagi qadah va uning ichidagi ichimlik to'laligicha ramzlarga tayangan obrazlardir. Ana shu holat anglansa, uning ma'no va mazmun qamrovi ham mutlaqo yangi va yaxshi manzaralarni namoyon eta boshlaydi.

May – real ma'noda, ichimlik sifatida, inson kayfiyatini ko'tarishga omil bo'ladigan vosita deb talqin qilinadi. Bu – to'g'ri. Shunga qaramay, uning irfoniy ma'nosi ilohiy bilimlar majmuini, ilohiy ishqning o'zini, mana shu ishqdan hosil bo'ladigan shavq va huzurni, qadah esa mana shu ilohiy bilimlar mujassamlashgan manbani anglatishi tasavvufga oid adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan. Bu manba esa irfoniy bilimlar bilan limmo-lim bo'lgan qalb – bilimdon pir, dono murshid, biror bir nuqsonu kamchiligi bo'lmagan komil inson qalbidir. U ko'proq pir, murshid, ustoz, shayx singari obrazlarda mujassamlashadi.

Agar mana shu izoh va talqinlarga asoslanadigan bo'lsak, yuqoridagi ruboiy mazmuni mutlaqo boshqacha manzaralarni inkishof etadi. Unga ko'ra, inson bolaligida – hali g'o'r va tajribasiz holatida olam hodisalarining asl mazmuni va mohiyatini to'la va to'g'ri idrok eta olmaydi. Mana shu murakkablik

va mavhumlik oldida o‘zini yo‘qotadi. Uning mahzunligi shu bilan izohlanadi. Demak, u qadah ichishi, mahzunlik (olam hodisalari mohiyatini anglashdagi inkonsizlik, mavhumlik)dan qutulishi, ya’ni mayxona egasi (komil inson)dan o‘ziga mos va munosib darajadagi qadahni olish (dunyoviy va irfoniy bilimlarni o‘zlashtirish)ga maylu rag‘bat ko‘rsatishi joiz.

Umrning davom etayotgani quyoshning ravshan va mavzunligida o‘z ifodasini topgan. Bu bolalik bilan qarilikning oralig‘idagi makon va zamonni anglatmoqda. Demak, olam va odam haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishning qulay fursati ham mana shu mudatlarda amalga oshirilmog‘i kerak. Uning bilimlari tobora quyuq va tiniqlashishi joiz.

Kunduz tugamoqda, ya’ni umr daqiqalari sanoqli. Modomiki quyosh botishga chog‘lanar ekan, tabiiyki, yorug‘ lahzalar qorong‘ilik bilan almashadi (Yusuf Xos Hojibning yoshlikni munavvar yozga, qarilikning esa qahraton qishga mengzatganini esga olaylik). Demak, munavvar yoshlik o‘rniga qarilik etib kelmoqda. “Shafaqgun” – ufqning rangiga ishora. Ayni paytda bu mayning rangi hamdir. Tabobatda qizil may mazkur ichimlik turi orasida eng toza, tiniq va kuchining balandligi bilan alohida e’tiroflarga sazovor bo‘lgan. Demak, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar darajasi ham mana shunga muvofiq bo‘lishi kerak. Jomning osmon gardishi darajasidagi kattalikka ega bo‘lishi haqidagi talab, mana shu bilimlarning hajmi va darajasiga qilinyotgan ishoradir.

Ruboiyni yaxlit holda tasavvur qilish endi biz uchun boshqa xulosalar chiqarish omiliga aylanadi. Demak, inson butun umri davomida bilim olish bilan band bo‘lishi lozim. Zero, bu ruboiy mohiyati “beshikdan qabrgacha ilm o‘rgan” degan hadisi sharif mazmuni bilan uyg‘un keladi.

Ko‘rinadiki, haqiqiy so‘z san’ati har doim turfalikni, rang-baranglikni, talqinlardagi hayratni yuzaga keltirib chiqaradi. Bularning barchasi ixchamgina qilib aytilsa, so‘z san’ati bo‘ladi. Bular hazrat Navoiyning bu borada haqiqatda ham nihoyatda yuksak darajadagi so‘z san’akori bo‘lganini yana bir marta amaliy jihatdan isbotlab turadi. Adibning “Falak ko‘rmadi men kabi qodire”, – degan qaydlarining haqiqatligini yana bir marta tasdiqlab, orqasidan muhr ham bosib qo‘yadi.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z YASALISH USULLARINING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (AFFIKSATSIYA,
KOMPOZITSIYA VA KONVERSIYA ASOSIDA)**

**Tursunov
Akmal,
Navoiy davlat
konchilik va
texnologiyalar
universiteti “O‘zbek
va chet tillar”
kafedrasi dotsenti**

UO‘K 95(11)

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalasi til taraqqiyotining muhim jihatlaridan biri sifatida qaraladi. So‘z yasalishi tilning leksik boyligini kengaytiruvchi asosiy manbalardan bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. O‘zbek tilida so‘z yasalish tizimi tarixiy shakllanish jarayonida takomillashib, bugungi kunda affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya kabi asosiy usullar orqali namoyon bo‘ladi.

Аннотация: В узбекской лингвистике вопрос словообразования считается одним из важнейших в развитии языка. Словообразование является одним из главных источников лексического богатства языка, развивавшегося неразрывно связанного с развитием общества, социально-экономической и культурной жизни. Система словообразования в узбекском языке совершенствовалась в процессе исторического формирования и в настоящее время проявляется такими средствами, как аффиксация, композиция и конверсия.

Annotation: In Uzbek linguistics, the issue of word formation is considered one of the important aspects of language development. Word formation is one of the main sources of expanding the lexical wealth of the language, and it has developed inextricably linked with the development of society, socio-economic and cultural factors. The word formation system in the Uzbek language has improved in the process of historical formation and is currently manifested through such basic methods as affixation, composition and conversion.

Kalit so‘zlar: tushunchalar, usullar, leksema, kompozitsiya usuli, ta’lim, lug‘at, metodlar, tilshunoslik, tadqiqot.

Ключевые слова: понятия, методы, лексема, композиционный метод, образование, словарный запас, методы, лингвистика, исследование.

Key words: concepts, methods, token, compositional method, education, vocabulary, methods, linguistics, research.

Affiksatsiya usuli va uning rivoji. Affiksatsiya o‘zbek tilida eng qadimgi va eng faol so‘z yasaliş usuli hisoblanadi. Ushbu usulda yangi so‘zlar negizga turli qo‘shimchalar (suffikslar) qo‘shish orqali hosil qilinadi. Turkiy tillarga xos agglutinatív xususiyat affiksatsiyaning keng rivojlanishiga imkon yaratgan.

Tarixiy manbalarda, xususan, qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham affiksatsiya orqali yasalgan ko‘plab so‘zlar uchraydi. Masalan, -chi, -lik, -siz, -dor kabi qo‘shimchalar orqali kasb-hunar, mavhum tushuncha va belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar yasalgan. Zamonaviy o‘zbek tilida ham affiksatsiya so‘z boyligini oshirishda etakchi o‘rinni egallaydi: o‘qituvchi, ishchi, bilimdon, mustaqillik va boshqalar.

Kompozitsiya (qo‘shma so‘zlar) usuli. Kompozitsiya ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemalarning qo‘shilishi natijasida yangi ma’no kasb etgan so‘zlar hosil bo‘lishini anglatadi. O‘zbek tilida bu usul tarixan mavjud bo‘lib, ayniqsa nomlash ehtiyoji kuchaygan davrlarda faol qo‘llanilgan. Qo‘shma so‘zlar orqali tabiat hodisalari, predmet va tushunchalar aniq va ixcham tarzda ifodalangan: oqqush, temiryo‘l, kungaboqar, qo‘lqop. XX asr va mustaqillik davrida ilm-fan va texnika taraqqiyoti natijasida kompozitsiya asosida yasalgan terminlar soni yanada oshdi: axborot texnologiyalari, davlat boshqaruvi, bozor iqtisodiyoti.

Konversiya usuli va uning xususiyatlari. Konversiya usuli so‘zning tashqi shakli o‘zgarmagan holda, uning bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tishi orqali yangi leksik birlik hosil bo‘lishini anglatadi. O‘zbek tilshunosligida bu usul nisbatan kechroq ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo‘lsa-da, amaliy til materialida qadimdan mavjud. Masalan, fe‘l shaklining otlashuvi yoki sifatlashuvi konversiya orqali amalga oshadi: o‘qish (jarayon), yaxshi (odam), kelajak (zamon). Bu usul tilning tejamkorlik tamoyiliga mos kelib, nutq jarayonida ixchamlik va ma’no aniqligini ta’minlaydi.

O‘zbek tilining leksik tarkibi asrlar davomida tizimli taraqqiyotni boshdan kechirib kelgan bo‘lib, bu jarayonda so‘z yasaliş alohida muhim o‘rin tutadi. So‘z yasaliş usullari tilning ichki imkoniyatlari, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda umumturkiy antitipologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi derivatsion modellarning katta qismi

tarixiy turkiy davr merosiga tayanadi va ular o'rtasida uzluksizlik, barqarorlik hamda innovatsion o'zgarishlar ravang ko'ringan.

Konversiya - morfologik o'zgarishsiz, so'z turkumining funksional almashishi orqali yangilanish.

Reduplikatsiya qo'shaloqlash usuli (kop-köp, yar-yar) turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, kuchaytiruvchilik va intensiv ma'no yasagan.

O'rta asr o'zbek tilidagi (eski o'zbek tili) innovatsiyalar

XIV–XVI asrlarda affiksatsiya yanada murakkablashdi:

–dor–var, –bon, –xona kabi forsiy-arabiy kelib chiqishli affikslar tizimga kirib bordi.

Morfemalarning ko'p qismi ikki manbali (turkiy–forsiy) modelda faol ishladi: kitobxon, dildor, navkar, mayxona.

Bu davrda derivatsiyaning interferensiya asosida boyishi o'zbek tilining omilkorlik bilan boshqa madaniy tillardan ta'sir olganini ko'rsatadi.

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasaliishi usullari. Affiksatsiyaning hozirgi holati.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi qo'shimchalar eng produktiv hisoblanadi:

Ot yasaydigan qo'shimchalar: –chi, –chilik, –go'y, –xona, –zor, –man, –dor.

Sifat yasaydigan qo'shimchalar: –li, –siz, –dor, –var, –simon.

Fe'l yasaydigan qo'shimchalar: –la, –lash, –lan, –dorla, – qil- modellari.

Kompozitsiya va milliy modellar.

•Qo'shma so'zlar hozirgi sistemada faol:

•Ot+ot: obodxonlik, temiryo'l, bog'dorchilik.

•Sifat+ot: oqko'ngil, sermahsul.

•Fe'l+ot yoki ot+fe'l shakllari: tezkor yordam, qo'shma korxona.

Qisqartma va akronimlar. Zamonaviy jarayon sifatida OAV, OTM, YPX, BYuT, xalqaro tashkilotlar nomlari kabi qisqartmalar derivatsiya tizimida yangi kushimcha manba sifatida paydo bo'ldi.

Tarixiy davrlardagi arab-fors ta'siri qanday bo'lsa, hozirgi zamonda rus, ingliz va internatsional terminologiya ta'siri shunchalik kuchaygan. –atsiya, –logiya, –ist, –izm kabi modellar zamonaviy o'zbek derivatsiyasining muhim qatlamini tashkil etmoqda.

Shunday ekan, so'z yasovchi affikslarni morfologiya bilan bog'lab, ular yordamida so'z yasaliish usulini morfologik usul deb atash etarli asosga ega bo'lmaydi. Bu usulni so'z yasaliishining affiksatsiya usuli deb atash esa hodisaning mohiyatiga to'la mos keladi.

Adabiyotlar tahlili: So'z yasaliishining asosiy tushunchalaridan biri so'z yasash usullari masalasidir. A.G'.G'ulomov o'z izlanishlarida bu masalaga katta e'tibor bergan. U "O'zbek tilida so'zning ichki tuzilishidagi o'zgarishlar orqali

soʻz yasash” maqolasida (1947) soʻz yasashning sakkiz usulini koʻrsatadi: affiksatsiya, kompozitsiya, omonimizatsiya, aksentuatsiya, abbreviatsiya, reduplikatsiya, soʻzning ichki tuzilishidagi oʻzgarishlar orqali soʻz yasash, bir soʻz turkumining boshqasiga oʻtishi. [1:4]

Kitobda koʻrsatilishicha, “Soʻz yasashning bundan boshqa yoʻllari ham bor: 1. Leksik yoʻl bilan yasash - biror soʻzning bir turkumdan boshqa turkumga koʻchishi. Masalan, Turdi, Tursun kabi otlar feʼlining otga koʻchuvi orqali yasalgan. 2. Fonetik yoʻl bilan yasash - urgʻuni koʻchirish orqali bir soʻzdan yangi soʻz hosil qilish. Masalan: yangi (toza) - yangi (hozirgina). Qisqartma soʻzlarning hosil boʻlishi qoʻshma soʻzlarning hosil boʻlishi doirasiga kiritilgan. Reduplikatsiya (soʻzlarning takrorlanishi, qoʻshaloqlanishi, soʻz takrori) ham keng maʼnoda juft soʻzlarga kiradi.

Bu tip yoki soʻz yasash yoʻllari qaytadan guruhlanib, ikki umumiy turga ajratilgan: 1. Grammatik soʻz yasash: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya (boshqa turkumga koʻchirish – kategorial koʻchish yoʻli bilan yasash). 2. Leksik-semantik soʻz yasash (maʼno oʻzgarishi orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi). 3. Fonetik soʻz yasash (fonetik vositalar, har xil fonetik oʻzgarishlar yordami bilan yasash).

A.Gʻ.Gʻulomov qismma-qism, morfemalar boʻyicha tarjima qilish ham soʻz yasashning bir yoʻli ekanligini taʼkidlaydi. Bu kitobda juft soʻzlar (ota-ona, qovun-tarvuz), qisqartma soʻzlar (MTS: mashina-traktor stansiyasi), shuningdek, reduplikatsiya, soʻz takrori yoʻli bilan hosil qilingan soʻzlarni (ququ: qush kabi) qoʻshma soʻz termini oʻz ichiga olishi maxsus taʼkidlangan va bu usullar soʻz yasash usullari doirasiga kiritilgan. Juft soʻzlar va reduplikatsiya yoʻli bilan yasalgan soʻzlar qoʻshma soʻzning boshqa turlaridan ancha keskin farqlanishi ham aytib oʻtilgan. [1:5].

A.Gʻ.Gʻulomov oʻzining koʻp yillik ilmiy izlanishlari va fan yutuqlari mohiyati boʻyicha original konsepsiya yaratgan olimdir. Bu konsepsiya tilshunosligimizning keyingi rivoji uchun asos, poydevor vazifasini bajardi.

Oʻzbek tilida soʻz yasalishi tizimi koʻp asrlik tarixiy rivojlanishning uzviy davomi sifatida namoyon boʻladi. Qadimiy turkiy modellar oʻz yadroviy ahamiyatini saqlagan holda har bir tarixiy bosqichda yangi affikslar, kompozitsion modellar va semantik mexanizmlar bilan boyib borgan.

Hozirgi oʻzbek tilida ham ana shu tarixiy asosning modernizatsiyalangan, globallik taʼsirida jadal taraqqiy etgan shakli kuzatiladi. Tarixiy va hozirgi soʻz yasash usullari bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, bu bogʻliqlik tilning genetik barqarorligi va innovatsion imkoniyatlarini taʼminlab kelmoqda.



Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida so‘z yasaliş usullari tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, tilning ichki imkoniyatlari asosida rivojlangan. Affiksatsiya etakchi va eng faol usul bo‘lsa, kompozitsiya murakkab tushunchalarni nomlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konversiya esa tilning semantik va grammatik moslashuvchanligini namoyon etadi. Ushbu usullar o‘zaro uyg‘unlikda o‘zbek tilining leksik boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov A.G‘ va boshq. O‘zbek tili morfem lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi,” 1977, 462- b.
2. G‘ulomov A.G‘. Morfologiya (kirish). O‘zbek tili grammatikasi, II tomlik, I-tom, Toshkent, 1975.
3. G‘ulomov A.G‘. Sifat haqida mulohazalar (ikkinchi maqola) // “O‘zbek tilida so‘z yasaliş” to‘plami, Toshkent, 1979.
4. G‘ulomov A.G‘. So‘z yasaliş/O‘zbek tili grammatikasi, 1-tom, Toshkent, 1975.

FILOLOGIYA

OGAHIYNING «FIRDAVS UL-IQBOL» ASARIDA ARABIY QATLAM MAVZUSI

UO‘K 95(11)



Jumanova Go'zalxon,
Urganch innavatsion
universiteti
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Firdavs ul-iqbol” asarining yozilish tarixi va unda aks ettirilgan arabiy so‘zlar mazmuni yoritib beriladi.

Аннотация: В данной статье освещаются история написания произведения «Фирдавс ул-иқбол» и значение использованных в нём арабских слов.

Annotation: This article examines the history of the writing of the work “Firdavs ul-Iqbol” and explains the meanings of the Arabic words reflected in it.

Kalit so‘zlar: tarix, tarjimon, asar, so‘z, arab, mazmun, uslub, tadqiqot.

Ключевые слова: история, переводчик, произведение, слово, арабский, содержание, стиль, исследование.

Key words: history, translator, scholar work, word, Arabic, content, style, research.

Ma'lumki, turkiy tillarga arabiy lug'aviy birliklarining kirib kelishi VII – VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi, aholining islom dinini qabul qilishi bilan bog'liq. O'zbek tili tarixiy leksikasini yozma manbalar asosida o'rganar ekanmiz, unda arabizmlar salmog'i XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha ko'payganini ko'rish mumkin.

Qadimgi turkiy bitiklarda arab so'zlari bo'lmagani holda, XI asr yodgorligi “Qutadg'u bilik” ka nisbatan XII – XIII asrlar yodgorligi bo'lgan “Hibatul-haqoyiq” asarida arabizmlar ko'proq uchraydi. Arab lug'aviy birliklari va so'z birikmalarining turkiy tillar, jumladan, o'zbek tiliga o'zlashish sabab va vositalari haqida olimlarimiz ko'plab ilmiy mulohaza, fikrlarni bayon qilganlar.

Xorazm tarixnavisligining eng go'zal namunasi Shermuhammad Munis Xorazmiy tomonidan boshlanib, Ogahiy tomonidan oxiriga etkazilgan. Munis “Firdavs ul-iqbol” asarini Eltuzarxon buyrug'i asosida yozgan. “Firdavs ul-iqbol” badiiy-tarixiy jihatdan Xorazm maktabining go'zal namunasi bo'lganligi shubhasizdir. Ogahiy uchun ushbu asarni yozish jarayonida orttirgan tajribasi shu turdagi boshqa asarlarini yozishda qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Bu asar Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o'rganishdagi qimmatli manba sifatida bizga Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825-yilgacha bo'lgan siyosiy tarixi, toju-taxt, boylik uchun olib borgan kurashlari va Xiva xonlarining qo'shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo'lgan ijtimoiy-madaniy aloqalari haqida ham ko'plab ma'lumotlarni bera oladi.

Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari arab madaniyatining O'rta Osiyodagi tarixi va ta'sirini o'zida aks ettirgan. “Firdavs ul-iqbol”da arab tilining ahamiyati, uning mazmun va ifoda uchun chuqur ma'no kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Ogahiyning ijodida arabiy qatlamni foydalanishi, uning to'liq ijodiy xususiyatlarini ko'rsatadi. U asarini arabcha ifoda, mo'jiza va axloqiy narsalar bilan to'ldirib, o'zbek adabiyotining klassik uslubini ham boyitgan.

Bu juda muhim, chunki arabiy qatlam usuli faqat tilimizning boyishiga emas, balki ijodiy fikrlash va ma'naviyatning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarida arabiy qatlam mavzusini chuqurroq tahlil qilish mumkin. Bu asarning ahamiyati va mazmuni bo'yicha bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan va uning ta'siri hozirgi kungacha o'z ijtimoiy-adabiy ahamiyatiga ega.

O'zbek tiliga arabcha so'zlar, asosan, arab tilining diniy, ma'naviy, ilmiy va ijtimoiy sohalarga ta'siri orqali o'zlashgan. Ushbu so'zlar o'zbek tilining leksikasiga kirib, ularning ma'no va qo'llanish doirasi vaqt o'tishi bilan kengaygan va mustahkamlangan. Arabcha so'zlarning o'zlashishi o'zbek tilining boyligiga hamda qo'llanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. “Firdavs ul - iqbol” asarida o'zbek tilining to'rt asosiy sohasida keng tarqalgan so'zlar diniy, ilmiy, ijtimoiy so'zlar arabcha va forsha elementlari bilan boyitilganligi seziladi.

Ushbu maqolada “Firdavs ul - iqbol” asaridagi ba'zi arabcha o'zlashmalarning lug'atiga nisbatan ba'zi namuna (darsliklarda uchrashishi mumkin bo'lgan arabcha so'zlar) bilan tanishib chiqamiz:

1. Firdavs (فردوس) – “jahonning eng oliy va go'zal holati”. Ushbu so'z adabiy va falsafiy kontekstda “baxt”, “xursandchilik” va “jannat” ma'nolarini anglatadi.

2. Iqbol (إقبال)–“Taqdir”, “baxt”, “quvvat”, “kelajak” ma'nolarini ham anglatadi.

3. Shariat (شريعة)–“Diniy qonunlar”, “shafqat va adolatga asoslangan qonunlar tizimi”. Arabcha “shariat” so'zi, shariatga amal qilishni va din bilan bog'liq qonunlarni anglatadi.

4. Ma'rifat (معرفة)–“Bilim”, “ta'lim”, “insonning ilmga intilishi”. Bu so'z ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq, ma'naviy va aqidaga asoslangan bilimni anglatadi.

5. Taqdir (قدر)– “Taqdir”, “quvvat”, “insonning hayotini belgilash”. Bu soʻz koʻpincha odamning taqdiri, uning shukronaligi va taqdiri bilan bogʻliq hollarda ishlatiladi.

6. Xilqat (خلقة) – “Yaratuv”, “yaratmoq”, “insonning yaratilganligi”. Bu soʻz bir kishi yoki boshqa mavjudotlarning yaratilganini va ularning tabiatiga bogʻliq boʻlgan holatlar haqidagi soʻz.

7. Gʻoya (فكرة)–“Fikr”, “yagona qarash”, “konsepsiya”, “Gʻoya” insonning ijtimoiy, axloqiy va maʼnaviy nuqtai nazarini shakllantiradigan soʻz.

8. Falsafa (فلسفة) – “Falsafa”, “falsafiy qarashlar”. Bu soʻz inson hayoti maʼnosi, axloqi va maʼnaviyati haqidagi fikrlarni bildirish uchun ishlatiladi.

9. Zulm (ظلم)–“adolatsizlik”. Bu soʻz axloqiy nuqtai nazardan adolatsizlik, yomonlik va dushmanlikni anglatadi.

10. Nasib (نصيب)–“Taqdir”, “baxt”. Bu soʻz taqdirning muqarrar holatlari, inson hayotidagi munosabatlari va hatti-harakatlari bilan bogʻliq.

Bu soʻzlar Ogahiyning “Firdavs ul – iqbol” asarida jihozlangan va uning maʼnaviy va axloqiy mazmunini tushunishda yordam beradi. Asarning arabcha oʻzlashmalar bilan boyishi adabiy uslubni chuqurlashtiradi.

Bu erda yanada koʻproq arabcha oʻzlashmalarni keltiramiz:

1. Alloh (الله)–“Haqiqiy Xudo”. Bu soʻz Ogahiyning asarlarida oʻzgarishlar, taqdir va xalqning iltijosi bilan bogʻliq holatlarda ishlatiladi.

2. Haq (حق)–“Toʻgʻri”, “rostlik”. Bu soʻz Ogahiyning asarlarida, haqiqatni qidirish va adolatga intilishning ramzi boʻlib, inson hayotidagi toʻgʻri yoʻlga ishora qilgan.

3. Maʼsiyat (معصية)–“Gunoh”, “xato”, “yoʻldan adashish”. Bu soʻz diniy maʼnoda, insonning gunohlari yoki xatoliklariga ishora qiladi.

4. Shuhrat (شهرة)–“shon”, “shuhrat”, “dunyodagi tan olish”. Ushbu soʻz inson maʼlumotga ega boʻlishi va ijtimoiy huquklarga ega boʻlishiga bogʻliq.

5. Ixtiyor (اختيار)– “Boshqarish”, “faqat oʻz holatini tanlash”. Bu soʻz jamiyatdagi insonga mustaqillik va oʻzgarishni bildirish uchun ishlatiladi.

6. Zikr (ذكر)–“Eslab oʻtmoq”. Bu soʻz insonning ilohiy jarayonlarga va maʼnaviy olamga qarashini va har kunlik amallariga ishora qilishi.

7. Firdavs (فردوس) – “Jannat”, “baxtli hayot”, “saodat”. Bu soʻzning oʻzbek adabiyotida odamning eng oliy maqsadi, moʻljallangan maqsadi yoki aslida jannatning ramzi sifatida ishlatilishi mumkin.

8. Xususan (خصوصا) – “Ayniqsa”, “muayyan”, “aniq”. Bu soʻz maʼlum bir holat, savol yoki holatni koʻrsatish uchun ishlatiladi.

9. Quadrat (قدرة)–“Quadrat”, “kuch”, “quvvat”. Bu soʻz insonning va jamiyatning koʻplab harakatlarga erishish qobiliyatini belgilaydi.

10. Shahodat (شهادة)–“Guvohlik”, “kalima”. Bu soʻz Islomdagi diniy va axloqiy koʻrsatmalarni belgilaydi.

Oʻzbek tilida arabcha soʻzlar koʻp yillar davomida oʻzlashib, kundalik toʻgʻri qoʻllaniladigan va adabiy tilda ishlatiladigan soʻzlarga aylangan. Bu soʻzlar arab tili leksikasidan oʻzlashgan boʻlib, oʻziga xos maʼno va tarkibga ega. Ular adabiy, diniy, ilmiy va kundalik tilimizda keng tarqalgan. Quyida baʼzi arabcha soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashgan namunalari keltiriladi:

1.Salom (سلام)–“Salom”, “hurmat”, “omon boʻlish”. Oʻzbek tilida yaxshi tilak va qadriyatning ifodasidir.

2. Rizq (رزق) – “Taʼminlash”, “har xil neʼmat”. Bu soʻz insonning kundalik ehtiyojlarini taʼminlash va boʻlgan neʼmatlarning barqarorligiga ishora qiladi.

3.Farishta (ملاك)– “Malaika”, “perishta”. Insonlarning faoliyatiga taʼsir koʻrsatishdagi maʼnaviy obraz.

4. Alloh (الله)–“Xudo”, “Haqiqiy Iloh”. Bu soʻz diniy kontekstda insonning yaratuvchisini anglatadi.

5.Ixtiyor (اختيار)–“Qoʻlda boʻlish”, “tanlash huquqi”.Bu soʻz har bir inson ning oʻz hayotidagi qarorlarning mustaqilligini koʻrsatadi.

6.Maʼrifat (معرفة)–“Bilim”, “taʼlim”.Bu soʻz maʼrifatparvarlik gʻoyalarini va insonning ilmga boʻlgan muhabbatini anglatadi.

7.Shariat (شريعة)–“Diniy qonunlar”, “shariat”. Oʻzbek tilida diniy maʼrifat va din amaliyoti bilan bogʻliq.

8. Saodat (سعادة)– “Xursandchilik”, “baxt”, “saodat”. Bu soʻz insonning oliy maqsadi va hamisha xursand boʻlishni anglatadi.

9.Nikoh (نكاح)–“Oila qurish”, “uylanish”.Oʻzbek tilida oilaviy munosabat larni va nikohga kirishni bildirish uchun ishlatiladi.

10.Tavba (توبة) – “Gunohlardan kechirim soʻrash”, “gunohlarni tan olish”. Bu soʻz insonning xatolarini va toʻgʻri yoʻlga tushishni anglatadi.

11. Xususan (خصوصا)– “Ayniqsa”, “har bir”. Bu soʻz alohida eʼtiborga olinishi lozim boʻlgan narsalarni koʻrsatish uchun ishlatiladi.

12. Taʼrif (تعريف) – “Tavsiflash”, “chuqur tushunish”. Bu soʻz maʼlum bir narsani, haqiqiy holatni taʼriflash uchun ishlatiladi.

13. Maʼsiyat (معصية)– “Gunoh”, “xato”. Bu soʻz maʼnaviy kontekstda insonning yoʻldan adashishini yoki axloqiy xatoliklarini anglatadi.

14. Sabr (صبر) – “Sabr-toqat”, “qiyinchiliklarga qarshi turish”. Bu soʻz odamning sabr-toqati va sabr qilishi, qiyinchiliklarga qarshi toʻgʻri harakat qilish qobiliyatini bildirish uchun ishlatiladi.

15. Sahifa (صفحة)–“Bet”, “sahifa”. Bu soʻz asarning yoki kitobning bir qismi, yaʼni oʻqish yoki taʼriflash uchun ishlatiladi.

16. Quadrat(قدرة)–“Quadrat”, “quvvat”, “salohiyat”. Bu soʻz odamning qobiliyati va ishni bajarish uchun zarur kuchni bildirish uchun ishlatiladi.

“Firdavs ul -iqbol” asarining leksik-semantik xususiyatlari quyidagicha aniqlanadi: Arabcha soʻzlarning oʻzbek tiliga integratsiyasi–arabcha soʻzlar orqali diniy, falsafiy, ijtimoiy mazmunlarni oʻzbek tiliga oʻtkazish. Asarda arabcha soʻzlar, frazeologizmlar va iboralar ishlatilishi Ogahiyning adabiy, diniy va maʼnaviy fikrlarini aniq va taʼsirchan koʻrsatish uchun muhim roʻl oʻynagan.

“Firdavs-ul iqbol” asarining soʻzlarining etimologiyasi haqida gapirganda, soʻzlarning paydo boʻlishi va ularning tarixi, manbalariga eʼtibor qaratish lozim. Ogahiy asarini yozishda, asosan, arab va fors tilidan olingan soʻzlarni ishlatgan. Asarning etimologiyasini oʻrganish, soʻzlarning paydo boʻlish tarixi va manbalarini aniqlashga yordam beradi.

Alloh (الله) – Arabcha “Alloh” soʻzi “Xudo”, “Iloh” maʼnosini anglatadi. Bu soʻz oʻzbek tiliga islom dinining qabul qilinishi bilan kirib kelgan

Salom (سلام) – Arabcha “salom” soʻzi tinchlik, xursandchilik, salomlashish maʼnolarini bildiradi.

Tavba (توبة) – Arabcha “tavba” soʻzi “kechirish” yoki “xatolarni tuzatish” maʼnosini anglatadi. Islomda tavba (kechirim soʻrash) ahamiyatli oʻrin tutadi, va bu soʻz oʻzbek tiliga shunday maʼnolarda kirib kelgan.

Rizq(رزق)– Arabcha “rizq” soʻzi “neʼmat”, “qoʻlga kiritiladigan neʼmatlar” deb tarjima qilinadi. Bu soʻz falsafiy va diniy mavzuda qoʻllaniladi.

Ogahiy tarixiy asarlari mavzusiga bogʻliq ravishda, tabiiyki, unda harbiy leksika hamda ijtimoiy-siyosiy terminlarni ifodalovchi soʻzlar salmogʻi katta;

– asarda qoʻllanilgan turli leksik-tematik guruhlariga mansub arabcha va forsha oʻzlashma soʻzlarning katta qismi hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi. Bu, xususan, fitonimlar, zoonimlar, qarindoshlik terminlariga tegishli;

– diniy va tasavvufiy tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarning ayrimlarida hozirgi oʻzbek adabiy tilida maʼno umumlashishi yuz bergani kuzatiladi. Bu hol muarrix asarlari mutolaasida qoʻshimcha ilmiy adabiyotlarga koʻproq murojaat qilish ehtiyojini tugʻdiradi;

Fors tilidan olingan soʻzlar:

Fors tili ham oʻzbek tilining shakllanishida va uning leksikasida muhim oʻrin tutadi. Forscha soʻzlar oʻzbek adabiyotiga, ayniqsa, ijtimoiy, axloqiy va estetik mazmunlarning ijodkorlik shakllariga taʼsir koʻrsatgan.

Shaxs (شخص) – Fors tilidan kirib, “inson”, “kishi” maʼnosini bildirgan. Fors tilida shaxs, odam, mansabdor kishilarni anglatadi va bu soʻz oʻzbek tilida ham shunday ishlatiladi.

Ma’rifat (معرفة)–Forscha “ma’rifat” so’zi “bilim”, “ta’lim va ma’rifat” ma’nosini anglatadi. Fors tilida har qanday bilimni, ilmiy yoki ma’naviy bilimni anglatish uchun ishlatilgan va o’zbek tiliga ham shunday ma’noda kirib kelgan.

O’zbek tilidagi mahalliy so’zlar:

“Firdavs ul - iqbol” asarining tilida arab va fors tilidan olingan so’zlardan tashqari, o’zbek tilining o’ziga xos so’zlari ham mavjud. Bu so’zlar asosan kundalik hayot va yozuvda qo’llanilgan.

Yosh–O’zbek tilida qadimdan ishlatilgan «yosh» so’zi arabcha yoki forsha ta’rifga ega emas, u o’zbek tilining tabiiy qismidir.

Qalb–O’zbek tilidagi “qalb” so’zi o’z ma’nosiga ega bo’lib, ko’pincha “ijodiy dunyo”, “ruhiyat” yoki “o’tkir hislar” kabi ma’nolarni anglatadi.

Ogahiyning «Firdavs ul - iqbol» asarining leksik-semantik xususiyatlari haqida gapirganda, arabcha so’zlar o’zbek tiliga ko’p yillar davomida islom dini, ilm, savdo va madaniyat orqali kirib kelgan asarning ma’nolari va so’zlar tizimi, ularning ma’no va kontekstga qaray qanday ishlatilishiga e’tibor qaratish muhimdir. Ular kundalik hayotda, adabiyotda va dinda keng qo’llaniladi. Bu asarda leksik-semantik xususiyatlar bir nechta aspektda o’zining xos xususiyatlariga ega, jumladan, arabcha o’zlashmalar, mavjud adabiy an’analar, ma’naviy va diniy mazmundir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

[1]. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar mualliflari Sh.Vohidov, I. Bekchanov, N. Polvonov. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2010. 520 b.

[2]. Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtlar bog’i). Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo’ja, S.Ro’zimboev, A.Ahmedov. O’qituvchi, 2010. 382 b.

[3]. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi. A. O’rozboev. (Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun taqdim etilgan) dissertatsiyasi. Toshkent. 2018-y.

[4]. Munis va Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol” – T.: Yangi asr avlodi, 2010.

[5]. Ogahiy. Asarlar VI jildlik, I jild G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1971.

[6]. Muhammad Rizo Ogahiy. To’la asarlar to’plami. 1-jild: Devon. – Toshkent: Mumtoz so’z, 2014.

FILOLOGIYA

QADIMGI TURKIY TILGA ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN ANTROPONIMLAR ETIMOLOGIYASI

UO'K 811.512'373.2



**Allaberganova
Rayxon,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi tayanch
doktaranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi turkiy til tizimiga arab tilidan o'zlashgan shaxs ismlarining (antroponimlarning) tarixiy-etimologik ildizlari, fonetik va morfologik moslashuv qonuniyatlari, semantik qatlamlari, madaniy-diniy motivatsiyasi hamda yozma yodgorliklarda aks etish shakllari keng qamrovda tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ историко-этимологических корней, закономерностей фонетико-морфологической адаптации, семантических пластов, культурно-религиозной мотивации а также форм отражения в письменных памятниках арабских заимствованных личных имен (антропонимов) в системе древнетюркского языка.

Annotation: This scientific article provides a comprehensive analysis of the historical-etymological roots, patterns of phonetic and morphological adaptation, semantic layers, cultural-religious motivation, and forms of representation in written monuments of Arabic borrowed personal names (anthroponyms) within the Old Turkic language system.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy til, arabcha ismlar, etimologiya, onomastika, antroponimiya, o'zlashma qatlam, islomiy madaniyat.

Ключевые слова: древнетюркский язык, арабские имена, этимология, ономастика, антропонимика, заимствованный пласт, исламская культура.

Key words: Old Turkic language, Arabic names, etymology, onomastics, anthroponymy, borrowed stratum, Islamic culture.

Turkiy xalqlar tarixida VII–X asrlar muhim burilish davri hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar islom madaniy muhitiga kirib bordi. Natijada turkiy tillar leksik tizimida, ayniqsa, antroponimik qatlamda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Arab tilidan kirib kelgan shaxs ismlari asta-sekin

turkiy muhitga singib, fonetik, morfologik va semantik moslashuv jarayonidan o'tdi.

Tilshunoslikda antroponimlar nafaqat nomlash vositasi, balki jamiyatning diniy, ijtimoiy, madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim belgidir [3]. Shuning uchun qadimgi turkiy tilga arabcha ismlarning kirib kelishi masalasi faqat leksik o'zlashma emas, balki sivilizatsion integratsiya hodisasi sifatida baholanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – qadimgi turkiy tilga arab tilidan o'zlashgan antroponimlarning etimologik manbalarini aniqlash, ularning fonetik-morfologik moslashuvini tavsiflash va semantik qatlamlarini tahlil qilishdir.

Antroponimiya – shaxs nomlarini o'rganadigan onomastikaning bo'limidir. Etimologiya esa so'zlarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini o'rganadi [4]. Arabcha ismlarning turkiy tillarda paydo bo'lishi ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u: madaniy-diniy ta'sir, ijtimoiy moslashuv, fonetik-morfologik integratsiya bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Qadimgi turkiy jamiyatlarda ismlar ko'pincha: tabiat hodisalari (Bori, Tog'ay), jismoniy belgi (Qora, Oq), ijtimoiy maqom (Beg, Xan) asosida qo'yilgan [2]. Islomdan so'ng esa diniy motivatsiya asosiy omilga aylandi.

Arab antroponimlarining tarixiy manbalari. Islom dini va onomastik islohot. Islom dini shaxs nomlariga yangi mazmun kiritdi. Qur'on va hadis asosidagi ismlar qadimgi turkiy muhitda keng tarqaldi:

Muhammad	<u>h-m-d</u>	Maqtovg'a sazovor
Ali	<u>'-l-w</u>	Yuksak
Umar	<u>'-m-r</u>	Hayot
Hasan	<u>-s-n</u>	Go'zal
Husayn	<u>h-s-n</u>	Kichik Hasan
Ahmad	<u>h-m-d</u>	Eng ko'p maqtalgan
Abdulla	<u>'-b-d + Allāh</u>	Allohning quli

Yozma manbalardagi ilk qaydlar. Arabcha ismlar turkiy yodgorliklarda quyidagicha uchraydi: Qutadg'u bilig – Muhammad, Ali; Devonu lug'otit turk – Umar, Hasan; O'rxun bitiklari (islomiy qatlam) – Ahmad, Abdulla.

Fonetik moslashuv. Undoshlar moslashuvi.

Arabcha Turkiy

h → hHasan

' → tushadi Umar

q → k Qasim → Kasim

Unli moslashuv. Arabcha qisqa unlilar turkiy tizimga moslashtiriladi: Muhammad → Mahammad, Abd al-Rahman → Abdurahmon.

Morfologik moslashuv va soʻz yasash modellari. Arab antroponimlarining qadimgi turkiy til muhitiga moslashuvida fonetik oʻzgarish bilan bir qatorda morfologik integratsiya ham muhim rol oʻynadi. Bu jarayon arabcha ismlarning turkiy grammatik tizimga singib ketishini taʼminladi.

Qoʻshimchalar orqali moslashuv: Arabcha ismlar turkiy affikslar bilan qoʻllanib, yangi antroponimik birliklar hosil qiladi:

Model	Misol	Izoh
-bek	Ali + bek → Alibek	ijtimoiy maqom
-qul	Hasan + qul → Hasanqul	diniy sadoqat
-xon	Umar + xon → Umarxon	hukmdorlik
-boy	Ahmad + boy → Ahmadboy	ijtimoiy mavqe
-jon	Muhammad + jon → Muhammadjon	mehr ifodasi

Bu hodisa arabcha ismlarning turkiy mentalitetga moslashganini koʻrsatadi [8].

Murakkab antroponimlar. Arab tilidagi Abd + ilohiy ism modeli turkiy muhitda ham saqlanib qolgan: Abd + Alloh → Abdulla, Abd + Rahmon → Abdurahmon, Abd + Karim → Abdukarim.

Semantik qatlamlar va maʼno transformatsiyasi. Diniy qatlam. Arab antroponimlarining aksariyati diniy mazmunga ega: Muhammad – paygʻambar nomi, Ali – islom tarixidagi shaxs, Umar – xalifa nomi. Bu ismlar muqaddaslik, baraka, eʼtiqod ramzi sifatida qabul qilingan.

Ahloqiy-ijtimoiy qatlam.

Ism	Maʼnosi	Qatlami
Hasan	Yaxshi	ahloqiy
Karim	Saxiy	ijtimoiy
Salim	Tinch	ahloqiy

Arab antroponimlari turli hududlarda turlicha fonetik variantlarda uchraydi:

Hudud	Variant
Xorazm	Mahammad

Farg‘ona Muhammad

Qozog‘iston Muhamet

Qirg‘iziston Mamad

Bu holat dialektal moslashuvni ko‘rsatadi.

Arabcha ismlarning qadimgi turkiy yozma manbalarda paydo bo‘lishi islomiy madaniyatning keng yoyilganini ko‘rsatadi. Ushbu bobda asosiy tarixiy yodgorliklar tahlil qilinadi.

“Qutadg‘u bilig”da arabcha ismlar. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida islomiy nomlar ijtimoiy hurmat belgisi sifatida uchraydi: “Muhammad rasululloh nomi bilan ish boslar erdi.” [6]. Bu erda Muhammad ismi muqaddaslik ramzi sifatida qo‘llangan.

“Devonu lug‘otit turk”da arabiy antroponimlar. Mahmud Koshg‘ariy arabcha ismlarni turkiy muhitda faol ishlatilayotganini qayd etadi: “Hasan, Husayn, Umar turk elida ismlar ichra ko‘p qo‘llanur.”[7]. Bu hol arab ismlarining umumxalq antroponimik fondiga singib ketganidan dalolat beradi.

X–XIV asrlarga oid hujjatlarda Ahmad, Ali, Abdulloh, Umarxon kabi ismlar keng uchraydi [1].

Arabiy antroponimlar qadimdan quyidagi uch funksiyani bajargan. Identifikatsion funksiya: Arab ismlari shaxsni musulmon jamiyatiga mansubligini ko‘rsatgan. Ramziy funksiya: Bu ismlar e‘tiqod, baraka, nasab ramzi sifatida baholangan. Madaniy meros sifatida: Bugungi kunda ham Muhammad, Ali, Hasan, Ahmad kabi ismlar turkiy xalqlar orasida eng ko‘p uchraydi.

Qadimgi turkiy tilga arab tilidan o‘zlashgan antroponimlar turkiy onomastik tizimda barqaror va serqatlam qatlam hosil qilgan. Ular: diniy-madaniy ta’sir mahsuli; fonetik va morfologik jihatdan moslashgan; semantik jihatdan kengaygan; hududiy variantlarga ega; yozma manbalarda faol ishlatilgan. Shu bois arab antroponimlari qadimgi turkiy til taraqqiyotida muhim lingvistik va madaniy hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartold V.V. Turkiy xalqlar tarixi. – M.: Nauka, 1963.
2. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972.
3. Superanskaya A.V. Obshchaya onomastika. – M., 1973.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.

5. Ibn Manzur. Lison al-Arab. – Qohira, 1990.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: Fan, 1991.
7. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – T.: Fan, 1960.
8. Qayumov A. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – T.: Fan, 2001.
9. Karimov B. O‘zbek onomastikasi. – T., 2010.
10. Abdurahmonov G. O‘zbek tilining tarixiy leksikasi. – T., 1995.
11. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – T., 2009.
12. Tolstov S.P. O‘rta Osiyo qadimgi xalqlari tarixi. – T., 1962.
13. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili. – T., 2008.
14. Ismoilov I. Turk onomastikasi asoslari. – T., 2015.
15. Nematov H. Arabcha o‘zlashmalar lug‘ati. – T., 2004.

FILOLOGIYA**TOG‘AY MURODING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASI
MILLIY O‘ZLIK VA ETNO-MADANIY DUNYOQARASH TALQINI
MISOLIDA****UO‘K 811.14****Ayitboyeva
Yulduz,
UrDU magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining betakror namoyandasi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi milliylik muammosi kompleks tahlil qilinadi. Adibning milliy xarakter yaratish mahorati, xalqona nutq va badiiy uslubi, shuningdek, asardagi mifologik va etnografik qatlamlar zamonaviy adabiyotshunoslik tamoyillari asosida yoritiladi.

Аннотация: В данной научной статье всесторонне анализируется проблема национальности в рассказе «Люди, ходящие по Луне» Тогая Мурода, уникального представителя узбекской литературы XX века. На основе принципов современной литературной критики подчеркивается мастерство писателя в создании национального характера, народного языка и художественного стиля, а также мифологические и этнографические пласты произведения.

Annotation: This scientific article comprehensively analyzes the problem of nationality in the story "People Walking on the Moon" by Togay Murod, a unique representative of 20th-century Uzbek literature. The writer's skill in creating a national character, folk speech and artistic style, as well as the mythological and ethnographic layers in the work are highlighted based on the principles of modern literary criticism.

Kalit so‘zlar: Tog‘ay Murod, etnik mentalitet, milliy ruh, badiiy psixologizm, ritmik proza, folklorizm, Qoplon, Oymomo, lirik qissa.

Ключевые слова: Тогай Мурад, этнический менталитет, национальный дух, художественный психологизм, ритмичная проза, фольклор, Коплон, Оймомо, лирическая история.

Key words: Togay Murad, ethnic mentality, national spirit, artistic psychologism, rhythmic prose, folklore, Koplon, Oymomo, lyrical story.

Bugungi kun adabiy jarayon silsilasida Tog‘ay Murod merosini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Adib o‘z ijodini “O‘zbekni o‘ziga tanitish” shiori ostida amalga oshirdi. Uning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi millatimizning dardi, sevinchi, or-nomusi va uzoq o‘tmishdan kelayotgan genetik xotirasining badiiy yig‘indisidir. Adabiyotshunos professor Qozoqboy Yo‘ldoshev “Tog‘ay Murod o‘z bitiklarida folklor ohangini emas, balki xalqning so‘zlashuv stixiyasini olib kirdi. Bu stixiya, birinchi navbatda, kommunikativ fonetikada namoyon bo‘ladi. Bunga u personajlar ruhiy aurasiga kirib, ularning o‘zi bo‘la bilganligi bois erishdi. Tog‘ay Murod obrazlarni sirtidan tasvirlamaydi. Yozuvchi barcha asarlarida tanosuxdagi kabi o‘z ruhini tasvirlayotgan timsolga ko‘chiradi, u bo‘lib yashaydi”[Yo‘ldosh Q. So‘z yolqini. –Toshkent:G‘afur G‘ulom NMIU,2018-b,281]. Adib obrazlar ruhiy olamiga kirib, ziddiyatli holatlarni ham o‘zining estetik didi bilan uyg‘un tarzda ishonarli tasvir etadi.

Asar markazida turgan Qoplon va Oymomo obrazlari o‘zbek xalqining ma’naviy arxetipi (asl nusxasi) hisoblanadi. Qoplon obrazi orqali muallif o‘zbek o‘g‘lonining o‘ziga xos xarakter qirralarini chizadi. Uning xarakteri tog‘larday mag‘rur, lekin hatti-harakati bolalarcha sodda. Qoplonning o‘z ayoliga bo‘lgan munosabati dunyo adabiyotidagi eng go‘zal muhabbat qissalaridan qolishmaydi. Biroq, bu muhabbat g‘arbona ehtiroslar bilan emas, balki sharqona andisha va sadoqat bilan sug‘orilgan. Qoplon befarzandlik uchun ayolini ayblamaydi, aksincha, “Oymomom omon bo‘lsa bas, bola topilar” degan falsafa bilan yashaydi. Bu — o‘zbekning olijanoblighi va oilaviy qadriyatni hamma narsadan ustun qo‘yishining isbotidir. Oymomo sabr va matonat timsoli. Oymomo — o‘zbek ayolining barcha go‘zal fazilatlarini o‘zida jamlagan obraz. Uning ichki dunyosi asarda juda nozik psixologik chizgilar bilan berilgan. U befarzandlik fojiasini o‘z ichiga yutadi, biroq Qoplonning oldida hamisha o‘zini tik tutadi. Tog‘ay Murod ayolning “chilla” saqlashi, turli ziyoratgohlarga borishi tasvirlarida o‘zbek ayolining e‘tiqodi va umidini mahorat bilan ko‘rsatib bergan. Adibning eng katta yutug‘i— o‘zbek adabiy tilini xalq og‘zaki ijodi (folklor) bilan organik ravishda bog‘laganidadir. Gaplarning qurilishi va musiqiylik, qissaning tili o‘ziga xos metrikaga ega. Har bir gap dostonlardagi misralar kabi o‘zaro qofiyadosh va ritmga ega. Misol: “Otlar kishnadi — dala uyg‘ondi. Tuyoqlar zarbidan tuproq to‘zg‘idi”. Bunday uslub o‘quvchining ruhiyatiga tezroq ta’sir qiladi va asarning milliy emotsional fonini kuchaytiradi. Dialektizmlar va arxaizmlarning badiiy vazifasi asarni nihoyatda boyitganini ko‘ramiz. Adib asarda Surxondaryo shevasi unsurlaridan keng foydalanadi. Bu tilni buzish emas, aksincha, tilning tiriklik xususiyatini ko‘rsatishdir. “Is chiqarish”, “ovun”,

“ko‘pkari”, “chirpi” kabi so‘zlar asarga etnografik bo‘yoq berish bilan birga, millatning ming yillik hayot tarzini gavdalandiradi.

Asar boshlanishida “Sovchi qadami qizlik uyga sharaf” [Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”. Toshkent:2020-3-b] degan jumla bor. Bu o‘zbek millatiga xos bo‘lgan bir jihat. Qiz bilan yigit bir-birini yoqtirishsa, ko‘ngil berishsa, albatta, to‘y-da! Shundan so‘ng to‘y marosimlari boshlanadi. “Non sindirish”, “qalin aytish”, “to‘qqiz keldi”, “qayliqlab borish”, “toboq keldi”, “vakil so‘rash”, “nikoh suvi ichirish”, “ip o‘tkazar”, “oyoq bosar”, “it g‘irillar”, “kampir o‘ldi”, “soch siypatar”, “qo‘l ushlatar”, “oyna ko‘rsatar”, “qayliq o‘yini”, bundan tashqari milliy bayramlarimizdan “hayit bayrami” va hayit arafasida “hayitlik” kelishi an‘anaviy urf-odatlarimizning faqatgina “kelin tushirish” to‘yida qilinadigan marosimlarimizdandir [Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”. Toshkent:2020-16-17-betlar]. O‘zbek xalqida shu va shunga o‘xshash marosimlar ko‘plab uchraydi.

Asarda milliylik “Oydin kechalar” ramzi bilan chambarchas bog‘liq. Oydin kecha — bu o‘zbekning pokiza orzusi, uning musaffo niyati. Mifologik asoslar Qoplon va Oymomoning befarzandlik dardi bilan bog‘liq kechinmalari qadimiy mifologik tushunchalar (masalan, tabiat kuchlaridan madad so‘rash) bilan uyg‘unlashgan. Tog‘ay Murod tabiatni tirik obraz darajasiga ko‘taradi. Qishloq havosi, ariqning shovullashi, tun sokinligi qahramonlar bilan birga “suhbatlashadi”. Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar” qissasida milliy xarakterlarni shunchaki tasvirlamaydi, balki ularni o‘zbekona turmush tarzining o‘zagi sifatida ko‘rsatadi. Hozirgi zamonaviy adabiyotshunoslik asar qahramonlarini o‘zbek xalqining arxetipik obrazlari (eng qadimiy va asl namunalari) sifatida talqin qiladi. Qoplon obrazi: Milliy erkak karakteridagi andisha va mardlik: Qoplon — o‘zbek dehqonining eng olijanob qiyofasi. Uning ismida (Qoplon) mardlik va shijoat bo‘lsa-da, qalbi g‘oyatda nozik. Andisha va sadoqat: Bu o‘zbek erkagiga xos bo‘lgan “oila muqaddasligi” tushunchasining badiiy ifodasidir. Soddalik va g‘urur: U choyxonada o‘tirib, odamlarning pichinglariga (befarzandlik haqidagi) sabr bilan chidaydi. Uning g‘ururi — baqirchaqirda emas, balki ichki matonatida. Tog‘ay Murod Qoplonning otasini eslash epizodlari orqali “nasl-nasabga sadoqat” tushunchasini ochib beradi. Qoplon — shunchaki shaxs emas, u ota-bobolaridan kelayotgan zanjirning bir halqasi. Uning dardi — shu zanjirning uzilib qolishidan qo‘rqishdir. Tabiat bilan uyg‘unlik: Qoplonning otlarga bo‘lgan muhabbati, dala ishlari bilan bog‘liq kechinmalari o‘zbek dehqonining tabiat bilan qon-qardoshligini ko‘rsatadi. U erga mehr beradi [Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”. Toshkent:2020-85-87-betlar]. Oymomo obrazi: Sharqona ayolning ruhiy matonati: Oymomo obrazi orqali o‘zbek ayolining butun bir milliy psixologiyasi ochib berilgan. Uning obrazi

asarda sukunat va oydin kechalar orqali chiziladi. Onalik instinkti va aybdorlik tuyg‘usi: Garchi u befarzandlikda aybdor bo‘lmasa-da, milliy mentalitet ta’sirida o‘zini erining oldida qarzdordek his qiladi. Uning har bir hatti-harakati — erining ko‘ngliga qarash, uning charchog‘ini yozish, uy-ro‘zg‘orni sarishta tutish orqali shu “aybdorlik”ni yuvishga urinishdir. E’tiqod va umid: Oymomoning turli avliyolarga borishi, “chilla” saqlashi, tunlari oyga qarab iltijo qilishi — bu shunchaki irim-sirim emas. Bu o‘zbek ayolining tushkunlikka tushmaslik uchun topgan ma’naviy suyanchig‘idir. Adib Oymomoni “oy”ga o‘xshatadi; u zulmatli hayotni o‘z nuri (mehri) bilan yoritib turadi. “Qoplonbek xotiniga “ayol” deb murojaat qilmadi. “Xotin” deb murojaat qilmadi. “Oymomo” deb murojaat qilmadi. Qoplonbek xotiniga “bola” deb murojaat qildi. Oymomo eriga “er” deb murojaat qilmadi. “Qoplon” deb murojaat qilmadi. Oymomo eriga “ota” deb murojaat qildi. “Ushbu parcha o‘zbekona oilaviy munosabatlarning eng nozik nuqtasini ochib beradi. Er-xotinning bir-birini “bola” va “ota” deb atashi — bu befarzandlik dardini ichga yutish, bir-biriga bo‘lgan cheksiz mehribonlik va o‘zbekona andishaning yuksak ko‘rinishidir. Tog‘ay Murod bu erda nominatsiya (nomlash) san’ati orqali qahramonlarning ruhiy olamini kitobxonga namoyon etadi. Bu — milliy mentalitetimizdagi “yorni ulug‘lash” an’anasining badiiy in’ikosidir. “Oy to‘ldi. Oy charog‘on bo‘ldi. Dunyo oydin bo‘ldi. Qoplonbek oydinda yurdi. Oymoma oydinda yurdi. Oydinda odamlar yurdi...” . Tog‘ay Murod nasridagi o‘ziga xoslikning yana bir ifodasi o‘laroq yangicha so‘zlarni olib kirganidir: yulduzzor, g‘ojir, nopayid kabi... Zamonaviy adabiyotshunoslikda bu “nasriy vazn” deb ataladi. Bu iqtibos orqali adib tabiat va inson taqdirini birlashtiradi. “Oydin” so‘zi bu erda shunchaki yorug‘lik emas, balki qahramonlarning pokiza niyatlari, farzand ilinjidagi musaffo orzulari ramzidir. “El nima deydi? El-yurt nima deydi? Qoplonbek el-yurt orasida qanday bosh ko‘tarib yuradi? Oymoma el-yurt orasida qanday so‘z aytadi? Odamzod qisir o‘tsa, dunyoga nega keladi?”. Bu iqtibos o‘zbek xalqining jamoaviy yashash tarzini va “el-yurt” tushunchasining shaxs taqdiridagi o‘rnini ko‘rsatadi. Milliy mentalitetda shaxsiy fojia hamisha ijtimoiy nuqtayi nazardan baholanadi. Tog‘ay Murod qahramonlarning ichki monologi orqali milliy psixologiyadagi “andisha” va “uyat” kategoriyalarini fojia darajasiga olib chiqadi. Bu — o‘zbekona hayot falsafasining realistik tasviridir. “Adirlar yalpi-yalpi o‘t bo‘ldi. Adirlar qizil-qizil lola bo‘ldi. Adirlar o‘zbekning gilamiday bo‘ldi. Qoplonbek adirlarga qarab o‘pkasi to‘ldi... “Muallif o‘xshatishlar orqali (masalan, adirni o‘zbek gilamiga o‘xshatish) milliy koloritni kuchaytiradi. Qoplonbekning tabiat manzarasidan “o‘pkasi to‘lishi” — bu uning tabiat bilan bir butunligini, uning dardi hatto bahorning go‘zalligiga ham sig‘mayotganini ko‘rsatadi. Bu erda antiteza

(ziddiyat) san’ati qo’llanilgan: tashqarida uygʻonish (bahor), qahramon qalbida esa soʻnish (befarzandlik dardi).

Urf-odatlar — millat poydevori. Qissada tasvirlangan toʻy marosimlari, hashar, oqsoqollar suhbatlari oʻzbek jamiyatining ijtimoiy tuzilishini koʻrsatadi. Muallif bu urf-odatlarni shunchaki tasvirlamaydi, balki ularning zamiridagi insoniylik va mehr-oqibat tuygʻularini birinchi planga olib chiqadi. Bugungi kunga kelib, milliy oʻzlikni asrash masalasi yanada dolzarblashdi. Togʻay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi globallashuv davrida bizga kimligimizni eslatib turuvchi oynadir. Asar fojia bilan tugasa-da (Qoplon va Oymomoning vafoti), u oʻquvchida tushkunlik emas, balki insoniylikka boʻlgan ehtiromni uygʻotadi. Qoplon va Oymomoning fojiasi — bu milliy qadriyatlarning chekinishi emas, balki ularning mangu yashashi haqidagi hayqiriqdir. Togʻay Murodning ushbu qissasi oʻzbek adabiyotining oltin fondidan munosib oʻrin olgan. Koʻrinadiki, milliylik asarda quyidagi uchta ustunda namoyon boʻladi:

1. Xarakterda: Sabr, mardlik va oilaviy sadoqat.
2. Tilda: Ritmik nasr va folklorik ifoda.
3. Ruhda: Tabiat va insonning ilohiy uygʻunligi.

Togʻay Murod — millat dardi bilan yashagan adib. Uning “Oydinda yurgan odamlar” asari orqali biz oʻzbekning “manmanlik”dan yiroq, “soddalik” va “poklik”ka qurilgan asl dunyosini kashf etamiz. Yozuvchi “Oydinda yurgan odamlar” qissasida milliy xarakterlarni shunchaki tasvirlamaydi, balki ularni oʻzbekona turmush tarzining oʻzagi sifatida koʻrsatadi. Bugungi kun adabiyotshunosligi asar qahramonlarini oʻzbek xalqining arxetipik obrazlari (eng qadimiy va asl namunalari) sifatida talqin qiladi. Maʼlum boʻladiki, Togʻay Murod oʻzbeklar hayoti, turmush sharoiti, ayniqsa, voqea xalqining urf-odatlari, madaniyati, tarixini yaxshi biladigan, ular haqida ishonch bilan yoza oladigan serqirra isteʼdod egasidir. U asarlarida xalq hayotining turli koʻrinishlarini milliy ruhda baynalmilal gʻoyalar bilan uygʻunlashtirib talqin etgan va xalqning milliy mentalitetining oʻziga xosligini nazarda tutib turkum asarlar yaratib tanilgan va tan olingan ijodkordir.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek adabiyotida oila, sevgi-muhabbat, milliylik, urf-odatlar, xalq turmush tarzi haqida yozilgan asarlarning sanab sanogʻiga etib boʻlmaydi. Biroq, shunday bir asar borki, u oʻz qahramonlarini oq yoʻrgakka oʻraydi, bobosi, momosi deya erkalaydi, iymonli, vijdonli, sadoqatli insonlarning madhini bitadi. Togʻay Murod tili bilan aytadigan boʻlsak: Oʻzbek xalqiga haykal qoʻyadi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar” (Saylanma). – Toshkent: “Sharq”, 2020.
2. Karimov N. “O‘zbek adabiyoti tarixi: XX asr”. – Toshkent: Universitet, 2022.
3. Eshonqul N. “Badiiy ijod va milliy mentalitet”. – Toshkent: “Akademnashr”, 2024.
4. U.Normatov “Benazir badiiy obida” – “Til va adabiyot ta’limi”: 2018-yil ,1-son.
5. Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida.- Toshkent: Yangi asr avlodi,2007-yil.
6. Tog‘ay Murod.Badiiy mutolaa inson ko‘zini ochadi.-Yoshlik.- Toshkent: 2003.-5-6-sonlar.
7. Tog‘ay Murod Umr yo‘li – borsa kelmas yo‘l.Kundalik//Yoshlik-Toshkent.2017-yil -2-son.
8. Zavqiddin Subhon.Tog‘ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. Monografiya. Toshkent-2020.
9. Rasulev O. “Tog‘ay Murod uslubining xalqchil xususiyatlari”. – Ziya.uz maqolalar to‘plami.
10. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2020-2025 yillar nashri).

FILOLOGIYA**INGLIZ TILIDA SO‘ROQ GAPLARNING SO‘ZLASHUV NUTQIDAGI
KOMMUNIKATIV VA FUNKSIONAL O‘RNI****UO‘K 811.17****Qodirova Dilnura,
Urganch davlat
universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi so‘roq gaplarning so‘zlashuv nutqidagi kommunikativ va funksional o‘rni lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье с лингвистической и прагматической точек зрения анализируется коммуникативная и функциональная роль вопросительных предложений в разговорной речи английского языка.

Annotation: This article analyzes the communicative and functional role of interrogative sentences in spoken English from linguistic and pragmatic perspectives.

Kalit so‘zlar: so‘roq gaplar, og‘zaki nutq, ingliz tili, kommunikativ funksiya, pragmatika, intonatsiya, og‘zaki muloqot, dialog.

Ключевые слова: вопросительные предложения, разговорная речь, английский язык, коммуникативная функция, прагматика, интонация, устная коммуникация, диалог.

Key words: interrogative sentences, spoken discourse, English language, communicative function, pragmatics, intonation, oral communication, dialogue.

Til inson hayotida g‘oya almashish, aloqa-aralashuvning eng muhim vositasi sanaladi. U yozma va og‘zaki nutq davomida o‘z ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi. So‘zlashuv nutqi (spoken discourse) inson muloqotining eng muhim vositalaridan biri sanalib, u insonlarning oilada, ko‘cha-ko‘yda g‘oya almashinuvi vaqtida foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So‘zlashuv uslubi, ko‘pincha dialog shaklida bo‘ladi. Ingliz tilida so‘roq gaplar (interrogative sentences) esa bu jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi, chunki ular axborot olish, fikr bildirish, tasdiqlash, shubhalarni aniqlash va tinglovchining e‘tiborini jalb qilish kabi turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. So‘zlashuv nutqida so‘roq gaplar grammatik va pragmatik jihatdan yozma nutqdan farq qiladi. Ular tez-tez qisqartiriladi, intonatsiya va pauza orqali ma‘noviy bo‘yoqdorlik oshadi, turli matnlarda esa turlicha talqin qilinadi. Masalan, Yes/No savollar tinglovchining javobini kutish vositasi sifatida ishlatilsa, Wh- savollar

aniq ma'lumot olishga mo'ljallangan. Shu bilan birga, so'zlashuv nutqida so'roq gaplarni o'rganish chet tillarini o'rganish, lingvistik tadqiqot va chet tillarini o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilidagi so'roq gaplarning so'zlashuv nutqida bajaradigan kommunikativ va funksional rolini tadqiq qilish, ularning tuzilishi, pragmatik va fonetik xususiyatlarini aniqlash hamda turli so'roq gap turlarining so'zlashuv jarayonidagi o'rnini yoritishdir.

Tadqiqotda nazariy manbalar, so'zlashuv matnlari va real muloqot misollaridan foydalanib, so'roq gaplarning nutqdagi o'ziga xosligi yoritildi hamda ingliz olimlarining leksikologiya va sintaksisga bag'ishlangan asarlari asosida yoritilgan.

Tahlil jarayonida semantik-uslubiy, kontekstologik tahlil metodi, komponent tahlil, chog'ishtiruv metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar ishga chuqurroq yondashishga xizmat qiladi.

So'zlashuv nutqida so'roq gaplarning ishlatilishi o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Xususan, qisqartirilgan shakllar va tez-tez ishlatiladigan frazalar uchraydi:

“What d'you mean?”, “Where to?”, “Have you seen it?”

Bu nutq uslubida intonatsiya alohida rol oynaydi. Jumladan, Tag questions intonatsiya orqali tasdiqlash yoki so'rov funksiyasini bajaradi:

You're coming, aren't you?

Bu misolda yuqoriga intonatsiya – haqiqiy so'rov, pastga intonatsiya – tasdiqlashni kutishni ifodalaydi. So'zlashuv nutqida so'roq gaplar intonatsiya, pauza va ritm orqali ma'no yuki oshiriladi. Pragmatik nuqtai nazardan, so'roq gaplar tinglovchining javob berishiga yo'naltirilgan, shuningdek, muloqotda suhbatni boshqarish, suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish va izoh berish imkonini beradi [3, 156]. So'roq gaplar tinglovchining javobini jalb qilish, suhbatni boshqarish va izoh berishga yordam beradi:

Could you pass the salt? (so'rov)

Do you really think so? (fikrni aniqlash)

Misol suhbat tahlili:

A: Have you seen the latest report? (Yes/No savol, axborot olish)

B: Yes, I have.

A: Who prepared it? (Wh- savol, aniq ma'lumot olish)

B: John did.

A: It's quite detailed, isn't it? (Tag question, tasdiqlashni so'rash) [1, 243]

Ushbu misolda Yes/No savol axborot olishga xizmat qilsa, Wh- savol konkret javobni olishga mo'ljallangan va "tag question" suhbatdoshning roziligini aniqlash vositasi sifatida ishlatilgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'roq gaplar so'zlashuv nutqida faqatgina axborot olish vositasi sifatida emas, balki murakkab kommunikativ-pragmatik birlik sifatida keng foydalaniladi. So'zlashuv jarayonida so'roq gaplarning funksional yuklamasi ularning grammatik shakliga nisbatan ancha kengroq bo'lib, matn, intonatsiya va nutqiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada ingliz tilida so'roq gaplarning so'zlashuv nutqidagi kommunikativ va funksional o'rni kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'roq gaplar og'zaki muloqotda faqat axborot olish vositasi bo'lib qolmay, balki suhbatni tashkil etish, uni boshqarish va nutqiy aloqani samarali yo'lga qo'yishda muhim pragmatik birlik sifatida xizmat qiladi. So'zlashuv nutqida so'roq gaplarning ma'nosi ko'p hollarda ularning grammatik shakliga emas, balki kontekst, intonatsiya va kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi.

Tahlillar ingliz tilidagi Yes/No savollar, Wh- savollar va ajratilgan savollarning (tag questions) har biri so'zlashuv jarayonida o'ziga xos funksional yuklamaga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, Yes/No savollar suhbatni boshlash yoki davom ettirishda, Wh- savollar axborotni aniqlashtirishda, ajratilgan savollar esa suhbatdoshning roziligini aniqlash, fikrni yumshatish hamda muloqotda yaqinlikni ta'minlashda faol qo'llaniladi. Bu holat so'roq gaplarning funksional imkoniyatlari ularning formal-sintaktik tuzilishidan kengroq ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida so'roq gaplarning pragmatik qayta talqin qilinishi alohida ahamiyat kasb etishi yoritib berildi. Grammatik jihatdan so'roq shaklida bo'lgan gaplar so'zlashuv nutqida ko'pincha iltimos, taklif, tanbeh yoki shubha ifodasi sifatida aks etadi. Bunday holatlar bilvosita nutq aktlari nazariyasi doirasida izohlanadi va so'roq gaplarning kommunikativ imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Umuman olganda, ingliz tilida so'roq gaplar so'zlashuv nutqida kommunikativ jarayonni faollashtiruvchi, interaktivlikni ta'minlovchi va muloqot samaradorligini oshiruvchi muhim lingvistik vosita sanaladi. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish metodikasi, nutq pragmatikasi va og'zaki muloqot nazariyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega, deb o'ylaymiz.

1. Carter, R., & McCarthy, M. Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide. Cambridge University Press, 2006.
2. John Eastwood Oxford Practice Grammar Oxford University press, 1999.
3. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
4. M.G'apporov, R.Qosimova. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent Turon-Iqbol, 2017.
5. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman, 1985.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK ADABIYOTIDA KUNDALIK HAYOT PSIXOLOGIYASINI IFODALASHNING LINGVOPOETIK VOSITALARI VA ULARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDAGI MUQOBILLIK MASALALARI**

**Yuldashova
Sevara,
Taqqidqotchi.**

UO‘K 821.512.133

Annotatsiya: Maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” hikoyalar to‘plamidagi kundalik hayot psixologiyasini aks ettiruvchi lingvopoetik vositalar va ularning ingliz tiliga tarjimasidagi muqobillik masalalari o‘rganiladi.

Аннотация: В статье исследуются лингвопоэтические средства отражения психологии повседневной жизни в сборнике рассказов Уткира Хашимова "Дела мирские" и проблемы их эквивалентности при переводе на английский язык.

Annotation: The article examines the linguopoetic means of reflecting the psychology of everyday life in Utkir Hoshimov's collection of stories “Dunyoning ishlari” (“The Affairs of the World”) and the problems of their equivalence in English translation.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, lingvopoetika, psixologik tasvir, milliy-madaniy konnotatsiya, tarjima usullari, muqobillik, ichki monolog.

Ключевые слова: художественный перевод, лингвопоэтика, психологическое изображение, национально-культурная коннотация, стратегии перевода, эквивалентность, внутренний монолог.

Key words: literary translation, linguopoetics, psychological portrayal, national-cultural connotation, translation strategies, equivalence, internal monologue.

O‘zbek adabiyotida psixologik realizm an‘analari chuqur ildizlarga ega. XX asrning ikkinchi yarmida bu yo‘nalish yangi sifat jihatlarini namoyon etdi. O‘tkir Hoshimov ijodida psixologizm o‘ziga xos shaklda – kundalik hayot voqelikdagi oddiy insonlarning ichki dunyosini ochib berish orqali amalga oshiriladi. Yozuvchining “Dunyoning ishlari” asari aynan shu xususiyati bilan e‘tiborga sazovordir. Badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazishda eng murakkab vazifalardan biri – original matnning psixologik chuqurligini, milliy koloritini va badiiy ta‘sirini saqlab qolishdir. Ayniqsa, matn milliy-madaniy

konnotatsiyaga ega unsurlar, xalq og‘zaki ijodi elementlari va o‘ziga xos nutqiy uslublarni bilan to‘lgan bo‘lsa, tarjimon oldida ko‘p qirrali muammolar paydo bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘tkir Hoshimov hikoyalarida kundalik hayot psixologiyasini ifodalashda qo‘llangan lingvopoetik vositalarni aniqlash va ularning ingliz tiliga tarjimasidagi muqobillik darajasini baholashdan iborat. Badiiy matn psixologiyasini tadqiq etishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud. L.S. Vygotskiy “Badiiy ijod psixologiyasi” asarida badiiy matnning psixologik tuzilishi masalasiga murojaat etgan. M.M. Baxtin dialogizm nazariyasi va ko‘p ovozlilik konsepsiyasi orqali matn ichidagi turli onglarning o‘zaro ta‘sirini o‘rgangan. O‘zbek adabiyotshunosligida O‘tkir Hoshimov ijodini tadqiq etishga N. Shukurov, B. Nazarov, H. Yakubov, O. Sharafiddinov va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Biroq, yozuvchining asarlarida qo‘llangan lingvopoetik vositalar va ularning tarjimasidagi muqobillik masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan. Badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotiga doir K.I. Chukovskiy, V.N. Komissarov, L.K. Latishev, A. Rafiqov, N. G‘aniyev, Z. Majidova kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo tillar orasidagi psixologik va madaniy farqlarni bartaraf etish yo‘llarini topish hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Quyidagi metodlar maqolamiz bazasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

- 1) Qiyosiy-tipologik tahlil – original matn va uning tarjimasini solishtirish;
- 2) Lingvopoetik tahlil – matnning til va badiiy xususiyatlarini o‘rganish;
- 3) Kontekstual tahlil – so‘z va iboralarning ma‘no qatlamlarini ochib berish;
- 4) Tarjima transformatsiyalarini tahlil qilish – muqobillik strategiyalarini aniqlash.

1. Milliy-madaniy konnotatsiyali leksika.

O‘tkir Hoshimov hikoyalarida milliy hayot tarzini aks ettiruvchi so‘zlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Bobom” hikoyasida: “Suprada palov, bug‘doy ko‘ja, non, qatiq bor edi”.

Ingliz tilidagi tarjimada bu gap quyidagicha berilgan: “On the tablecloth there was pilaf, wheat porridge, bread, and sour cream”. Bu erda “supra” so‘zi “tablecloth” deb tarjima qilingan, “palov” transkripsiya yo‘li bilan berilgan, “ko‘ja” tavsifiy tarjima orqali “wheat porridge” shakliga keltirilgan, “qatiq” esa “sour cream” deb tarjima qilingan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, "supra" so'zining "tablecloth" deb tarjima qilinishi milliy kolorit yo'qolishiga olib keladi. "Supra" – bu oddiy dasturxon emas, balki milliy an'analar bilan bog'liq madaniy belgidir. "Qatiq" so'zini "sour cream" deb berish ham noto'g'ri, chunki bu ikki mahsulotning tayyorlanish texnologiyasi va ta'mi boshqa-boshqadir. Bunday holatlarda izohlovchi tarjima yoki transkripsiya + izoh kombinatsiyasi samaraliroq bo'lishi mumkin.

2. Psixologik holatni ifodalovchi tasviriy vositalar.

Yozuvchi qahramonlarining ruhiy holatini aks ettirishda o'ziga xos metafora va tashbehlardan foydalanadi. "Nur borki, soya bor" hikoyasidan:

"Ko'ngli erga qaragan yigitning ahvoli devordan osilib qolgan kolagayda o'xshardi – shamol urganda qimirlaydi-da, shamol to'xtagach muzlab qoladi".

Ingliz tilidagi tarjima: "The condition of the dejected young man resembled a shawl hanging on the wall – it flutters when the wind blows, but freezes when the wind stops".

Tarjimada tashbehning strukturasi saqlanib qolgan, biroq "kolagay" so'zining "shawl" deb tarjima qilinishi madaniy assotsiatsiyalarni susaytiradi. O'zbek madaniyatida kolagay nafaqat kiyim-kechak buyumi, balki milliy o'ziga xoslikning ramzi hisoblanadi. Bunday holatlarda transkripsiya + qisqa izoh berish maqsadga muvofiqroq bo'lardi.

Boshqa bir misol – ichki titrashlarni aks ettiruvchi tasvir: "Yuragi to'ldinlanib, qo'llari qaltirab turardi". Ingliz tilida: "His heart was pounding, his hands were trembling". Bu erda tarjimon to'liq muqobillikka erishgan.

3. Ichki monolog va erkin bilvosita nutq.

O'tkir Hoshimov qahramonlarining ichki dunyosini ochib berishda ichki monolog va erkin bilvosita nutqdan mahorat bilan foydalanadi. "Qanotli qo'rqma" hikoyasidan:

"Nima qilaman-chi? Borib aytaymi? Yo'q, aytolmayman. Demak, yashiraveraman. Lekin qachongacha yashiraman? Bir kun kelib bilib qoladi-ku. U yoqda, bu yoqda, qayerda tursin, barchasini bilaman men, bilaman-da, nimaga asta-sekin ketaveraymi-ya?"

Ingliz tilidagi tarjimada: "What should I do? Should I go and tell? No, I can't tell. So, I'll keep hiding it. But how long can I hide? One day she'll find out. Here and there, wherever it is, I know everything, I know, but why am I slowly dying?"

Ushbu misolda ichki monologning keskin savollar, qaror qabul qila olmaslik, ruhiy iztiroblar bilan to'lganligini ko'ramiz. Tarjimada savol tuzilmasi

va tafakkur oqimi saqlanib qolgan, biroq “asta-sekin ketaveraymi” iborasining “slowly dying” deb tarjima qilinishi obrazning kuchini biroz kamaytiradi. Original matnda bu ifoda ko‘proq ruhiy iztirobni bildirsa, ingliz tilida jismoniy holat bilan ko‘proq bog‘lanadi.

4. Kundalik nutq uslubidagi kollokatsiyalar.

Yozuvchining tilida kundalik nutqqa xos so‘z birikmalari juda ko‘p uchraydi. Masalan:

- “Ko‘ziga ko‘rinmay qo‘ydi” – “didn’t show up”;
- “Xayolga bordi” – “became lost in thought”;
- “Og‘zini ochdi” – “spoke up”;
- “Qoshini chimirdi” – “frowned”.

Bunday iboralar tarjimada odatda funksional muqobillar bilan almashtiriladi. Biroq ba‘zan original ifodaning obrazlilik yo‘qoladi. Masalan, “qoshini chimirdi” iborasi “frowned” so‘ziga nisbatan ancha aniqroq va jozibador tasvirni beradi.

Yana bir misol: “Yuragidan gap chiqdi” – “he spoke from the heart”. Bu erda ma’no o‘xshashligi saqlanib qolgan, lekin o‘zbek tilidagi ifodaning o‘ziga xos milliy ko‘rinishi ingliz tilida umum qabul qilingan idiomaga aylantirilgan.

5. Dialog va polifoniya.

O‘tkir Hoshimovning dialoglarni qurish usuli o‘ziga xosdir. Ular tabiiy, jonli va turli xil nutqiy xususiyatlarga ega qahramonlarning ovozlari o‘z ichiga oladi. “Otaning ishi” hikoyasidan:

– Qani, nima deding? – Hech narsa demaganman-ku, ota! – Nima deganing yo‘q deding-a! Eshitdim-da, eshitdim!”

Ingliz tilida: “– Come on, what did you say? – I didn’t say anything, father! – You said you didn’t say anything! I heard it, I heard it!”

Bu dialogda so‘zlashuv uslubining jonliligini, emotsional holatni aks ettiruvchi takrorlashlarni ko‘ramiz. Tarjimada strukturasi saqlanib qolgan, biroq o‘zbek tilidagi “-ku”, “-da” kabi modal zarrachalarning emotsional ta’siri to‘liq berilmagan.

6. Ramziy obrazlar va undov so‘zlar.

Yozuvchining tilida undov so‘zlar va his-hayajonni ifodalovchi ramziy obrazlar muhim ahamiyatga ega. “Voy”, “oh”, “hay-hay” kabi undovlarning tarjimasida muammo tug‘iladi, chunki ular nafaqat semantik, balki fonetik va milliy-ruhiy xususiyatga ham ega.

Masalan, “Voy, bolam-ey!” iborasi tarjimada “Oh, my child!” yoki “Alas, my child!” shaklida berilishi mumkin, biroq bu ikkala variant ham “voy” undovining ichki ta’sirini to’liq bera olmaydi. “Voy” – bu faqat hayrat emas, balki achinish, xavotir, mehr va boshqa ko‘plab hislarning uyg‘unlashgan ifodasidir.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘tkir Hoshimov hikoyalarida kundalik hayot psixologiyasini ifodalashning boy lingvopoetik arsenali qo‘llanilgan. Bular qatoriga milliy-madaniy konnotatsiyali leksika, psixologik holatni aks ettiruvchi metafora va tashbehlar, ichki monolog va erkin bilvosita nutq, kundalik nutq uslubidagi idiomatik birikmalar, dialog va polifoniya, shuningdek ramziy obrazlar kiradi.

Ingliz tiliga tarjimada tarjimon turli xil strategiyalardan foydalangan: transkripsiya, tavsifiy tarjima, funksional muqobillar, izohlovchi tarjima. Eng muvaffaqiyatli natijalar strukturaviy o‘xshashlik mavjud bo‘lgan hollarda erishilgan (masalan, ichki monologning ko‘p savollik tuzilishi, dialoglarning takrorlanishlari).

Biroq qator hollarda tarjima yo‘qotishlari kuzatiladi. Milliy-madaniy konnotatsiyali so‘zlarni oddiy tavsif orqali tarjima qilish madaniy koloritni susaytiradi. Undov so‘zlar va emotsional zarrachalarning muqobillari topilmaydi. Ba’zi obrazli iboralar tarjimada ravonlashtiriladi va qisman tasviriyligini yo‘qotadi.

Tarjimon oldida turgan asosiy muammo – asl matnning psixologik chuqurligini, milliy xususiyatini va badiiy ta’sirini bir vaqtning o‘zida saqlab qolish zaruratidir. Bu esa ba’zan ziddiyatli talablarni birlashtirish demakdir: aniqlik va ravonlik, tushunarlilik va ekzotiklik, soddalik va obrazlilik.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eng samarali tarjima strategiyalari quyidagilardir: 1) milliy-madaniy realiyalar uchun transkripsiya + izoh kombinatsiyasi; 2) psixologik holatlarni ifodalashda funksional muqobillar qidirish; 3) ichki monolog va erkin bilvosita nutqda asl matnning sintaktik xususiyatlarini saqlab qolish; 4) dialoglarda nutqiy xususiyatlarni boshqa vositalar (leksika, sintaksis) orqali kompensatsiya qilish.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” to‘plamidagi hikoyalar o‘zbek adabiyotida kundalik hayot psixologiyasini ifodalashning lingvopoetik boy manbai hisoblanadi. Yozuvchi oddiy insonlarning ichki dunyosini ochib berishda milliy madaniyat unsurlarini organik ravishda uyg‘unlashtiradi.

Tadqiqot badiiy tarjimaning nazariya va amaliyoti uchun bir qator amaliy tavsiyalar beradi: milliy realiyalarni izoh bilan birga berish zaruriyati,

kompensatsion strategiyalardan foydalanish, tarjima jarayonida lingvopoetik vositalarning funksiyalariga e'tibor qaratish. Kelajakda ushbu masalalarni chuqurroq o'rganish maqsadida boshqa yozuvchilar asarlari va turli til juftliklari asosida qiyosiy tadqiqotlar olib borish lozim.

Ushbu tadqiqot o'zbek adabiyotini dunyoga tanitish, turli madaniyatlar o'rtasida ko'prik bo'lish va tarjimonlar malakasini oshirishda o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M.M. Dostoyevskiy poetikasining muammolari. – M.: Sovet yozuvchisi, 1979. – 320-b.
2. G'aniyev N. Badiiy tarjima nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2016. – 240-b.
3. Komissarov V.N. Zamonaviy tarjima nazariyasi. – M.: ETS, 2002. – 424- b.
4. Majidova Z. Badiiy tarjima muammolari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 176-b.
5. Nazarov B. O'tkir Hoshimov hikoyalarining badiiy xususiyatlari. – Toshkent: "Fan", 2015. – 168-b.
6. Rafiqov A. Badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "O'qituvchi", 2010. – 256-b.
7. Sharafiddinov O. O'zbek nasri va psixologizm. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2017. – 200-b.
8. Shukurov N. O'tkir Hoshimov ijodi. – Toshkent: "Fan", 2012. – 192-b.
9. Vygotskiy L.S. Badiiy ijod psixologiyasi. – M.: Iskustvo, 1986. – 398- b.
10. Yakubov H. Hozirgi o'zbek nasrida badiiylik muammolari. – Toshkent: "Akademnashr", 2019. – 224-b.
11. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: "Sharq", 2008. – 352-b.
12. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.
13. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995. – 353 p.
14. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011. – 332 p.
15. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

FILOLOGIYA**OGAHİY LIRIKASIDA VAQT FALSAFASINING RAQAMLARDAGI
IFODASI****UO‘K 821.512.133****Raximova
Gulnoza,
Urganch davlat
universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning “Taviz ul-oshiqin” devonidagi g‘azallarda uchraydigan vaqt bilan bog‘liq raqamlar tahlil qilinadi va mumtoz adabiyotda vaqt falsafasining raqamlar orqali qay yo‘sinda ifodalanishi baytlar misolida yoritiladi. Shuningdek, ushbu raqamlarning bayt mazmunini ochishdagi va poetik shakllanishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Аннотация: В статье анализируются числа, связанные со временем, в газелях Огахи из сборника «Тавиз уль-Ошикин» и освещается, как понятие времени выражается через числа в классической литературе на примере стихов. Также показана роль этих чисел в раскрытии содержания стиха и в поэтическом формировании.

Annotation: The article analyzes numerical expressions related to time found in the ghazals of Ogahiy’s divan “Taviz ul-oshiqin” and examines how the concept of time is represented through numbers in classical literature, illustrated with examples from poetic couplets. In addition, the role of these numerical elements in revealing the meaning of the couplets and in the formation of poetic structure is demonstrated.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, g‘azallar, lahza, fursat, dam, vaqt, tasavvuf, komil shaxs, mumtoz adabiyot, oshiq, hasad, yor.

Ключевые слова: Огахи, газели, момент, возможность, отдых, время, мистицизм, совершенный человек, классическая литература, влюблённый, зависть, возлюбленная.

Key words: Ogahi, ghazals, moment, opportunity, time, sufism, complete individual, classical literature, lover, envy, beloved.

She’riyatning asosiy tasvir obyekti insonning qalbi, kechinmalari, his-tuyg‘ularidir. Ammo inson boshidan o‘tkazuvchi tuyg‘ular vaqtinchalik - oniy. Shunday ekan, adabiyotda lahza, fursat, damning ham ahamiyati katta. “Darhaqiqat, bir dam, bir on, bir lahza va fursatlarni qadrlash, ularning zoye

ketmasligini his qilish uygʻoqlikdan dalolat beradi. Inson ayni damda hozir yashab turgan, nafas olayotgan fursatlarini qadrlay olsagina, nurli oʻtmish va yorqin kelajakka xolis nazar tashlay oladi” [1, 217-bet]. Demak, vaqt bu bizning oʻtmishimiz, hozirimiz va kelajagimizdir, deb bermalol ayta olamiz.

Taʼkidlash joizki, shoir Ogahiy ijodida vaqtni bildiruvchi soʻzlar bilan kelgan sonlar 56 ta oʻrinda koʻzga tashlanadi. Navoiyda esa bu koʻrsatkich 63 tani tashkil qiladi.

Mumtoz adabiyotimizning yirik vakillaridan biri boʻlmish Ogahiy ijodida ham vaqtning kichik birliklari - lahza, on, damning qiymati baland holatda tasvirlanadi. Shoir ijodida qoʻllanilgan, raqamlar bilan birga kelgan vaqtga oid tushunchalarni talsafiy jihatdan tadqiq qilish mumkin.

“Vaqt keskir qilichdir. Agar keskir boʻlmaganda edi, holdan holga oʻtguningga qadar seni kutgan boʻlardi. Holbuki, zamon oʻtkir qilichdek harakatlanadi va oʻz hukmini ijro etadi” [2, 157-bet]. Najmiddin Kubro tomonidan qayd etilgan ushbu fikrlar nafaqat tasavvuf yoʻliga kirib, komillik sari borayotgan murid uchun, balki oʻzini tanigan har qanday inson uchun dasturil amal boʻlishga loyiq.

Ogahiy ham oʻzining “Yo Rab” radifli gʻazalida Allohdan bir dam boʻlsa ham nafsga magʻlub qilib qoʻymasligini soʻraydi:

Ishq zavqini etkur jongʻa har nafas, yo Rab,
Nafs komini bir dam qilma dastras, yo Rab.

[4, 60-bet]

Nafs tasavvuf adabiyotida keng qoʻllaniluvchi istilohlardan biri boʻlib, tasavvufdagilarni maqsaddan ogʻdiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Unga bir nafasga ham qoʻl bermaslik lozim.

Boshqa bir gʻazalida esa Ogahiy dunyo va undagi barcha narsalardan inson umridan bir kunni afzal biladi, uni mavjud borliqdan ustun qoʻyadi. Baytda qoʻllanilgan “Dunyovu mo fiyho” dunyo va undagi barcha narsalarni anglatadi:

Voqif oʻl, oʻtkarmagik behuda umringkim, oning
Bir kuniga boʻlmogʻay “dunyovu mo fiyho” evaz.

[4, 176-bet]

Ogahiyning devonidan olingan boshqa bir parchaga diqqat qilsak:

Tong ermas, boʻlmasam bir lahza hosid makridin emin,
Ki shaytondin adovat to abad Odamgʻua maqrundur.

[4, 111-bet]

Baytning umumiy mazmunini ochiqlashdan oldin undagi ayrim tushunchalarga izoh bersak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. 1-misrada qo‘llanilgan “hosid” so‘zi hasad ma’nosini, “emin” omonda, xavfsiz, tinch ma’nolarini, 2-misradagi “maqrun” so‘zi esa yaqinlashgan, yaqin, yondoshgan ma’nolarini anglatadi.

Bilamizki, hasad shaytoniy illatlardan biri. Parcha orqali ham Ogahiy qiyomatga qadar inson uchun dushman deya bitilgan, ammo u bilan har lahza yondosh bo‘luvchi shayton bor ekan, har bir kimsa hasaddek yomonlikdan yiroq emasligini uqtirmoqda. Shoirning “Ey ko‘ngul” radifli g‘azalida ham hasad, molidunyoga ruju qo‘yish, boylikka ko‘ngil berish qoralanadi, boriga qanoat qilishga chaqiradi. Ushbu g‘azalda ham yuqoridagi parcha mazmuniga monand bayt mavjud. Unda aytiladiki, hasad o‘ti kishiga bir lahza fursat bermadi, u jahonni yoqishga qodir:

Kima hasad o‘ti jahonni yoqg‘usi,
Bermayin bir lahza fursat, ey ko‘ngil.

[4, 229-bet]

Bir lahza, bir nafas, bir damda shunday katta kuch-qudrat yashiringanki, haqiqiy oshiq uchun bu vaqtning qiymati baland. U kichik fursatga bo‘lsa-da yor xotirasidan ko‘tarilishiga rozi emas:

Qilma ko‘nglung bir nafas xoli xayoli yordin,
Har qachonkim durdin ayrilsa bo‘lur rasvo sadaf.

[4, 192-bet]

Ushbu baytni ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda tushunish mumkin. Sadaf bu marvarid qobig‘i, bu qobiqqa rang solib, davot o‘rnida ishlatganlar, shunday idishni sadaf deb ataganlar. Tasavvufda keng qo‘llaniluvchi durd esa mayning quyqasi. Bir qarashda muallif “Yorning xayolini bir nafas ko‘ngildan chiqarmaslik lozim, zero durdidan ayrilgan sadaf ishlatish uchun yaroqsiz bo‘ladi” deyayotgandek bo‘ladi. Ammo baytning ikkinchi - zohiriy ma’nosi ham mavjud. Yor deyilganda Alloh tushunilsa, parcha orqali bir zum bo‘lsa ham Allohdan ko‘ngil uzmaslik lozimligi, aks holatda inson asl maqsadini yo‘qotgan sadafga, ya’ni foydasiz bir buyumga aylanib qolishi ta’kidlanayotganini ko‘rish mumkin. Ogahiy o‘zining bu ijod mahsuli orqali ahli kitobxonga Qur’oni Karimning Baqara surasi 156-oyatini eslatayotgandek bo‘ladi. Oyatning mazmuni quyidagicha: “Biz Allohnikimiz va unga qaytuvchimiz” [5, 85-bet]. Ogahiy ham o‘z ijod mahsuli orqali shu narsani ta’kidlamoqchi desak, noto‘g‘ri bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mumtoz adabiyotimizda, xususan Ogahiy ijodida vaqt falsafasining raqamlarda ifodalanishi qator o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi va har bir birlik o‘ziga xos ma’no kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaeva S. Alisher Navoiy she’riyatida ramziy raqamlar talqini // Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. 15-jild. - T.: “Tamaddun” nashriyoti. 2022.
2. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. - T.: 2004.
3. Porso Shamsiev. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. - T. “G‘afur G‘ulom” nashriyoti. 1972.
4. Rafiddinov S. Ogahiy // Turkiy adabiyot durdonalari. 9-jild. - T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2022.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. - T.: “Hilol nashr” nashriyoti. 2024.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK TILINING XORAZM SHEVASI VA INGLIZ TILIDAGI
FRAZEMALARNING QIYOSIY TADQIQI****UO‘K 821.5.4****Raximova Guzal,
Urganch
innovatsion
universiteti
magistranti.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilining Xorazm shevasida uchraydigan frazeologik birliklar hamda ingliz tilidagi frazemalar qiyosiy-lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot frazemalarning semantik, strukturaviy va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ фразеологических единиц хорезмского говора узбекского языка и английского языка. Исследуются семантические, структурные и лингвокультурные особенности фразем, раскрывается их связь с национальным менталитетом и культурной картиной мира.

Annotation: This article presents a comparative analysis of phraseological units used in the Khorezm dialect of the Uzbek language and those in the English language. The study examines semantic, structural, and linguocultural features of phraseological units, revealing their close connection with national mentality and cultural worldview.

Kalit so‘zlar: frazema, Xorazm shevasi, qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya, lingvomadaniyat.

Ключевые слова: фразеологизм, хорезмский говор, сопоставительное языкознание, фразеология, лингвокультура.

Key words: phraseological unit, Khorezm dialect, comparative linguistics, phraseology, linguoculture.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim leksik qatlam sifatida baholanadi. Frazemalar nafaqat nutqning obrazlilikini ta’minlaydi, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi¹. Shu bois, ularni qiyosiy jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

¹Vinogradov V. V. Основные типы фразеологических единиц. — М.: Наука, 1977.

O'zbek tilining Xorazm shevasi frazeologik boyligi, obrazlilik va qadimiy qatlamlarning saqlanib qolganligi bilan ajralib turadi¹. Ingliz tili esa frazeologik tizimning rivojlanganligi va pragmatik yo'nalganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu maqolada Xorazm shevasi frazemalarining ingliz tilidagi muqobillari qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari yoritiladi.

Tadqiqot qiyosiy-tahliliy metod asosida olib borilib, bunda o'zbek tilining Xorazm shevasiga mansub frazeologik birliklar ingliz tilidagi muqobil frazemalar bilan solishtirma jihatdan o'rganildi. Tahlil jarayonida semantik metod orqali frazemalarning mazmuniy tuzilishi, ichki ma'no qatlamlari va konnotativ xususiyatlari aniqlandi, lingvomadaniy yondashuv asosida esa ularning xalqning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlari bilan bog'liqligi yoritildi.

Shuningdek, tavsifiy metod yordamida frazeologik birliklarning shakliy va funksional xususiyatlari izchil tasvirlanib, kontekstual tahlil orqali ularning real nutqiy muhitdagi qo'llanish imkoniyatlari ochib berildi. Tadqiqot materiali sifatida Xorazm shevasiga oid dialektologik manbalar, og'zaki nutqdan qayd etilgan frazemalar hamda ingliz tilining etakchi frazeologik lug'atlaridan olingan birliklar tanlab olinib, ular semantik struktura, obrazlilik darajasi va kommunikativ-funksional jihatlari nuqtayi nazaridan kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm shevasidagi frazemalar ko'pincha milliy-maishiy va tarixiy asosga ega. Masalan, ayrim frazemalar dehqonchilik, hunarmandchilik yoki ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ingliz tilida to'liq ekvivalentga ega emas.

Ingliz tilidagi frazemalarda esa individualizm, pragmatik maqsad va nutqiy ixchamlik ustuvor hisoblanadi.² Qiyosiy tahlil jarayonida Xorazm shevasidagi frazeologik birliklar va ingliz tilidagi frazemalar o'rtasida bir qator muhim tipologik holatlar aniqlandi. Jumladan, ayrim frazemalar mazmuniy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning obraz asoslari va metaforik manbalari turlicha ekanligi kuzatildi, bu esa har ikki tilga xos milliy tafakkur va dunyoqarashdagi farqlar bilan izohlanadi.

¹ Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология. — Ташкент: Наука, 1968.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

Shuningdek, funksional jihatdan o'xshash kommunikativ vazifani bajaradigan, biroq madaniy asos va assotsiativ fondi jihatidan sezilarli tafovutlarga ega bo'lgan frazeologik birliklar mavjudligi aniqlandi. Bunday birliklar nutqiy vaziyatda bir xil pragmatik maqsadga xizmat qilsa-da, ularning lingvomadaniy mazmuni va obrazlilik darajasi turlicha namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, qiyosiy tahlil natijasida ingliz tilida to'liq yoki qisman muqobiliga ega bo'lmagan, ya'ni mutlaqo ekvivalentsiz frazemalar ham aniqlanib, ular Xorazm shevasining milliy-madaniy xususiyatlarini, mahalliy realiyalar va tarixiy tajribani aks ettiruvchi o'ziga xos til birliklari sifatida baholandi. Ushbu holatlar frazeologik ekvivalentlik masalasining murakkabligini ko'rsatib, tarjima jarayonida funksional va kontekstual moslikni ta'minlash zarurligini tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlil jarayonida Xorazm shevasidagi frazeologik birliklar va ingliz tilidagi frazemalar o'rtasida bir qator muhim tipologik holatlar aniqlandi. Jumladan, ayrim frazemalar mazmunijihatdan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning obraz asoslari va metaforik manbalari turlicha ekanligi kuzatildi, bu esa har ikki tilga xos milliy tafakkur va dunyoqarashdagi farqlar bilan izohlanadi. Shuningdek, funksional jihatdan o'xshash kommunikativ vazifani bajaradigan, biroq madaniy asos va assotsiativ fondi jihatidan sezilarli tafovutlarga ega bo'lgan frazeologik birliklar mavjudligi aniqlandi. Bunday birliklar nutqiy vaziyatda bir xil pragmatik maqsadga xizmat qilsa-da, ularning lingvomadaniy mazmuni va obrazlilik darajasi turlicha namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, qiyosiy tahlil natijasida ingliz tilida to'liq yoki qisman muqobiliga ega bo'lmagan, ya'ni mutlaqo ekvivalentsiz frazemalar ham aniqlanib, ular Xorazm shevasining milliy-madaniy xususiyatlarini, mahalliy realiyalar va tarixiy tajribani aks ettiruvchi o'ziga xos til birliklari sifatida baholandi. Ushbu holatlar frazeologik ekvivalentlik masalasining murakkabligini ko'rsatib, tarjima jarayonida funksional va kontekstual moslikni ta'minlash zarurligini tasdiqlaydi.¹ Shu sababli, tarjimada ekvivalentlikdan ko'ra funksional va kontekstual moslik ustuvor bo'lishi lozim.

¹ Cowie A. P. Phraseology: Theory, Analysis and Applications. — Oxford: OUP, 1998.

Lingvomadaniy yondashuv asosida frazemalarni o'rganish madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa qiyosiy frazeologiya tadqiqotlarining dolzarbligini yanada oshiradi.

Qiyosiy tahlil natijasida Xorazm shevasiga oid frazeologik birliklar va ingliz tilidagi frazemalar o'rtasida bir qator muhim farqlar aniqlandi: ayrim frazemalar semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning obrazlilik asoslari va metaforik manbalari turlicha bo'lib, bu holat milliy tafakkur va madaniy tajribadagi farqlar bilan izohlanadi; shuningdek, funksional jihatdan bir xil kommunikativ vazifani bajaradigan, biroq lingvomadaniy mazmuni va assotsiativ fondi jihatidan tafovutli birliklar mavjudligi kuzatildi; bundan tashqari, ingliz tilida to'liq muqobiliga ega bo'lmagan, ya'ni mutlaqo ekvivalentsiz frazemalar aniqlanib, ular Xorazm shevasining mahalliy realiyalar, tarixiy tajriba va milliy-madaniy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi til birliklari sifatida baholandi.

Natijalar frazemalarni tarjima qilishda so'zma-so'z emas, balki funksional va kontekstual yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, qiyosiy frazeologik tadqiqotlar madaniyatlararo muloqot va tarjima amaliyotini boyitishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологияси. — Тошкент: “Фан”, 1978.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.
3. Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология. — Ташкент: “Наука”, 1968.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. — Москва: “Академия”, 2001.
5. Kövecses Z. Metaphor and Culture. — Cambridge: CUP, 2010.
6. Cowie A. P. Phraseology: Theory, Analysis and Applications. — Oxford: OUP, 1998.
7. Vinogradov V. V. Фразеология русского языка. — Москва: “Наука”, 1977.
8. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 2018.

FILOLOGIYA**INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MIFOLOGIK
OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI****UO‘K 811.111:8.80**

**Sobirova Nilufar,
Urganch
innovatsion
universiteti
“O‘zbek va xorijiy
filologiya”
kafedrası
o‘qituvchisi.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarning o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Tadqiqotda xalq og‘zaki ijodi, yozma manbalar va zamonaviy adabiyot namunalari tahlil qilindi.

Аннотация: В данной статье с помощью сравнительно-аналитического подхода исследуются сходства и различия между мифологическими образами в английской и узбекской литературе. В исследовании анализируются народные устные традиции, письменные источники и примеры современной литературы.

Annotation: This article provides a comparative analysis of mythological images in English and Uzbek literature. By examining folklore, classical texts, and modern literary works, the study identifies both common archetypes and unique cultural differences.

Kalit so‘zlar: mifologik obraz, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, qiyosiy tahlil, arxetip.

Ключевые слова: мифологический образ, английская литература, узбекская литература, сравнительный анализ, архетип.

Key words: mythological image, English literature, Uzbek literature, comparative analysis, archetype.

Mifologik obrazlar qadimdan insoniyat tafakkurida chuqur iz qoldirgan bo‘lib, ular milliy adabiyot va madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Mifologik timsollar nafaqat qadimiy rivoyat va afsonalarning asosiy tarkibiy qismi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini va tarixiy xotirasini avloddan-avlodga etkazuvchi kuchli ma’naviy vositadir. Shuning uchun ham mifologik obrazlar turli xalqlarning og‘zaki ijodi, yozma adabiyoti hamda zamonaviy badiiy tafakkurida davomli va izchil ravishda namoyon bo‘lib kelmoqda. Adabiyotshunoslikda mifologik obrazlarni o‘rganishda turli nazariy yondashuvlar shakllangan. J.Campbellning mashhur “The Hero with a Thousand Faces” (“Qahramonning ming yuzi”) asarida qahramon arxetipi butun dunyo miqyosida

uchraydigan umumiy struktura sifatida tahlil qilingan. K. Levi-Strossning mif strukturalizmi miflarni inson tafakkurining universal modeliga aylantirib, ular orqali insonning borliqni tushunish mexanizmini izohlab berdi. N. Fryening arxetip nazariyasi esa mifologik obrazlarni adabiyotdagi to‘rt asosiy syujet doirasi (romantik, fojiali, komik va satirik) bilan bog‘lab, ularning badiiy asarlarda qanday shaklga kirishini ko‘rsatadi. M. Eliade tadqiqotlari esa mifologiyaning diniy-falsafiy ildizlariga e‘tibor qaratib, insoniyat ruhiyatida miflarning muqaddas vaqt va makon konsepsiyasi bilan bog‘liqligini asoslab berdi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham mifologik obrazlarni o‘rganish muhim ilmiy an‘anaga ega. Hodi Zarifov o‘zbek xalq og‘zaki ijodida uchraydigan mifologik tushunchalarning folklor asoslarini chuqur tahlil qilgan. To‘ra Mirzaev xalq ertaklari va dostonlarida mavjud mifologik qatlamlarni tizimli ravishda tadqiq etib, ular orqali xalq mentaliteti va tarixiy xotirasini yoritishga harakat qilgan. Ozod Sharafiddinov va Izzat Sulton singari olimlar esa mifologik obrazlarning badiiy adabiyotdagi qayta talqinini o‘rganib, mif va zamonaviy adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berganlar.

Metodlar: Ushbu maqola qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida yozildi. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek adabiyotida uchraydigan mifologik obrazlar matnshunoslik va adabiyotshunoslik metodlari orqali o‘rganildi. Asosiy metodologik tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Qiyosiy tahlil metodi – ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlar (ajdarho, qush timsollari, qahramon arxetiplari, dev va pari) o‘xshashlik va farqlari nuqtayi nazaridan qiyoslandi.
2. Arxetip tahlili – J. Campbell va N. Frye nazariyalariga tayangan holda mifologik obrazlarning umumiy arxetipik ildizlari aniqlanib, ularning adabiyotdagi ramziy ma’nolari yoritildi.
3. Madaniy-kontekstual yondashuv – mifologik timsollarning talqini ularning milliy, diniy va tarixiy konteksti asosida izohlandi. Masalan, ingliz mifologiyasi kelt va german afsonalariga, o‘zbek mifologiyasi esa turkiy va zardushtiy an‘analarga tayanadi.
4. Manbashunoslik yondashuvi – tadqiqotda dastlabki yozma manbalar (“Beowulf”, “Alpomish”), xalq og‘zaki ijodi namunalari tashqari, zamonaviy yozuvchilarning asarlari (Tolkien, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam) ham o‘rganildi.

Mazkur metodologik yondashuv orqali mifologik obrazlarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning ingliz va o‘zbek adabiyotidagi funksional roli izchil tahlil qilindi.

Natijalar: Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarning o'xshashliklari va farqlari qator jihatlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Qahramon arxetipi.

- Ingliz adabiyotida qahramon obrazlari ko'pincha epik janglarda namoyon bo'ladi. Masalan, Beowulf ajdarhoga qarshi kurashar ekan, xalqini himoya qiluvchi jasur arbob sifatida tasvirlanadi.

- O'zbek adabiyotida esa qahramonlar ko'proq ijtimoiy adolat va ma'naviy poklik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Alpomish obrazi nafaqat xalqini himoya qiladi, balki oilaviy sadoqat, vatanparvarlik va insoniylik fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

- Shunday qilib, har ikki adabiyotda qahramonlar markaziy obraz bo'lsa-da, ularning vazifasi turlicha: ingliz mifologiyasida qahramon – jangchi, o'zbek mifologiyasida esa – axloqiy ideal.

2. Ajdarho va dev obrazlari.

- Ingliz mifologiyasida ajdarho yovuz kuchning eng asosiy timsoli bo'lib, odatda qahramon bilan to'qnash keladigan asosiy dushman sifatida talqin etiladi. Ajdarho ko'pincha xazina qo'riqlovchisi, tartibsizlik va vayronkorlik ramzidir.

- O'zbek mifologiyasida esa dev obrazlari ko'proq insonning ichki nafsini, xudbinlik va yovuz istaklarini ifodalaydi. Dev ko'pincha qahramonning sinovidan o'tuvchi to'siq sifatida gavdalanadi.

- Ingliz mifologiyasida ajdarhoga qarshi kurash xalqni qutqarish ramzi bo'lsa, o'zbek mifologiyasida dev ustidan g'alaba – insonning o'z nafsini engishi bilan bog'liq.

3. Qush timsollari.

- O'zbek adabiyotida Humo qushi – baxt va ozodlik ramzi, Semurg' esa donishmandlik, yordam va najot timsoli hisoblanadi.

- Ingliz mifologiyasida qushlar ko'proq folbinlik va ilohiy xabar olib keluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, qarg'a yoki boyo'g'li ko'pincha kelajakni bashorat qiluvchi obrazdir.

- Bu o'rinda farq shundaki, o'zbek mifologiyasida qushlar ijobiy va najotkor obraz sifatida talqin etilsa, ingliz mifologiyasida ular ko'proq ogohlantiruvchi, hatto ba'zan salbiy belgilar bilan bog'liq bo'ladi.

4. Ayol obrazlari: pari va sirenalar

- Ingliz mifologiyasida sirenalar va pari obrazlari vasvasa, joziba va xavf ramzi sifatida ko'rinadi. Ular ko'pincha erkak qahramonni sinovdan o'tkazadi.

- O'zbek mifologiyasida esa parilar ko'proq ezgulik, go'zallik va ma'naviy tozalik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ular qahramonga yordam beradi yoki unga yo'l ko'rsatadi.

- Bu jihatdan ingliz mifologiyasidagi ayol obrazlari sinovchi, o'zbek mifologiyasida esa qo'llovchi vazifasini bajaradi.

5. Zamonaviy adabiyotdagi davomiylik.

- Ingliz adabiyotida J. R. R. Tolkienning "Uzuklar hukmdori" asarida elf, gnom va ajdarho singari mifologik obrazlar yangi shaklda talqin qilinib, o'quvchini qadimiy miflar olamiga qaytaradi.

- O'zbek yozuvchilari Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam asarlarida ham mifologik ramzlar yangi zamonaviy talqinlarda gavdalanadi. Masalan, insonning ichki dunyosidagi iztiroblar va ijtimoiy muammolar mifologik obrazlar vositasida badiiy ifodasini topadi.

- Bu davomiylik mifologik obrazlarning faqat tarixiy meros emas, balki zamonaviy badiiy tafakkur uchun ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek adabiyotidagi mifologik obrazlar mazmun jihatidan turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi bir xil – xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini saqlashdir. Ingliz mifologiyasida ajdarho, sirena va qahramon obrazlari ko'proq jangovar, epik va sinovchi tusga ega bo'lib, xalqni jasoratga undash, kurashchanlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbek mifologiyasida esa dev, pari va qush timsollari ko'proq ichki dunyo, axloqiy poklik va ma'naviy o'zlikni ifodalash bilan bog'langan. Shuningdek, har ikkala adabiyotda ham mifologik obrazlarning zamonaviy yozuvchilar asarlarida qayta talqin qilinishi milliy xotira va folklorning davomiyligini ko'rsatadi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar ingliz va o'zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarning nafaqat umumiy ildizlarga ega ekanini, balki har bir xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari asosida shakllangan o'ziga xos jihatlari borligini ko'rsatadi. Qahramon, ajdarho, dev, pari va qush singari timsollar har ikki xalq adabiy merosida muhim o'rin egallasa-da, ularning semantik yuklamasi va badiiy vazifasi madaniy kontekstga ko'ra turlicha talqin etiladi. Ingliz adabiyotida bu obrazlar ko'pincha sinov, kurash va inson irodasining kuchini namoyon etuvchi epik ramzlar sifatida namoyon bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular ezgulik, ma'naviy poklik, muhabbat va milliy o'zlikni anglatuvchi ma'nolar bilan boyitiladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek va ingliz yozuvchilari ijodida ham mifologik unsurlar yangi badiiy shakllar va ramziy qatlamlar orqali qayta talqin qilinayotgani kuzatiladi. Bu holat mifologiyaning adabiy tafakkurda hanuz faol estetik va falsafiy manba sifatida yashayotganini



isbotlaydi. Demak, mifologik timsollar xalq xotirasi va madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ularning vositasida milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ruhiy izlanishlar avloddan avlodga etkaziladi. Shu bois, mif va ramzlar o‘zbek hamda ingliz adabiy jarayonlarida milliy identitetni mustahkamlovchi va madaniyatlararo muloqotni boyituvchi muhim badiiy vosita sifatida ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bundan tashqari, mifologik obrazlarning o‘rganilishi faqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki madaniyatshunoslik, semiotika va psixologiya fanlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Har bir mifologik timsol inson ongining arxetipik qatlamlarida shakllangan ramz sifatida jamiyatning ma’naviy holatini, orzu-umidlarini va qadriyat tizimini ifodalaydi. Shu ma’noda, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarni qiyosiy tahlil qilish nafaqat ularning badiiy mohiyatini ochib beradi, balki har bir xalqning ruhiy olami, milliy xotirasi va ijodiy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini ham yaratadi. Bu yo‘nalishdagi izlanishlar kelgusida madaniyatlararo muloqotni yanada mustahkamlash, adabiy tafakkurdagi umumiylik va farqlarni chuqurroq tahlil etish uchun mustahkam ilmiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Campbell, J. The Hero with a Thousand Faces. Princeton, 1949.
2. Frye, N. Anatomy of Criticism. Princeton, 1957.
3. Eliade, M. Myth and Reality. Harper & Row, 1963.
4. Tolkien, J.R.R. Beowulf: The Monsters and the Critics. London, 1936.
5. Sharafiddinov, O. Adabiyot va mifologiya. Toshkent, 1990.
6. Komilov, N. Mif va qadimiy turkiy adabiyot. Toshkent, 2005.

FILOLOGIYA

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA BOLALAR ADABIYOTIDA QO'LLANILADIGAN FRAZEOLOGIZMLARNING KOMMUNIKATIV VAZIFALARI

UO'K 811.111:8.80



**Dildora
Niyazmetova,**
Urganch innovatsion
universiteti
dotsenti. PhD.



**Sabirova
Maksuda,**
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti.

Annotatsiya: Maqolada frazeologizmlarning kommunikativ va tarbiyaviy vazifalari hamda ularning o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Frazeologik birliklarning axborotni emotsional va ta'sirchan etkazishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Аннотация: В статье освещаются коммуникативные и педагогические функции фразеологических единиц и их роль в развитии речевой компетенции учащихся. Показана важность фразеологических единиц в эмоциональной и экспрессивной передаче информации.

Annotation: The article highlights the communicative and educational functions of phraseological units and their role in the development of students' speech competence. The importance of phraseological units in the emotional and expressive transmission of information is shown.

Kalit so'zlar: frazeologim, pragmalingvistika, til birliklari, badiiy adabiyot, zamonaviy tilshunoslik, kommunikativ vazifa, ijtimoiy rollar, lingvokulturologik vosita, obrazlilik va ta'sirchanlik, milliy qadriyatlar.

Ключевые слова: фразеологические единицы (фразеологизмы), коммуникативные функции, образовательный процесс, речевая компетенция, нравственно-этическое воспитание, социализация учащихся, лингвокультурологический подход, социальные роли, национально-культурные ценности.

Key words: phraseological units, communicative function, communicative competence, moral and ethical education, socialization of students, linguo-cultural tools, social roles, national and cultural values, educational process, language expressiveness

Til inson kognitiv faoliyati, madaniy merosi va ijtimoiy tajribasining fundamental ifodalovchi vosita hisoblanadi. Lingvistik birliklar tizimida frazeologik birliklar alohida lingvokulturologik ahamiyatga ega bo‘lib, ular nutq diskursining obrazli, ekspressiv va milliy-madaniy xususiyatlarini determinatsiya qiladi. Xususan, badiiy diskursda frazeologizmlar nafaqat estetik, balki mulotning kommunikativ-pragmatik vazifalarini ham amalga oshiradi. Frazeologik birliklar vositasida muallif nafaqat adresatga semantik axborot uzatadi, balki uning qadriyatini dunyoqarashini shakllantirish va jamiyatda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy rollarni identifikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Lingvistikada frazeologizmlar tilning eng muhim ekspressiv-semantik birliklari qatoriga kiritiladi. Frazeologizm deganda tarkibi stabil, semantik jihatdan integral va nutqiy faoliyatda tayyor shaklda qo‘llaniladigan lingvistik birlik tushuniladi. Ularning asosiy differensial xususiyati individual leksemalar yig‘indisidan iborat emasligi, balki holistik ma’no ifodalashidir.

Kommunikativ lingvistika nuqtai nazaridan frazeologik birliklar nutqiy faoliyatda shunchaki semantik axborotni uzatish (translyatsiya qilish) bilan cheklanmay, balki o‘z ichiga deiktik, emotsional va pragmatik komponentlarni ham inkorporatsiya qiladi. Sh. Rahmatullayevning ilmiy konsepsiyasiga muvofiq, frazeologizmlar lingvistik subyektning ontologik reallikka bo‘lgan epistemik munosabatini ifodalashning muhim diskursiv vositasi hisoblanadi¹.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda frazeologizmlarni nafaqat struktural-semantik, balki pragmalingvistik aspektlarda o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Ularning pragmatik potentsiali bevosita kommunikativ kontekst, adresant-adresat o‘zaro munosabatlari va sotsiokultural muhit parametrlari bilan determinatsiyalanadi.²

Xususan, nutqiy kommunikatsiya jarayonida frazeologik birliklar muayyan illokutiv intensiyani amalga oshirishga xizmat qilib, adresatning affektiv va kognitiv sohalariga ta’sir etishning asosiy lingvopragmatik mexanizmi vazifasini bajaradi.

Frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik funktsiyalarini J. L. Austin va J. R. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi kontekstida

¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2001.

² Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka: Ucheb. dlya in-tov i fak. inostr. yaz. — 2-e izd., pererab. — M.: Vyssh. shk., 1986. — 336 s.

tahlil qilish mumkin. Bunda frazeologik birliklar nafaqat lokutiv (ma'no ifodalash), balki illokutiv (niyat bildirish) va perlokutiv (ta'sir o'tkazish) funktsiyalarni integratsiyalashgan holda amalga oshiradi.

Frazeologizmlarning pragmatik samaradorligi ularning fraym-semantik tuzilishi, kultural konnotatsiyalari va diskursiv adaptatsiya qobiliyati bilan bevosita korrelyatsiyada bo'lib, bu xususiyatlar ularni effektiv kommunikativ strategiyalar shakllantirishda muhim lingvistik resursga aylantiradi.

Tadqiqotning maqsadi: Badiiy matn misolida frazeologizmlarning kommunikativ vazifalarini aniqlash hamda ularning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi, xususan, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishdagi rolini ochib berish.

Sababi bunday birliklar o'quvchini oddiy axborot iste'molchisi emas, balki mazmunni talqin qiluvchi subyektga aylantiradi. Frazeologizmlar orqali axborot etkazish jarayoni oddiy leksik birliklarga nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Shu jihatdan frazeologizmlar kommunikativ vazifaning markazida turadi. Chunki ular qisqa shaklda keng ma'no doirasini qamrab oladi va matnning informativ yukini oshiradi³. Frazeologizmlarning kommunikativ tabiati quyidagilardan iborat, ular:

- axborotni ixcham va ta'sirchan shaklda etkazish;
- muallif munosabatini yashirin yoki ochiq ifodalash;
- o'quvchi hissiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatish.

Metodlar.

Tadqiqot davomida **qiyosiy-tipologik tahlil, diskursiv analiz** va **pragmalingvistik tahlil** metodlaridan foydalanildi. Mazkur maqolada frazeologizmlarning kommunikativ vazifalari tahlil qilinib, ularning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati G'afur G'ulomning "Shum bola" va J. K. Roulingning "Garri Potter va hikmatlar toshi" asarlari misolida yoritiladi va bundan maqsad frazeologizmlarning kommunikativ vazifalarini badiiy matn misolida aniqlash hamda ularning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi rolini ochib berish.

G'afur G'ulomning "Shum bola" asari o'zbek bolalar adabiyotida frazeologik birliklarning funksional imkoniyatlari va pragmatik quvvati yorqin namoyon bo'lgan manbalardan biridir. Adib asarda bosh qahramonning ijtimoiy ahvoli, murakkab ruhiy kechinmalari va dinamik kundalik hayotini shunchaki tasvirlamaydi, balki frazeologizmlar vositasida ularni ixcham, ammo semantik jihatdan salmoqli tarzda o'quvchi idrokiga etkazadi.

Natijalar.

Tahlillar natijasida frazeologizmlarning badiiy matndagi quyidagi kommunikativ strategiyalari aniqlandi: Avvalo, frazeologizmlar qahramonning **fiziologik va ijtimoiy holatini** vizuallashtirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, asardagi **“qorni ochdan ichagi qulog‘iga yopishgan”**¹ frazeologizmi bunga yorqin misoldir. Ushbu birlik personajning ochlik holatini oddiy nominativ tasvirdan ko‘ra ekspressiv-metoforik jihatdan kuchliroq ifodalaydi. Pragmalingvistik nuqtai nazardan, bu ibora o‘quvchiga faqatgina fiziologik ochlik haqida axborot berib qolmay, balki asar voqealari sodir bo‘layotgan davrning og‘ir ijtimoiy manzarasini, qahramonning chorasizligini ham chuqur his qildiradi. Ya’ni, bu erda frazeologizmning **deskriptiv (tasviriy)** funksiyasi uning **ijtimoiy-kontekstual** ma’nosi bilan sintezlashadi.

Shu bilan birga, asar to‘qimasida qahramonning tashqi holatidan uning **ichki dunyosiga (psixologizmga)** o‘tishda ham frazeologizmlar kommunikativ ko‘prik vazifasini o‘taydi. Xususan, **“ko‘zimga dunyo tor bo‘lib ketdi”** kabi birliklar Shum bolaning ruhiy bosimini, tushkunlik va ichki iztiroblarini ifodalashda muhim pragmatik rol o‘ynaydi. Bu kabi frazeologizmlar qahramonning subyektiv his-tuyg‘ularini umumlashtirilgan obrazli shaklga solib, o‘quvchida empatik (hamdardlik) tuyg‘usini uyg‘otishga yo‘naltirilgan.

“Shum bola” asaridagi frazeologizmlar nafaqat badiiy bezak, balki: qahramon portretini ijtimoiy-iqtisodiy fonda chizish; lirik qahramonning emotsional holatini maksimal darajada ta’sirchan etkazish; o‘quvchida davr va muhit haqida yaxlit tushuncha shakllantirish kabi pragmatik strategiyalarni amalga oshiradi.

J. K. Rouling asarida ingliz tiliga xos frazeologik birliklar syujet rivojini tezlashtirish va emotsional fonni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Masalan, **“Harry’s heart was in his mouth”** iborasi qahramonning qo‘rquv va hayajon holatini birgina frazeologizm orqali aniq ifodalaydi va kitobxon bu orqali voqeaning keskinligini darhol anglaydi. Shuningdek: **“Dudley nearly burst with pride.”**² Bu erda frazeologizm qahramonning haddan tashqari mag‘rurligini ochib beradi.

Kunin ta’kidlaganidek, bunday frazeologik birliklar nutqiy iqtisod tamoyiliga mos kelib, o‘quvchining diqqatini asosiy voqeaga qaratadi⁵.

¹ G‘afur G‘ulom. Shum bola. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot, 2018.

² Rowling J. K. Harry Potter and the Philosopher’s Stone. – London: Bloomsbury, 1997.

Frazeologizmlar xalqning ahloqiy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassamlashtiradi.¹ Shu sababli ular o‘quvchilarda ahloqiy me‘yorlarni shakllantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi⁶. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida “burni osmonga ko‘tarilmoq”, “tilini tiyolmaslik”, “birovning haqqiga ko‘z olaytirmoq” kabi frazeologizmlar orqali salbiy hulq-atvorlar tanqid qilinadi. Muallif bu iboralar orqali o‘quvchini ahloqiy xulosa chiqarishga undaydi. Masalan, “burni osmonga ko‘tarilgan” iborasi kibr va manmanlikning salbiy oqibatlarini ochib beradi. O‘quvchi bunday obraz orqali jamiyatda kamtarlik muhim fazilat ekanini anglaydi.

J. K. Roulingning “Garri Potter va hikmatlar toshi” asarida do‘stlik, sadoqat, jasorat kabi tushunchalar frazeologik birliklar orqali mustahkamlanadi. “To stand one’s ground”, “to take a stand” kabi iboralar qahramonlarning ahloqiy pozitsiyasini ko‘rsatadi. Pragmalingvistik nuqtayi nazardan, bunday frazeologizmlar o‘quvchi ongida ijobiy hulq modelini shakllantiradi⁷.

Munozara.

“Shum bola” asarida frazeologizmlar ko‘proq qahramonning ijtimoiy tushkunlikdan chiqish va intellektual g‘alaba qozonish strategiyasini (**“ko‘ziga cho‘p solmoq”**) ifodalaydi. J. K. Rouling asarida frazeologizmlar personajning **“yetakchi” (leader)** sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Frazeologizmlar badiiy matnda ijtimoiy rollarni anglash va ularni farqlashda muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali o‘quvchi jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarni, ya’ni ota-ona va bola munosabatlari; ustoz va shogird aloqasi; do‘stlik va dushmanlik tushunchalari tushunib etadi⁸.

“Shum bola” asarida “kattalarning gapini ikki qilmaslik”, “ko‘ziga cho‘p solmoq” kabi frazeologizmlar orqali bola va kattalar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa ko‘rsatiladi. Bu birliklar o‘quvchiga jamiyatda qabul qilingan xulq me‘yorlarini anglatadi.

G‘afur G‘ulomning **“Shum bola”** asari o‘zbek lingvokulturalogiyasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ayniqsa, “kattalar va bolalar” o‘rtasidagi an’anaviy ierarxiyani frazeologizmlar orqali juda mahorat bilan yoritib bergan. Ushbu iboralar asarning pragmatik mazmunini ochib beruvchi asosiy tayanch nuqtalaridir.

¹ Teliya V. N. Frazeologiya v kontekste kultury. – Moskva, 1996

1. “Kattalarning gapini ikki qilmaslik” (Itoat va ijtimoiy me’yor).

Bu ibora o‘zbek oilaviy va ijtimoiy hayotidagi “**kattaga hurmat**” konsepsiyasining pragmatik ifodasidir. Asarda bu ibora ko‘pincha kutilayotgan hulq-atvor modeli (preskriptiv pragmatika) sifatida namoyon bo‘ladi.

Kontekst: Shum bola o‘z sarguzashtlari davomida turli xo‘jayinlarning (boylar, domlalar) xizmatiga kirganda, jamiyat unga mana shu “gapni ikki qilmaslik” talabini yuklaydi. Buni pragmatik tahlili quyidagicha bo‘ladi, Bu erda ibora bolaga o‘z ijtimoiy o‘rnini (subordinatsiyani) eslatish vazifasini bajaradi. Agar Shum bola bu me’yorni buzsa, u “odob doirasidan chiqqan” hisoblanadi. Bu – o‘zbek bolalar adabiyotidagi direktiv nutqiy aktning bir ko‘rinishidir.

2. “Ko‘ziga cho‘p solmoq” (Aldov va ijtimoiy masofadan foydalanish).

Ushbu ibora Shum bolaning o‘tkir zohnini va kattalar o‘rnatgan qat’iy tartibga nisbatan o‘ziga xos “protest”ini (isyoini) ko‘rsatadi.

Kontekst: Shum bola o‘zining topqirligi bilan boylarni, sodda odamlarni yoki qattiqqo‘l nazoratchilarni dog‘da qoldirganda qo‘llaniladi. Buni pragmatik tahlili shunday: “Ko‘ziga cho‘p solmoq” – bu kognitiv pragmatika nuqtai nazaridan, bolaning kattalar ustidan intellektual g‘alabasini anglatadi. Ijtimoiy masofa shunchalik kattaki, bola ochiqchasiga qarshilik ko‘rsata olmaydi, shuning uchun u “**yashirin strategiya**” (aldov) qo‘llaydi. Bu ibora o‘quvchiga “topqirlik qiyin vaziyatdan qutqaradi” degan pragmatik xulosani beradi.

Bu tahlilni J.K. Roulingning asari bilan qiyoslaganda shuni aytish mumkinki: Garri Potterda mas’uliyat qonun-qoidalarga so‘zsiz itoat qilish orqali emas, balki qoidalarni adolat uchun buzish orqali (to take responsibility) o‘sadi. Shum bolada ijtimoiy masofa shunchalik qat’iyki, u faqat “ko‘zga cho‘p solish” orqali o‘z shaxsiyatini saqlab qoladi.

“Garri Potter va hikmatlar toshi” asarida o‘qituvchi–o‘quvchi, etakchi–izdosh munosabatlari “to be in charge”, “to take responsibility” kabi frazeologizmlar orqali ochiladi. Bu iboralar qahramonlarning ijtimoiy etilish jarayonini aks ettiradi.

"To be in charge" (Mas’ul bo‘lmoq / Rahbarlik qilmoq).

Bu ibora asarda ko‘pincha vakolat va tartib-intizom kontekstida qo‘llaniladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga nisbatan o‘zlarining ijtimoiy mavqeini va nazorat funksiyasini shu ibora orqali ifodalaydilar.

Kontekst: Professor Makgonagall birinchi kurs talabalariga tartib-qoidalar haqida gapirganda yoki qat'iy ogohlantirish berganda ushbu tushuncha markazga chiqadi.

Misol: *"I am in charge of this house, and I expect you to follow the rules..."*¹ (Men bu fakultetga mas'ulman va sizdan qoidalarga rioya qilishingizni kutaman). Buning pragmatik tahlili shunday: Bu erda "in charge" iborasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ierarxik masofani belgilaydi. Bu bolada "tartibga bo'ysunish" ijtimoiy ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

"To take responsibility" (Mas'uliyatni o'z zimmasiga olmoq). Bu frazeologizm asarda personajlarning, ayniqsa, Garrining "yetakchi" (leader) sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu ibora ko'pincha *"aybni bo'yinga olish"* yoki *"vazifani bajarish"* ma'nolarida keladi.

Kontekst: Germiona troll bilan bog'liq voqeadan so'ng Garrining o'rniga aybni o'z bo'yniga olganida (Hermione taking the blame), u ijtimoiy etuklik ko'rsatadi.

Asardan misol (Kontekstual): "If you can't take responsibility for your actions, you shouldn't be here." (Agar o'z harakatlaringiz uchun mas'uliyatni zimmanizga ololmasangiz, bu erda bo'lmasligingiz kerak).

Pragmatik tahlil: Bu ibora qahramonlarning o'zaro izdoshlikdan (follower) haqiqiy do'stlik va jamoaviy mas'uliyatga o'tishini ifodalaydi. Garri Potter asari davomida "shaxsiy mas'uliyat"ni anglagan sari uning ijtimoiy maqomi o'sib boradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar badiiy matnda muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ular axborotni obrazli etkazish, ma'naviy-ahloqiy tarbiya berish va ijtimoiy rollarni anglashda samarali vosita hisoblanadi.²

G'afur G'ulomning "Shum bola" va J. K. Roulingning "Garri Potter va sehrli tosh" asarlari misolida ko'rish mumkinki, frazeologizmlar o'quvchi tafakkurini boyitib, uning dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar shunchaki tilning bezagi emas, balki murakkab kommunikativ-semantik tizim bo'lib, o'quvchi

¹ Rowling J. K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. – London: Bloomsbury, 1997.

² Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2001.

shaxsini shakllantirishda ko‘p qirrali vazifalarni bajaradi: Axborot uzatishning samarali vositasi: Frazologizmlar axborotni qisqa va lo‘nda, shu bilan birga nihoyatda mazmunli ko‘rinishda etkazish imkonini beradi.¹ O‘quvchilar uchun murakkab hayotiy tushunchalar iboralar orqali obrazli tarzda tushuntirilishi, ma‘lumotning xotirada uzoq vaqt saqlanishini va intellektual salohiyatning oishini ta‘minlaydi. Ma‘naviy-ahloqiy tarbiya asosi sifatida har bir frazeologizm zamirida xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va ahloqiy normalari yotadi. Ta‘lim jarayonida ulardan foydalanish o‘quvchilarda to‘g‘ri so‘zlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi jihatlarni shakllantirishda bevosita “tarbiyachi” rolini o‘taydi. Iboralar orqali ijobiy va salbiy xarakter xususiyatlarining qiyoslanishi o‘quvchining ahloqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Frazologik birliklar individualning sotsializatsiya jarayonida muhim lingvistik vosita vazifasini o‘taydi, chunki ular ijtimoiy interaktsiyaning turli diskursiv modellarini o‘z tarkibiga inkorporatsiya qilgan. O‘quvchi yoki lingvistik subyekt muayyan frazeologik konstruksiyani sotsiokontekstual moslik asosida qo‘llash orqali jamiyat tizimidagi turli rol pozitsiyalariga (shogird, farzand, do‘st, rahbar va hokazo) adaptatsiya qilish kompetensiyasini shakllantiradi. Bu jarayon o‘z navbatida individualning sotsial adaptiv qobiliyatini optimallashtiradi hamda uning nutqiy madaniyat darajasini takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Crystal D.** The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge, 2010.
2. **Galperin I. R.** Text as an Object of Linguistic Study. – Moscow, 1981.
3. **G‘afur G‘ulom.** Shum bola. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot, 2018.
4. **Kunin A.V.** English Phraseology. – Moscow: “Higher School”, 1996.
5. **Rahmatullayev Sh.** O‘zbek frazeologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2001.
6. **Rowling J.K.** Harry Potter and the Philosopher’s Stone. – London: Bloomsbury, 1997.
7. **Safarov S.** Pragmalingvistika. – Toshkent: “Fan”, 2008.
8. **Telia V. N.** Frazologiya v kontekste kultury. – Moskva, 1996.
9. **Vinogradov V. V.** Russkaya frazeologiya. – Moskva, 1977.

¹ Telia V. N. Frazologiya v kontekste kultury. – Moskva, 1996

FILOLOGIYA

SHOH VA SHOIRLAR NAZARIGA TUSHGAN ADIB

UO‘K 811.111:8.80



**Raximova Saboxat,
Muhammad
al-Xorazmiy
nomidagi
ixtisoslashtirilgan
maktab o‘qituvchisi.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Tabibiyning hayoti va saroydagi faoliyati haqidagi manbalar tahlil qilinib, uning Muhammad Rahimxon II Feruz davridagi yuksak mavqei yoritiladi. Shuningdek, oddiy kelib chiqishiga qaramay, saroyda katta martabaga erishgan shaxs sifatida unga bo‘lgan munosabat va qarama-qarshiliklar ko‘rsatib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются источники о жизни и деятельности Ахмада Табиби во дворце, подчеркивается его высокое положение во время правления Мухаммада Рахима Хана II Феруза. Также показаны взгляды и противоречия, связанные с ним как с человеком, который, несмотря на свое скромное происхождение, достиг высокого положения во дворце.

Annotation: This article analyzes the sources about Ahmad Tabibi's life and activities at the palace, highlighting his high position during the reign of Muhammad Rahim Khan II Feruz. It also shows the attitudes and contradictions towards him as a person who, despite his humble origin, achieved a high position at the palace.

Kalit so‘zlar: Shoh, shoir, tabib, tazkiranavis, tarjimon.

Ключевые слова: Король, поэт, врач, писец, переводчик.

Key words: King, poet, physician, scribe, translator.

Xorazm adabiy muhitining yirik tadqiqotchilaridan biri, adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayev yozadi: “...Ikkinchisi shoir hayoti, faoliyati va adabiy merosini maxsus o‘rganishga oid tadqiqotlardir. Har biri 204 dan 550 sahifagacha bo‘lgan katta hajmli va ikki tildagi bu devonlar 1908–1910-yillarda tuzilgan bo‘lib, shoirning avvalgi to‘plamlaridagi she‘rlarini ham qamrab olgan va mumtoz lirikaning sakkiz janrida yaratilgan. Ularni asosini taxminan 1500 ga

yaqin g‘azaldan tashqari 518 ta muxammas tashkil etadiki, bunchalik ko‘p beshlik boshqa o‘zbek ijodkori bisotida uchramaydi...”¹.

Bizningcha, olim ushbu o‘rinda “sakkiz” janrda deya turkiy devondagi she‘r janrlarini hisobga olgan, chunki shoirning forsiy devonida 10 ta lirik janrdagi she‘rlar jamlangan.

Sharqshunos olim Abdullo Ahmadov o‘zining **“Xorazmdagi forsiyzabon adabiyot”** maqolasida shunday yozadi: “Muhammad Rizo Ogahiydan keyin saroy shoirlari rahnamosiga aylangan hassos shoir va tarjimon Ahmad Tabibiy beshta alohida she‘riy devon sohibi bo‘lib, ulardan ikkitasida shoirning forsiy ash‘ori jamlangan. Ajdodlari eronlik bo‘lgan Tabibiy forsiy tilni juda yaxshi bilgan, forsiy she‘riyatdagi uslub va san‘atlardan yaxshi xabardor bo‘lgan. U forsiy adabiyotning noyob yodgorliklaridan biri hisoblangan **«Vomiq va Azro»** dostonidan ilhomlanib, o‘zbek tilida original epik doston yaratgan. Tabibiy xorazmlik shoirlarning she‘riy namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan **«Tazkirat ush-shuaro»** nomli tazkira muallifi ham hisoblanadi.”

Pedagogika fanlari doktori Solijon Hasanov o‘zining **“Xorazm ma‘rifati – olam ko‘zgusi”** monografiyasida Tabibiy va Sufiyning pedagogik qarashlari bayonida shunday yozadi:

“Ahmad Tabibiy (1869–1910) — Ahmad Tabibiy ham shoir-u fozillar orasida katta hurmatga sazovor bo‘ladi, juda ko‘p ilm ahliga ustoz sifatida homiylik qiladi. Bayoniy u haqda shunday yozgan edi:

**Tabibiydurki, shoiri muhtaram,
Naylay oning atvorin aylab raqam.
Maorifda bordur bag‘oyat orif,
Majlisda bog‘i harifu zarif.
Pur oyinadur so‘zlari sarbasar,
Rumuz oni aksidadur jilvagar.
Surur nuqta lutfila ul nuktadon,
Ko‘rub so‘zlarini dedim: “Al-‘amon.”²**

Ayniqsa, Avaz O‘tar Tabibiyni o‘z ustoz sifatida zo‘r hurmat bilan tilga oladi:

**Ey Avaz, qil jahd, devoning qilmoq istasang,
Gar Navoiyu Tabibiy daftarlariga hamradif.**

Yoki:

¹ Abdullaev H. Tabibiyning ijodiy yo‘li. // “Hurriyat”, 2010 yil, 26 may, 7-sahifa.

² Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti, 95-b.

**Ne g'am emdi, Avaz, nazm ilmida bo'lsang Tabibiydek,
Ki derlar, ko'rgan el nazmingni ustodingga sallamno.**

Yoki:

**Avaz gar nazm aro bo'lmoq tilarsen dahr yaktosi,
Hamisha ko'ngling ichra qil Tabibiydek ayon ixlos.¹**

Hasanmurod qori Laffasiyning yozishicha, Tabibiy shirin so'zli, nozik tabiat, xushmuomala bir kishi bo'lib, shaxmat o'yiniga nihoyatda usta ekan. Shoirning zamondoshi Xodimning hikoya qilishicha, agar u soz va tanburni qo'lga olib, "Navo" maqomini chalsa, kishilarni maftun qilib qo'yar ekan.

Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosa chiqarish mumkin:

Avaz do'sti va zamondoshi Tabibiyni Alisher Navoiy bilan tenglashtirmoqda va "Gar Navoiyu Tabibiy daftarlariga hamradif" deya ularga havas qilmoqda. Biror kishi haqidagi tavsifni uni yaqin taniganlardan boshqa yaxshi bera olmaydi. Demak, Tabibiy salohiyati ancha kuchli shoir bo'lgan.

Hasanmurod Laffasiy ham uning "Navo" kuyini yaxshi chalishini aytganki, bu ham balki uni Navoiyga ergashgan va ixlosmand shoirlardan ekanligini ko'rsatsa ajab emas.

Avaz nafaqat Tabibiyni zamondosh sifatida, balki ustoz sifatida tan olmoqda. Buni biz Xodimning "Xorazm navozandalari" asaridagi "U (Avaz O'tar) bizlarga: "Ahmad Tabibiy yulduz tanimasang, ramilni (folni) ishlata olmaysan", degani uchun oqshomlari yulduz tekshirmasam bo'lmaydi, der edi..." degan so'zlaridan ham bilish mumkin.

1. Tabibiy o'zining she'rlarida *subhu maso, subhu shom, sabohu shom* kabi iboralarni ko'p qo'llar ekan. Buni biz uning hozirgacha ko'chirgan (to "jim" radifli g'azallargacha 99 ta g'azal) fors-tojikcha g'azallaridagi mazkur so'zning ko'p qo'llanganidan ham aytish mumkin (15 ga yaqin o'rinda uchradi).

2. Tabibiyning "...Mast esang subhu maso olamda nodonliq bila" misrasi xuddi o'zi to'g'risida aytilgandek. Agar Bobojon Tarroh Xodimning shoir haqidagi "ko'p sharob ichardi" deb yozganlari to'g'ri bo'lsa, o'z sharhi holida deyish mumkin. Zero, forscha g'azalining birida u shunday yozadi:

Banusham chun Tabibiy boda ro'zu shab, ajab nabvad,

¹ Avaz. Saylanma. Toshkent, 1984, 200-218 –b.

Zamiram bas ki soqiy hast bo ayshu tarab muhtoj.

(Xuddi Tabibiy kabi kecha-kunduz boda ichsam, ajablanma, chunki zamirim — ichim ayshu tarabga muhtojdir.) Demak, Tabibiyning ich-ichida qandaydir alam, ranj-u azob bo‘lgan. Balki uning oila jihatidan omadi yurishmagandir, balki... Ishqilib, o‘z alamini sharobdan olgan Tabibiy mazkur baytlarni yozgan bo‘lsa, ajab emas. Shuningdek, yana bir o‘rinda:

“Boda xo‘rdan chun Umar Xayyom doram ehtiyoj”

(*Umar Xayyomdek boda ichishga ehtiyojim bor*) — deya Umar Xayyomni bodaparast deb atagan shoir. Bu holatlar chindan ham Tabibiyning keyinchalik ichkilikka ruju qo‘yganidan dalolat beradi.

Rus sharqshunos olimi A. N. Samoylovichning ta’kidlashicha, Tabibiy o‘zining shoirlik va olimlik mavqei bilan xorazmlik taraqqiyparvar, erkin fikrli kishilar orasida ajralib turadi.¹

Eronlik olim Ibrohim Xudoyor o‘zining “**G‘aribahoyi oshno**” risolasida 25 sahifalik joyni Ahmad Tabibiyga bag‘ishlagan va uni “**Musofiri Tus**” (Tusga safar qilgan musofir) bosh sarlavhasi bilan Ahmad Tabibiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlagan bo‘lim quyidagi qismlaridan iborat:

1. Nom va nasabi.
2. Tavalludi, tug‘ilgan joyi, vafoti.
3. Shoirning ijtimoiy kelib chiqishi (poygoh...).
4. Tahsiloti.
5. Uylanilishi va farzandlari.
6. Tabibiy va musiqa.
7. Tabibiy mazhabi
8. Tusga safar.
9. Asarlari va ta’lifotlari:
 - 9.1. She’riy devonlari;
 - 9.2. *Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy*;
 - 9.3. Tabibiy va Xorazmdagi tarjima maktabi;
 - 9.3.1. *Vomiq va Azro*;
 - 9.3.2. *Nozir va Manzur*;
 - 9.3.3. Fuzuliyning *Haft jom* soqiynomasi.

¹ Самойлович А.Н. Записки восточного отделения императорского русского археологического общества. Москва. Т. 19 и 20. Санкт-Петербург, 1909, -С.200. Санкт-Петербург, 1909, -С.200.

10. Tabibiyning forsiy merosi.

10.1. Birinchi forsiy devoni (*“Mir’ot ul-ish”*).

10.2. Ikkinchi forsiy devoni (*“Mazhar ul-ishtiyoq”*).

10.2.1. Shoirligi va she’riy uslubi.

10.2.2. Tabibiy she’rlari tilining o’ziga xosliklari.

10.2.3. Tabibiy muxammaslariga bir nigoh.

10.2.4. Tabibiy she’rlarining mazmun-mundariyasi.

10.2.5. Tabibiy va Hofiz.

10.2.6. Takrorning jilvalari.

10.2.7. Tabibiy she’rlaridan namunalar.

Tabibiy har ikki tildagi she’rlarida inson hayoti, turmush tarzi, hatti-harakati, ilm o’rganish, kasb egallash borasidagi fikrlari, rang-barang ruhiy kechinmalarini ayri-ayrigan tasvirlagan san’atkordir. Shoir g’azallarida ma’shuqaning sarvni sharmanda qiladigan holati-yu, atirgulni xijil etadigan ruxsori qay darajada nafis aks ettira olsa, oshiqning mungli iztirobi, ayriliq dardi-la chekkan beun nolalarini shu darajada dardchil chizadi:

Dar bazm on mah yak taraf, majmu’i xo’bon yak taraf,
Ushshoqi shaydo yak taraf, man zoru hayron yak taraf.
Boshad davidan odatam subhu maso dar ko’yi u,
Tan yak taraf, sar yak taraf, dil yak taraf, jon yak taraf.
Dar ishq on siymin liqo o’ftoda zoru benavo,
In qalbi so’zon yak taraf va-in chashmi giryon yak taraf...
Hargiz Tabibiy g’am maxo’r az dardi xud dar ishq u,
Boshad muhayyo az labash gulqandi darmon yak taraf. (262-g’azal)

Dar bog’ meboshad qaddi on mohpaykar yak taraf,
Sarvu sanavbar yak taraf, shamshodu ar’ar yak taraf.
Monandi jannat fayzi on majlis buvad gar andar u
Boshad nigoron yak taraf, sahbovu sog’ar yak taraf...
Vah chun Tabibiy begzarad avqot ke-uro merasad,
Ozori devon yak taraf, tashvishi daftar yak taraf. (263-g’azal)

Bu holni adibning ruboiylari-yu muxammaslarida ham uchratamiz. Shoirning “45-muxammasi Tabibiy (171-sahifa)” she’rida buning yaqqol ifodasani kuzatish mumkin:

Agar bar peshi man on dilbari g'amxor meoyad,
Nishotu aysh andar xotiram bisyor meoyad,
Bajoyi ashk xun dar diydai xunbor meoyad,
Az-onam mo'rg'i dil har shab so'yi gulzor meoyad,
Ki bo bodi sabo bo'y zi zulfi yor meoyad.

Ba har dil gar buvad mavjud dar olam jununi ishq,
Buvad on-kas hamisha musulmon zoru zabuni ishq,
Shunav gar odamiy asiri baxti vojguni ishq,
Zi bas Farhod zad tesha bako'hi besutuni ishq,
Hanuz az besutun on nolahoi zor meoyad.

Makun asrori ishqatro bahar odam ayon hargiz,
Naboshiy to chunin dar ishq rasvoyi jahon hargiz,
Zamone oshiqon nabvand az kulfat omon hargiz,
Mashav ozurdadil majnun zi sangi kudakon hargiz,
Ki z-in son bar sari oshiq balo bisyor meoyad.

Ba kunji maykada subhu maso dar istiqomat shav,
Baohu ashki xud andar jahon doyim alomat shav,
Namego'yam turo hargiz ki az xayli salomat shav,
Sar osudagi dori sari ahli salomat shav,
Ki bar sar harchi oyad bar sari dastor meoyad.

Zamone dar shabi hijroni tu aslo nayosoyam,
Dilu jonro ba nori ishq mahro'yon biyoroyam,
Shunav in arzi man aknun, ki ey la'li shakkarxoyam,
Chi g'am gar bar sari ko'yat zi zanjiri junun oyam,
Barahman ham bagardi Ka'ba bo zunnor meoyad.

Mudom avqoti man dar ishq dilbar bo'gzarad zoe',
Sirishkam buvad ahli jahonro sarbasar shoe',
Rasad bar mardumon har chi buvad az qudrati Sone',
Zabuntar nest ki har ro'z az ro'rad gar zoe',
Chiro chandin maro imsol yodi yor meoyad.

Haqiqiy ishq, chin-muhabbatga giriftor bo‘lgan oshiq o‘zini bilmas devonaga o‘xshab yuradi. Xalq orasida telba-teskari, dovdir bo‘lib o‘zini bilmay, laqqillab yurgan bexudlarni bolalar kesagu, xas-cho‘plar otib kalaka qilish rasmi bor. Quyidagi baytda ana shu an‘ana misralar mag‘ziga singdirilib, she‘rning ta’sirchanligini oshirilishiga erishilgan, alohida qabariq badiiylik hosil bo‘lgan:

Mashav ozurdadil majnun zi sangi kudakon hargiz,

Ki z-in son bar sari oshiq balo bisyor meoyad.

Xulosa qilib aytganda, Xiva saroyidagi adabiy faoliyatning munshiysi bo‘lgan Ahmad Tabibiy har bir aytilgan g‘azal, har bir devonni o‘z nazaridan o‘tkazgan. Shundan keyingina devon shaklida bosilib chiqishi imkoni bo‘lgan. Shu ma’noda, Ahmad Tabibiyning saroyda nafaqat oddiy tabib (xon mahrami), balki shoirlar ustidan qaraydigan mas’ul, hozirgi ibora bilan aytganda Yozuvchilar uyushmasi raisi sifatida o‘rni bo‘lgan.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK TILIDA OQOVA SUV VA TOZALASH TIZIMINI IFODA
ETUVCHI TERMINLARNING BERILISHI HAMDA
LUG‘ATLARDAGI TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH****UO‘K 811.111:8.80**

**Xurramova Dilobar,
Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori,
Dotsent.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida oqova suv va tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlarning berilishi hamda lug‘atlardagi tavsifini takomillashtirish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы включения терминов, описывающих сточные воды и очистные сооружения, в толковые словари узбекского языка и совершенствования их описаний в словарях.

Annotation: This article discusses the issues of providing terms describing wastewater and treatment systems in explanatory dictionaries of the Uzbek language and improving their descriptions in dictionaries.

Kalit so‘zlar: lug‘atlar, izohli lug‘atlar, oqova suv, tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlar, leksikograflar, umumiste‘mol so‘zlar.

Ключевые слова: словари, толковые словари, сточные воды, термины, описывающие систему очистки, лексикографы, общеупотребительные слова.

Key words: dictionaries, explanatory dictionaries, wastewater, terms describing the treatment system, lexicographers, common words.

Barcha jahon lug‘atchiligida bo‘lgani kabi o‘zbek lug‘atchiligi ham jadal sur‘atlar bilan taraqqiy etib, hozirda yaratilgan, yaratilayotgan lug‘atlarda xalq tili, milliylik unsurlari nisbatan to‘liq aks etmoqda. Lug‘atlar qanday “qiyofa”ga ega bo‘lishidan qat’i nazar, har bir paydo bo‘lgan va yaratilayotgan lug‘atlar o‘z o‘rniga ega hamda ahamiyatli sanaladi. Zero, “har qanday lug‘atda o‘sha tilning bebaho xazinasi jamlanadi. Lug‘atchiligimiz tarixiga nazar salsak, ona tilimizning dur-u gavharlari marjon donalaridek tartib bilan berilgan turli lug‘atlarga duch kelamiz. Bundan har birimizning qalbimizda g‘urur va faxr tuyg‘ulari to‘lib toshadi. Biroq ijtimoiy taraqqiyotning natijasi o‘laroq, kishilarning ma’naviy ehtiyojini ta’minlaydigan yangidan-yangi lug‘atlar xili ham yuzaga kelishi zaruriyati paydo

bo'laveradi. Zero, tilni mukammal bilish, uning cheksiz imkoniyatidan o'rinli va maqsadli foydalana bilish uchun uning xazinasini jamuljam bo'lgan lug'atlar doimo zarur. Lug'atlar nafaqat to'g'ri yozish va o'qishni, so'zni to'g'ri izohlash va uning kelib chiqishini o'rgatadi, balki foydalanuvchining dunyoqarashini boyitadi, ilm-fan sirlaridan xabardor qiladi, nutq madaniyati va sifatini oshiradi, shuningdek, xalqning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltiradi"¹.

Umumiy izohli lug'atlarni yaratish har qanday tilshunoslikning leksikografiya sohasida amalga oshiriladigan yirik ishlaridan bo'lib, unda umumxalq boyligi – tilning butun salobati, barcha uslubga xos so'z, ibora, turli sohaga oid terminlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, hayotimizning barcha sohalarida amalga oshayotgan katta o'zgarishlar, dunyoning rivojlangan juda ko'p davlatlari bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa fursatlar ichida o'zbek tili, ayniqsa, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur omillar ta'sirida o'zbek tilining lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar sabab zamon talabiga javob beradigan ko'p jildli izohli lug'atni tuzish, nashrga tayyorlash va chop qilish ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kungacha o'zbek tilining katta hajmda so'z boyligini, tilning adabiy til me'yorlarini, o'zbek tilining qo'llanish holatini ko'rsatib beruvchi izohli lug'atlar qayta to'ldirilgan nashrlar bilan bir necha marta yaratilgan. 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" ikki tomdan iborat. Undan farqli ravishda ancha to'ldirilgan va tahrir qilingan holda yaratilgan 5 jildli (2006–2008) O'zbek tilining izohli lug'ati, 2020-yilda A. Madvaliyev muharrirligida nashr etilgan 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning ikkinchi nashri hamda 2023-yilda chop etilgan O'TILning 6 jildli nashrlari lug'atning keng foydalanuvchilari uchun tilimiz bo'yicha bebaho manba ekani shubhasiz. Ushbu lug'atlar nafaqat tildan foydalanuvchilar uchun, balki tilshunoslik sohasi uchun ham qimmatli material. Chunki o'zbek lug'atchiligida bu kabi yirik leksikografik manba yaratilishi lug'atshunoslikda o'ziga xos yutuq deb qaralishi bilan birga, sohada yangi bosqichni boshlab berdi deb ayta olamiz.

Aytish joizki, o'zbek tilining mavjud izohli lug'atlari keng xronologik doirada o'zbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni², o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilash va barqarorlashtirishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan. Mazkur lug'atlardagi til birliklari esa tildan foydalanuvchilarning tildan

¹ Islomov I. O'zbek tilida er sathi ko'rinishlarini ifodalovchi atov birliklari tizim: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Qarshi, 2019. – B. 103.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – b.7.

foydalanish ehtiyojini hisobga olgan holda – tabaqalashtirmasdan umumiy auditoriyani mos ravishda tanlab olingan. O‘TILning tuzilishi, unda birliklarning berilishi, illyustrativ misollarning keltirilish holatini o‘rganar ekanmiz, xususan, biz tadqiqot uchun obyekt sifatida tanlagan oqova suv va tozalash tizimi ifoda etuvchi terminlar tadqiqi borasida bir qator muammoli savollarga echim izladik. Xususan, o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida sohalarga doir terminlarning berilganligiga oid nazariy-amaliy tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik, balki jamiyat hayoti uchun ham ahamiyatli.

Shu narsa ma’lumki, taraqqiy etgan tillarning barchasida terminologik leksika umumiste’modagi so‘zlardan bir necha marta ko‘p bo‘lib, bunday ko‘p sonli terminlarni tarjima, umumfilologik va izohli lug‘atlarda aks ettirish, ularni qanday, qancha tanlab olish juda murakkab masala hisoblanadi. Izohli terminologik lug‘atlarda terminlar muayyan sohada mavjud bo‘lgan tushunchalarning ifodalovchisi sifatida qaralib, ular ko‘pincha ensiklopedizm nuqtayi nazaridan izohlanadi, ya’ni termin izohida tushunchaga xos barcha asosiy belgilarni ko‘rsatish harakati kuzatiladi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, terminologik lug‘atlar aksar hollarda tegishli soha mutaxassislari tomonidan tuziladi va bu mutaxassislar, avvalo, tushunchaning barcha belgilarini termin izohida aks ettirishga urinadilar, lekin so‘zga xos lisoniy belgilarini deyarli e’tibordan chetda qoldiradilar.

Tarjima va izohli lug‘atlarni tuzuvchi leksikograflar esa terminga birinchi navbatda so‘z sifatida qarab, uning so‘zga xos umumiy lisoniy belgilarini hisobga olgan holda izohlaydilar va izohda terminning mutaxassis tomonidan tayin qilingan barcha belgilarini emas, balki uning eng muhim, eng asosiy 1 – 2 belgisini aks ettirish bilan kifoyalanadilar. Har bir tilning izohli lug‘atini tuzishda esa terminning tabiatini va uning umumtilga mansublik maqomini aniqlashga imkon beruvchi mezonlarni ishlab chiqish esa tor soha vakilining emas, balki muayyan tilning etimologik hamda leksik-semantik tizimini yaxshi biladigan, undagi “o‘z” va “o‘zga” unsurlarni ziyraklik bilan farqlay oladigan tilshunosleksikograf olimning vazifasi hisoblanadi. O‘zbek leksikograf olimlari ham o‘z faoliyatlari davomida, umuman, lug‘atlar tuzish jarayonida oldindan belgilab olingan rejalar, tuzilgan qo‘llanma va yo‘riqnomalarga rioya qilgan holda ish olib borganlar. S.F. Akobirovning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning chegaralari va manbalari haqida”gi maqolasi, “O‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzish uchun qo‘llanma”, “O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnomasi”¹ tegishli lug‘atlarni tuzish uchun ana shunday manba, asos bo‘lib

¹ Акабиров С.Ф. О границах и источниках толкового словаря узбекского языка // Тюркская лексикология и лексикография. – Москва: 1971. – С. 130–152;

xizmat qildi. Tilshunos olim, akademik A. Hojiyev tomonidan ko‘p jildli izohli lug‘at tuzuvchilar uchun yozilgan yo‘riqnomada bu ifoda yanada aniq va qisqa qilib berilgan: (izohli lug‘atga) “Ko‘pchilik qo‘llaydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko‘p qo‘llanadigan terminlar kiritiladi”¹. O‘zbek tili izohli lug‘atining har bir nashriga terminlar tanlab olishda, ularning chegara va miqdorini belgilashda mazkur qo‘llanma va yo‘riqnomalarda, boshqa qo‘llanma va tadqiqotlarda berilgan tavsiyalarga qat’iy amal qilingan, shuningdek, boshqa tillardagi izohli lug‘at tuzish tajribalaridan unumli foydalanilgan. Masalan, o‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atiga 60 ga yaqin fan, texnika, san‘at va madaniyat sohalari, ularning tarmoqlaridan 17–18 mingdan ortiqroq termin (bunda sof terminlar ham, umumadabiy tilda qo‘llanuvchi ko‘p ma’noli so‘zlarning terminologik ma’nolari ham hisobga olingan) tanlab olingan va tegishli darajada izohlangan, daliliy misollar (illyustratsiyalar) bilan ta’minlangan².

Turli sohalarda bo‘lgani kabi suv, oqova suv, suvni tozalash, undan qayta foydalanish va u bilan bog‘liq jarayonlar inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-son “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga ko‘ra xalqimizni toza va sifatli ichimlik suv bilan ta’minlash hamda oqova suv xizmatlarini yaxshilash, ichimlik suv ta’minoti hamda oqova suv xizmatlari qamrovini oshirish, sohaning transformatsiya jarayonini jadallashtirish muhim masala etib belgilangan. Bu esa yangicha yondashuvlarni talab etadi va o‘z navbatida bunday yangiliklar yangi terminlarning paydo bo‘lishi, tilimizga kirib kelishi, sohada qo‘llanishi bilan ham xarakterlanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida oqova suv va uni tozalash tizimiga oid terminlarning berilishida har xilliklar mavjud bo‘lib, bugungi kun lug‘atchiligi jiddiy tadqiqotlar olib borishni va zamon talablariga moslashishni vazifa qilib qo‘yadi. Quyida “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da oqova suv terminlarining leksikografik talqiniga doir ayrim jihatlar haqida fikr yuritiladi.

1981-yil nashr etilgan 2 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da 81 ta sohaga doir terminlar, 2006–2008-yillar A. Madvaliyev tahriri ostida chop etilgan – “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da jami 83 ta hamda 6 tomli O‘TILda 87 ta oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari berilganligi aniqlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

O‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzish uchun qo‘llanma. – Toshkent: 1965; O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnoma (tuzuvchi: A.Hojiyev). – Toshkent: 2000.

¹ O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnoma. – Toshkent: 2000. – B. 227.

² Madvaliev A.O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 191.

**O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATINING 2, 5 va 6 jildlida berilgan oqova
suv va tozalash tizimi bilan bog‘liq terminlar statistikasi**

2 jild / 81 ta	5 jild / 83 ta	6 jild / 87 ta
absorbsiya, adsorbsiya, iflos, filtr, hanik, havza, hovuz, kanal, kollektor, ko‘lob, ko‘lmak, lotok, mag‘zava, mexanik, obdov, panjara, quvur, suzmoq, tarnov, tindirmoq, tindirilmoq, tiniq, tinimoq, tinish, truba, voronka, xalqob, yuvmoq, yumshatish, yumshatmoq, chalchiq, cho‘kmoq, filtratsiya, kanalizatsion, kanalizatsiya, kristallizatsiya, umivalnik, kanalizator, dastsho‘y, filtrlamoq, filtrlanmoq, bioximik, bug‘lamoq, bug‘lanish, tiniqlashmoq, tiniqlanmoq, tindirgich, oqiziq, oqindi, oqova, neytrallamoq, neytrallanmoq, kimyoviy, oksidlamog, oksidlanmoq, yuvundi, chiqindi, chiqit, cho‘kma, cho‘kindi, chayindi, qoldiq, loyqa, quyqindi, quyqum, quyqa, tozalamoq, manometr, zararsizlantirmoq, zararsizlantirilmoq, kristallanmoq, ohaktosh, obrez, obxona, obpartov, suvo‘t, xaskash, suzgich, bo‘tana, poynov ariq, chuchutilgan suv.	absorbsiya, adsorbsiya, iflos, filtr, hanik, havza, hovuz, kanal, kollektor, ko‘lob, ko‘lmak, lotok, mag‘zava, mexanik, obdov, panjara, rezervuar, quvur, quyilmoq, suzmoq, tarnov, tindirmoq, tiniq, tinimoq, tinish, truba, voronka, xalqob, yuvmoq, yumshatish, yumshatmoq, chalchiq, cho‘kmoq, filtratsiya, kanalizatsiya, kristallizatsiya, umivalnik, bioindikator, filtrlamoq, biofiltr, biomaydon, biokimyoviy, biotexnologiya, bioximik, bug‘lamoq, tiniqlashmoq, tindirgich, oqiziq, oqindi, oqova, oqava, neytrallamoq, kimyoviy, oksidlamog, oksidlanish, yuvindi, chiqindi, chiqit, cho‘kma, cho‘kindi, chayindi, qoldiq, loyqa, quyqindi, quyqum, quyqa, suzgich, tozalamoq, manometr, bug‘latkich, zararsizlantirmoq, kristallanmoq, xaskash, obrez, dastsho‘y, ohaktosh, obxona, obpartov, suvo‘t, bo‘tana, poynov suv, chuchutilgan suv.	absorbsiya, adsorbsiya, iflos, filtr, hanik, havza, hovuz, kanal, kollektor, ko‘lob, ko‘lmak, lotok, mag‘zava, mexanik, obdov, panjara, rezervuar, quvur, quyulmoq, suzmoq, tarnov, tindirmoq, tiniq, tinimoq, tinish, truba, voronka, yuvmoq, yumshatish, chalchiq, cho‘kmoq, filtratsiya, yumshatmoq, tashnov, toshnov, kanalizatsiya, kristallizatsiya, umivalnik, sentrifuga, bioindikator, filtrlamoq, biofiltr, biomaydon, biokimyoviy, biotexnologiya, bioximik, bug‘lamoq, tiniqlashmoq, tindirgich, oqiziq, oqindi, oqova, oqava, neytrallamoq, chiqit, kimyoviy, oksidlamog, cho‘kma, yuvundi, oksidlanish, chiqindi, cho‘kindi, chayindi, qoldiq, loyqa, quyqindi, quyqum, quyqa, suzgich, tozalamoq, manometr, xaskash, bug‘latkich, zararsizlantirmoq, ushlagich, kristallanmoq, dastsho‘y, ohaktosh, obrez, obxona, obpartov, suvo‘t, suvqalampir, bo‘tana, poynov suv, chuchutilgan suv.

2, 5 va 6 jildli O‘zbek tili izohli lug‘atida soha terminlarining berilish miqdori farqli ekanligini jadvaldagi raqamlardan ko‘rishimiz mumkin. Har bir lug‘atda keltirilgan birliklar miqdorini bir-biri bilan solishtirganimizda esa quyidagi natijalar kelib chiqdi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog‘liq terminlarning O‘zbek tili izohli lug‘atida berilish qiyosi

№	Qiyoslangan	Miqdor	Farqli so‘zlar
1	2 va 5 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	10 ta	bug‘lanish, filtrlanmoq, kanalizatsion, kanalizator, neytrallanmoq, yuvundi, oksidlanmoq, tiniqlanmoq, tindirilmoq, zararsizlantirilmoq.
2	5 va 2 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	11 ta	bioindikator, bug‘latkich, filtrl, biofiltr, biomaydon, biokimyoviy, biotexnologiya, oqava, oksidlanish, yuvindi, quyilmoq.
3	2 va 6 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni soni	10 ta	bug‘lanish, filtrlanmoq, kanalizatsion, kanalizator, neytrallanmoq, xalqob, oksidlanmoq, tiniqlanmoq, tindirilmoq, zararsizlantirilmoq.
4	6 va 2 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	15 ta	bioindikator, bug‘latkich, filtrl, biofiltr, biomaydon, biokimyoviy, biotexnologiya, oqava, oksidlanish, quyulmoq, sentrifuga, suvqalampir, tashnov, toshnov, ushlagich.
5	6 va 5 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	7 ta	quyulmoq, sentrifuga, suvqalampir, tashnov, toshnov, ushlagich, yuvundi.
6	5 va 6 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	3 ta	quyilmoq, xalqob, yuvindi.

O‘zbek tilining 2, 5 va 6 jildli izohli lug‘atlarida uchraydigan lotin, yunon, ingliz, fransuz, italyan tillaridagi soha terminlarining aksariyati rus tili orqali tilimizga kirib kelganligi aniqlandi.

Shuningdek, 2 va 5 jildli izohli lug‘atda 9 tadan, 6 jildlida esa 8 ta fors *dastsho ‘y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash, xalqob* hamda arab tilidan 4 ta *hovuz, havza, iflos, kimyoviy* to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tiliga o‘zlashgan terminlar mavjudligi aniqlandi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

2, 5 va 6 jildli O‘zbek tili izohli lug‘atida berilgan oqova suv va uni tozalash tizimini ifoda etuvchi o‘zlashma terminlar

№	Tillar	O‘zbek tili izohli lug‘ati	Miqdori	Misollar
1	Lotin	2 jild	8	(r<lat.) <i>absorbsiya, adsorbsiya, filtr, kanal, kanalizator, kanalizatsion, kanalizatsiya, kollektor</i>
		5 jild	6	<i>absorbsiya, adsorbsiya, bioindikator, kanal, kanalizatsiya, kollektor</i>

		6 jild	4	<i>absorbsiya, adsorbsiya, kollektor, kanal</i>
2	Fransuz	2 jild	0	–
		5 jild	2	<i>rezervuar, filtr</i>
		6 jild	2	<i>rezervuar, filtr</i>
3	Italyan	2 jild	0	–
		5 jild	1	<i>truba</i>
		6 jild	1	<i>truba</i>
4	Yunon	2 jild	1	<i>manometr</i>
		5 jild	1	<i>manometr</i>
		6 jild	1	<i>manometr</i>
5	Ingliz	2 jild	0	–
		5 jild	1	<i>filtratsiya</i>
		6 jild	1	<i>filtratsiya</i>
6	Rus	2 jild	5	<i>voronka, lotok, truba, umivalnik, filtratsiya</i>
		5 jild	3	<i>voronka, lotok, umivalnik,</i>
		6 jild	4	<i>kanalizatsiya, lotok, umivalnik, voronka</i>
7	Fors	2 jild	9	<i>dastsho ‘y, obdov, obpartov, obrez, panjara, tarnov, xaskash, xalqob, obxona</i>
		5 jild	9	<i>dastsho ‘y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash, xalqob</i>
		6 jild	8	<i>dastsho ‘y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash</i>
8	Arab	2 jild	4	<i>hovuz, havza, iflos, kimyoviy</i>
		5 jild	4	<i>hovuz, havza, iflos, kimyoviy</i>
		6 jild	4	<i>hovuz, havza, iflos, kimyoviy</i>

Jadvaldagi ma’lumotlardan O‘zbek tili izohli lug‘atida lotin, fransuz, italyan, rus, ingliz tilidan o‘zlashgan terminlar miqdorida farqlar borligini, fors, arab tilidan o‘zlashgan terminlar miqdori esa 2 va 5 jildli O‘zbek tili izohli lug‘atida teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikki jildli O‘zbek tili izohli lug‘atida ingliz, fransuz, italyan tillaridan o‘zlashgan sohaga tegishli terminlar berilmagan, 5 va 6 tomli lug‘atlarda esa bu tillardagi oqova suv va uni tozalash tizimiga mansub so‘zlar kiritilgan. O‘zbek tilining 2 jildli izohli lug‘atida lotin, fransuz, yunon, ingliz tillaridan o‘zlashgan barcha terminlar rus tili orqali o‘zlashganligi ta’kidlangan, avval rus tili, so‘ngra so‘zning asl kelib chiqish manbasi bo‘lgan til ko‘rsatilgan. Bu holatni 2 jildli O‘zbek tili izohli lug‘atida berilgan quyidagi misollardan ko‘rishimiz mumkin:

“**FILTR** [r<lat] 1 Suyuqlik yoki gazlarni nokerak aralashmalardan tozalash uchun xizmat qiladigan moslama; suzg‘ich. To‘r filtr. Protivogaz filtri. Vinoni filtdan o‘tkazmoq. 2 Ma’lum chastotadagi elektr toki, elektromagnit, yorug‘lik nurlari yoki tovush to‘lqininigina ajratib o‘tkazadigan asbob. Akustik filtr.

Elektrfiltri”¹.

“**KANAL** [r<lat] Daryo, ko‘l yoki dengizlar o‘rtasida kema qatnovini o‘rnatish, shuningdek, ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlash va ortiqcha suvlarni yig‘ib-oqizib yuborish uchun maxsus qazilgan suv yo‘li. Volga-Don kanali. Katta Farg‘ona kanali. Mayli, mana bu kanal bitsa, yangi er ochilsa, paxta ham ko‘payadi. O‘shanda hammaning egani oldida, emagani ketida bo‘lib qoladi, A.Qahhor, Qo‘shchinor”².

Shuningdek, o‘rganish jarayonida aniqlandiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini izohlash boshqa soha terminlari talqinidan, umumiste‘mol so‘zlari tavsifidan, umuman olganda, farqlanmaydi. Lug‘atda berilgan terminlar izohi qabul qilingan umumiy tamoyil va qonuniyatlarga muvofiq keladi. Buni O‘zbek tili izohli lug‘ati (6 jildli)ga kiritilgan quyidagi sohaga oid ayrim misollar orqali bilishimiz mumkin:

BIOFILTR [bio... + filtr] Oqova suvlarni biologik yo‘l bilan tozalaydigan inshoot. Atrof-muhit ekologiyasini yaxshilashda biofiltrning ahamiyati katta.

Ko‘rinadiki, biofiltr terminiga berilgan izohda terminning quyidagi semalari qayd etilgan:

– denotatning vazifasini ifodalovchi sema: “oqova suvlarni tozalaydigan inshoot”;

– denotatning asosiy belgilarini ifodalovchi sema: “biologik yo‘l bilan”;

– denotatning qurilish, tuzilish xususiyatini ifodalovchi sema: “katta va kichik”;

“Tur” semasi: “inshoot”.

Xullas, amalga oshirilgan tahlillardan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning har bir nashriga kiritilgan oqova suv terminlarining berilishida (genetik xususiyati, izohi) farqlarning borligi, sohaga mansub cheklangan miqdordagi terminlar izohlanishida umumiste‘mol so‘zlardan foydalanilganligi, ba‘zi o‘rinlarda ular orasidagi tafovutlarning mavjudligi ayon bo‘ldi. Bunday noaniqlik va murakkabliklar faqat bir soha terminlari o‘rtasida emas, balki barcha soha terminlarida ham kuzatiladi. Ularni bartaraf etish uchun har bir sohaga tegishli sohaviy lug‘atlarni tuzish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jildli. 2 jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981. – B. 301.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jildli. 1 jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981. – B. 368.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov I. O‘zbek tilida er sathi ko‘rinishlarini ifodalovchi atov birliklari tizimi: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Qarshi, 2019. – 125 b.
2. Jabborov X. O‘zbek tilining dehqonchilik leksikasi. Filol. fan. dokt. (DSc) dis. – Toshkent, 2017. – 257 b.
3. Madvaliev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. –191 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jildli. 1 jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981. –632 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – 679 b.
6. O‘zbek tilining ko‘p jildli izoxli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnoma. – Toshkent: 2000. – 32 b.

FILOLOGIYA

HOHISH-ISTAK KONSEPTI SEMANTIK MAYDONI



Mirzayeva Iroda,
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti.

UO‘K 811.619

Annotatsiya: Ushbu maqolada “istak”, “hohish” va “orzu” tushunchalari mantiqiy-semantik va psixologik jihatdan taqqoslanib, ularning markaziy (ongli maqsad, hissiy mayl) va periferik zonalari leksik, frazeologik va grammatik vositalar orqali polinomial tuzilishda ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: Проводится логико-семантическое и психологическое сравнение понятий «желание», «мечта» и «мечта», а также рассматривается их центральная (сознательная цель, эмоциональная склонность) и периферийная зоны в полиномиальной структуре с помощью лексических, фразеологических и грамматических средств.

Annotation: This article compares the concepts of "istak" (desire), "xohish" (wish), and "orzu" (dream) from logical-semantic and psychological perspectives, examining their central (conscious goal, emotional inclination) and peripheral zones through lexical, phraseological, and grammatical means within a polynomial structure.

Kalit so‘zlar: semantik maydon, lingvistik-kognitiv tahlil, polinomial tuzilish, ichki motivatsiya, markaziy zona, periferik zona, istak, hohish, orzu.

Ключевые слова: семантическое поле, лингвистико-когнитивный анализ, полиномиальная структура, внутренняя мотивация, центральная зона, периферийная зона, желание, мечта.

Key words: semantic field, linguistic-cognitive analysis, polynomial structure, internal motivation, central zone, peripheral zone.

Hohish-istak konsepti lingvistik-kognitiv sohada inson psixikasining ichki motivatsiyasini aks ettiruvchi murakkab semantik maydon sifatida tahlil etiladi, bu maydon leksik, frazeologik hamda grammatik vositalar asosida polinomial tuzilishga ega bo‘lib, markaziy va periferik zonalarga bo‘linadi.

Markaziy zonani o'zbek tilida "istak", "hohish", "orzu", ingliz tilida esa "wish", "desire", "want" kabi yadro leksemalari tashkil etib, istakning intensivligi, subyektivligi va kontekstual semantikasini ifodalaydi, masalan, "burning desire" (kuchli istak) frazeologizmi semantik yadro nuanslarini boyitadi. Periferik zona "umid" (hope), "tilak" (longing), "mayl" (inclination) kabi yaqin ma'noli birliklarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, sintaktik jihatdan subyektiv mayl (subjunctive mood) shakllari – ingliz tilida "I wish it were true", o'zbek tilida "istardimki" konstruktsiyalari – orqali faraziy-hissiy istakni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maydonning ierarxik tashkil etilishi (leksik yadro - frazeologik birliklar -grammatik kategoriyalar) madaniy-pragmatik omillar ta'sirida rivojlanib, qiyosiy lingvistik tadqiqotlarda (masalan, tatarcha va inglizcha misollar) universal hamda tilga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Ingliz tilidagi "wish", "desire" va "want" so'zlari istak/xohish semantik maydonining yadro leksemalari bo'lib, semantik jihatdan ierarxik farqlarga ega¹.

"Want" oddiy, kundalik xohishni bildiradi, ratsional va ob'ektiv: "I want a coffee" (to'g'ridan-to'g'ri talab). Sintaktikada: want + noun/infinite. Pragmatikada direktiv illokutsiya (buyruq/so'rov), ammo norasmiy kontekstda qo'pol tuyulishi mumkin².

"Wish" Subyektiv, faraziy orzu yoki pushaymonlik: "I wish I were rich" (subjunctive mood). Grammatikada wish + past subjunctive (hozirgi haqida) yoki wish + would (kelajak haqida). Ekspressiv nutqiy akt, real bo'lmagan holatlarni ifodalaydi³.

"Desire" rasmiy, intensiv ehtiyoj: "a burning desire to succeed". Sintaktikada desire + noun/infinite/that-clause. Adabiy va psixologik matnlarda ustun, hissiyroq yuklama: "heart's desire"⁴. Periferik qismga yaqin semantikalar kiradi: "umid" (hope), "tilak" (longing), "mayl" (inclination) va sintaktik vositalar, xususan, subyektiv mayl (subjunctive mood) shakllari. Ingliz tilida "I wish it were true" kabi gaplar istakning faraziy tabiatini aks ettirsa, o'zbek tilida "istardimki" konstruktsiyalari shunga o'xshash funksiyani bajaradi.

Markaziy zonani asosiy leksik birliklar tashkil etadi: o'zbek tilida "istak", "hohish", "orzu", ingliz tilida "wish", "desire", "want" kabi so'zlar bu maydonning

¹ <https://mangolanguages.com/resources/learn/grammar/english/how-to-express-hopes-and-desires-in-english>

² <https://mangolanguages.com/resources/learn/grammar/english/how-to-express-hopes-and-desires-in-english>

³ Gurbanova, Sevil Elchin. "Verbs Expressing Wish and Their Modality Features in Modern English." *International Journal of English Linguistics*, vol. 2, no. 6, Nov. 2012, pp. 80-85, doi:10.5539/ijel.v2n6p80.

⁴ <https://mangolanguages.com/resources/learn/grammar/english/how-to-express-hopes-and-desires-in-english>

yadrosini hosil qiladi. Bu birliklar istakning kuchliligi, subyektivligi va kontekstual ma'nolarini ifodalaydi, masalan, "burning desire" (kuchli istak). O'zbek tili izohli lug'atlariga ko'ra, "istak", "hohish" va "orzu" so'zlari semantik jihatdan yaqin bo'lib, insonning ichki motivatsiyasini aks ettiradi, ammo kontekstual va intensivlik farqlari mavjud.

"Istak" insonning biror narsaga intilishi, maqsad qilishi; kuchli ehtiyoj yoki talab sifatida ta'riflanadi. Misollar: "Erkinlik istagi" (freedom desire), "Adolat istak" (justice demand). Bu so'z ko'proq maqsadli va ratsional istakni bildiradi¹. Nutqiy-amaliy jihatdan "istak" ko'pincha reja, niyat va qaror bilan uzviy bog'liq bo'ladi; inson istagi ko'pincha til orqali ochiladi (masalan, xohish, iltimos, maslahat shaklidagi nutq aktlari). Natijada, istakni nafaqat ichki psixik holat, balki kommunikativ hulq-atvorni shakllantiruvchi va ijtimoiy o'zaro ta'sirni yo'naltiruvchi omil sifatida ham ko'rish mumkin.

"Hohish" yurakdagi ehtiyoj, yoqtirish, subyektiv mayl ma'nosida izohlanadi, hissiyroq yuklama bilan. Misollar: "Safar xohishi" (travel longing), "Tinimsiz xohish" (insatiable desire). Frazeologizmida: "Xohishga boy" (desirous)². Demak, Xohish" – bu shaxsning ma'lum predmet, holat yoki harakatga nisbatan ichki yoqtirishi va subyektiv mayli natijasida paydo bo'ladigan, ko'proq hissiy rangga ega bo'lgan psixik ehtiyoj bo'lib, ko'pincha lahzaviy kayfiyat va emotsional kechinmalar bilan chambarchas bog'liq hodisadir.

"Orzu" ortiqcha, ko'zga ko'rinmas darajadagi istak; ideal, uya (dream) deb ta'riflanadi, eng hissiy va uzoq muddatli. Misollar: "Bolalik orzusi" (childhood dream), "Ulkali orzu" (lofty aspiration). Ko'pincha subyektiv mayl bilan bog'liq: "Orzu qilmoq"³. Demak, orzu shaxsning real chegaralardan tashqarida joylashgan, ideal va mukammal holatga bo'lgan eng yuqori darajadagi hissiy intilishi bo'lib, u ko'zga ko'rinmas (g'ayrireal) darajada kuchli istak shaklida namoyon bo'lgan, uzoq muddatli va hayotiy maqsadlarni shakllantiruvchi psixik hodisadir.

Semantik maydon ierarxik ravishda tuziladi: leksik yadro - frazeologik birliklar - grammatik kategoriyalar (mayl, zamon), bu jarayon madaniy va pragmatik omillar bilan boyitiladi. Istak konsepti pragmatik jihatdan

¹ <https://izoh.uz>

² <https://izoh.uz>

³ <https://izoh.uz>

ifodalanishda bir nechta universal va tilga xos strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Direktiv strategiyalar istakni ochiq buyruq (“I want you to do this”), so‘rov (“Could you help me?”) yoki maslahat (“You should try it”) shakllari orqali ifodalaydi, bu esa tinglovchining harakatga undash maqsadini ko‘zlaydi va kontekstual implicaturalar (madaniy normalar, ijtimoiy masofa) bilan modulyatsiya qilinadi¹. Ushbu fikr lingvistik-pragmatik nuqtai nazardan to‘g‘ri va ilmiy asoslangan bo‘lib, nutqiy aktlar nazariyasi 2 asosida direktiv illokutsiyalar (request, command, suggestion) istakni ochiq ifodalashning universal strategiyasi sifatida qaraladi. Direktivlar tinglovchining harakatini keltirib chiqarish maqsadini ko‘zlagan bo‘lib, ularning pragmatik muvaffaqiyati kontekstual implicaturalarga bog‘liqdir: madaniy normalar (masalan, individualistik jamiyatlarda ochiq “I want” qo‘pol tuyulsa, kollektivistikda yumshoqroq shakllar afzal ko‘riladi) va ijtimoiy masofa (power distance, politeness theory ³) modulyatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Grice kooperatsiya printsipli (maxim of manner: anqlik) direktivlarning ochiqligini ta‘minlasa-da, Brown & Levinsonning face-threatening acts modeli ularni madaniy kontekstda yumshatishni (hedging: “Could you possibly...?”) talab etadi, bu esa fikrdagi “modulyatsiya” tushunchasini tasdiqlaydi.

Syori(1979) direktivlarni “future-directed” illokutsiya sifatida tasniflab, istakning propositional contentini (S causes P) ochib bergan bo‘lsa, Levinson (1983) pragmatik polisiya doirasida kontekstual omillarning (social distance, ranking of imposition) direktiv strategiyalarini shakllantirishini isbotlagan. O‘zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, direktivlarning ochiqligi madaniy pragmatikaga bog‘liq: inglizchada “request” formal (high power distance), o‘zbekchada esa kollektiv normalar (ijtimoiy masofa) asosida yumshoqroq shakllar (“Iltimos qilib ko‘rsangiz”) ustun. Ekspressiv strategiyalar esa subyektiv his-tuyg‘ularni (regret, hope) aks ettirib, subyektiv mayl konstruktsiyalari (“I wish it were possible”) yoki metaforik frazeologizmlar (“burning desire”) vositasida ro‘yxatga olinadi, bu erda pragmatik muvaffaqiyat so‘zlovchining ehtiros darajasi va tinglovchining empatiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

¹ Sirojova Z. N. *Ingliz tilida xohish istak mayli birliklarining o‘rganilish tarixi*. BuxDU Uniwork. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10383103>; Raupova, L. R. Diskursiv talqinda polipredikativ birliklar. (2023). TSUULL. https://tsuull.uz/sites/default/files/17._raupova_laylo_rahimovna.pdf

² <https://archive.org/details/austin-how-to-do-things-with-words>;
<https://archive.org/details/speechactessayi0000sear>

(J.L. Austin, J.R. Searle)

³ Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press, 1987.

https://books.google.co.uz/books/about/Politeness.html?id=db6tAQAAQBAJ&redir_esc=y

Grays kooperatsiya printsiplga ko'ra bilvosita ifoda strategiyasi istakni implikatura orqali bildiradi: "It's cold here" (oynashni hohlashni anglatadi), bu o'zbek tilida "Issiq emas" kabi shakllarda uchraydi va rad etish xavfini kamaytiradi². Ingliz tilshunosi H. Paul Grays nutqiy muloqotda ishtirokchilar o'zaro samarali va mazmunli suhbatlashish uchun rioya qilishi lozim bo'lgan to'rtta asosiy maksima (miqdor, sifat, bog'liqlik, uslub) majmuasidan iboratdir.

"Istak/hohish konsepti" o'zbek tilshunosligida insonning ichki xohishi, orzusi yoki ehtiyojini ifodalovchi lingvistik-kognitiv kategoriya sifatida o'rganiladi. Bu kontsepsiya ingliz tilida asosan *wish/desire* semantik maydoni orqali aks etadi³. O'zbek tilida "istak" va "xohish" sinonimik juft sifatida qo'llaniladi, ular semantik jihatdan yaqin bo'lib, kontekstga qarab farqlanadi: "istak" ko'proq maqsadli, "xohish" esa hissiyroq ma'nolarni bildiradi. Ushbu kontsepsiya frazeologik birliklar, fe'llar (xohlamoq, istamoq) va otlarda (tilak, orzu) ifodalanadi⁴.

Longing/craving(chuqur, hissiy hohish). Subyektiv mayl (subjunctive mood) orqali ham ifodalanadi, masalan, "I wish it were true" (subyektiv xohish)⁵. O'zbek va ingliz tillarida bu kontsepsiya leksiko-semantik, morfosintaktik va pragmatik darajalarda uyg'unlikda shakllanadi, ammo ingliz tilida grammatik mayl (wish-sentences) ustunlik qiladi. Masalan, o'zbekcha "Istayman" inglizchada "I want" yoki "I wish"⁶ sifatida tarjima qilinadi, madaniy farqlar esa pragmatikada namoyon bo'ladi.

Ingliz tilidagi istak/hohish semantik maydoniga mansub leksik birliklar nutqiy aktlar nazariyasi asosida direktiv (harakatga undash), ekspressiv (hissiy holatni bildirish) va indirect (implicatura orqali) guruhlariga ajratiladi. Quyidagi jadvalda har bir guruhning asosiy leksik birliklari, misollar va pragmatik funksiyasi keltirilgan bo'lib, ishonch darajasi (yuqori – keng qo'llanilgan va tasdiqlangan; o'rta – kontekstual; past – kamdan-kam) lingvistik korpuslar va tadqiqotlar asosida belgilangan. Istak/hohish konsepti lingvistik tadqiqotida bir qator echim kutayotgan masalalar mavjud bo'lib, ular semantik, pragmatik va

¹ Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts* (pp. 41–58). Academic Press.

² Crowley, P. (2023). *Modal tense: if and wish*. Semantics

Archive. https://semanticsarchive.net/Archive/mVjNDQ0Z/modal_tense_paper%20-%20Paul%20Crowley.pdf

³ <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/10001253/bCqNxy4B79GjLT4.pdf>

⁴ <https://zenodo.org/>

⁵ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13010_1_0C994AB477E4C4949C2367A8D3C80D2B495E7B4B.pdf

⁶ <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/10001253/bCqNxy4B79GjLT4.pdf>

lingvokulturologik darajalarda jamg'arma tahlilining etishmasligi, qiyosiy metodologiyalarning nomukammalligi hamda korpus lingvistikasi asosidagi empirik dalillarning kamligi bilan bog'liq.

Konsepsiyaning leksik yadrosi (istak/xohish/orzu vs. wish/desire/want) polifunksionalligi: semantik maydon chegaralarining aniqligi, periferik birliklarning (umid, tilak, craving) ierarxik joylashuvi va sinonimik qatorlarning kontekstual farqlanishi etarlicha o'rganilmagan. Masalan, intensivlik darajalari (burning desire vs. oddiy want) miqdoriy modellashtirish talab etadi.

Nutqiy aktlar doirasida direktiv-ekspressiv-indirect strategiyalarning madaniy pragmatikasi: Grice implicaturalarining universal tilga xosligi, face-threatening acts ¹ ning o'zbek-ingliz pragmatikasidagi farqlari empirik tekshiruvga muhtoj.

Kognitiv lingvistikada konsepsiyaning madaniy prototipini aniqlash, frazeologik birliklarning (ko'z oldimda ko'zgu vs. pie in the sky) kognitiv metaforalari va diskursiv realizatsiyasi (wish-clauses ning pragmatik kuchliligi) chuqur tahlil talab etadi. Ushbu masalalar qiyosiy korpuslar (o'zbek-ingliz paralel matnlar), kognitiv modellashtirish va eksperimental pragmatika usullari orqali hal qilinishi lozim.

Istak/hohish konsepti lingvistik tadqiqotlarda semantik maydon sifatida leksik yadro (istak, xohish, orzu / wish, desire, want), pragmatik strategiyalar (direktiv, ekspressiv, indirect) va kognitiv prototiplar orqali tahlil qilinadi.

Istak-hohish konseptining semantik tuzilishi polinomial maydon markaziy (yuqori chastotali sinonimlar), periferik (hissiy kengaytmalar) va o'tish (grammatik vositalar) zonalarga bo'linishi bilan izohlanadi. Konseptning pragmatik ifodasi direktivlar ochiq talab orqali (want/demand), ekspressivlar subyektiv mayl orqali (wish/hope), bilvosita implikaturalari asosida moslashadi. Tillararo qiyosiy farqlar o'zbek tilida pragmatika (kontekstual ishora) ustun, ingliz tilida grammatik mayl (wish-clauses) dominantligida aks etadi.

Korpus asosidagi empirik tahlil, madaniy prototip modellashtirish va qiyosiy metodologiya zamonaviy lingvistikaning ustuvor vazifalaridir. Ushbu konsepsiya lingvokulturologiyada universal va tilga xos xususiyatlarni o'rganish uchun muhim model bo'lib xizmat qiladi.

¹ Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press, 1987.

https://books.google.co.uz/books/about/Politeness.html?id=db6tAQAAQBAJ&redir_esc=y

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown P. Levinson S.C.. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press, 1987.
https://books.google.co.uz/books/about/Politeness.html?id=db6tAQAAQBAJ&redir_esc=y
2. Crowley P. (2023). *Modal tense: if and wish*. Semantics Archive.
https://semanticsarchive.net/Archive/mVjNDQ0Z/modal_tense_paper%20-%20Paul%20Crowley.pdf
3. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts* (pp. 41–58). Academic Press.
4. Gurbanova, Sevil Elchin. "Verbs Expressing Wish and Their Modality Features in Modern English." *International Journal of English Linguistics*, vol. 2, no. 6, Nov. 2012, pp. 80-85, doi:10.5539/ijel.v2n6p80.
5. Sirojova Z. N. *Ingliz tilida xohish istak mayli birliklarining o'rganilish tarixi*. BuxDU Uniwork. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10383103>
6. Raupova, L. R. Diskursiv talqinda polipredikativ birliklar. (2023). TSUULL.
https://tsuull.uz/sites/default/files/17_raupova_laylo_rahimovna.pdf
<https://api.ziyounet.uz/uploads/books/10001253/bCqNxy4B79GjLT4.pdf>
<https://api.ziyounet.uz/uploads/books/10001253/bCqNxy4B79GjLT4.pdf>
<https://archive.org/details/austin-how-to-do-things-with-words>
<https://archive.org/details/speechactsessayi0000sear>
<https://izoh.uz>
<https://mangolanguages.com/resources/learn/grammar/english/how-to-express-hopes-and-desires-in-english>
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13010_1_0C994AB477E4C4949C2367A8D3C80D2B495E7B4B.pdf
<https://zenodo.org/>

FILOLOGIYA**NEMIS TILIDA QO‘SHMA GAPLARDA “ES” SHAXSSIZ
OLMOSHINING ISHLATILISHI VA UNING O‘ZBEK TILIGA
TARJIMASINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI****UO‘K 811.619****Abdullayeva
Gulnora.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tilida qo‘shma gaplarda ishlatiladigan “es” shaxssiz olmoshining sintaktik va semantik xususiyatlari ochib beriladi hamda uning o‘zbekcha tarjima-dagi ekvivalenti chog‘ishtirma tahlil qilinadi. Tadqiqot Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani va Ingeborg Baldauf tarjimasidagi misollar asosida olib borilgan, unda “es” olmoshining formal shaxssiz ega vazifasi, voqeani umumlashtirish, shart va taxminlarni ifodalash kabi funksiyalari ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются синтаксические и семантические особенности безличного местоимения "es" в сложных предложениях немецкого языка, а также проводится сравнительный анализ его эквивалентов в узбекском переводе. Исследование проведено на материале романа Учкуна Назарова «Год скорпиона» и его перевода, выполненного Ингеборг Бальдауф. В работе рассматриваются такие функции местоимения "es", как формальный безличный субъект, обобщение событий, выражение условий и предположений.

Annotation: This article analyzes the syntactic and semantic features of the impersonal pronoun "es" in complex sentences in German and provides a comparative analysis of its equivalents in Uzbek translation. The research is based on examples from Uchqun Nazarov's novel "The Year of the Scorpion" and its translation by Ingeborg Baldauf, examining the functions of the pronoun "es" such as formal impersonal subject, event generalization, and expression of conditions and assumptions.

Kalit so‘zlar: shaxssiz olmosh, “es” olmoshi, qo‘shma gap, chog‘ishtirma tahlil, nemis tili, o‘zbek tili, tarjima, sintaktik va semantik ekvivalent.

Ключевые слова: безличное местоимение, местоимение "es", сложное предложение,

сравнительный анализ, немецкий язык, узбекский язык, перевод, синтаксический и семантический эквивалент.

Key words: *impersonal pronoun, pronoun "es", complex sentence, comparative analysis, German language, Uzbek language, translation, syntactic and semantic equivalent.*

Tilshunoslikda shaxssiz olmoshlar voqea va holatlarni bajaruvchisi aniq ko'rsatilmagan, umumiy yoki abstrakt shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi muhim grammatik vositalardan biri hisoblanadi [1]. Turli tillarda shaxssizlik hodisasi turlicha grammatik shakllar orqali ifodalansa-da, uning asosiy vazifasi nutqda obyektivlik, umumlashtirish va stilistik neytrallikni ta'minlashdan iboratdir. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, shaxssiz konstruksiyalar, asosan, gapning semantik markazini voqea yoki holatga qaratadi [2].

Nemis tilida shaxssizlik hodisasi, avvalo, **es** shaxssiz olmoshi orqali ifodalanadi. V.G. Admonining fikricha, **es** ko'pincha real referensiyaga ega bo'lmagan, biroq gapning sintaktik strukturasini ta'minlovchi formal birlik sifatida namoyon bo'ladi [2]. Bunday hollarda **es** grammatik jihatdan majburiy subyekt vazifasini bajarib, gapning yaxlitligini saqlaydi [6].

Nemis tilidagi qo'shma gaplar tarkibida **es** olmoshi voqeani umumlashtirish, holatni ifodalash, shart va taxmin ma'nolarini yuzaga chiqarishda faol qo'llaniladi [3]. O. I. Moskalskaya ta'kidlashicha, formal shaxssiz subyektli konstruksiyalar funksional-semantik jihatdan yuqori darajada umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ularning asosiy vazifasi nutqdagi obyektivlikni ta'minlashdan iborat [3].

Mazkur maqolada Uchqun Nazarovning "Chayon yili" romani va uning Ingeborg Baldauf tomonidan amalga oshirilgan nemischa tarjimasida asosida qo'shma gaplarda **es** shaxssiz olmoshining ishlatilishi hamda uning o'zbek tilidagi ekvivalentlari chog'ishtirma jihatdan tahlil qilinadi. Tanlangan misollar nemis va o'zbek tillarida shaxssizlik hodisasining grammatik hamda semantik jihatdan qanday amalga oshirilishini ochib beradi.

Nemis tilidagi "es" shaxssiz olmoshi o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri ekvivalentga ega emas, chunki o'zbek grammatikasi shunday formal shaxssiz olmoshlarni talab qilmaydi, balki gap tuzilishi va fe'l shakllari orqali shaxssiz holatni ifodalaydi

"Es" III shaxs birlik (orta jins) shakli bo'lib, qo'shma gaplarda (Nebensätzen) fe'l ikkinchi o'rinni egallaydi hamda vaqt, holat, ob-havo yoki mavhum tushunchalarni shaxssiz ifodalaydi va o'zbek tiliga alohida tarjima qilinmaydi. Masalan: Es regnet (Yomg'ir yog'moqda). O'zbek tilida bu ko'pincha olmoshsiz quriladi yoki "bor", "mavjud", "bo'lmoqda" kabi fe'llar bilan almashtiriladi.

O'zbek tilida "es" funksiyasi olmoshsiz gap tuzilishi (bir sostavli gaplar) va fe'lining shaxssiz/zamonaviy shakllari orqali amalga oshiriladi. Nemis tilining ikki sostavli gaplari (ega + kesim) o'zbekchada ko'pincha egasiz quriladi. Bu farq tillarning sintaktik tuzilishidan kelib chiqadi: nemis – formal shaxssiz olmosh, o'zbek – kontekstual shaxssizlik.

Gap tuzilishi: Nemischa: Es ist kalt → O'zbekcha: Sovuq (olmoshsiz, fe'l holatda).

Fe'l shakli: Nemisda fe'l olmoshga moslanadi (es + regnet), o'zbekda fe'l - moqda/-yapti yoki ism fe'l bilan: Yomg'ir yog'moqda.

Misollar:

Nemischa gap	O'zbekcha ekvivalent	Izoh
Es regnet.	Yomg'ir yog'moqda.	Olmossiz holat
Es ist Zeit.	Vaqt keldi.	Fe'l zamonaviy shakl
Es scheint so.	Shunday ko'rinadi.	Mavhum tushuncha olmoshsiz

O'zbek tilida nemischa "es"ning funksiyasi kontekstga qarab tushunchaviy tarzda, asosan olmosdan xoli ifodalanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek tilida esa shaxssizlik hodisasi ko'pincha formal grammatik birlik orqali emas, balki fe'lining semantik xususiyati, gapning

umumiy tuzilishi va kontekst orqali ifodalanadi [5]. T. Z. Mirsoatov ta'kidlaganidek, o'zbek tilida formal shaxssiz subyektning alohida grammatik shakli mavjud emas, shu bois nemis tilidagi **es** olmoshi tarjima jarayonida bevosita aks etmaydi [4]. Bunday holatlarda tarjimada sintaktik emas, balki semantik ekvivalentlik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Maqolada tahlil qilingan misollar ushbu nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Jumladan, nemis tilidagi *Es kommt doch nur darauf an, dass Sie ans Ziel kommen* jumlasida **es** formal shaxssiz subyekt sifatida konstruksiyaning grammatik tayanchini tashkil etadi [6]. O'zbek tilidagi "Yetib olsangiz bo'lganida" jumlasida esa shaxssizlik tabiiy gap shakli orqali, shaxssiz olmoshsiz ifodalangan.

Tabiat hodisalariga oid gaplarda ham shu holat kuzatiladi. **Es sieht nicht aus, als ob der Regen aufhören wollte** jumlasida **es** formal subyekt vazifasini bajarsa, o'zbek tilida "Yomg'ir to'xtay, demaydi" kabi gaplarda shaxssizlik semantik yo'l bilan etkaziladi [8]. Bu esa nemis va o'zbek tillari sintaktik tizimidagi farqni yaqqol namoyon etadi.

Shart va taxminni bildiruvchi qo'shma gaplarda **es** olmoshi muhim rol o'ynaydi. Masalan, **Als ob es so einfach wäre, auf Sie zu verzichten** jumlasida **es** taxminiy voqeani bildiruvchi formal subyekt sifatida ishlatiladi [7]. O'zbek tilida esa mazkur ma'no shartli va modal konstruksiyalar yordamida ifodalanadi. Umuman olganda, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, nemis tilida **es** shaxssiz olmoshi bir vaqtning o'zida grammatik va semantik qatlamlarni ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi [2; 3]. O'zbek tilida esa bu vazifa kontekstual ekvivalentlar va tabiiy gap shakli orqali amalga oshiriladi [5]. Tarjima jarayonida **es** olmoshining sintaktik roli ko'pincha bevosita aks etmasa-da, uning semantik vazifasi saqlanib qoladi.

Yuqoridagi o'rganishlar asosida quyidagi nazariy xulosalarni aytib o'tish maqsadga muvofiq: Nemis tilida shaxssiz konstruksiyalar grammatik jihatdan qat'iy me'yorga ega; o'zbek tilida esa ular erkin, kontekstga moslashgan, nemis

tilidagi “es”ning ko‘plab vazifalari o‘zbek tilida turli vositalar orqali kompensatsiya qilinadi, tarjimada struktur ekvivalentlik kam hollarda qo‘llanadi; funksional ekvivalentlik esa ustuvor, “es” olmoshining voqeani neytrallashtiruvchi xususiyati o‘zbek tilida yo‘q, shuning uchun o‘zbek tarjimasida mazmun ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladi, ikkala tilning nutqiy mentaliteti ham farqlidir: nemis tili abstraktsiyaga moyil, o‘zbek tili esa mazmun orqali bevosita ifodaga ega. Bu natijalar ikki til orasidagi shaxssiz konstruksiyalarni izohlash uchun keng nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani va uning nemischa tarjimasi asosida olib borilgan tahlil nemis va o‘zbek tillarida shaxssiz konstruksiyalarning grammatik tabiati turlicha ekanini ko‘rsatadi. Nemis tilida formal shaxssiz subyekt sifatida qo‘llaniladigan *es* olmoshi o‘zbek tilida semantik va kontekstual vositalar orqali ifodalanadi. Bu holat chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikda funksional-semantik yondashuvning ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шендельс Е. И. Персональные и безличные местоимения в современном русском языке. – Москва: Наука, 1972. – 256 с.
2. Адмони В. Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Ленинград: Просвещение, 1973. – 312 с.
3. Москальская О.И. Функционально-семантические особенности местоимений. – Москва: Высшая школа, 1985. – 312 с.
4. Мирсоатов Т. З. Типология безличных конструкций и местоимения *es* в сравнительном аспекте. – Ташкент : Фан, 1990. – 198 с.
5. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили синтаксиси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 284 б.
6. Duden. Die Grammatik : unentbehrlich für richtiges Deutsch. – Mannheim : Dudenverlag, 2016. – 1344 s.

7. Eisenberg P. Grundriss der deutschen Grammatik : Band 2 : Der Satz. – Stuttgart : J. B. Metzler, 2013. – 520 s.
8. Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. – Leipzig : Enzyklopädie, 2001. – 654 S.
9. Назаров У. Чаён йили. – Тошкент : Шарқ, 2010. – 320 б.
10. Назаров У. Чаён йили: немис тилига тарж. И. Балдауф. – Берлин: Aufbau Verlag, 2018. – 384 s.

FILOLOGIYA**LIRIK OBRAZLILIK ILDIZLARI VA UNING FALSAFIY-ESTETIK****UO‘K 811.619**

**Munisjon
Hakimov,
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti
katta ilmiy xodimi,
f.f.b.f.d (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunoslik fanining poydevori bo‘lmish badiiy obrazlilik kategoriyasining antik davr estetikasidagi genezisi tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье исследуется генезис категории художественной образности в античной эстетике как фундаментальной основы литературоведения.

Annotation: The article explores the genesis of artistic imagery in ancient aesthetics as a fundamental category of literary studies.

Kalit so‘zlar: Aflotun, Arastu, logos, eykon, obrazlilik, enargeya, antik estetika.

Ключевые слова: Платон, Аристотель, логос, эйкон, образность, энаргея, античная эстетика.

Key words: Plato, Aristotle, logos, eikon, phantasma, eidolon, imagery, mimesis, enargeia, ancient aesthetics.

Adabiyotshunoslik nazariyasida “obraz” muayyan konkretlikni anglatadi, “obrazlilik” (imagery) tushunchasi matnning estetik sifati va tilning badiiy yashash tarzini ifodalaydi. Ushbu kategoriyaning ontologik ildizlari Antik Yunon estetikasiga borib taqaladi. Yunon mutafakkirlari uchun obrazlilik shunchaki voqelik nusxasi emas, balki olamning ichki tartiboti – logosni badiiy tilga ko‘chirish mexanizmidir. Lirik obrazlilik – bu logosning (ma’noning) hissiy shakl (obraz) kasb etishi sifatida talqin etiladi.

Logos tushunchasini ilk bor falsafiy kategoriya sifatida Geraklit (mil. avv. VI – V asrlar) tizimlashtirgan [1.15–20]. Mutafakkirga ko‘ra, logos borliqning “ichki skeleti” bo‘lib, obrazlilik ushbu skeletni badiiy “go‘sht va teri” bilan qoplash jarayonidir. Antik estetika va poetikada lirik obrazlilikning nazariy asosi olamning ichki tartiboti va koinot qonuniyati bo‘lmish logos (yunoncha logos – so‘z, fikr, qonun, tartibot) kategoriyasiga tayanadi. Logos – bu shunchaki “so‘z” emas, balki borliqning rasional tuzilishini, tabiat va inson tafakkuri o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi oliy mezondir.

Aflotunning “X kitob” [2] va “Sofist” asarida obrazlilik masalasiga ontologik va gnoseologik yondashiladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, badiiy

obrazlilik haqiqatdan uch bosqich uzoqlikdagi hodisadir [3.390–393]. Faylasuf o‘z fikrini “kravat” misolida isbotlaydi:

1-daraja (Ideya): Kravatning ilohiy g‘oyasi (uni Xudo yaratgan, u bitta va mutlaq).

2-daraja (Predmet): Duradgor yaratgan moddiy kravat (u ideal kravatning nusxasi).

3-daraja (Obrazlilik): Rassom yoki shoir yaratgan kravat tasviri (u moddiy kravatning nusxasidan ko‘chirilgan nusxa).

Ya’ni obraz yaratuvchi ijodkor haqiqatni emas, balki “soyaning soyasi”ni yaratadi.

Mazkur tadqiqot falsafiy-estetik va adabiyotshunoslik metodologiyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Ishda antik manbalarni tarixiy-falsafiy tahlil usuli asosida o‘rganish, Aflotun, Arastu, Geraklit va Longin qarashlarini komparativ (qiyosiy) tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. “Obraz”, “eykon”, “eydolon”, “fantazma”, “mimesis”, “enargeya” kabi kategoriyalar konseptual va terminologik tahlil asosida izohlandi.

Shuningdek, badiiy obrazlilik masalasi ontologik va gnoseologik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, antik estetik qarashlarning keyingi adabiyotshunoslik tafakkuriga ta’siri genetik metod yordamida yoritildi. Tadqiqot davomida falsafiy matnlarni talqin etishda germenevtik tahlil, estetik hodisalarni baholashda esa nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Aflotun obrazlilikni ikkiga ajratadi: asl mohiyatga yaqin bo‘lgan “eykonik” – mutanosib (proporsiyali) tasvir va haqiqatni buzib ko‘rsatuvchi “fantazma” (illyuziya).

Eykonik (yunoncha eikon – surat, o‘xshashlik) obrazlilikda tasvir asl nusxaning barcha jismoniy va mantiqiy parametrlarini aniq saqlaydi. San’atkor ob’ektning o‘lchamlari va ranglarini hech qanday o‘zgartirishsiz ifodalaydi. Bu erda “badiiy haqiqat” obyektiv borliq bilan to‘liq mos keladi va muallifning sub’ektiv “meni” voqelikni buzishga haqqi yo‘q. Uning vazifasi – borliqning proporsional modelini yaratish.

Ko‘p hollarda badiiy tasvirning (ikona) kelib chiqishini xristianlikdagi xoch ramziga nisbat beriladi [4.102]. Biroq tarixiy-estetik tahlil shuni ko‘rsatadiki, jarayon aksincha kechgan: xristianlikdagi xoch va boshqa muqaddas ramzlar antik davr falsafasida shakllangan eykon kategoriyasi asosida paydo bo‘lgan. Ya’ni, eykon (obrazlilik) xristianlikdan oldin mavjud bo‘lgan ontologik va estetik “qolip” bo‘lib, xoch ramzi ushbu konseptual makonda o‘z ifodasini topgan.

Fantazma (yunoncha phantasma – ko‘rinish, xayol, sharpa) – bu haqiqiy mutanosibliklarni ataylab buzish evaziga yaratiladigan, faqatgina ma’lum bir masofadan yoki nuqtadan “chiroyli” ko‘rinadigan tasvirdir. Aflotun bunga haykaltaroshlikni misol keltiradi. Agar haykaltarosh juda ulkan haykal yasasa, u haykalning boshini tanasiga nisbatan kattaroq qilib ishlaydi. Nega? Chunki pastda turgan tomoshabin yuqoriga qaraganda, masofa tufayli bosh kichikroq ko‘rinadi. Agar haykaltarosh eykonik aniqlik (asl proporsiya) bilan ishlasa, tomoshabinga haykalning boshi juda kichik bo‘lib tuyuladi.

Demak, fantazma – bu tomoshabinni (kitobxonni) hayratga solish va unga “yoqish” uchun qilingan estetik aldovdir. Aflotun buni haqiqatdan chekinish va soxtakorlik deb hisoblaydi.

Lirik obrazlilik Aflotun talqinida “soylar soyasi” bo‘lib, u aqlni emas, balki insonning nazorat qilib bo‘lmaydigan hissiyotlarini junbishga keltiradi. Sapfoning ishqiy lirikasidagi hissiy obrazlilik (masalan, “titroq”, “olovli nafas”) Aflotun uchun ideal olamdagi ilohiy ishqning (Eydosning) moddiy dunyodagi xiralashgan aksi – eydolonidir [3.390–393].

“Eydolon” (yunoncha eidolon: “sharpa”, “arvoh”, “qiyofa”, “aks”) kategoriyasi – bu borliqning mohiyatdan mahrum bo‘lgan “soyasi” yoki “sharpassi”dir. Aflotunning borliq ierarxiyasida (ayniqsa, “Davlat”ning X kitobida) eydolon eng quyi pog‘onada turadi. U haqiqatdan (Eydosdan) ikki bosqich uzoqlikdagi “nusxaning nusxasi”dir:

1. Eydos (G‘oya): Asl va yagona haqiqat.
2. Predmet: G‘oyaning moddiy dunyodagi nusxasi.
3. Eydolon (Obraz): Predmetning san’atdagi in’ikosi (masalan, ko‘zgudagi aks yoki rasmdagi tasvir).

Eydolonning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

– Mohiyatsizlik: eydolon – bu narsaning tashqi qiyofasi bor, lekin uning ichki mazmuni (funktsiyasi) yo‘q holatidir. Masalan, chizilgan karvotda yotib bo‘lmaydi.

Sharpassimonlik: antik mifologik tafakkurda, xususan, Gomer dostonlarida “eydolon” tushunchasi vafot etgan insonning Aid saltanatidagi moddiyatsiz, sharpassimon qiyofasini ifodalagan [5.52]. Ular ko‘rinadi, lekin ushlab bo‘lmaydi. San’atdagi obraz ham xuddi shunday “sharpa”dir. Bu kategoriya keyinchalik Aflotun estetikasida borliqning mohiyatdan ajralgan “aldamchi obrazi” manosi ga transformasiya bo‘lgan.

Gnoseologik aldov: eydolon insonni chalg‘itadi: u bizga haqiqiy narsadek tuyuladi, lekin aslida u shunchaki “ko‘rinish” (appearance).

Eydolon va eykon o‘rtasidagi farq chegarasi mavjud:

Eykon asl nusxa bilan ichki va tashqi bog‘liqlikka ega. U haqiqatni anglashga yordam beradi. Eydolon asl nusxadan uzilgan, faqat tashqi “aldamchi” o‘xshashlikka ega. U insonni haqiqatdan uzoqlashtiradi.

Lirik matndagi metaforik obrazlar ko‘pincha real predmetning “sharpasi”, ya’ni eydolon sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “olovli sochlar” obrazida sochning real fizik xususiyati yo‘qolib, faqat uning vizual “eydolini” (sharpasi) qoladi.

Zamonaviy postmodernistik she’riyatda eydolon tushunchasi simulyakr (nusxasi bo‘lmagan nusxa) tushunchasiga yaqin keladi. Bunda obraz shunchaki “sharpa” bo‘lib, uning ortida hech qanday real borliq turmaydi.

Agar lirik obrazlilik voqelikning mohiyatini ochishga xizmat qilsa – u eykon maqomida bo‘ladi; agar u faqat tilning tashqi o‘yini va aldamchi taassurot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa – u eydolon (sharpa-obraz) tabiatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyotshunoslikning rasmiy tarixi Arastuning “Poetika”sidan boshlansa-da, kategoriyal apparat va badiiy obrazlilikning ontologik muammolari ilk bor Aflotunning “Davlat” (X kitob) va “Sofist” kabi dialoglarida konseptual shaklda qo‘yilgan. Shu bois, adabiyotshunoslikni Aflotundan boshlangan deb hisoblash ilmiy asosga ega.

Arastu Aflotunning “nusxa” konsepsiyasini inkor qilib, “mimesis” (yunon. mimesis – taqlid, ifodalash) tushunchasiga ijodiy va bilish mazmunini yukladi. Voqelikning san’atkor qalbida qayta ishlangan ko‘rinishi bo‘lgan badiiy obrazlilik Arastu uchun “bo‘lishi mumkin bo‘lgan” holatni zaruriyat va ehtimollik qonunlari asosida modellashtirish demakdir.

Arastu she’rni shunchaki “so‘z o‘yini” emas, balki “mimesis” (taqlid)ning eng yuqori shakli deb ataydi. Unda vazn va ritm tasvirlanayotgan narsaning xarakteriga mos kelishi shart. Bu esa obrazlilik va vaznning organik birligini anglatadi [6.115–118].

Antik davrning keyingi bosqichlarida (Longin, Plutarx) obrazlilik tushunchasi “enargeya” (yunon. enargeia – ravshanlik, ko‘z oldida gavdalanish) kategoriyasi bilan kengaydi. Bu kategoriya so‘z vositasida shunday obrazli muhit yaratishni anglatadiki, natijada tinglovchi voqeani shunchaki eshitmaydi, balki uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rayotgandek his qiladi. Bu lirik obrazlilikning vizual va emosional yuksaklik (Sublime) darajasidir. Masalan, Pindarning [7] dalaridagi tasviriy obrazlilik tinglovchini voqea ishtirokchisiga aylantiradi. Longin buni fantaziya (“phantasia” – tasavvur kuchi) deb ataydi [8].

Aflotun estetikasida fantazma – voqelikning mutanosibliklarini buzishga asoslangan tashqi “aldamchi obraz” maqomida bo‘lsa, Longin poetikasida

fantaziya – ijodkorning ichki tasavvur kuchi bo‘lib, lirik obrazlilikning vizual ravshanligi (enargeya) va emosional ta’sirchanligini ta’minlovchi kognitiv vositadir.

Xullas, antik estetikada lirik obrazlilik shunchaki til bezagi emas, balki metafizik logosning (tartibotning) badiiy eykonga (haqqoniy obrazga) transformasiyasidir. Antik Yunon estetikasida lirik obrazlilik evolyusiyasi Aflotunning “ilohiy soya”sidan Arastuning “ijodiy modeli” va Longinning “vizual hayrati” (enargeya)ga qarab rivojlandi.

Adabiyotshunoslik fani Aristotelning “Poetika” asaridan boshlangani haqidagi qarash akademik doiralarda ustuvordir. Biroq badiiy tafakkurning mantiqiy va estetik kategoriyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, adabiyotning falsafiy muammolarini (obrazlilik, mimesis, ijod psixologiyasi) ilk bor Aflotun kun tartibiga qo‘ygan. Aristotel adabiyotshunoslikni “tizimli fan”ga aylantirgan bo‘lsa, Aflotun uning “falsafiy poydevori”ni yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гераклит Эфесский. Фрагменты. // Фрагменты ранних греческих философов. – М.: Наука, 1989. – С. 15-20.
2. Bu asar Plotonning eng mashhur va fundamental asarlaridan biri bo‘lmish “Davlat” (Politeia) dialogining yakuniy, o‘ninchi bobidir. Alohida asar emas, balki asarning bir qismi bo‘lishiga qaramay, adabiyotshunoslik va estetika olamida u “X kitob” nomi bilan mashhur.
3. Плотон. Сочинения в четырех томах. Т. 3. Ч. 1. / Под общ. ред. А. Ф. Лосева и В. Ф. Асмуса. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2007.
4. Адабиёт Назарияси. II томлик. I том. – Т.: Фан, 1978.
5. Гомер. Одиссея. XI, 476; Лосев А. Ф. История античной эстетики. Ранняя классика. – М.: Искусство, 1963.
6. Аристотель. Об искусстве поэзии. — М.: ГИХЛ, 1957.
7. Pindar (mil. avv. 518–438 yu.) — antik Yunon lirikasining eng yuksak va murakkab vakili, xor lirikasining tan olingan dahosidir. U lirik obrazning yuksak uslubi va metaforik zichligini (Pindaric style) boshlab bergan ijodkor hisoblanadi.
8. Longinus. On the Sublime. Section 15 (On Imagery). URL: <https://www.classicpersuasion.org/pw/longinus/desub015.htm>

FILOLOGIYA

ZAMONAVIY O‘ZBEK ESSENAVISLIGIDA SHAXS VA IJOD TALQINI (Muhammad Ismoil esselari misolida)

UO‘K 811.52



Gulasal Kazakova,
Urganch innovatsion
universiteti
“O‘zbek va xorijiy
filologiya” kafedrasi
dots.v.b, filologiya
fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida esse janrining shakllanishi va taraqqiyoti masalalari yoritilib, zamonaviy essenavislikning muhim namunalari biri sifatida Muhammad Ismoil ijodiga mansub esselar tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы формирования и развития жанра эссе в узбекской литературе, а также анализируются эссе Мухаммада Исмаила как одни из значимых образцов современной узбекской эссеистики.

Annotation: This article addresses the issues of the formation and development of the essay genre in Uzbek literature and analyzes the essays by Muhammad Ismoil as prominent examples of contemporary Uzbek essay writing.

Kalit so‘zlar: Esse janri, o‘zbek essenavisligi, Muhammad Ismoil, Odil Yoqubov, adabiy shaxs talqini, ijod va shaxsiyat, badiiy-falsafiy tahlil, zamonaviy o‘zbek adabiyoti.

Ключевые слова: Жанр эссе, узбекская эссеистика, Мухаммад Исмаил, Одил Якубов, художественная интерпретация личности, личность и творчество, художественно-философский анализ, современная узбекская литература.

Key words: Essay genre, Uzbek essay writing, Muhammad Ismoil, Odil Yokubov, artistic interpretation of personality, personality and creativity, artistic and philosophical analysis, modern Uzbek literature.

Esse janri nazariy manbalarda ta’kidlanganidek, erkin, turli mavzulardagi muallif mulohazakorligiga asoslangan adabiyotdagi eng yosh janrdir. O‘zbek adabiyotida essening dastlabki ildizlari Beruniy, M.Qoshg‘ariy ijodida uchrasa, Navoiy va Bobur ijodida noma, xotira shakllarda ko‘zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotdagi tazkira janri esse yaratilishining Sharq adabiyotidagi ilk

ko‘rinishlari sifatida qayd qilinadi. Adabiyotshunos olim M.Qo‘chqorovanning: “Esse o‘zbek adabiyotidagi badiia janrining o‘ziga xos xususiyatlari bilan g‘arb adabiyotidagi esse janrini eslatadi. Biroq esse badiaga nisbatan kengroq tushuncha”¹ deya bildirgan xulosalarida janrning yuzaga kelish omillari chuqur va asosli ekanligini ko‘rish mumkin.

Ijodkor Muhammad Ismoil “Millat yuragining durdonalari” nomli kitobida esse janrining betakror namunalarini jamlagan. Ushbu kitobdan o‘zbek adabiyoti zabardast vakillari, qalam ahllari, buyuk yozuvchilarning ijod jarayonidagi o‘ziga xos olami, ilhom manbayi, ijod laboratoriyasi, shaxslik xislatlari yoritilgan esselar o‘rin olgan. Aytish mumkinki, ijodkor yaratgan esselar g‘oyaviy jihatdan xilma-xil, chuqur mushohada talab qiluvchi, hayotning turli jumboqlari va bu jumboqlar echimida inson zakovati, aql-idroki, irodasining o‘rni masalalaridan bahs ochadi.

Ijodkor esselarida O.Yoqubov, Mirtemir, Shukrullo, E.Vohidov, R.Parfi, T.Sulaymon, M.Yusuf, H.Xudoyberdiyeva, A.Ko‘chimovlarning xarakter qirralariga chizgilar bitiladi. Ularning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissalar, ijod olamidagi betakror o‘rni, ijodiy jarayonda erishgan yutuqlari, oilaviy hayotdagi o‘ziga xosligi, insoniy kechinmalari, shaxsiy xulq-atvori, ijtimoiy hayotdagi erishgan yutuqlarining tagzamani haqidagi mulohazalari bayon etiladi.

“Diyonat daryosi” nomli essesida atoqli adib Odil Yoqubov hayot yo‘li, ijod kredosi chuqur tahlil qilingan. Esse yoshi etmishdan oshib saksonni qoralab qolgan adibga shogirdlari hamon “Odil aka” deya munosabatda bo‘lishining sababi o‘zi jiddiy ko‘rinsa-da, katta-yu kichikka birdek samimiy munosabati tufayli ekani, adibning suhbat asnosida o‘zini tutish madaniyati hamda suhbatdoshga qilgan iliq muomalasi hayratlanarli darajada samimiy ekani haqidagi dil izhorlari bilan boshlanadi. Yozuvchi Odil Yoqubovning muomala madaniyatini tasvirlar ekan, gaplashganda ziyrak, nihoyatda xushmuomala, iltifotli bo‘lib, suhbatni maydalashtirmaydigan, yo‘q narsalarga vaqt sarflamaydigan bir dono suhbatdosh timsolida tasvirlaydi. “Odil aka sakson yoshda ham bir qadam ortga chekinmaydigan, mard, qat’iyatli, temir irodali, qo‘rqmas jangchiga o‘xshardi. Tafakkuri shunday edi. Fikrlash qobiliyati zabardast va yuksak edi”². Ijod borasida esa Qodiriy va Cho‘lpon kabi adabiyotda yuksak bir o‘rni bo‘lishni orzu qilishi, ayniqsa, umrining so‘nggi kunlarida, xastalanganda bu haqda tez-tez gapirgani, biroq bu iltijo kimdandir biror narsa

¹ Qo‘chqorova M.X. Hozirgi o‘zbek adabiyotida esse janri. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2004. – B. 53.

² Ismoil M. Millat yuragining durdonalari. – Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2016. – B. 10.

ta'ma qilish emas, aksincha adabiyot oldidagi qarzдорlik hissi sababli yuzaga kelganligini essenavis ta'kidlab o'tadi.

Esseni o'qir ekan, kitobxon adibning so'z qo'llash mahorati yuksak va inson psixologiyasining chuqur bilimdoni ekanini, yonidagi suhbatdoshini qanday mavzuda, nima haqida gaplashayotganidan qat'i nazar so'zlashiga qarab qanday shaxs ekanligini aniq bilib olish qobiliyatiga ega ekani, ayni shu jihati bilan boshqa ijodkorlardan tubdan farq qilishini anglab etadi. Yozuvchi tuturuqsiz asarlarni ko'rganda xuddi o'g'ri, muttahamga qaraganday munosabatda bo'lishi, har doim xalq manfaatini yuqoriga ko'taruvchi inson sifatida tasvirlanadi.

Esseda O.Yoqubov fenomeni quyidagi jihatlarda yanada yorqin ifodalanadi:

a) Odil Yoqubov shaxsi va insoniy fazilatlari – esseda adibning insoniy fazilatlari haqqoniy, real tasviriga ega. “Kim bilan gaplashmasin, o'rta to'siq qo'ymasdi”,¹ degan konsepsiya asosida uning samimiy, ochiqko'ngil va insonlarga qalban yaqin bo'lgani haqdagi hayotiy lavhalar tasviri asosida yoritiladi. Adibning yoshlar bilan ham, keksa avlod vakillari bilan ham xuddi tengdoshlari kabi muloqot qilgani, har bir masalaga nihoyatda jiddiy, diqqat-e'tiborli, chuqur fikrlaydigan, vaqtini mayda gaplarga sarflamaydigan inson bo'lgani e'tirof etiladi. U keksayganida ham aqli zaiflashmagan, aksincha, qat'iyatli va sobitqadam inson bo'lib qolgan. Ayni jihatlarning uning nafaqat shaxsiyati, balki ijodiga ham bevosita ta'sir qilgani essenavis tomonidan mahorat bilan yoritilgan.

b) Adabiyot va millatga sadoqati – essenavis Odil Yoqubovning millatiga, xalqiga bo'lgan sadoqatini, fidoyiligini alohida ta'kidlaydi. Bu fikrni quyidagi qiyos orqali ifoda etadi: Adib “*Balzak Fransiyani va fransuz xalqini, Tolstoy Rossiyaning va rus xalqini, Gabriel Markes Kolumbiyaning va Kolumbiya xalqini sevganday sevdi va yuksakka ko'tardi*”². Keltirilgan ushbu fikrlardan yozuvchining o'z xalqini chin dildan sevgani va buni ham ijodi, ham ijtimoiy faoliyati bilan isbotlaganini essenavis faxr bilan tasvirlaydi. Esseda O.Yoqubov adabiyotning yuksak maqsad va maqomini tushungan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi.

d) Kamtarinlik va ijodiy talabchanlik – essedagi eng ta'sirli jihatlardan biri Odil Yoqubovning kamsuqum va tavoze'li inson ekanligi ta'rifi. Buni

¹ Ismoil M. O'sha manba. – B. 12.

² Ismoil M. Millat yuragining durdonalari. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2016. – B. 13.

yoʻzuvchining oʻziga juda yuqori talab qoʻyishi bilan bogʻliq qarashlarida koʻrish mumkin. Yoʻzuvchining quyidagi soʻzlari bunga yaqqol misol boʻla oladi: *“Men bu xalq uchun hech narsa qilolmadim, hayotim havoga sovrildi...”*¹ Muhammad Ismoil bu soʻzlarni yoʻzuvchining samimiy iqrori sifatida keltirib oʻtadi. Odil Yoqubov oʻz asarlari orqali millatga, adabiyotimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan boʻlsa-da, u hech qachon oʻzidan qoniqmagan va doimo ijodiy kamolotni orzu qilgan. Yoʻzuvchining bu intilishi, adabiyot oldidagi masʼuliyat hissi ulugʻ adibga xos fazilat ekanligi urgʻulanadi.

Muhammad Ismoilning Odil Yoqubov haqidagi essesi faqatgina shaxsiy taassurotlarga emas, balki chuqur badiiy va falsafiy tahlillarga asoslangan. Essenavis O.Yoqubov faqat adabiy yutuqlari bilan emas, insoniy qadr-qimmat jihatidan ham barchaga oʻrnak boʻlarli, etuk shaxs sifatida tasvirlanadi. Ijodkorning hayoti va ijodi tasvirlari orqali esseda millatga, adabiyotga sadoqat, halollik va fidoyilik haqidagi gʻoyalar ilgari suriladi. Shu jihatdan “Diyonat daryosi” essesi faqat bir adib haqida emas, umuman adabiyot va uning jamiyat oldidagi vazifalari haqida yozilgan muhim asar hisoblanadi.

Muhammad Ismoil Odil Yoqubovning ustozlik mahobati, shogirdlarga koʻrsatgan iltifotini yodga olar ekan, “Sizni sevmay boʻladimi...” nomli kitobi uchun soʻzboshi yozdirishga ustoz huzuriga borganini, oradan bir haftacha vaqt oʻtib O.Yoqubov soʻzboshi tayyor boʻldi, deb yoniga chorlab nasihat qilgani, muallifga qarata endi yoshi katta boʻlib qolib, engil-yelpi yozishni yigʻishtirib, ijodga jiddiy kirishishi lozimligini uqtirib tanbeh berganligini yozar ekan, bu tanbeh oʻziga bir umrga saboq boʻlganini eʼtirof etadi.

Suhbatlarning birida essenavis yoʻzuvchi asarlari hali buyuk bir mukofotlarga etishishi lozimligini aytib ruhlantiraman desa, Odil Yoqubov eng katta mukofot – xalq muhabbati ekanligini aytadi. Muallif esseda inson qachonki hayotning engil-yelpi taraflarida turib charchaganida, oʻtkinchi soxta tuygʻular haqida yozishdan bezganda, hayotga jiddiy koʻz bilan qarashni istab qolganda Odil Yoqubovni oʻqishga ehtiyoj tuyishini dil izhori sifatida iqror qiladi.

Muhammad Ismoil yaratgan esselar yoʻzuvchi ijodiy faoliyatining bir yoʻnalishi sifatida oʻzbek essenavisligining bir uzvi darajasida baholanishga loyiq. Muallif esse janri imkoniyatlaridan toʻlaonli foydalanib bu janr taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshib kelmoqda. Tahlil jarayonida muallif esselarida ham yoʻzuvchi va shoirlar siymosi oʻzining betakror qiyofalari bilan

¹ Ismoil M. Oʻsha manba. – B. 13.

namoyon bo‘lishiga, ruhiyati, ichki dunyosi ta’rif va tavsiflarida boshqalardan farqli jihatlari, asarlari mohiyatidagi g‘oyalarning yozuvchi o‘y-xayollari, tuyg‘ulari bilan bevosita bog‘liqligi, yozuvchi biografiyasini chuqur bilish va his qilish ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.Nazarov, A.Rasulov, Sh.Ahmedova, Q.Qahramonov. “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligi. T.: 2012.
2. Qo‘chqorova M.X. Hozirgi o‘zbek adabiyotida esse janri. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2004.
3. Ismoil M. Millat yuragining durdonalari. – Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2016.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Qo‘chqorova M. Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari. – Toshkent: Muharrir, 2011.

FILOLOGIYA**SIYOSIY DISKURS – TILSHUNOSLIKDAGI YANGI YO‘NALISH
SIFATIDA**

**Jumaniyozova
Sohiba,
Urganch innovatsion
universiteti “O‘zbek
va xorijiy filologiya”
kafedrası
o‘qituvchisi.**

UO‘K 8.81-13.(321)

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy diskurs tilshunoslikdagi yangi va istiqbolli yo‘nalish sifatida kompleks tahlil qilinadi. Siyosiy diskurs tushunchasining shakllanishi, nazariy asoslari, lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari yoritilib, uning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyati asoslab beriladi.

Аннотация: В статье политический дискурс рассматривается как новое и перспективное направление в лингвистике. Освещаются теоретические основы понятия политического дискурса, его лингвистические и экстралингвистические особенности, а также роль в изучении взаимосвязи языка, власти и идеологии.

Annotation: This article examines political discourse as a new and promising direction in linguistics. It explores the theoretical foundations of political discourse, its linguistic and extralinguistic features, and its role in analyzing the relationship between language, power, and ideology.

Kalit so‘zlar: siyosiy diskurs, siyosiy nutq, til va hokimiyat, mafkura, diskurs tahlili, pragmatika.

Ключевые слова: политический дискурс, политическая речь, язык и власть, идеология, дискурсивный анализ, прагматика.

Key words: political discourse, political speech, language and power, ideology, discourse analysis, pragmatics.

Globalashuv jarayonlari, siyosiy jarayonlarning jadallashuvi va ommaviy axborot vositalarining kengayishi natijasida siyosiy muloqot jamiyat hayotining markaziy omillaridan biriga aylandi. Siyosiy qarorlar, mafkuraviy g‘oyalar va hokimiyat bilan bog‘liq munosabatlar til orqali ommaga etkaziladi. Shu sababli siyosiy jarayonlarni faqat siyosatshunoslik yoki sotsiologiya nuqtai nazaridan emas, balki tilshunoslik asosida ham tahlil qilish zarurati yuzaga keldi [1]. Aynan shu ehtiyoj siyosiy diskursni tilshunoslikdagi mustaqil va yangi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda siyosiy diskursni o'rganishda zamonaviy tilshunoslikda qo'llaniladigan kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida diskurs tahlili, kritik diskurs tahlili (CDA), pragmatik va kognitiv tahlil usullari uyg'unlashgan holda qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar siyosiy nutqni nafaqat lingvistik birliklar tizimi sifatida, balki ijtimoiy va mafkuraviy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida siyosiy nutqlarning matniy tahlili olib borilib, unda leksik-semantik birliklar, ritorik vositalar, metaforalar va baholovchi elementlar aniqlandi. Pragmatik tahlil orqali nutq aktlari, kommunikativ strategiya va taktikalarning siyosiy maqsadga xizmat qilishi yoritildi. Kognitiv yondashuv asosida esa siyosiy diskursda shakllanadigan asosiy konseptlar va mental modellar tahlil qilindi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va interpretativ metodlardan ham foydalanildi. O'zbek siyosiy diskursi namunalari xalqaro siyosiy diskurs tadqiqotlari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, milliy-madaniy xususiyatlar aniqlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv siyosiy diskursni har tomonlama va ilmiy asosda o'rganishga xizmat qiladi.

Natijalar: An'anaviy tilshunoslikda siyosiy nutq ko'proq stilistik yoki ritorik jihatdan o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy diskursiv yondashuv siyosiy nutqni ijtimoiy ong, mafkura va hokimiyat bilan uzviy bog'liq murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin etadi [1]. Siyosiy diskurs nutqning nafaqat lingvistik tuzilishini, balki uning pragmatik maqsadini, auditoriyaga ta'sirini va ijtimoiy natijalarini ham o'z ichiga oladi. O'zbek tilshunosligida siyosiy nutq masalalari mustaqillikdan keyingi davrda ayniqsa dolzarb bo'lib, siyosiy diskursni ilmiy jihatdan tahlil qilish ehtiyoji kuchaydi. Ushbu maqolada siyosiy diskursning nazariy asoslari, uning tilshunoslikdagi yangi yo'nalish sifatidagi mohiyati va o'zbek tilshunosligidagi o'rni keng yoritiladi.

Siyosiy diskurs tushunchasi va uning shakllanishi. Siyosiy diskurs tushunchasi umumiy diskurs nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, u siyosiy faoliyat doirasidagi muloqotni ifodalaydi. Diskurs tilshunoslikda muayyan ijtimoiy vaziyatda, aniq kommunikativ maqsad bilan amalga oshiriladigan nutqiy faoliyat sifatida talqin qilinadi. Siyosiy diskurs esa hokimiyat, boshqaruv, siyosiy mafkura va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq nutqiy jarayonlarni qamrab oladi. Siyosiy diskursning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, G'arb tilshunosligida siyosiy nutqni tanqidiy diskurs tahlili asosida o'rganish bilan bog'liq. Teun van Deyk, Norman Feyrklaf kabi olimlar siyosiy diskursni hokimiyatni legitimlashtirish va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida izohlaydilar [2], [3].

O'zbek tilshunosligida siyosiy diskurs tushunchasi nisbatan yangi bo'lib, u ko'proq siyosiy nutq, rasmiy-idoraviy uslub va publitsistik matnlar doirasida o'rganib kelinmoqda (N. Mahmudov, Sh. Safarov) [4]. Biroq diskursiv yondashuv siyosiy nutqni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi [5]. Siyosiy diskursning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari. Siyosiy diskurs lingvistik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unda baholovchi birliklar, metaforalar, ideologik yuklangan terminlar, emotsional-ekspressiv vositalar keng qo'llaniladi. Siyosiy nutq ko'pincha auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, uni muayyan fikrga ishontrish maqsadida quriladi.

Ekstralingvistik omillar siyosiy diskursning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Siyosiy vaziyat, tarixiy sharoit, nutq so'zlovchining ijtimoiy mavqei, auditoriyaning tarkibi siyosiy diskurs mazmuni va shakliga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois siyosiy diskursni faqat matn asosida emas, balki uning yaratilish va qabul qilinish sharoitlarini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur. O'zbek siyosiy diskursida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy ramzlar muhim rol o'ynaydi. Bu holat siyosiy nutqning milliy o'ziga xosligini belgilaydi.

Siyosiy diskurs va hokimiyat munosabati. Siyosiy diskursning markaziy tushunchalaridan biri hokimiyatdir. Til hokimiyatni amalga oshirish, uni mustahkamlash va legitimlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Siyosiy nutq orqali hokimiyat o'z qarashlarini jamiyatga singdiradi va ijtimoiy ongni shakllantiradi. Tilshunoslikda siyosiy diskurs hokimiyatning "yumshoq kuchi" sifatida qaraladi. U zo'ravonliksiz, lekin ta'sirchan nutqiy strategiyalar orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda diskursiv strategiyalar – "biz" va "ular" oppozitsiyasi, ijobiy o'zini tasvirlash va salbiy boshqalarni tasvirlash kabi usullar qo'llaniladi. O'zbek siyosiy nutqida birlik, barqarorlik va taraqqiyot g'oyalari markaziy diskursiv strategiyalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu strategiyalar nutq madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

Siyosiy diskursning pragmatik va kognitiv jihatlari. Pragmatik jihatdan siyosiy diskurs nutqning maqsadga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Siyosiy nutqning asosiy maqsadi auditoriyani ishontrish, safarbar etish yoki muayyan qarorni qo'llab-quvvatlashga undashdan iborat. Shu sababli siyosiy diskursda nutqiy aktlar, implikatura va presuppozitsiyalar faol qo'llaniladi. Kognitiv yondashuv siyosiy diskursni jamiyat ongida mavjud konseptlar va stereotiplar orqali tahlil qiladi. Siyosiy diskurs orqali "davlat", "xalq", "taraqqiyot", "xavfsizlik" kabi asosiy konseptlar shakllanadi va mustahkamlanadi.

Siyosiy diskursni o'rganishda tilshunoslik yondashuvlari. Siyosiy diskursni tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u turli nazariy va metodologik yondashuvlarning uyg'unlashuvini talab etadi. Siyosiy nutq murakkab kommunikativ hodisa sifatida nafaqat til tizimi doirasida,

balki ijtimoiy, madaniy, kognitiv va mafkuraviy omillar bilan uzviy aloqada shakllanadi. Shu bois siyosiy diskursni o'rganishda bir yoqlama emas, balki kompleks tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Struktural-semantik yondashuv. Struktural-semantik yondashuv siyosiy diskursni til birliklarining ichki tuzilishi va ma'no tizimi nuqtayi nazaridan o'rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuv doirasida siyosiy matnlarning leksik-semantik xususiyatlari, sintaktik konstruksiyalari, matn kohezivligi va koherentligi tahlil qilinadi. Siyosiy diskursda abstrakt tushunchalar, baholovchi leksika, ideologik yuklama ega so'z va iboralar ustunlik qiladi. Bu holat siyosiy nutqning ta'sirchanlik va ishontirishga qaratilgan funksiyasini kuchaytiradi. Struktural tahlil siyosiy diskursda takrorlanuvchi til modellari, shiorlar va formulalarning shakllanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, siyosiy bayonotlar, nutqlar va rasmiy hujjatlarda til birliklarining qat'iy standartlashuvi kuzatiladi.

Pragmatik yondashuv. Pragmatik yondashuv siyosiy diskursni kommunikativ vaziyat va nutq maqsadi bilan bog'liq holda o'rganadi. Siyosiy nutqning asosiy vazifasi axborot berishdan ko'ra ko'proq auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, muayyan pozitsiyani shakllantirish va ijtimoiy harakatni rag'batlantirishdan iborat. Shu sababli siyosiy diskursda nutq aktlari nazariyasi muhim o'rin tutadi [5]. Va'da berish, chaqiriq qilish, ogohlantirish, tanqid va oqlash kabi nutq aktlari siyosiy nutqning pragmatik asosini tashkil etadi. Pragmatik yondashuv siyosiy diskursda kommunikativ strategiya va taktikalarning tanlanishi nutq samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi.

Kognitiv yondashuv. Kognitiv tilshunoslik siyosiy diskursni inson ongida shakllanadigan konseptual tizimlar orqali izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, siyosiy nutq ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan konseptlar, stereotiplar va mental modellar asosida quriladi. Siyosiy diskursda keng qo'llaniladigan konseptlar – hokimiyat, xalq, xavfsizlik, taraqqiyot, barqarorlik kabi tushunchalar bo'lib, ular tinglovchi ongida muayyan baholovchi munosabatni shakllantiradi. Kognitiv metaforalar siyosiy diskursning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, “siyosat – kurash”, “davlat – oila”, “taraqqiyot – yo'l” kabi metaforalar murakkab siyosiy jarayonlarni soddalashtirib, omma ongiga singdirishga xizmat qiladi [6].

Kritik diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis). Kritik diskurs tahlili siyosiy diskursni hokimiyat va mafkura bilan bog'liq holda o'rganishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuv doirasida til ijtimoiy ta'sir va nazorat vositasi sifatida talqin qilinadi. Siyosiy diskursda hukmron ideologiyalar,

yashirin ma'nolar va manipulyativ strategiyalar mavjud bo'lib, ularni aniqlash CDAning asosiy vazifasidir. Kritik tahlil siyosiy matnlarning ochiq va yashirin qatlamlarini farqlashga, til orqali ijtimoiy tengsizlik va kuch munosabatlarining qanday ifodalanishini ko'rsatishga imkon beradi. Bu yondashuv siyosiy diskursni faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida baholash imkonini yaratadi.

Sotsiolingvistik va madaniy yondashuv. Sotsiolingvistik yondashuv siyosiy diskursni jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy qadriyatlari va tarixiy sharoiti bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Siyosiy nutq muayyan auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lib, unda til tanlovi, uslub va kommunikativ model ijtimoiy omillarga bog'liq holda shakllanadi. Milliy siyosiy diskurslarda madaniy ramzlar, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy xotira muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ko'p tilli jamiyatlarda siyosiy diskursda kod almashuvi va til siyosati masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy diskursning kognitiv va pragmatik xususiyatlari. Siyosiy diskursni chuqurroq anglashda kognitiv va pragmatik yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan siyosiy diskurs ijtimoiy ongda shakllanadigan konseptlar, mental modellar va ideologik sxemalar orqali tahlil qilinadi. Siyosiy nutqda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar – hokimiyat, xalq, barqarorlik, taraqqiyot, xavfsizlik kabi konseptlar tinglovchi ongida muayyan baholovchi va yo'naltiruvchi funksiyani bajaradi. Bu konseptlar metafora, ramz va stereotiplar orqali mustahkamlanadi.

Pragmatik jihatdan esa siyosiy diskurs kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan nutq faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Siyosatchi nutq subyekti sifatida axborot berishdan ko'ra ko'proq ishontirish, ta'sir o'tkazish va safarbar etish vazifasini ko'zlaydi. Shu bois siyosiy diskursda nutq aktlari (va'da berish, ogohlantirish, tanqid qilish, oqlash) faol qo'llaniladi. Pragmatik strategiyalar va taktikalarning to'g'ri tanlanishi siyosiy nutqning samaradorligini belgilaydi.

O'zbek siyosiy diskursining milliy-madaniy xususiyatlari. O'zbek siyosiy diskursi milliy mentalitet, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Unda hurmat, murosaga moyillik, jamoaviylik va an'anaviylik kabi qadriyatlar etakchi o'rin tutadi. Rasmiy siyosiy nutqlarda adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinishi, badiiy-publitsistik unsurlarning uyg'unligi kuzatiladi. Shuningdek, o'zbek siyosiy diskursida maqol, hikmatli so'zlar, tarixiy shaxslar va voqealarga murojaat qilish orqali nutqning ta'sirchanligi oshiriladi. Bu holat siyosiy nutqning faqat axborot uzatish emas, balki tarbiyaviy va ideologik vazifani ham bajarishini ko'rsatadi [7]. Global siyosiy kommunikatsiya sharoitida esa o'zbek siyosiy diskursida xalqaro terminlar va umumjahon siyosiy leksikasi faol kirib kelmoqda.

Siyosiy diskurs tilshunoslikdagi yangi va muhim yo‘nalish bo‘lib, u til, siyosat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishga xizmat qiladi. Siyosiy diskurs nutqni ijtimoiy ong va hokimiyat bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada siyosiy diskursning nazariy asoslari, lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari yoritildi hamda o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqot istiqbollari belgilandi. Kelgusida siyosiy diskursni o‘zbek tilida kengroq empirik material asosida o‘rganish tilshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Баранов А. Н. Политический дискурс: основные направления исследования // Вопросы языкознания. – 2001. – № 4. – С. 3–17.
2. Van Dijk T. A. Discourse and Power. – London: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.
3. Feyrklaf N. Diskurs i sotsialnye izmeneniya. – M.: LKI, 2007. – 256 s.
4. Mirzaev I. Siyosiy nutq va jamoatchilik ongi. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 184-b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008. – 240-b.
6. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004. – 226 p.
7. Sodiqov Q. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: Universitet, 2017. – 192-b.

FILOLOGIYA**IXTIONIMLARNING MOTIVATSION TAHLILI: FANLARARO VA TILLARARO TAHLIL****UO‘K 8.81-13.(321)**

**Abdullayeva Kamola,
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada leksik guruhlar motivatsiyasini tahlil qilishga kognitiv onomasiologiya va semasiologiya nuqtai nazarlaridan yondashgan holda kompleks yondashuv taklif etiladi. Muallif tahlilni amalga oshirish uchun uch bosqichdan iborat metodikani ishlab chiqadi.

Аннотация: В данной статье предлагается комплексный подход к анализу мотивации лексических групп с позиций когнитивной ономазиологии и семасиологии. Автор разрабатывает методику, состоящую из трёх этапов, для проведения анализа.

Annotation: This article proposes a comprehensive approach to analyzing the motivation of lexical groups from the perspectives of cognitive onomasiology and semasiology. The author develops a three-stage methodological framework for conducting the analysis.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, semasiologiya, kognitiv onomasiologiya, fanlararo yondashuv, baliq nomlari (ixtionimlar).

Ключевые слова: мотивация, семасиология, когнитивная ономазиология, междисциплинарный подход, названия рыб (ихтионимы).

Key words: motivation, semasiology, cognitive onomasiology, interdisciplinary approach, fish names (ichthyonyms).

So‘nggi yillarda tilshunoslikda fanlararo integratsiya jarayonining kuchayishi natijasida leksikologik tadqiqotlar madaniyatshunoslik, zoologiya va kognitiv fanlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda. Shu jihatdan ixtionimlar, ya’ni baliq nomlarining shakllanishi va semantik motivatsiyasini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ixtionimlar xalqning tabiat haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi va madaniy tajribasini aks ettiruvchi leksik birliklar sifatida til va tafakkur munosabatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida baliq nomlarining motivatsiyasi biologik belgi, tashqi o‘xshashlik va kognitiv assotsiatsiyalar asosida yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi catfish nomi metaforik o‘xshashlikka tayansa, o‘zbek tilidagi som

ixtionimi real obyektning tabiiy xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Bu hol nomlash jarayonida tillarga xos kognitiv va madaniy farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologik jihatdan kognitiv onomasiologiya va semasiologiya tamoyillariga tayanib, ixtionimlarning motivatsion asoslarini ochib beradi. Natijada ingliz va o‘zbek tillaridagi baliq nomlarining semantik-motivatsion xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning milliy tafakkurdagi aks etishi aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ixtionimlar orqali til tizimi, kognitiv madaniyat va lingvokulturologik omillar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishidadir. Shu bois “Ixtionimlarning motivatsion tahlili: fanlararo va tillararo yondashuv” mavzusi zamonaviy leksikologiya va kognitiv lingvistika doirasida istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot kognitiv va diskursiv yondashuvlar integratsiyasiga tayangan holda uch bosqichli fanlararo va tillararo metodologiya asosida olib borildi.

1-bosqich. Kognitiv-onomasiologik tahlil.

Ixtionimlarning shakllanish mexanizmlarini aniqlashda konseptual-metaforik tahlil qo‘llanilib, G. Lakoff va M. Johnson hamda Z. Kövecses tomonidan ishlab chiqilgan model asosida asosiy metaforik tuzilmalar (masalan, MUVAFFAQIYAT = YIRIK BALIQ) identifikatsiya qilindi. Nomlashdagi motivatsion belgilarni aniqlashda zoologik va ixtiologik manbalar jalb etildi. O. Selivanovanning kognitiv-onomasiologik (psixonetik) modeli asosida ixtionimlar propozitsional, assotsiativ va evaluativ modullar doirasida tahlil qilindi.

2-bosqich. Kontrastiv-semasiologik tahlil.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi ixtionimlarning dastlabki motivatsiyasi qiyosiy-tarixiy metod hamda etimologik lug‘atlar asosida o‘rganildi. Semantik maydon tahlili orqali rang, shakl, xatti-harakat va yashash muhiti bilan bog‘liq motivatsion modellarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Lingvokulturologik tahlil doirasida ixtionimlarning frazeologik birliklardagi qo‘llanilishi va madaniy konnotatsiyalari qiyoslandi.

3-bosqich. Korpus asosidagi tahlil.

Empirik material sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘aviy, ilmiy va madaniy matnlardan tuzilgan maxsus korpusdan foydalanildi. Kontent-tahlil va deskriptiv statistik usullar yordamida ixtionimlar motivatsion turlariga ko‘ra tasniflanib, ularning chastotaviy taqsimoti aniqlandi. Shuningdek, nomlarning morfologik va so‘z yasaliş xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologik integratsiya kognitiv, tarixiy-semantik va empirik tahlil natijalarini uyg'unlashtirish orqali ixtionimlarning motivatsion tizimini kompleks yoritishga xizmat qildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ixtionimlar motivatsiyasini o'rganishda mazkur uch bosqichli, fanlararo va tillararo metodologiyaning izchil qo'llanilishidadir.

Natijalar. Uch bosqichli metodologik tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi ixtionimlarning motivatsion tuzilishida muhim tipologik qonuniyatlar aniqlandi. Avvalo, etimologik-motivatsion asosda fundamental farq kuzatiladi: ingliz tilidagi ixtionimlar asosan funktsional-pragmatik motivatsiyaga, ya'ni baliqning iqtisodiy va utilitar ahamiyatiga tayansa, o'zbek tilidagi ixtionimlar tabiiy-ekologik motivatsiyani, baliqning suv muhiti bilan uzviy bog'liqligini aks ettiradi. Bu hol ikki madaniyatning tabiat va resurslarga munosabatidagi konseptual tafovutni ko'rsatadi.

Shuningdek, kognitiv nomlash mexanizmlarida umumiylik va milliy xoslik uyg'unlashgan. Har ikki tilda vizual belgilarga asoslangan nomlash universal kognitiv idrokni namoyon etsa-da, ingliz tilida metaforik-assotsiativ model ustuvor bo'lib, abstrakt va ko'chma ma'nolar faolligi bilan ajralib turadi; o'zbek tilida esa to'g'ridan-to'g'ri tavsiflovchi model real belgilar va nominal aniqlikni birlamchi qiladi. Semantik rivojlanishda ham tafovut mavjud: ingliz ixtionimlari ijtimoiy-iqtisodiy va pragmatik metaforalarga keng ko'chirilsa, o'zbek ixtionimlari asosan maishiy-falsafiy va axloqiy kontekstlarda funksiyalashadi.

Muhokama natijalariga ko'ra leksik birliklar motivatsiyasini o'rganish lingvistikada an'anaviy ravishda semasiologik va onomasiologik yondashuvlar doirasida amalga oshiriladi.

Semasiologiya so'z ma'nosi va uning taraqqiyotini tahlil qilib, "ma'nodan nomga" yo'nalishda harakat qiladi. Ushbu yo'nalish XIX asrda G. Paul va K. Reisig tomonidan asoslangan bo'lib, keyinchalik K. Baldinger va G. Stern tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Onomasiologiya esa nomlash jarayonini markazga qo'yib, "nomdan ma'noga" yo'nalishda tahlil olib boradi; bu yo'nalish XX asr boshlarida A. Zauner tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. K. Baldinger ta'kidlaganidek, semasiologik va onomasiologik yondashuvlarning integratsiyasi nomlash va ma'no taraqqiyotini to'liq ochib berish imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqot natijalari aynan shu integrativ yondashuvning ixtionimlar motivatsiyasini izohlashda yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Kognitiv onomasiologiya va interdisiplinarlik.

So'nggi o'n yilliklarda onomasiologiya kognitiv lingvistika bilan uyg'unlashdi (A. Piquer-Pz & R. Alejo-Gonzz , bu so'z yaratish (nomlash) jarayonini kognitiv jarayon sifatida tushunishga olib keldi. Shu asosda yangi ilmiy

yoʻnalish — kognitiv onomasiologiya shakllandi (J. Grzega; P. Koch; O. Selivanova) .

Tadqiqotning maqsadi va ahamiyati. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ixtionimlar leksik guruhlarining motivatsion xususiyatlarini kognitiv onomasiologik va semasiologik yondashuvlar asosida, zamonaviy fanlararo metodlar yordamida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida nomlash mexanizmlari, semantik taraqqiyot va madaniy omillar oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik ochib beriladi. Fanlararo, tillararo tadqiqotlar oʻzaro madaniy taʼsirni, milliy tafakkurdagi farqlarni aniqlashga yordam beradi hamda “madaniyatlararo muloqot uchun ilmiy koʻrsatma” beradi . Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — leksik guruhlarining motivatsiyasini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuvni ishlab chiqish ekan. Shu bois avvalo “motivatsiya” terminining lingvistik mazmuni izohlanadi.

Tilshunoslikda “motivatsiya” tushunchasiga oid yondashuvlar turlicha boʻlib, ularni leksik yoki onomasiologik nuqtai nazardan talqin etuvchi koʻplab qarashlar mavjud. Ushbu maqola kognitiv onomasiologik va semasiologik nuqtai nazarlarga tayanadi, shu bois “motivatsiya”ning mazmunini eng aniq tarzda amerikalik kognitiv tilshunos R. Langacker taʼriflagan. Uning fikricha, motivatsiya bu shakl va maʼno oʻrtasidagi kognitiv munosabat boʻlib, til birliklari inson ongidagi konseptual bogʻlanishlar asosida shakllanadi. Demak, til tizimidagi har bir nom insonning idrok jarayonida vujudga kelgan obraz, tajriba yoki konseptual modelning ifodasidir .

Ushbu maqola kognitiv onomasiologik va semasiologik yondashuvlarga tayanganligi sababli, “motivatsiya”ning mohiyatini oʻzbek tilshunosi Sh. Rahmatullaev tomonidan berilgan taʼrif eng toʻliq yoritadi. Unga koʻra, soʻz motivatsiyasi — bu soʻzning ichki shakli bilan uning ifodalagan maʼnosi orasidagi bogʻlanish boʻlib, u tildagi nomlashning ichki mantiqini, inson tafakkuri va tajribasining leksik shaklga koʻchish jarayonini ifodalaydi . Shu asosda motivatsiya soʻzning shaklida yashirin maʼnoni anglash imkonini beradi va uni inson tafakkurining lingvistik koʻrinishi sifatida izohlash mumkin.

Demak motivatsiya — bu til-kognitiv jarayon boʻlib, u bilimlar tuzilmasi bilan proyeksiya holatidagi onomasiologik tuzilmani shakllantiradi. Demak, leksik guruhlar motivatsiyasini toʻliq oʻrganish uchun ularning turli qirralarini hisobga olish zarur. Nemis tilshunosi J. Grzeganing fikricha: “Tilshunos maʼlum bir tushunchaga tegishli barcha sinonimlarni tahlil qilishi, soʻzlarning shakliy xususiyatlari va ifodalangan konseptual belgilarini koʻrib chiqishi, butun leksik maydonni oʻrganishi hamda madaniy jihatlarni ham inobatga olishi kerak”.

Shundan kelib chiqib, leksik guruhlar motivatsiyasini o'rganish uchun uch bosqichli metodikani taklif qilish mumkin.

1-bosqich. Leksik guruhdagi asosiy leksemalarning dastlabki motivatsiyasini aniqlash.

Leksik guruh tahlilida barcha birliklar qamrab olinadi, biroq asosiy (kalit) leksemalar alohida e'tiborga olinadi, chunki ular guruhning semantik yadrosini tashkil etadi. Ushbu leksemalarning motivatsiyasi ko'pincha tarixan murakkablashgan bo'lib, zamonaviy til materialida bevosita aniqlanmaydi. Shu bois qiyosiy-tarixiy metod qo'llanilib, arxaik shakllarni rekonstruksiya qilish orqali dastlabki motivatsion belgi aniqlanadi. "Ixtionimlar" leksik guruhi uchun kalit leksemalar sifatida ingliz tilida fish, o'zbek tilida baliq tanlandi.

Etimologik manbalarga ko'ra, ingliz tilidagi fish leksemasi proto-germancha fiskaz ildiziga borib taqalib, ayrim talqinlarda proto-hind-yevropa peisk- (ozuq-ovqat) konsepti bilan bog'lanadi. Shu bois uning dastlabki motivatsiyasi funktsional-pragmatik, ya'ni "ozuq-ovqat manbai" tushunchasi bilan izohlanadi. O'zbek tilidagi baliq esa qadimgi turkiy baliq shaklidan kelib chiqib, dastlab "suvda yashovchi jonzot" ma'nosini ifodalagan; bu uning tabiiy-ekologik, ya'ni "suv muhiti"ga asoslangan motivatsiyasini ko'rsatadi. Mazkur tafovut ingliz va o'zbek tillaridagi madaniy-ekologik dunyoqarash farqlarini aks ettiradi.

2-bosqich. Kognitiv onomasiologik tahlil.

Kognitiv onomasiologik yondashuvga muvofiq, har bir leksema muayyan motivatsion belgi asosida nomlanadi. Shu sababli baliq nomlarining shakllanishida ishtirok etuvchi real, perceptiv va funktsional xususiyatlar majmui tahlil qilindi. Tilshunoslik tahliliga zoologik va biologik ma'lumotlarning jalb etilishi tadqiqotning fanlararo xarakterini ta'minlab, nomlash jarayonining kognitiv asoslarini yanada aniqroq yoritishga imkon berdi.

Quyida misol sifatida K. Shultsning "Field Guide to Freshwater Fish" qo'llanmasidan walleye baliq turi tahlil qilinadi : Shakli: ingichka, silindrsimon tanasi bor; O'lchami: odatda 25–45 sm, og'irligi 0,5–1,5 kg; Tana qismlari: tishlari va gil qopqog'i o'tkir, eng diqqatga sazovor belgisi — katta oq, yaltirab turuvchi ko'zlari; Rangi: yashash joyiga qarab o'zgaradi, ko'pincha oltin tusda; Muhiti: Shimoliy Amerikada keng tarqalgan;

Tuxum qo'yish davri: bahor yoki erta yoz, suv haroratiga bog'liq. Mazkur belgilarga asoslanib, ingliz tilida "walleye" nomining motivatsiyasi ko'z shakli va yaltirash xususiyati bilan bog'liq. So'zning etimologiyasiga ko'ra, wall ("devor", "sirt") va eye ("ko'z") komponentlarining qo'shilishi orqali hosil bo'lgan bo'lib, u ko'z qorachig'ining turtib chiqqan, yaltirab turuvchi ko'rinishini ifodalaydi. Shu

sababli bu nom tashqi vizual belgiga asoslangan motivatsion nomlash hisoblanadi.

O‘zbek tilida bu baliq turi “oltinko‘z baliq” deb tarjima qilinadi. O‘zbek tilidagi nomda ham ko‘zning yaltirashi va oltin tusdagi rangi asosiy belgilar sifatida tanlangan. Demak, har ikkala tilda ham motivatsion asos – ko‘zning jilo beruvchi, yorqin xususiyatidir, bu vizual semantik motivatsiya turiga kiradi. So‘z yaratish jarayonida tanlangan dominant motivatsion belgi (ko‘zning yaltirashi) asosiy onomasiologik markaz vazifasini bajaradi, qolgan belgilar (masalan, tana shakli yoki tuxum qo‘yish davri) onomasiologik implikasiya orqali so‘nadi, ya’ni nomlashda e’tibordan chetda qoladi. Shunday ekan, Ingliz tilida walleye va o‘zbek tilida oltinko‘z baliq nomlari o‘rtasida motivatsion parallelizm mavjud — har ikkalasi ham rang va ko‘zning yaltirashiga asoslangan vizual motivatsiyani ifodalaydi. Bu hodisa kross-lingvistik nomlashning universal mexanizmini ko‘rsatadi: tildan qat’i nazar, insonlar ko‘pincha ko‘zga tashlanadigan belgini asosiy nomlash mezoni sifatida tanlaydi.

Motivatsiya turlari O. Selivanova ishlab chiqqan psixonetik modelga ko‘ra, nomlash jarayonida inson ongidagi ma’lumotlar uch modul asosida shakllanadi: propozitsional (obyektning real, kuzatiladigan belgilari), assotsiativ (taqqoslash va metafora asosidagi o‘xshatish) hamda evaluativ (subyektiv, hissiy-baholovchi munosabat).

Ingliz tilidagi catfish ixtionimi ushbu modullarning o‘zaro uyg‘unligini yaqqol namoyon etadi. Nomlashda baliqning mo‘ylovli tuzilishi propozitsional modulni tashkil etsa, mushuk bilan o‘xshatish asosidagi metafora assotsiativ modulni ifodalaydi. Shuningdek, ingliz madaniyatida catfish leksemasining “ayyorlik” yoki “yashirinlik” kabi qo‘shimcha ma’nolarga ega bo‘lishi evaluativ modulning mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman, bu nomda assotsiativ motivatsiya ustuvor bo‘lsa-da, real biologik belgi ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilidagi ekvivalent — som (mo‘ylovli baliq) nomida esa propozitsional modul etakchi bo‘lib, nomlash bevosita tashqi morfologik belgi asosida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, unda assotsiativ va evaluativ komponentlar ham ikkilamchi darajada mavjud. Taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, inglizcha catfish va o‘zbekcha som ixtionimlari bir xil vizual belgi — mo‘ylov asosida yaratilgan bo‘lsa-da, ingliz tilida metaforik (assotsiativ), o‘zbek tilida esa tavsiflovchi (propozitsional) model ustuvorlik qiladi. Bu hol O. Selivanova psixonetik modelining universalligini tasdiqlab, nomlash jarayonida real idrok, assotsiativ obraz va baholovchi munosabatning birgalikda ishtirok etishini ko‘rsatadi.

3-bosqich. Motivatsiyaning semasiologik jihatini ochib berish.

Mazkur bosqichda tahlil ma'no taraqqiyoti va semantik o'zgarishlarga qaratiladi. Maqsad — ixtionimlarning turli tushunchalar, konnotatsiyalar va madaniy ma'nolarni qanday ifodalashini aniqlashdir. Buning uchun lingvokulturologik tahlil usuli qo'llanilishi lozim. Semasiologik nuqtai nazardan qaraganda, baliq nomlari metafora va metonimiya vositasida yangi leksik birliklar hosil qiladi. Baliq nomlaridan hosil bo'lgan leksik birliklar. Oniymlar — bu shaxs va joy nomlarini ifodalovchi birliklardir. Shaxs ismlari: ingliz tilida: Mackerel, Trout (familiya yoki taxallus sifatida ishlatiladi); o'zbek tilida: Baliqboy, Cho'rta nov kabi ism, familiyalar (hayvon yoki metaforik nomdan kelib chiqqan).

Geografik nomlar: ingliz tilida: Redfish Lake — joy nomlari baliq turlaridan olingan; o'zbek tilida: Baliqchi tumani.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar leksik guruhlar motivatsiyasini tadqiq etishda kompleks va integrativ yondashuv eng samarali ekanini ko'rsatdi. Maqolada taklif etilgan uch bosqichli metodika — tarixiy-etimologik, kognitiv onomasiologik va semasiologik tahlilni o'z ichiga olib, kognitiv onomasiologiya va semasiologiya yondashuvlarini qiyosiy-tarixiy hamda kontrastiv metodlar bilan uyg'unlashtiradi va fanlararo ma'lumotlardan izchil foydalanishni ta'minlaydi. Natijada ushbu metodika tillararo tadqiqotlar uchun yuqori ilmiy samaradorlikka ega bo'lib, milliy tafakkurdagi umumiylik va farqlarni, madaniy xususiyatlarni hamda tilning jamiyat hayotidagi aksini tizimli ravishda yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baldinger K. Semantic Theory: Towards a Modern Semantics. – Oxford: Oxford University Press, 1980. – 272 p.
2. Koch P. Cognitive Onomasiology and Lexical Change. In: Blank A., Koch P. (eds.) Historical Semantics and Cognition. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1999. – P. 15–40.
3. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p.
4. Oxford English Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2023. – Online edition.
5. Piquer-Píriz A., Alejo-González R. Cognitive Approaches to the Study of Lexical Motivation. – Granada: Universidad de Granada Press, 2008. – 214 p.
6. Rahmatullaev Sh. Til va ma'no. – Toshkent: Fan, 1982. – 156 b.
7. Schultz K. Field Guide to Freshwater Fish. – New York: Wiley Publishing, 2004. – 416 p.
8. Selivanova O. O. Zamonaviy lingvistika: yo'nalishlar va muammolar. – Poltava: Dovkilliya-K nashriyoti, 2008. – 712 b.

9. Stern G. Meaning and Change of Meaning, with Special Reference to the English Language. – Gothenburg: Wettergren & Kerber, 1931. – 370 p.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.

FILOLOGIYA**SHUHRAT MATKARIMNING “SALAV” QISSASIDAGI
O‘XSHATISHLAR TAHLILI****UO‘K 95(575.171)**

Doniyor Yuldashev,
filologiya fanlari
doktori (DSc), prof.



Sharifa Kalandarova,
UrDU
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shuhrat Matkarimning “Salay” qissasida qo‘llanilgan o‘xshatishlar, xususan, ularni hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar, ularning o‘xshatish etaloniga ko‘ra tasnifi xususida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сравнения, использованные в рассказе Шухрат Маткарим «Салай», в частности, лексические и грамматические средства, которые их создают, и их классификация по критериям сравнения.

Annotation: This article examines the comparisons used in Shukhrat Matkarim's story "Salai", in particular the lexical and grammatical means that create them, and their classification according to the criteria of comparison.

Kalit so‘zlar: Shuhrat Matkarim, analogiya, o‘xshatish, asos, lingvopoetika, etalon, leksik vosita, komparativ troplar.

Ключевые слова: Шухрат Маткарим, аналогия, сравнение, основа, лингвопоэтика, эталон, метафора, сравнительные тропы.

Key words: Shukhrat Matkarim, analogy, comparison, basis, linguapoetics, reference, metaphor, comparative tropes.

Har bir yozuvchi muayyan voqelikni har jihatdan ham ta’sirchan, ham yorqin ifodalashda tilning fonetik, leksik va grammatik birlikaridan o‘ziga xos usullarda foydalanib, o‘quvchiga etkazishni mo‘ljallagan fikrini kitobxonga ixcham, aniq, ta’sirchan qilib etkazish uchun o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, kichraytirish, kinoya, majoz kabi turli xil uslubiy vositalardan foydalanadi. Bunday vositalar tilshunoslik nuqtayi nazaridan atroflicha o‘rganilgan [9, 97] va asosan, “badiiy tasvir vositalari” [9; 10] nomi bilan tahlilga tortilgan. Biz ushbu

maqolamizda Sh.Matkarimning “Salay” qissasidagi badiiy tasvir vositalardan biri sanaluvchi o‘xshatishlarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, tasviriy ifodaning eng qadimiy shakllaridan biri analogiya bo‘lib, Aristotel poeziyani yaxlit holda o‘xshatish san’ati deb nomlaydi. *Simile* (o‘xshatish) terminini Aristotel *imago* tarzida qo‘llagan, uzoq yillar davomida o‘xshatish notiqlik (ritorika)da nutq vositasi tarzida atroflicha o‘rganilgan, lekin uning grammatik tomonlari tadqiqi ancha orqada qolgan. Mantiq fanidagi analogiya haqida N.Mahmudov quyidagi izohni qayd qiladi: “Analogiya deb o‘xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o‘xshash belgilariga ega ekanligini ko‘rsatishga aytiladi. Birinchi narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba’zi bir belgilarinigina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o‘xshatamiz” [3, 19].

O‘xshatishlar dunyo filologiya ilmda Panini grammatikasida (eramizdan oldingi IV asr) poetik figura sifatida qaralgan va u to‘rt unsurdan tarkib topishi ta’kidlangan. Rus tilshunosligida dastlab XVIII asrda M.V.Lomonosov o‘xshatish tahlili muammosini ritorik qatlam, shuningdek, grammatik qatlam nuqtayi nazaridan ham o‘rganadi [1, 133]. XX asrda o‘xshatishning sabablari hamda turli xalqlardagi o‘xshatishlarning o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor qaratildi. Jumladan, A.A.Potebnya “bugungi olimlari oldida til va tafakkurning rivojlanishida o‘xshatish shakllarining paydo bo‘lishi sabab va omillarini aniqlash vazifasi turibdi”, deb qayd qilgan edi [6, 213]. O‘xshatish badiiy matnda kitobxon yoki tinglovchiga representativ, ekspressiv, appelyativ maqsadlarning hammasiga birdek xizmat qiladi. J.Lakoff va M.Jonsonlar nazariyasiga ko‘ra, inson ongidagi konseptual tizim (bilimlar jami) bevosita tajriba orqali erishilgan konseptlar asosida vujudga keladi [2, 387-388]. Bu esa yangi bilimlar oldingi bilimlar asosida hosil qilinadi, demakdir.

Darhaqiqat, har qanday nasriy asar lingvopoetik tahlilining metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. Tahlil usullari sifatida esa badiiy matn tahlili metodistlari lisoniy tabdil, tavsifiy, lug‘atlarga asoslanish, lisoniy birliklar indeksini tuzish kabi metodlarni tavsiya qilishadi [8]. Biz Sh.Matkarim qalamiga mansub birgina qissada qo‘llangan o‘xshatishlarning o‘ziga xosliklarini ochib berishda, asosan, tavsifiy metod hamda lisoniy tabdil usuliga tayandik. Jumladan, tavsifiy metod jahon tilshunosligining eng qadimiy va dastlabki etakchi metodi sanalib, qadimgi arab, yunon, hind, xitoy tillariga oid grammatikalar shu

metod asosida yaratilgan. Tavsifiy metod sinxron analiz metodi bo'lib, matnni turgan holatda berilgan ma'lumotlar asosida o'rganadi; ushbu metod asosida olingan ma'lumotlar barcha metodlar uchun tayanch nuqta hisoblanadi. Komponent tahlil va kontekstual tahlil bosqichlariga tayanuvchi ushbu metod o'z ichiga ijtimoiy-sotsiologik, talaffuz-akustik, distributiv tahlil, valentlik tahlil kabi usullarni ham qamrab oladi.

Nasriy asarlarda eng faol qo'llanuvchi tasviriyy vositalardan biri o'xshatish bo'lib, bu vosita fikrning obrazlilik, tasviriyligini kuchaytiruvchi, favqulodda poetik ifodadorlik ko'lamining kuchlilik bilan ajralib turadigan tasviriyy usullardan biridir. O'zbek tilshunosligida M.Mukarramov o'xshatishning uch asosdan iboratligi, o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning asosi ekanligi hamda o'xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmasligini ta'kidlaydi [5, 12]. D.Xudoyberganova o'xshatishlar to'rt komponentdan iborat ekanligini, ayrim o'xshatish konstruksiyalarida bu komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tilda o'xshatish hosil qiluvchi turli vositalar mavjud bo'lib, o'xshatish ko'pincha leksik va grammatik birliklar vositasida vujudga keladi [7, 178]. Shu kabi vositalar Shuhrat Matkarimning "Salay" qissasida ham ko'plab uchraydi. Biz ham o'xshatishlarni hosil qiluvchi vositalarni ikkiga ajratib, tahlilga tortganmiz: a) leksik vositalar; b) grammatik vositalar.

1. O'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: *kabi*, *go'yo*, *xuddi*, *xud*, *naq*, *o'xshab*, *mengzamoq* kabilar. Quyida ushbu vositalarni qissadan olingan misollar yordamida dalillashga harakat qilamiz:

Usti-boshi xuddi jangari filmlar qahramonlariniki kabi qon emish. // Hamma ishyoqmas kishilar kabi bir umr mashhurlik, boylik va katta-katta amallar orzusida yashadi. // Sherpa momo etmishlariga yaqinlashib qolgan takabbur, kekkaygan, jahldor xotin bo'lib, ochilishib yursa, go'yo oyi to'kilib ketadiganday hamisha qovog'i uyulgan edi. // Sheralining yuragi yana dupurlab urib, darhol ko'zlarini boshqa erga oldi. Go'yo shu paytgacha biror marta ham ayol zotini, uning badani, morqa bilaklarni ko'rmaganday. // Bu oila biqiq, xuddi pilla po'stining ichkarisi edi. // Ammo o'g'il ham xuddi otasidek Sherpa momoning hafsalasini pir qildi. // Bu hol ...Sherpa momo uchun do'zaxning xud o'zi bo'ldi. // Qilich otaning ko'zlari xotinining gapidan keyin naq baqachanoqday bo'ldi. // to uylanguncha, hatto bir - ikki bolalik bo'lguncha ham, erkakcha so'kinishni bilmasdi, qizlarga o'xshab qarg'anar edi // Bunday paytlarda u och, dag'al va kir junlari xurpayib ketgan daydi kuchukka o'xshar

edi. // Gilam shoqollar orasiga tasodifan adashib tushib qolgan ohuga mengzardi [11]. Shuningdek, qissada leksik vosita yordamida yuzaga kelgan o'xshatishlar anchagina. Masalan: *xuddi jannatdagidek, go'yo erini katta bir jinoyat ustida qo'lga tushirgan-u, uni shu urning o'zida teridan chiqarmoqchiday, xuddi kimdir kaltak bilan boshiga tushirganday, go'yo qor bosgan daladagi so'qmoqqa o'xshab, xuddi oyog'ining tagidagi prujina yoyilib ketganday* [11] kabilar.

2. O'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir: -day (-dek), -cha, -larcha kabilar. Quyida ushbu vositalarga misol keltiramiz:

O'zingiz o'ylang, igna yutgan itday qiltiriq, tekis yo'lda ham qoqilib yuradigan bir kas bo'lsa. // Quyoshdan qochgan kalamushday, issiq va xatarsiz inida – o'z uyida sassizgina, pisir-pisir, misir-misir oshini oshab, yoshini yashab yurgan edi. // Biroq xona o'rtasidagi qo'lda to'qilgan turkman gilami cho'g'dek yal-yal yonib turardi. // Farhod o'rta bo'yli, tepakal, turgan bitgani singir, o'ta harakatchan, laqqanikidek kichik, tim qora shum ko'zlari hech qachon bir joyda turmas, atrofga muttahamlarcha behayo boqardi...[11] Shuningdek, “Salav” qissasida ushbu grammatik vositalar yordamida yaratilgan juda ko'p ohoriy o'xshatishlar o'rinli va asosli qo'llanilgan. Masalan: *to'ygan to'qliday dum-dumaloq, bir devday odam, mingisini bo'g'izlaganday orqayin bajargan, uchakdan po'stak tashlanganday taassurot qoldirardi, qo'tir bosgan kuchukday, boshiga cho'qmor bilan urilgan laqqaday melong yurgan, mahobatli Buddaday ko'rish, xo'rozday kekkayib chiqib ketar, suvga cho'kkan toshday qilt etmay, daydi it tasodifan topib olgan suyakni kemirganday, etim qo'ziday bir gap, sutga chayib olinganday oppoq, bir quchoq gulday bag'riga bosib, quyrug'iga konserva quti bog'langan kuchukday qochib chiqding, botqoqda it yo'rtganday yozilgan, qo'lliqda tutganday bo'lasan, yomg'irdan qochgan musichaday egnini qisib, urishqoq xo'rozday hurpayib olar, ko'ziga bigizday qadaldardi, tipratikonni ters yutganday ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi, ishvalar ko'z qisayotganday edi, mushukning qulog'iday non, to'rsiqday semiz, tovuqkatakda xo'rozday, ayb ish qilib qo'lga tushgan boladiy...*[11]

Yuqoridagi o'xshatishlarda inson holati yorqin ifodalangan va o'y-kechinmalarning narsa-hodisaga munosabati orqali aniq ta'riflangan. Ayrim o'rinlarda bunday o'xshatishlar personaj kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo'lgan allaqanday voqeaga eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan. Hech kimga sir emaski, bugungi lingvokulturologik tadqiqotlarda o'xshatishlarga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, har qanday o'xshatishda o'xshatish etaloni –

o‘xshatish obrazi alohida ahamiyatga ega. “Bu unsur o‘xshatishning markazini, mag‘zini tashkil etadi, boshqa unsurlar (o‘xshatish subyekti, o‘xshatish asosi) ayni shu etalon atrofida birlashadi. Ayni paytda boshqa unsurlar implitsit ifodalana olgani holda o‘xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog‘i shart, aniqroq aytganda, o‘xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo‘lmasa, o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmaydi. Eng muhimi shuki, xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida tajassum topadi” [4, 10].

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda Shuhrat Matkarimning “Salay” qissasidagi xalqimizning milliy obrazli tafakkur tarzi mahsuli bo‘lgan o‘xshatishlarni etalonlariga asoslangan holda mazmuniy guruhlariga ajratishga harakat qildik:

1. Jonli narsalarga o‘xshatish:

a) insonlar – bu tip aksariyat o‘xshatishlarda o‘xshatish etaloni sifatida “*film qahramonlari, erkak, qizlar, kishilar* (yurish sporti bo‘yicha musoboqada qatnashayotgan // ishyoqmas // bayram kirib kelganida kissasida ko‘r chaqasi yo‘q), *ota, muttaham, oshiq, odam, Oybodoq, behayolar, bola*” kabi real shaxslar va *Budda* kabi teonimlar qatnashgan. Masalan: *Usti-boshi xuddi jangari filmlar qahramonlariniki kabi qon emish. // ...to uylanguncha, hatto bir-ikki bolalik bo‘lguncha ham, erkakcha so‘kinishni bilmasdi, qizlarga o‘xshab qarg‘anar edi // Ota-onasi esa uni hamon qoyadan yo‘nilgan mahobatli Buddaday ko‘rish istagidan voz kechmagan edilar. // Ammo o‘g‘il ham xuddi otasidek Sherpa momoning hafsalasini pir qildi. // Guldor qizil ipak xalati uzoq ayriliqdan keyin yorini quchgan oshiqday juvonni mahkam quchib-sirib turardi. // Xotini Musallas ...cho‘pday ori,q, hissiz, xasta odamday ikki tomonga chayqalib yuradigan bir kampirga aylangan. // Farhod Oybodoqday ayollarga ham ko‘pol, bepisand va behayolarcha muomala qilishi mumkin. // Qiz ayb ish qilib qo‘lga tushgan boladiy so‘lqillab yig‘lar...* [13] kabi. Shuningdek, qissadagi bir o‘rinda o‘xshatishga “sizlar” kishilik olmoshi etalon sifatida qo‘llagan: *Bilib qo‘y, sizlarday mingini qator qo‘yib ...!* [11] kabi.

b) hayvonlar – bu tip o‘xshatishlarda shoir “*it, to‘qli, eshak, kalamush, kuchuk, laqqa, ohu, etim qo‘zi, musicha, xo‘roz, beshiktebratar, to‘rsiq*” kabilarni o‘xshatish etaloni sifatida faol va o‘rinli qo‘llaydi (albatta, ularning ayrimlari o‘zlariga tegishli sifatlashlar bilan kengaygan): *igna yutgan itday qiltiriq, to‘ygan to‘qliday dum-dumaloq, eshakday-eshakday itlar, quyoshdan qochgan*

kalamushday yashamoq, qo'tir bosgan kuchukday, boshiga cho'qmor bilan urilgan laqqaday melong yurmoq, junlari xurpayib ketgan daydi kuchukka o'xshar edi, etim qo'ziday bir sinfdosh, quyrug'iga konserva quti bog'langan kuchukday qochib chiqmoq, yomg'irdan qochgan musichaday egnini qismoq, urishqoq xo'rozday hurpayib olmoq, beshiktebratarday tinmay tebrantar edi, to'rsiqday semiz bo'lib o'sdi [11] kabilar.

2. Jonsiz narsa-tushunchalar:

a) **aniq narsalar** o'xshatish etaloni sifatida tanlangan o'rinlarda nosir “qum, tosh, cho'g', gul, bigiz, baqachanoq, quloq” kabilardan unumli va o'rinli foydalangan: ...soat sayin uning ruhini, jismi-jonini uvalab **qumday** to'kardi. // ...bir muddat suvga cho'kkan **toshday** qilt etmay o'ltonda o'tirdi. // Biroq xona o'rtasidagi qo'lda to'qilgan turkman gilami **cho'g'dek** yal-yal yonib turardi. // Oqbadan xonim esa bolalarini bir quchoq **guldai** bag'riga bosib, bir-bir o'psa. // ...uning ko'ziga **bigizday** qadaldirdi. // Qilich otaning ko'zlari xotining gapidan keyin **naq baqachanoqday** bo'ldi. // Mushukning **qulog'idai** non ham hisobli xonadonda bolalarini to'q tutish oson emas edi... [11] kabilar.

b) **mavhum tushunchalar** – bu tip o'xshatishlarda yozuvchi birgina “dev” tushunchasini ikki o'rinda o'xshatish etaloni sifatida qo'llagan: ...betlaridan qon tepchib turgan bir **devday** odam bo'lsa. // Tezda o'ziga kelib olgan **devday** shofyori chopib keldi... [11] kabi.

d) **o'rin-joy** – Shuhrat Matkarim “Salav” qissasida ba'zan o'xshatish etaloni sifatida “pillaning ichkarisi, do'zax, jannat” kabi ramziy o'rin-joyini bildiruvchi otlaridan foydalangan: Bu oila biqiq, **xuddi pilla po'stining ichkarisi** edi. // Sherpa momo uchun **do'zaxning xud o'zi** bo'ldi. // Qo'lini qayerga uzatsa etar, uning ham, xo'jayinning ham hayoti **xuddi jannatdagidek** kechayotgan edi... [11] kabi.

e) **harakat-holat** – bu tip o'xshatishlarda shoir “bo'g'izlamoq, po'stak tashlamoq, kemirmoq, burkanmoq, chayib olmoq, yog'lamoq, suzilmoq, yo'rtmoq, tutmoq, tushurmoq, og'rirmoq, yutmoq, ta'sir etmoq” kabi harakat-holat fe'llarini o'xshatish etaloni sifatida mohirona istifoda etgan: ...mingisini **bo'g'izlaganday** ishini orqayin bajargan. // ...mantiqsizligi vajidan **uchakdan po'stak tashlanganday** taassurot qoldirdirdi. // **daydi it tasodifan topib olgan suyakni kemirganday** sekin-sekin shimib yotdi. // ...botqoqda **it yo'rtganday** yozilgan bir necha varaq sochilib yotardi. // “Bularda tekst yozsang qizlarning ko'kragini **qo'lliqda tutganday** bo'lasan”, derdi. // **Tipratikonni ters yutganday**

ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi. // momoga tom ko'chib ustiga tushganday bo'ldi. // ...bu ishvalar Sherliga ko'z qisayotganday edi. // ...go'yo uni kimdir majbur qilayotganday yoqar-yoqmas o'rnidan turdi... [11] kabi.

f) yozuvchi ba'zan **butun bir jarayonni** o'xshatish uchun etalon sifatida tanlagan, ya'ni bunda aksariyat hollarda butun bir gap (yoki gap shaklidagi qurilma) etalon vazifasini o'taydi: *Sherpa momo ...ochilishib yursa, go'yo oyi to'kilib ketadiganday hamisha qovog'i uyulgan edi. // Go'yo bularni olib kelgan odamlarning orqasidan birov quvib kelgan-u, hammollar qo'lidagi narsalarini duch kelgan joyga tashlagan-u qochganlar. // Ammo uning bu holati bayram kirib kelganida kissasida ko'r chaqasi yo'q kishining holiga o'xshardi. // – Uning hadik yashirin qaltiragan ovozi, shu yaqin atrofda quturgan it pusib yotibdi-yu, mana, hozir, ularga tashlanib qolishini kutganday edi. // Sherali xuddi kimdir kaltak bilan boshiga tushirganday egnini qisib, gangigan kuyi “qilt” etmay turib qoldi. // Ko'z yoshlari oppoq bo'yalgan yonoqlaridan go'yo qor bosgan daladagi so'qmoqqa o'xshab yaqqol iz qoldirib oqar, surmalari yuziga chaplangan... // Xotin xuddi oyog'ining tagidagi prujina yoyilib ketganday orqaga otildi... [11] kabi.*

IV. Xulosa. Shuhrat Matkarimning “Salav” qissasida o'xshatishlar alohida o'rin tutadi. Yozuvchi qissa qahramonlarining holati, tashqi belgi-xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatish maqsadida o'xshatishlardan mahorat bilan va o'rinli foydalangan. Qissadagi individual-muallif o'xshatishlari nosirning badiiy mahorati, badiiy didi mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lib, originalligi, yangicha talqini bilan kishini o'ziga jalb qiladi va o'z navbatida, badiiy matnning emotsional-ekspressivligini oshiradi. Adibning o'xshatish hosil qilishdagi mahorati oddiy, lekin shu bilan birga, o'zigagina xos betakror. Adib o'xshatish etalonlarini tilimizda mavjud va ustoz adiblar an'analaridan, tabiatdan, kundalik turmushning o'zidan topa olganki, beixtiyor kishini hayratda qoldirishi aniq. Qisqasi, yozuvchi asarlaridagi obrazli tafakkur mahsuli bo'lmish hamda komparativ troplar sanaluvchi o'xshatishlar batafsil o'rganilishi, ularning struktur-semantik hamda lingvopoetik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Григорьева О.Н. Стилистика русского языка. – Москва, 2000.
2. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. // В книге: Теория метафоры. – Москва, 1990.

3. Mahmudov N. O‘xshatishlar obrazli tafakkur mahsuli. \ O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. – №3.
4. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
5. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent, 1978.
6. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990.
7. Umurqulov B. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: Filol. fan. dokt. (DSs) ...diss. – Toshkent, 2020.
8. O‘rinboev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
9. Qo‘ng‘urov R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 1992.
10. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent, 1977.
11. Shuhrat Matkarim. Boljon. Hikoya va qissalar. – Toshkent: Adabiyot, 2024. – B.288–344.

FILOLOGIYA IBRATLI UMR



**Ismailov Is'haqjon,
Urganch davlat
universiteti
professori, filologiya
fanlari doktori.**

UO'K 95(575.171)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ustozlik maqomining yuksak mas'uliyati va jamiyat hayotidagi o'rni professor Nurboy Jabborov faoliyati misolida yoritiladi. Unda olimning ilmiy merosi, shogirdlar tarbiyasidagi hissasi va insoniy fazilatlari ibrat maktabi sifatida talqin etiladi.

Аннотация: В данной статье на примере профессора Нурбоя Джабборовва подчеркивается высокая ответственность, лежащая в основе статуса преподавателя, и его роль в обществе. В ней рассматривается научное наследие ученого, его вклад в образование студентов и его человеческие качества как пример образцовой школы.

Annotation: This article highlights the high responsibility of the status of a teacher and its role in society using the example of Professor Nurboy Jabborov. It interprets the scholar's scientific legacy, contribution to the education of students, and human qualities as an exemplary school.

Kalit so'zlar: Ustozlik, mas'uliyat, ilm-fan, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, ma'naviyat, ilmiy maktab, shogird tarbiyasi, insoniy fazilatlar, jamiyat taraqqiyoti.

Ключевые слова: Преподавание, ответственность, наука, литературоведение, текстология, духовность, научная школа, образование учащихся, человеческие качества, социальное развитие.

Key words: Teachership, responsibility, science, literary studies, textual studies, spirituality, scientific school, student education, human qualities, social development.

Ustozlik maqomi hayotning eng sharaflari va mas'uliyatli vazifalaridan biri hisoblanadi. Ustoz nafaqat o'qituvchi, balki atrof-muhitni, jamiyatni va kelajakni shakllantiruvchi kuchdir. Ustozlik maqomi unga ega bo'lgan shaxsga nafaqat hurmat, balki chuqur mas'uliyat ham yuklaydi. Har bir ustoz o'z lavozimiga loyiq bo'lish uchun doimiy ravishda o'zini rivojlantirishi, mehr-muhabbat bilan ish

qilishi va yosh avlodni vatanparvar, bilimdon, ahloqli insonlar qilib tarbiyalashi lozim.

Bugun O‘zbekiston ilmiy-ma’rifiy maydonida adabiyot, ma’naviyat va milliy o‘zlik masalalariga hal qiluvchi hissa qo‘shayotgan bir guruh olimlar bor. Ular orasida o‘zining keng ilmiy dunyoqarashi, chuqur badiiy didi, matnshunoslik maktabini shakllantirishdagi sa’y-harakatlari bilan alohida ajralib turadigan ziyolilardan biri professor **Nurboy Jabborov**dir. U nafaqat ilm ahli tomonidan e’tirof etilgan tadqiqotchi, balki yosh avlodni fikrlashga, matnni anglashga, adabiyotga muhabbat bilan qarashga o‘rgatib kelayotgan ustoz, jamoatchilik fikriga ta’sir qiluvchi ziyolidir.

Nurboy Jabborovning ilmiy biografiyasiga nazar tashlaganda, uning adabiyotshunoslikka kirib kelishi tasodifiy emasligi ko‘rinadi. U yoshligidan kitobga oshno bo‘lib, matnning mag‘zini chaqishga intiladigan, badiiy so‘zni o‘z qalbining tovushi deb biladigan inson sifatida ilmiy yo‘lga kirar ekan, eng avvalo, mas’uliyatni his qilgan. Shuning uchun ham faoliyatining dastlabgi bosqichidanoq o‘zbek mumtoz adabiyoti, klassik meros, jadidchilik va zamonaviy adabiy jarayon kabi keng sohalarida chuqur tadqiqotlar olib bordi. Bugungi kunga qadar ustoz tomonidan yakka va hammualliflikda turli nashrlarda 20 ta ilmiy risola, 3 ta darslik va o‘quv qo‘llanma, 793 ta maqola e’lon qilinganligini yuqoridagi fikrimizga asos bo‘ladi.

Ustozning eng katta ilmiy xizmatlaridan biri klassik matnlar bilan ishlash madaniyatini zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlariga mos holda rivojlantirganidir. Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar unga ergashib, qo‘lyozmalarni tanqidiy matn sifatida tayyorlashda, ularning tarixiy, badiiy, tahliliy qatlamlarini o‘rganishda ustoz yondashuviga tayangan holda ish yuritadilar. Nurboy Jabborov to‘plab, nashrga tayyorlagan va uning muharrirligi hamda taqrizchiligidagi chop etilgan kitoblar soni 192 taga etgan.

Shuningdek, Nurboy Jabborov zamonaviy o‘zbek adabiyotining taraqqiyotini kuzatib, yosh ijodkorlarning badiiy qarashlari, estetik izlanishlari haqida ham o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Adabiyotning davlat, jamiyat va inson ongidagi o‘rni haqida ko‘p yozadi. Uning publitsistik chiqishlarida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviyat, adabiy didning tarbiyasi, estetik madaniyatni shakllantirish kabi dolzarb mavzular alohida o‘rin tutadi.

Ustozning shaxsiy qiyofasi haqida gap ketganda, eng avvalo, uning sokin, o‘ylovchan, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llaydigan ziyoli ekani yodga tushadi. Suhbatdoshiga quloq solishi, fikrni qadrlashi, har qanday ilmiy bahsga muloyim ohangda, lekin qat’iy dalillar bilan kirisha olishi bilan ko‘pchilikka manzur bo‘lib kelgan.

Bir gal Nizomiy Ganjaviy yurtida ziyoratda paytimiz Nurboy ustoz shoir qabri tepasida Qur'on tilovat qilgandilar. Endi tilovat ovozi mramor devorga urilib, shunday bir kuchli jarang bilan atrofga tarala boshlayapti. Boshqa ziyoratchilar bu holatdan taajjubda (mahalliy aholi odatda o'tganlar yodiga fотиha qilmasdan qabrlar atrofini shunday tomosha qilib ketaverishar ekan), ustoz esa butun jismi bilan berilib fотиha qilyaptilar. Bir zum shunday ajib surur tuydikki, naq Ganjaviy ruhini his qilgandik. Har sohada ustozning o'ziga xos liderlik qobiliyatini yana bir bor namoyon bo'lgandi.

Hayotda shunday insonlar bo'ladi – ular baland minbarlardan gapirmaydi, ko'z-ko'z bo'lishni ham istamaydi. Ammo har bir qadami, qilgan amali, bir og'iz iliq so'zi bilan atrofdagilarga kuch, ruh va ishonch bag'ishlaydi. Nurboy Jabborov ana shunday insonlardan biri.

Uning hayot yo'li oddiy ko'rinishi mumkin, ammo undagi qat'iyat, mehnatsevarlik va odamiylik qudrati uni boshqalardan ajratib turadi. U yoshligidan mehnatning qadrini bilib ulg'aydi, har bir muvaffaqiyat ortida ter, mashaqqat va sabr borligini erta anglab etdi. Shu uchun ham bugun atrofdagilar uni hurmat qiladi, so'ziga ishongan holda yoniga keladi. O'zining ilmiy asoslangan dadil fikrlari orqasidan shu kungacha 9 marta doktorlik dissertatsiyalariga, 34 marta nomzodlik va PhD dissertatsiyalariga rasmiy opponent qilib tayinlangan.

Nurboy Jabborovning eng katta fazilati — bu odamlar bilan chin yurakdan muomala qila olishidir. U el ichida yurib, insonlarning dardini tinglaydi, ularning ko'ziga qarab gapiradi, har bir masalaga halollik bilan yondashadi. Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish borasidagi sa'y-harakatlari e'tiborga molik. U uchun har bir yigit-qizning ertangi kuni — jamiyatning ertangi kuni demakdir. Bevosita Nurboy Jabborov ilmiy rahbarligida 8 nafar filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, 28 nafar nomzodlik va PhD dissertatsiyalari, 75 nafar magistrlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilinganligi bu jarayonning ancha sermahsul kechayotganligini ko'rsatadi.

Hamkasblarining aytishicha, Nurboy Jabborov jamoada faqat talabchan emas, balki mehribon, tushunadigan rahbar sifatida tanilgan. U intizomni talab qilish bilan birga, kimgadir yordam kerak bo'lsa, birinchi bo'lib etib keladi. Buni odamlar bir kun eslab qoladigan emas, har kuni ko'rib keladigan fazilat deb bilishadi.

Nurboy Jabborovning yana bir jihati — uning oilaparvarligidir. U farzandlariga halollik, odamiylik, mehr-oqibatni o'rgatib kelmoqda. “Insonning eng katta poytaxti – uning oilasi”, deydi ustoz ko'pincha. Oila tinchligi va farzand tarbiyasi uning hayotidagi eng muhim ustunlardan biridir.

Bugun Nurboy Jabborov haqida gapirganda, uni faqat o‘z kasbida puxta, mehnatga fidoiy inson sifatida emas, balki keng qalbli, bag‘rikeng, xalq dardini o‘z dardiday qabul qiladigan inson sifatida tasvirlash mumkin. U orzu qilgan jamiyat – halollik, mehr va mas’uliyat ustuvor bo‘lgan jamiyatdir. U esa o‘zining har bir amalida mana shu tamoyillarni hayotga tatbiq etib kelmoqda.

Shu bois, Nurboy Jabborovning hayoti – ibrat maktabi, uning kuni – mehnat, uning qo‘li – halollik, uning so‘zi – mas’uliyat, uning o‘zi esa – bugungi jamiyat uchun zarur bo‘lgan oddiy qahramon.

FILOLOGIYA**ARAB VA O‘ZBEK TOPISHMOQLARIDA RAMZIY OBRAZLAR VA ULARNING MADANIY ASOSLARI**

**Daminov Dilshod,
Oriental universiteti
magistranti**

UO‘K 95(575.171)

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab va o‘zbek xalq topishmoqlarida qo‘llanilgan ramziy obrazlar hamda ularning madaniy, tarixiy va etnografik asoslari qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье проводится лингвокультурологический и сравнительный анализ символических образов в арабских и узбекских народных загадках.

Annotation: The article provides a linguocultural and comparative analysis of symbolic images in Arabic and Uzbek folk riddles.

Kalit so‘zlar: topishmoq, ramziy obraz, lingvomadaniyat, folklor, arab tili, o‘zbek tili.

Ключевые слова: загадка, символический образ, лингвокультура, фольклор, арабский язык, узбекский язык.

Key words: riddle, symbolic image, linguistic culture, folklore, Arabic language, Uzbek language.

Topishmoq xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri bo‘lib, u inson tafakkurining obrazli, ramziy va mantiqiy faoliyati mahsuli sifatida shakllangan. Topishmoqlar til orqali borliqni bilish, uni ramzlar asosida anglash va yashirin ma’nolarni idrok etish imkonini beradi. Shu jihatdan, topishmoqlar faqatgina o‘yin-kulgi yoki mantiqiy mashq vositasi bo‘lib qolmay, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va mentalitetini mujassam etuvchi lingvomadaniy fenomen sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Har bir topishmoq xalqning tabiatga, jamiyatga va insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatini bilvosita ifodalaydi, bu munosabat esa ramziy obrazlar orqali kodlangan holda avloddan-avlodga uzatiladi. Zamonaviy tilshunoslik va folklorshunoslikda topishmoqlarni lingvomadaniy nuqtai nazardan o‘rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki globallashuv jarayonida milliy madaniyatlar o‘ziga xosligini saqlab qolish masalasi keskinlashib borayotgan bir sharoitda, xalq og‘zaki ijodining janrlari, xususan topishmoqlar, milliy tafakkur va madaniy kodlarni tadqiq etish uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Topishmoqlar tarkibida uchraydigan ramziy obrazlar – hayvonlar, osmon jismlari, tabiat hodisalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, inson tanasiga oid tasvirlar – xalqning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, e’tiqodiy

qarashlari va estetik didi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois ramziy obrazlarni tahlil qilish orqali xalqning dunyoqarashi va madaniy modeli haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Arab va o‘zbek xalqlari tarixan Sharq sivilizatsiyasi doirasida shakllangan bo‘lib, ularning madaniy aloqalari uzoq asrlar davomida davom etib kelgan. Bu holat og‘zaki ijod namunalari, jumladan topishmoqlarda ham aks etgan. Arab xalq topishmoqlari turli mintaqalarda (Misr, Shom, Hijoz, Mag‘rib va boshqalar) shakllangan bo‘lib, ular sahro hayoti, chorvachilik, savdosotiq, diniy tasavvurlar va tabiat bilan bog‘liq ramziy obrazlarga boydir. O‘zbek xalq topishmoqlari esa asosan dehqonchilik va o‘troq hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirlar asosida rivojlangan bo‘lib, unda er, suv, non, meva-sabzavotlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va inson tanasiga oid obrazlar etakchi o‘rin egallaydi. Mazkur farqlar har ikki xalqning tarixiy-iqtisodiy hayot tarzi va madaniy tajribasi bilan izohlanadi.

Topishmoqlarni ilmiy o‘rganish folklorshunoslik va tilshunoslik fanlarida alohida yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, mazkur janr turli davrlarda turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Ilk tadqiqotlarda topishmoqlar asosan etnografik va tavsifiy nuqtai nazardan o‘rganilib, ularning matni, tarqalish hududi va mavzu doirasi tasvirlangan. Keyingi bosqichda esa topishmoqlar semantik va poetik jihatdan tahlil qilinib, ularning obrazlilik xususiyatlari va badiiy ifoda vositalariga e‘tibor qaratilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab folklor materiallarini madaniyat va tafakkur bilan bog‘liq holda talqin qilishga yo‘naltirilgan lingvomadaniy yondashuv shakllandi va topishmoqlar ushbu yo‘nalishda muhim tadqiqot obyekti sifatida qarala boshlandi. Arab folklorshunosligida topishmoqlar “lug‘z”, “uhjiyya” va “mu‘ammā” atamallari ostida o‘rganilgan bo‘lib, ular qadimiy adabiy va og‘zaki an‘analarga ega. Arab olimlari topishmoqlarni ko‘proq badiiy-nazmiy shakl, mantiqiy murakkablik va so‘z o‘yini nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Tadqiqotlarda arab topishmoqlarining mintaqaviy xususiyatlari, sheva asosidagi variantlari va ularning ijtimoiy funksiyalari yoritilgan. Ayrim ishlarda topishmoqlarning marosimiy, tarbiyaviy va didaktik vazifalari ko‘rsatib berilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda ularning ramziy-majoziy tuzilishi va madaniy ma‘no qatlamlariga e‘tibor kuchaygan. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, arab topishmoqlaridagi ramziy obrazlar ko‘pincha alohida tasvirlangan, ularni boshqa xalqlarning topishmoqlari bilan qiyosiy-lingvomadaniy aspektida o‘rganish etarli darajada amalga oshirilmagan.

O‘zbek folklorshunosligida topishmoqlarni o‘rganish ancha izchil yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu borada to‘plamlar nashri va ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek olimlari topishmoqlarni xalq og‘zaki ijodining

mustaqil janri sifatida tavsiflab, ularning mavzu doirasi, poetik xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyatini yoritib berganlar. Ayrim tadqiqotlarda topishmoqlardagi mifologik tasavvurlar, tabu va qadimiy e'tiqodlarning izlari tahlil qilingan. So'nggi yillarda o'zbek topishmoqlarini lingvomadaniy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib, ramziy obrazlar orqali xalq mentalitetini aniqlashga qaratilgan ishlar paydo bo'ldi. Shunga qaramay, arab va o'zbek topishmoqlarini qiyosiy jihatdan, ayniqsa ramziy obrazlar asosida tizimli tahlil qilish masalasi etarli darajada yoritilmaganligicha qolmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Arab va o'zbek topishmoqlarida ramziy obrazlarning qiyosiy-lingvomadaniy tahlili nafaqat folklorshunoslik, balki qiyosiy tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida mazkur tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv tanlandi. Tadqiqotda arab va o'zbek topishmoqlari til birliklari sifatida emas, balki madaniy axborot tashuvchisi bo'lgan semantik-kommunikativ birliklar sifatida qaraldi. Bu yondashuv topishmoqlarni faqat matn sifatida emas, balki xalq tafakkurining ramziy modeli sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida arab va o'zbek xalq topishmoqlarida uchraydigan ramziy obrazlar tizimli tahlil qilinib, ularning asosiy semantik va madaniy xususiyatlari aniqlab berildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikki xalq topishmoqlarida ramziy obrazlar markaziy lingvomadaniy birlik sifatida xizmat qiladi va ular orqali xalqning borliqni idrok etish modeli ifodalanadi. Ramzlar topishmoqning mazmuniy yadrosini tashkil etib, yashirin ma'noni anglash jarayonida tinglovchidan muayyan madaniy bilimlar va tajribaga tayanishni talab qiladi. Tahlil natijasida ramziy obrazlar bir necha asosiy guruhlariga ajratildi: tabiat va osmon jismlariga oid obrazlar; hayvonot va o'simliklar olamiga oid obrazlar; inson tanasi va uning a'zolariga oid obrazlar; uy-ro'zg'or buyumlari va mehnat qurollariga oid obrazlar. Ushbu guruhlar har ikki tilda ham mavjud bo'lib, ularning semantik yadrosi ko'p hollarda o'xshashlik kasb etadi. Xususan, quyosh va oy obrazlari arab va o'zbek topishmoqlarida hayot, vaqt va yorug'lik ramzi sifatida barqaror qo'llaniladi. Har ikkala xalq topishmoqlarida ham bu obrazlar doimiylik va tabiiy tartibni ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi. Hayvonlar bilan bog'liq ramziy obrazlar tahlili shuni ko'rsatdiki, arab topishmoqlarida tuya, sher kabi hayvonlar etakchi o'rin tutsa, o'zbek topishmoqlarida qo'y, ot, bo'ri va tulki obrazlari ustunlik qiladi. Bu hayvonlar orqali nafaqat jonivorlarning o'zi, balki turli predmetlar, hodisalar yoki insoniy fazilatlar ramziy tarzda ifodalanadi. Inson tanasi va uning a'zolariga oid obrazlar har ikkala tilda ham faol bo'lib, ko'z, tish, quloq kabi a'zolar hayvonlar yoki buyumlar orqali yashirin tasvirlanadi. Bu

usul topishmoqlarda vizual va mantiqiy o'xshatishning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Uy-ro'zg'or buyumlari va mehnat qurollariga oid ramziy obrazlar tahlili natijasida o'zbek topishmoqlarida dehqonchilik madaniyatiga xos buyumlar, arab topishmoqlarida esa sahro va karvon hayotiga oid predmetlar ustun ekanligi aniqlandi. Non, qozon, tandir kabi obrazlar o'zbek topishmoqlarida baraka va rizq ramzi sifatida faol qo'llansa, arab topishmoqlarida xurmo, quduq va suv idishlari hayot manbai sifatida ramziy ma'no kasb etadi. Ushbu natijalar ramziy obrazlarning shakllanishi bevosita xalqning yashash muhiti va xo'jalik faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, arab va o'zbek topishmoqlarida ramziy obrazlar bir tomondan umuminsoniy arxetiplarga tayansa, ikkinchi tomondan har bir xalqning o'ziga xos madaniy tajribasini aks ettiradi. Ramzlarning semantik barqarorligi va takrorlanishi topishmoqlarni xalq mentalitetining muhim ko'zgusi sifatida baholash imkonini beradi.

Olingan natijalarni muhokama qilish jarayonida arab va o'zbek topishmoqlaridagi ramziy obrazlar umumiy arxetipik qatlamga tayangan holda shakllangan bo'lsa-da, ularning talqini va funksional yuklamasi har bir xalqning madaniy tajribasi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu holatni, ayniqsa, konkret topishmoq namunalari asosida ko'rib chiqish ramziy obrazlarning lingvomadaniy mohiyatini chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi. Arab va o'zbek topishmoqlarida quyosh va oy obrazlari eng qadimiy va barqaror ramzlardan biri hisoblanadi. Arab folklorida keng tarqalgan «يولد صغيرًا، ويكبر شيخًا» topishmog'ida oy inson umriga qiyoslanadi: u yoshligida tug'iladi, etuklik davriga etadi va yana yosh holida "o'ladi", ya'ni yo'qoladi. Bu ramz arab xalq tafakkurida vaqtning aylanishi va hayotning o'tkinchiligi g'oyasi bilan chambarchas bog'langan. O'zbek topishmoqlarida ham oy obrazi antropomorf shaklda talqin qilinadi. Masalan, "Og'zi qiyshiq kampir, kechasi yuradi" topishmog'ida oy kampir qiyofasida tasvirlanib, uning hilol va to'lin fazalari inson yuz ifodasi orqali ramziy ifodalanadi. Arab topishmog'ida vaqt va umr konsepsiyasi etakchi bo'lsa, o'zbek variantida tabiat hodisasini insonlashtirish an'anasi kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu farq o'zbek xalq tafakkurida tabiatni jonli mavjudot sifatida idrok etish tendensiyasi bilan izohlanadi.

Hayvonlar bilan bog'liq ramziy obrazlar muhokamasida ham milliy xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Arab topishmoqlarida sahro madaniyatining asosiy unsuri bo'lgan tuya markaziy ramzlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. «ما هو الشيء الذي يحمل بيته على ظهره؟» topishmog'ida tuya "uyini orqasida olib yuruvchi" mavjudot sifatida tasvirlanib, ko'chmanchi hayot tarzining ramziy ifodasiga aylanadi. Bu erda tuya nafaqat hayvon, balki sahro

hayotining tayanchi, sabr va bardoshlik timsolidir. O‘zbek topishmoqlarida esa tuya kam uchraydi, uning o‘rnini qo‘y, ot, bo‘ri va tulki kabi hayvonlar egallaydi. Masalan, “Bo‘ri kelsa qochadi, quyon kelsa quvonadi” topishmog‘ida soya hodisasi hayvonlar orqali ramziy ifodalanadi: bo‘ri – bulut, quyon esa quyosh ramzi bo‘lib, bu obrazlar orqali tabiat hodisasi yashirin tarzda anglatiladi. Ushbu misol o‘zbek xalq tafakkurida hayvon obrazlari orqali abstrakt tushunchalarni ifodalash an‘anasi kuchli ekanini ko‘rsatadi. Inson tanasi bilan bog‘liq ramziy obrazlar har ikki xalq topishmoqlarida ham umumiy arxetipik asosga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Arab topishmog‘i «لؤلؤ أبيض في صندوق مغلق»da tishlar “oq marvarid”, og‘iz esa “yopiq sandiq” sifatida tasvirlanadi. Ushbu ramziy model o‘zbek folklorida ham deyarli aynan shu shaklda uchraydi: “Sandiq to‘la oq sadap” topishmog‘ining javobi ham tishlardir. Bu o‘xshashlik inson tanasini idrok etishdagi umumiy tasavvurlar va estetik baholash mezonlarining mushtarakligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, o‘zbek variantida “sadap” so‘zining qo‘llanishi milliy badiiy tafakkur va poetik didning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Uy-ro‘zg‘or buyumlari va kundalik hayot bilan bog‘liq ramziy obrazlar ham muhokamada muhim o‘rin egallaydi. Arab topishmog‘i «مدينة حمراء، أبوابها خضراء، وسكانها سودا»da tarvuz qizil shahar, yashil eshiklar va qora aholi orqali ramziy ifodalanadi. O‘zbek folklorida ham xuddi shu semantik model kuzatiladi: “Temir qozon, ichi to‘la qizil go‘sht, qirqta bola” topishmog‘ida tarvuzning tashqi va ichki tuzilishi obrazli tarzda tasvirlanadi. Ushbu o‘xshashlik ramziy obrazlarning shakllanishida umumiy tafakkur mexanizmlari mavjudligini, shuningdek, xalqaro folkloriy syujetlarning tarqalganini ko‘rsatadi. Muhokama jarayonida aniqlanganki, arab va o‘zbek topishmoqlaridagi ramziy obrazlar bir tomondan umuminsoniy arxetiplarga tayansa, ikkinchi tomondan har bir xalqning yashash muhiti, xo‘jalik faoliyati va madaniy tajribasini aks ettiradi. Arab topishmoqlarida sahro, ko‘chmanchilik va ijtimoiy ierarxiya bilan bog‘liq ramzlar ustun bo‘lsa, o‘zbek topishmoqlarida dehqonchilik, o‘troq hayot va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq obrazlar etakchi o‘rin egallaydi. Shu bois ramziy obrazlarning qiyosiy tahlili nafaqat folkloriy o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga, balki har bir xalqning lingvomadaniy tafakkurini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot arab va o‘zbek xalq topishmoqlarida ramziy obrazlarning lingvomadaniy mohiyatini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlandi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining oddiy o‘yin shakli bo‘lib qolmay, balki xalq tafakkuri, tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini mujassam etgan murakkab semantik tizim hisoblanadi. Topishmoqlarda qo‘llanilgan ramziy obrazlar orqali xalqning borliqni idrok etish modeli, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari hamda ijtimoiy-madaniy tajribasi yashirin, ammo

barqaror shaklda ifodalanadi. Tadqiqot natijalari arab va o'zbek topishmoqlarida ramziy obrazlar tizimi umumiy arxetipik asosga ega ekanini ko'rsatdi. Quyosh, oy, suv, olov, inson tanasi va ayrim hayvonlar bilan bog'liq obrazlar har ikki xalq topishmoqlarida ham muntazam uchrab, umuminsoniy tafakkur mexanizmlariga tayangan holda shakllangan. Bu holat topishmoqlar janrining universal tabiatga ega ekanini, turli xalqlar ongida borliqni anglash jarayoni o'xshash semantik modellar asosida kechishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil ramziy obrazlarning talqini va funksional yuklamasi har bir xalqda o'ziga xos ekanini ham aniqladi. Arab topishmoqlarida sahro hayoti, ko'chmanchilik, ijtimoiy iyerarxiya va qudrat bilan bog'liq ramzlar ustunlik qilsa, o'zbek topishmoqlarida dehqonchilik, o'troq turmush tarzi, oila va mehnat bilan bog'liq obrazlar etakchi o'rin egallaydi. Bu farqlar ramziy obrazlarning shakllanishi bevosita xalqning yashash muhiti, xo'jalik faoliyati va tarixiy tajribasi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Muhokama qilingan misollar asosida shuni aytish mumkinki, topishmoqlarda ramziy obrazlar nafaqat badiiy-ifodaviy vosita, balki didaktik va tarbiyaviy funksiyani ham bajaradi. Ramzlar orqali yosh avlodga tabiatni kuzatish, mantiqiy fikrlash, yashirin ma'noni anglash va madaniy bilimlarni egallash ko'nikmalari singdiriladi. Shu jihatdan topishmoqlar xalqning lingvomadaniy xotirasini saqlovchi va avlodlar o'rtasida uzatuvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, arab va o'zbek topishmoqlarida ramziy obrazlar qiyosiy-lingvomadaniy tahlili har ikki xalq madaniyatining umumiy va milliy-xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari topishmoqlarni folklor janri sifatida emas, balki xalq tafakkurining ramziy modeli sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar kelgusida boshqa janrlar (maqol, matal, afsona) doirasida ham davom ettirilsa, xalqlarning lingvomadaniy tafakkurini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent, Fan, 1976, 312 b.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi va folklor janrlari. Toshkent, Musiqa, 2010, 240 b.
3. Husainova Z. O'zbek xalq topishmoqlari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 368 b.
4. Jo'raeva M. O'zbek xalq topishmoqlarida mifologik tasavvurlar va tabu izlari. Filologiya masalalari, Toshkent, 2010, 3-son, 46–50-betlar.
5. Adizova O. Topishmoqlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Toshkent, 2023, 12-son, 74–78-betlar.

6. Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. Москва, Лабиринт, 1998, 365 с.
7. Токарев С. А. Мифология народов мира. Москва, Наука, 1988, 576 с.
8. Мелетинский Э. М. Поэтика мифологии. Москва, Наука, 1976, 408 с.
9. Al-Jabiri M. Al-Turāth wa al-ḥadātha. Bayrut, Markaz dirasat al-waḥda al-‘arabiyya, 1991, 384 s.

FILOLOGIYA

ERKIN A'ZAM NASRIDA BADIY DETAL VA UNING FUNKSIYASI



**BEKCHANOVA
NAZOKAT,
Urganch innovatsion
universiteti
“Xorijiy filologiya va
tillar” kafedrasi
stajyor o‘qituvchisi**

UO‘K 95(63)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek nasrining etakchi vakillaridan biri – Erkin A‘zam ijodida ironik badiiy detalning tutgan o‘rni hamda uning badiiy-estetik funksiyalari atroflicha tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье всесторонне анализируется роль иронической художественной детали и её художественно-эстетические функции в творчестве одного из ведущих представителей современной узбекской прозы — Эркина Азама. Обосновывается ведущая роль иронии как характерной стилевой особенности авторского метода писателя.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the role of ironic artistic detail and its aesthetic and artistic functions in the works of Erkin A‘zam, one of the leading representatives of contemporary Uzbek prose.

Kalit so‘zlar: badiiy detal, ironika, portret, nuqtiiy detal.

Ключевые слова: художественная деталь, ирония, портрет, пунктуальная деталь.

Key words: artistic detail, irony, portrait, punctual detail.

“Badiiy detal - asarning g‘oyaviy-estetik mazmunining ochishida o‘ta muhim o‘rin tutadigan, personaj xarakteri yoki voqealar mohiyatini aniq va lo‘nda ifodalaydigan kichik chizgi, hayotiy belgi”¹. Uning badiiy funksiyasi, avvalo, voqea sodir bo‘layotgan makon va zamon haqida tasavvur uyg‘otadi. Qahramonning tashqi qiyofasi, nutqi yoki hatti-harakati orqali uning ichki dunyosini ochadi. Ba’zida kichik detal asar yakunida katta ijtimoiy-falsafiy umumlashmaga aylanadi.

¹ Quronov, D. (2004). **Adabiyotshunoslikka kirish**. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – B.12.

“Badiiy detalning haqiqiy “oltin davri” XIX asr realizm adabiyoti bilan bog‘liq. Bu davrda yozuvchilar (masalan, O. Balzak, L. Tolstoy, Ch. Dikens) asar qahramonining ichki dunyosini ochish uchun uning kiyimidagi birgina tugma, xonadagi biror buyum yoki yuzidagi kichik bir qimirlashdan mahorat bilan foydalanganlar”¹.

O‘zbek adabiyotida badiiy detalning rivojlanishida Abdulla Qahhorning badiiy mahorati tan olinib, usta ijodkor sifatida e’tirof etiladi. U asardagi ortiqcha tafsilotlarni qisqartirib, bitta kichik detal (masalan, “Dahshat” hikoyasida amaldorning boyligini ko‘rsatuvchi detal – uning uyda maymun boqishi) orqali butun bir jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik ochib berilgan. Zamonaviy adabiyotshunoslikda detalning turlarini (portret, predmet, psixologik) kengroq va soddaroq shaklda tizimlashtirgan olimlardan biri V.E.Xalizev hisoblanadi. U o‘zining “Adabiyot nazariyasi” darsligida asar dunyosini tashkil etuvchi birliklarni aynan shu kategoriyalarga ajratib tahlil qilgan.

1. Predmet detal: Qahramon foydalanadigan buyumlar (soat, qalam, xat).
2. Portret detal: Tashqi ko‘rinishdagi o‘ziga xoslik (ko‘z qarashi, kulgi, chandiq).
3. Nutqiy detal: Qahramonning o‘ziga xos so‘zlashuv uslubi yoki tez-tez ishlatadigan so‘zi.
4. Psixologik detal: Qahramonning ichki kechinmalarini ifodalovchi holatlar.

O‘zbekistonda bu nazariyani tizimli o‘rgangan va rivojlantirgan olimlar: Matyoqub Qo‘shjonov: U detalning xarakter yaratishdagi o‘rni haqida ko‘p izlanishlar olib borgan (ayniqsa, Abdulla Qahhor ijodi misolida). Dilmurod Quronov: Uning “Adabiyotshunoslikka kirish” asarida badiiy detalning turlari va vazifalari juda tushunarli va ilmiy asosda bayon etilgan.

Bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslikda ironik detal termini ko‘p uchramoqda. Bu asar matnida yashirin istehzo, piching yoki fosh qiluvchi ma’no yuklangan detallardir. Ular ko‘pincha hajviy va satirik hikoyalarda qo‘llaniladi. Ironik badiiy detalning ziddiyat asosiga qurilishi: Ironik detal qahramonning aytayotgan so‘zi bilan haqiqiy qiyofasi o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi. Ironika badiiy detal bilan mavjud “Niqob”ni yirtish: Masalan, kishi o‘zini juda taqvodor ko‘rsatsa-yu, lekin uning cho‘ntagidan qimor kartasi ko‘rinib tursa — bu klassik ironik detaldir.

¹ Quronov, D. (2004). **Adabiyotshunoslikka kirish**. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – B. 15.

Ma'lumki, A. Qahhor ijodida ironik detal yuksak darajaga ko'tarilgan. Masalan, qahramonning o'ta dabdabali unvoni bilan uning arzimasi, kishi bilmas qilmishi o'rtasidagi kontrast "Nutq" hikoyasi qahramoni misolida ochib beriladi. Ta'kidlash joizki, ironik detal orqali yozuvchi voqeaga to'g'ridan-to'g'ri baho bermaydi, balki kitobxonning o'zini kulgi orqali xulosa chiqarishga undaydi.

Erkin A'zam hozirgi o'zbek nasrida badiiy detal, xususan, **ironik detal** qo'llash borasida o'ziga xos maktab yaratgan adibdir. Ularning ijodida ironiya shunchaki kulgi emas, balki qahramonning ma'naviy qiyofasini, jamiyatdagi ziddiyatlarni fosh qiluvchi nozik pichoq vazifasini o'taydi. Erkin A'zam qahramonlari ko'pincha o'zini ziyoli, madaniyatli ko'rsatishga urinadigan, ammo ichki dunyosi mo'rt yoki qarama-qarshiliklarga to'la shaxslardir. Adibning "Guliguli" hikoyasida: Qahramonning o'zini o'ta zamonaviy va "erkin" tutishi ortidagi ma'naviy bo'shliq ironik detallar orqali beriladi. Masalan, qahramonning kiyinish uslubi yoki ishlatadigan chetcha so'zlari uning aslini emas, balki ko'rinishga intilishini fosh etadi. Uning "Otoyining tug'ilgan yili" qissasida: Mansabdor shaxslarning nutqidagi qoliplashgan jumlar, ularning stoli ustidagi "muhim" buyumlar — bularning barchasi istehzo obyektiga aylanadi. Yozuvchi qahramonning o'ziga bergan bahosi bilan uning arzimasi harakati (masalan, ovqatlanish madaniyati yoki biror kichik qo'rqqoligi) o'rtasidagi farqni detal orqali ko'rsatadi.

Erkin A'zamda ironiya ko'pincha nutqiy detal va ijtimoiy holat ziddiyatida ko'rinadi. U qahramonni sharmanda qilmaydi, balki uning ustidan engil va achchiq jilmayadi. Adibning "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasida bosh qahramon Pakananing tashqi ko'rinishi portret detal sifatida ironiya bilan sug'oriladi. Pakana nafaqat bo'yi pastligi bilan balki, tepakalligi bilan kitobxonda kulgi qo'zg'aydi. Kulgi qo'zg'ashining sababi esa aslida uning ko'nglida, ko'ngli shu qadar osmondaki qahramonning baland bo'yli "sarviqomat qiz-juvonlarga xushtor bo'lishi" asarda ironik kayfiyat yaratadi.

Yozuvchi qahramonining tashqi qiyofasini shunday chizadi: "U pak-pakana edi. O'zining salobatli tutishi-yu, salmoq bilan odim otishi bir pul: go'yo yosh bola kattalarga taqlid qilayotgandek bachkana chiqardi. Tovushini ne maqomga solmasin natija o'sha-o'sha"¹.

¹ Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. Toshkent. Ma'naviyat. 2001. – B. 4.

Adabiyotshunos olimlar, xususan, Umarali Normatov va Qozoqboy Yo‘ldoshev bu adib ijodidagi detallarni yuqori baholashgan: U. Normatov: Erkin A‘zam nasridagi detallarni “ruhni titratuvchi va ko‘zni ochuvchi zarralar” deb ataydi. Uning fikricha, Erkin A‘zam detallari orqali jamiyatning “yuragi”dagi illatlarni topib ko‘rsatadi. Adabiyotshunos olima Marhabo Qo‘chqorova Erkin A‘zam ijodini, xususan, adib asarlaridagi badiiy mahorat masalalarini tizimli tadqiq etgan mutaxassislardan biridir. U o‘zining ilmiy izlanishlarida (ayniqsa, zamonaviy o‘zbek qissachiligiga oid tadqiqotlarida) Erkin A‘zam uslubining o‘zagi sifatida **ironiya** va **badiiy detal** munosabatiga alohida to‘xtaladi.

M.Qo‘chqorovanning ta’kidlashicha, Erkin A‘zam asarlarida ironik detal shunchaki kulgi uchun xizmat qilmaydi, balki qahramonning ma’naviy qiyofasini “rentgen qiluvchi” vositadir. Olima adibning “Guli-guli”, “Pakananing oshiq ko‘ngli” kabi asarlarini tahlil qilar ekan, muallif qahramonning tashqi dabdabasi bilan ichki qashshoqligi o‘rtasidagi ziddiyatni bitta kichik detal (masalan, qahramonning o‘ziga mos bo‘lmagan harakati yoki kiyimi) orqali ochib berishini ta’kidlaydi. Marhabo Qo‘chqorova Erkin A‘zam ijodida nutqiy ironiyaga katta e’tibor qaratadi. Olimaning fikricha, adib qahramonlari tilidagi ortiqcha rasmiyatchilik, balandparvozlik yoki chetcha so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llashning o‘ziyoq ironik detal darajasiga ko‘tariladi. Bu orqali yozuvchi “soxta ziyolilar” va “ma’naviy qobiqqa o‘ralgan kimsalar” ustidan pinhona kuladi. Olima Erkin A‘zam detallarining o‘ziga xosligini ularning ko‘p funksiyaliligi bilan izohlaydi. Uning fikricha, adib qo‘llagan bitta detal ham qahramonning ijtimoiy kelib chiqishini, ham uning ruhiy holatini, ham muallifning unga bo‘lgan munosabatini (istehzosini) birga ko‘rsatib beradi. M. Qo‘chqorova buni “detalning semantik zichligi” deb ataydi. Jumladan u: *“Erkin A‘zam nasrida ironiya qahramonni inkor etish emas, balki uni o‘quvchiga yaqinlashtirish, uning ojiz jihatlarini ko‘rsatish orqali haqiqiy insoniy qiyofasini chizishdir. Bu borada ironik detal adibning eng asosiy quroli bo‘lib xizmat qiladi”*.

Ironik detalning tahlil sxemasi (M. Qo‘chqorova qarashlari asosida)

Detal yo‘nalishi	Funksiyasi	Natija
Maishiy-ashyoviy	Qahramonning moddiy dunyoga bog‘liqligini masxara qilish.	Ijtimoiy fosh etish.

Detal yoʻnalishi	Funksiyasi	Natija
Psixologik-imo	Ichki qoʻrquv va tashqi jasorat ziddiyati.	Xarakter fojiasini koʻrsatish.
Nutqiy-stilistik	Soxta madaniyat va manmanlikni fosh qilish.	Ironik muhit yaratish.

Xulosa qilib aytganda, M. Qoʻchqorova Erkin Aʼzamni “detal ustasi” sifatida baholab, uning ironiyasini oʻzbek milliy mentalitetidagi nozik qochirimlar va zamonaviy adabiy tafakkur uygʻunligi sifatida talqin etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. Jild 1. – T.: Fan, 1978. – 416 b.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. Jild 2. – T.: Fan, 1979. – 448 b.
3. Abdullayeva Sh., Homidiy H., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlar lugʻati. – T.: Oʻqituvchi, 1967. – 300 b.
4. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. Epos. – T.: Fan, 1991. – 264 b.
5. Erkin Aʼzam. Pakananing oshiq koʻngli. Toshkent: Maʼnaviyat, 2001. – 204 b.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – T.: Akademnashr, 2010. – 400 b.
7. Shofiyev O. Erkin Aʼzam nasri badiiyati (kinoya va obraz). – T.: Qaqnus media, 2019. – 172 b.

FILOLOGIYA**BADIIY MATNDA IBORALARNING TRANSFORMATSIYASI VA
ESTETIK FUNKSIYASI (Ahmad A'zam asarlari misolida)**

Tursunov Mirzohid,
O'zbek tili, adabiyoti
va folklori
instituti mustaqil
tadqiqotchisi

UO'K 95.(321)

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnda frazeologik iboralarning transformatsiyaga uchrashi va ularning estetik funksiyasi masalasi Ahmad A'zam asarlari misolida tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется трансформация фразеологических выражений в литературных текстах и их эстетическая функция на примере произведений Ахмада Аъзама.

Annotation: This article analyzes the transformation of phraseological expressions in literary texts and their aesthetic function using the example of Ahmad A'zam's works.

Kalit so'zlar: badiiy matn, frazeologik birlik, ibora, transformatsiya, lingvopoetika, estetik funksiya, obrazlilik, personaj nutqi, Ahmad A'zam.

Ключевые слова: литературный текст, фразеологическая единица, выражение, трансформация, лингвопоэтика, эстетическая функция, образность, характерная речь, Ахмад Аъзам.

Key words: literary text, phraseological unit, expression, transformation, linguopoetics, aesthetic function, imagery, character speech, Ahmad Azam.

Frazeologizmlar har bir tilning boyligidir. Ular xalqning dunyoqarashi, madaniyati hamda tarixiy tajribasini o'zida aks ettirib, tilda obrazlilik, ta'sirchanlik va ifoda go'zalligini ta'minlaydi. Shu bois, frazeologik birliklarning kelib chiqishi va ularning qo'llanilishi alohida o'rganishga loyiqdir. Tilshunos olim N.Mahmudov "Hech shubhasizki, til o'ziga muhtasham mazmun va muntazam mohiyat ato etadigan barcha katta-kichik birliklarning teran va tarang tashakkuli, tanosibi, ayni paytda tinimsiz takomili tufayli betimsol sinoatli tilsim o'laroq asrlar osha tirikdir. Shu narsa ham ochiq haqiqatki, bu tilsim silsilasida lug'aviy birliklar favqulodda ayricha o'ringa sohibdir... Tilning chinakam sehr-u joduli lug'aviy birliklari olamida yana bir mutlaqo uzviy qatlam mavjudki, uni

mutaxassislar “iboralar” yoki “frazelogizmlar” // “frazelogik birliklar” termini bilan ataydilar”¹ deb o‘z tadqiqotida qayd qilgan.

Ahmad A‘zam xalqda keng tarqalgan umumtil iboralarni badiiy nutqqa olib kirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki ularni qahramonlar tabiati, ruhiy holati, turmush tarziga moslab o‘zgartiradi. Ularga yangicha ma‘no yuklab, asarlarining badiiy estetik va lingvopoetik salmog‘ini oshirishga erishadi.

Har qanday yozuvchi iste’dodi, til boyligi, xalq iboralari, matallari, keng iste’molda bo‘lgan faol birliklardan to‘yinadi ² . A.A‘zam, avvalo, qahramonlarining tashqi qiyofasi bilan birga, ma‘naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va jonli qilib tasvirlash maqsadida frazeologik iboralardan samarali foydalanadi. Shuningdek, ularning ruhiy holatidagi tig‘iz tasvirlarni ifodalashda ham aynan frazeologizmlarga murojaat qiladi. Muayyan bir tasvirda bir necha ana shunday birliklarni ketma-ket keltirish orqali qahramonning ahvoli, ruhiyatini obrazli tasvirlay oladi. Muallif nutqida, ba‘zan qahramonlar nutqida qo‘llangan iboralar esa adib asarlarining badiiy quvvatini oshirish va ta’sir kuchini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, *Boshqa qishloq, boshqa urug‘dan bir sohibjamol malak bilan ahd-paymon qilib, qizning otasi, qarindoshlari qarshiligini qanday engishni bilmay, boshi qotib yurgan kezlar.* (Asqartog‘ tomonlarda, 27). Ushbu gapda foydalanilgan ibora umumtil leksikamizda faol ishlatilib kelinadigan “bosh” komponenti bilan bog‘liq iboralardan hisoblanib, “*uzoq o‘ylab ham aniq bir fikrga kela olmaslik*”³ ma’nosini ifodalashiga ko‘ra muallif nutqida asar qahramonlaridan biri bo‘lgan cholning ruhiy holatini ochib berish niyatida, ya’ni yozuvchining poetik maqsadi va badiiy-estetik vazifasini ro‘yobga chiqarish uchun qo‘llangan.

Adabiy tilda “qattiq cho‘chish bilan qo‘rqmoq” ma’nosini bildiruvchi *kayfi uchmoq*⁴ iborasi keng qo‘llanadi. Yozuvchi Ahmad A‘zam “Quroq” qissasida ushbu iboraga sinonim sifatida qo‘llanuvchi “*esi chiqib ketmoq*”, “*o‘ti yorilmoq*”, “*kapalagi uchib ketmoq*” iboralarini shaxs ichki kechinmalarini ifodalash uchun ketma-ket qo‘llab, so‘zlovchi nutqiga lingvopoetik yuk yuklagan: *Ey-voy, dahshat! Ko‘rganda yuragim yorilmas, lekin seskanishim bor edi, lekin bu, – sekin gapirasizmi, palakat! – naq ketimning tagidan, boshini sal ko‘tarsa*

¹ Mahmudov N. Iboralar va ularning lug‘aviy tavsifiga chizgilar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 3.

² Toshxo‘jaeva Sh. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi. Monografiya. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2016. – B. 106.

³ Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 53.

⁴ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 375.

tegadi, ko'zi shunaqa sovuq, tag'in to'-o'g'ri, odamning ichigacha muzlatib tikiladi! Esim chiqib ketdi, o'tim yorildi, kapalagim anaqa bo'ldi deganlari hech gap emas! (Quroq, 11)

Nutqda “ozmi-ko'pmi tanishligi bor, juda uzoq” ma'nosini ifodalaydigan *oftobda qatiq ichishgan*¹ iborasi mavjud. Mazkur ibora nutqda asosan kesatiq ma'nosini ifodalab keladi. Yozuvch mazkur iboraga sinonim sifatida *qatiq yalashib yurmoq* iborasini qo'llab, fikrning poetik yukini yanada oshirishga erishgan: *Agar shu baxmal bilan ko'mishganda, hozir Isrofil degan jo'rang bo'lmasdi, kim qaysi to'nkalar bilan qatiq yalashib yurarding...* (Asqartog' tomonlarda, 10) Ushbu jumla tarkibidagi ibora o'zbek xalq og'zaki ijodi va kundalik hayotiy tajriba asosida shakllangan obrazli, emotsional kuchga ega frazeologik birikmadir. Iborada ijtimoiy mavqe, insoniy qadriyat, taqdir va tanlov singari chuqur tushunchalar obrazli vositalar orqali yoritilgan. Bu kabi iboralar xalq ruhiyatini, kundalik hayotdagi kinoya va achchiq haqiqatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, ushbu badiiy asarda ham qahramonlarning ichki dunyosi, o'zaro ziddiyatlari va ijtimoiy muhitni ochib berishda katta poetik yuk tashigan. Mazkur iboraga ergashib kelgan to'nka so'zi orqali ham o'ziga xos ahmoq, keraksiz, yaramas odam ma'nosidagi istehzoli

Ahmad A'zam o'z asarlarida frazeologizmlarni maromiga etkazib, o'z o'rnida qo'llaydigan ijodkor. Ayni frazeologizm asarda yuqori darajada obrazli, emotsional va stilistik yuklama bilan boyitilgan ibora bo'lib, u personajlararo munosabatni keskin ifodalashga xizmat qilgan. Adib *ko'zining siydigini oqizmoq* iborasiga ma'nodosh sifatida “Oyning gardishi” hikoyasida *ko'zining suvini oqizmoq* iborasini qo'llaydi: – *E, sal gapga ko'zingning suvini oqizasan. Qanaqa noshudsan o'zi! Artma enging bilan. Qara, yaltirab ketibdi. Hayf-e senga ko'ylak! Semiz-semiz kitoblarni o'qiysan-u, burningni enging bilan artasan.* (Oyning gardishi, 3)

Frazeologizmlar nafaqat tilning ifoda boyligini, balki xalqning estetik didi va badiiy tafakkurini ham namoyon etadi. Ularning lingvopoetik tahlili obrazlilik, emotsional ifoda va semantik qatlamlarning qanday uyg'unlashganini ochib beradi. Bu esa frazeologizmlarni adabiy matnlar tahlilida muhim vosita sifatida o'rganish zaruratini tug'diradi. Tadqiqotimiz davomida Ahmad A'zam asarlarida iboralarning o'zgarishsiz shakli ham, shuningdek, ayrim qismlari o'zgartirilgan holda qo'llangan shakllari ham aniqlandi. Ta'kidlab o'tish joizki, Ahmad A'zam tomonidan qo'llangan iboralarning katta qismi Samarqand shevasiga xos hisoblanadi. Quyida tahlilga tortilgan iboralarning katta qismi ham aynan Samarqand viloyati vakillari nutqida qo'llanadi.

¹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 335.

Taniqli tilshunos olim B.Yoʻldoshev oʻzining ilmiy tadqiqotlarida frazeologizmlarning (iboralarning) nutqda, ayniqsa, badiiy va publitsistik uslubda shunchaki tayyor holatda ishlatilmasligini, balki muallif maqsadiga koʻra turli transformatsiyalarga uchrashini asoslab bergan. U iboralarning oʻzgargan shakllarini quyidagi asosiy usullarga boʻlib koʻrsatadi:

1. Ibora tarkibidagi ayrim soʻzlarni almashtirish.
2. Iborani oddiy qoʻllanishdagi soʻz bilan kengaytirish usuli.
3. Frazeologik iyxom (zevgma) usuli.
4. Erkin qoʻllanishdagi soʻzni frazemaning qismi bilan biriktirish usuli.
5. Frazemaning obrazli asosidan foydalanish usuli¹.

Mazkur tasnif asosida Ahmad Aʼzam asarlaridagi iboralar tahlili shundan dalolat beradiki, yozuvchi xalq iboralarini turli usullarda oʻzgartirib, badiiy matnga moslashtirgan.

1. Ibora tarkibidagi ayrim soʻzlarni oʻzgartirish. “Frazema gap tarkibida boshqa soʻzlar bilan munosabatga kirishar ekan, baʼzan aniqlik kiritishni, konkret shart-sharoitga moslashishni talab qiladi. Ana shunday hollarda ibora komponentlaridan biri boshqa soʻz bilan almashtiriladi”². Bu usulda ibora tarkibidagi soʻz boshqasi bilan almashtirilganda, uning maʼnosi yanada kuchayishiga xizmat qiladi. Bunday iboralar lingvopoetik maʼno kasb etadi. Masalan: adabiy tilda “ishonmaslik, shubha, gumon bilan qarash”³ maʼnosini bildiruvchi *aqli etmaslik* iborasi mavjud. Ijodkor mazkur ibora tarkibidagi *aqli* soʻzini *kalla* soʻzi bilan alishtirib, iboraning lingvopoetik maʼno kasb etishiga erishgan.

– *Tushunmayapman, – dedi Sobir. – Kimni gapiryapsiz?*

– *Erimning xotinini, – dedi xotin.*

Sobir battar angraydi.

– *Kim, kim? – deb takror soʻradi. – Kallam etmayapti.*

– *Oldingi xotini, – deb tushuntirdi xotin. – Biz nikohdan oʻtganmiz, yashashimiz shariy. (Mastirjamiyat, 4)*

Mazkur parchada qoʻllangan *kallam etmayapti* iborasi personajning nafaqat mantiqiy tushunmasligini, balki ruhiy hayrat, sarosima va vaziyatni qabul qila olmayotgan ichki holatini ham ifodalaydi. “Kalla” komponenti nutqqa ogʻzaki-soʻzlashuvga xos rang-baranglik kiritib, personajning madaniy-nutqiy darajasi, emotsional holati va vaziyatning gʻalatiligi haqida qoʻshimcha maʼlumot beradi.

¹ Yoʻldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari: Oʻquv qoʻllanma. – Samarqand, 1998. – B. 130-141.

² Yoʻldoshev B. Koʻrsatilgan oʻquv qoʻllanma. – B. 130.

³ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., Oʻrazova I., Rixsiyeva K. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 43.

Shu jihatdan mazkur ibora badiiy matnda personaj xarakterini ochuvchi va dialogning tabiiyligini kuchaytiruvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Agar mazkur ibora *aqlim etmayapti* shaklida qo'llanganda, jumlaning emotsional-ekspressiv kuchi sezilarli darajada susaygan bo'lur edi. Chunki "aql" leksemasi neytral va kitobiy tusga ega bo'lib, personajning ichki sarosimasidan ko'ra mulohazali tushunmaslik holatini ifodalaydi. Natijada dialogning jonliligi, og'zaki nutqqa xos tabiiylik va personajning hayratga to'la psixologik holati badiiy jihatdan kuchsizroq aks etgan bo'lardi.

Adabiy nutqda ***og'ziga kelgani*** umumtil iborasi bo'lib, bu birlik "daf'atan nimani aytish fikri tug'ilsa, shu"¹ ma'nosini bildiradi. Nutqda ayni ibora *gapirmoq* so'zi bilan birikadi, ammo "Quroq" qissasida muallif tilidan gapirmoq leksemasi o'rniga qo'yib yuboravermas so'zshaklini qo'llaydi va bu orqali iboraga lingvopoetik yuk yuklanadi. Yozuvchi asar qahramoni tilidan oddiygina qilib, har nimani gapiravermayman deyishi ham mumkin edi. Biroq yozuvchi poetik yukni kuchaytirish, iboraning mazmunini ta'kidlash uchun og'zaki nutqqa xos bo'lgan ***og'ziga kelganini gapirmoq*** shaklini ***og'ziga kelganini qo'yib yuboravermas*** shaklida o'zgartirgan, natijada yangilangan ibora kuchli poetik ta'kid olgan: *Gapim tegib ketmasin, bilaman, o'zingiz ham toriqqansiz bunaqa gaplardan, bilgan odam toriqadi, albatta. Ana, shuning uchun xitlanavermay, bo'lar ekan-da shunaqa, ajab-ey, qani, eshitaylikchi, shuncha eshitganimizning biri-da, deb ko'ngilga kenglik bering, bu bir gurung, diqqatingizni yozadi, kamina ham og'ziga kelganini qo'yib yuboravermas, aytadigan gapimni orqa-oldimga qarab, sizning nima deyishingizga to'g'rilab gapiraman. Balki tagidan boshqa gaplar chiqib qolar.* (Quroq, 1)

Adabiy tilda ***aql o'rgatmoq*** iborasi mavjud bo'lib, u "biror shart-sharoitda nima qilish kerakligi bo'yicha ko'rsatmalar bermoq"² ma'nosini anglatadi. Ahmad A'zam o'zining "Quroq" qissasida bosh qahramon tilidan Ismat akaning ichki tafakkuri va ruhiy holatini ifodalash, shuningdek, tasvirlanayotgan holat va harakatni bo'rttirib ifodalashga xizmat qilish maqsadida "*aql beryapti*" iborasini qo'llagan. Bu orqali jonli xalq tilida mavjud bo'lgan iboraga poetik yuk yuklagan, ya'ni ma'noni kuchaytirishni maqsad qilgan: *Hali ish boshlangani yo'q, Eshim kal loy pishityapti, Safar aka, andavasini tozalayapti, hamsoya nevarasi Nurali loyxona labiga paqirlarni qator qilib teryapti, Ismat aka Eshim kalga loy*

¹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 375.

² Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 41.

pishitishdan aql beryapti, Olmos aka ish oldidan choyni bostirib ichyapti, Eshdavlat ayvon tomida, loy tortishga arqon shaylayapti. (Quroq, 34)

2. Ibora tarkibini kengaytirish. “Bunday holatda iboraning an’anaviy strukturasi kengayadi, iboraning o’zida esa semantik siljish yuz beradi, uning ekspressiv bo‘yoqdorligi ortadi”¹. Iboraning leksik tarkibiga yangi so‘z yoki so‘z birikmasi kiritiladi.

Ahmad A’zam ijodida iboralarning o‘zgarishsiz qo‘llangan shaklini ham, iboralarning umuman yangicha shaklini ham yuqoridagi misollar yordamida ko‘rdik. Ijodkor asarlarida kam o‘rinda qo‘llanga bo‘lsa-da tarkibi kengaytirilgan iboralar ham uchradi. Xalqimiz nutqida “hal etilishi qiyin muammoga duch kelib azobda qolmoq”² ma’nisini bildiruvchi **“kunini ko‘rsatmoq”** frazeologizmi mavjud. Yozuvchi “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanida asar bosh qahramoni bo‘lmish muallif tilidan qo‘llangan **kunini ko‘ziga ko‘rsatmoq** iborasi bosh qahramonning ruhiy holatini ifodalash maqsadida qo‘llangan va ekspressiyani ortiq darajada kuchaytirishga imkon bergan: *Birontasi G‘ulistonda bo‘lmagan, g‘uliy nimaligidan butkul bexabar, bu ahvolda olib borsam, insonni kishanband qilibsiz, deb kunimni ko‘zimga ko‘rsatarlar.* (Ro‘yo yuxud G‘ulistonga safar, 285)

Jonli nutqda “nima yomonlik qildi?!”³ ma’nosini ifodalovchi **arpasini xom o‘rmoq** iborasi keng tarqalgan. Adib mazkur iboraning sinonimi sifatida “Quroq” qissasida **“devoringizni teskari urib qo‘ygan erim bormi”** iborasini qo‘llagan. Bu ibora orqali asar bosh qahramoni do‘stini uyiga taklif qilishi, do‘stining esa uning uyiga mehmonga kelmayotganligi holati kuchli ifodalangan: *Hayron bo‘ldim, mayli, deb, o‘g‘limga oborchi meni, nima gap ekan, deb bilгим kelib bordim. Uchrashdik, ko‘rishdik, qahvaxonada undan-undan so‘rashib, gapimiz singishgandek keyin, nimaga uyga o‘tmayapsiz, devoringizni teskari urib qo‘ygan erim bormi, deb so‘radim. U birdan hurkdi, hurkib, anavi Lotin Amerikasi tog‘larida yuradigan guanako – lamaning beboshvog‘iga o‘xshab boshini tik ko‘tardi, “E-e, men uyingizga bormayman”, dedi. Bilmay ko‘nglini og‘ritib qo‘yganman shekilli, deb ko‘nglim g‘ashlandi.* (Quroq, 32)

Ahmad A’zam o‘z badiiy mahorati doirasida personajlar taqdiri va ijtimoiy qiyofasini yoritishda okkazional frazeologizmlarning ekspressiv imkoniyatlaridan unumli foydalangan. Muallifning lisoniy mahorati, ayniqsa,

¹ Yo‘ldoshev B. Ko‘rsatilgan o‘quv qo‘llanma. – B. 133.

² Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 247.

³ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 46.

an'anaviy lisoniy qoliplarni individual-stilistik jihatdan transformatsiyaga uchratish orqali qahramonlarning ruhiy va ijtimoiy holatini individuallashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Quyida mazkur badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari aniq matniy misollar vositasida tahlilga tortiladi.

“Chatma qosh”ni Sobirlarning davrasida uch kishi bilar ekan. Pistoqi “no‘l olti” hozir ham, malla “no‘l bir” yoshlikdan eshitib kelgan, “GAZ - yigirma bir” uncha aniq aytmadi, gapining yarmi bo‘lgan, yarmi orzu, shekilli, anglash qiyin, yo “Chatma qosh” buni kuydirgan, yo bu uni, ishqilib, bir vaqtlari o‘rtalarida nimadir o‘tgan, ammo bugun “Chatma qosh” qo‘l etmas joyga chiqib ketgan, “GAZ -yigirma bir” tirikchilikning tagiga tushib qolgan. (Tiqin, 9)

Badiiy matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, muallif tildagi tayyor qoliplardan ijodiy foydalangan holda, an'anaviy frazeologizmlarning semantik transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan yangi, kontekstual-okkazional birliklarni hosil qiladi. Xususan, asardagi “tirikchilikning tagiga tushib qolgan” birikmasi o‘zbek tilidagi “tagiga tushmoq” (biror narsaning mohiyatini anglash) iborasining semantikasidan uzoqlashib, mutlaqo o‘zgacha pragmatik yuk bilan voqelangan. Mazkur birlik “tirikchilik” (moddiy hayot kechirish jarayoni) va “tagiga tushish” (tubiga cho‘kish, g‘arq bo‘lish) tushunchalarining sintezidan hosil bo‘lib, insonning ijtimoiy-ma‘naviy tanazzulini ifodalashga xizmat qilgan.

Ushbu kontekstda “tagiga tushish” harakati lisoniy mantiq nuqtayi nazaridan obyektini o‘rganishni emas, balki hayotiy qiyinchiliklar oldida “tiz cho‘kish”, “mag‘lub bo‘lish” hamda kundalik ro‘zg‘orning “og‘ir yuki ostida qolish” ma‘nolarini tashiydi. Personajning yuksak hayotiy ideallardan voz kechib, faqat quyi moddiy qatlam – qorin to‘ydirish tashvishi bilan cheklanib qolganligi mazkur ibora orqali metaforik tarzda tasvirlangan.

Iboraning lingvopoetik qiymati matndagi vertikal antiteza (zidlantirish) asosiga qurilgan bo‘lib, muallif qahramonlar taqdirini qiyoslashda o‘zaro qarama-qarshi ikki nuqtani belgilaydi:

1. “Qo‘l etmas joyga chiqib ketgan” (yuqori nuqta – ijtimoiy yuksalish va muvaffaqiyat ramzi).

2. “Tirikchilikning tagiga tushib qolgan” (quyi nuqta – ijtimoiy tanazzul va turg‘unlik in’ikosi).

Ushbu kontrast personajlar o‘rtasidagi masofa nafaqat moddiy tabaqalanishni, balki ma‘naviy olamning ham bir-biridan yiroqlashganini ko‘rsatadi. Binobarin, “tagiga tushish” birligi mazkur o‘rinda hayot oqimidan orqada qolish hamda kundalik turmushning ramziy “loyiga” botish holatini ifodalovchi kuchli estetik-semantik marker bo‘lib kelmoqda.

3. Ijodiy ishlangan iboralar. Hali izohli lug‘atlardan o‘rin olmagan, ijodkorning induvidial yondashuvi natijasida hosil qilingan iboralar.

Qarang-ey, sim-siyoh kecha, ko‘chaning chiroqlari ham siyrak, shu qorong‘ida menga qarab, tanib turibdi, shuncha yildan keyin, o‘zi esa o‘zgarmagan, o‘sha-o‘sha iblisaligi. “Qo‘limdan hamma xonim egan”, deb qo‘yadi yana. (Ro‘yo yuxud G‘ulistonga safar, 224)

Asar matnida qo‘llangan *qo‘limdan hamma xonim egan* frazeologik birligi o‘zbek tili frazeologik fondida o‘ziga xos konnotativ semantikaga ega bo‘lib, badiiy matn tarkibida personaj xarakteristikasini ochib berishda muhim lingvopoetik vazifani bajaradi. Mazkur ibora xalq jonli tilidagi “tuzini totmoq” yoki “qo‘lidan suv ichmoq” kabi birliklar bilan semantik yaqinlik kasb etsa-da, kontekstual doirada o‘ziga xos pragmatik yuk bilan voqelangan. Bu erda “xonim” leksemasi ham taom, ham ijtimoiy tabaqa ma’nolarini anglatib, metaforik polisemiya (ko‘p ma’nolilik) hodisasini yuzaga keltirgan. Iboraning denotativ ma’nosi “pishirilgan taomdan iste’mol qilish”ni anglatga, uning konnotativ qatlamida “kimningdir xizmatida bo‘lish, kimgadir qaramlik yoki kimsaning hiyla-nayranglari “tuzog‘iga” tushish” kabi ma’nolar aks etadi. Qahramon nutqida ushbu iboraning qo‘llanishi uning o‘ziga bo‘lgan yuqori ishonchini va o‘tmishdagi “muvaqqafiyatli” nayranglarini kinoyaviy tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu birlik shunchaki nutqiy bezak emas, balki asarning g‘oyaviy yo‘nalishini – inson qiyofasidagi iblisning ijtimoiy xavfliligini hamda uning makr-hiylalari ko‘lamini ochib beruvchi muhim lingvokulturologik marker hisoblanadi.

Bo‘lmasa, ko‘rinishi boyvuchcha emas, ortiqcha tilla-pilla taqinchoqlariga ham ko‘zim tushmadi, aniq nima kiygani esimda yo‘g‘-u, lekin uncha emas, nimasidir eskiroq, rusumi o‘tganmi, bichimi to‘poriroqmi, ishqilib, ko‘p mehnatdan qasam eganga o‘xshab ketadi. (Ro‘yo yuxud G‘ulistonga safar, 212).

Badiiy matn tahlili jarayonida yozuvchi Ahmad A‘zamning xalq jonli tili resurslaridan foydalanishdagi o‘ziga xos mahorati namoyon bo‘ladi. Xususan, tahlilga tortilgan parchadagi *ko‘p mehnatdan qasam egan* birligi an’anaviy lisoniy qoliplarning semantik transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan o‘ziga xos okkazional frazeologizmdir. Matn tarkibida ushbu ibora kiyim-kechak realiyasiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, personajning ijtimoiy kelib chiqishi va hayot tarzini vizuallashtirishda muhim lingvopoetik vazifani bajaradi.

Kiyimning “ko‘p mehnatdan qasam egani” uning egasi o‘z mehnati va peshona teri bilan kun kechiruvchi, ammo moddiy jihatdan etishmovchilikda yashaydigan zahmatkash shaxs ekanligini kitobxonga metonimik usulda taqdim etadi. Mazkur birlikning semantik qatlamida nafaqat buyumning eskirganligi (denotativ ma’no), balki o‘sha buyum ortidagi insonning mashaqqatli hayotiy yo‘li (konnotativ ma’no) ham aks etgan.

Ushbu o‘rinda adabiy tilda mavjud bo‘lgan *urinib ketgan, rangi o‘chgan* yoki *dami o‘tgan* kabi an‘anaviy sinonimlarni qo‘llash imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, ular *ko‘p mehnatdan qasam egan* frazeologizmi tashigan poetik yukni va to‘laqonli ifodalay olmaydi. Zero, muallif tanlagan ibora tarkibidagi “qasam egan” komponenti buyumning “azob chekkani” va o‘z vazifasini ortig‘i bilan bajarganiga ishora qilib, tasvirning emotsional-ekspressiv quvvatini sezilarli darajada oshirgan.

Xullas, frazeologik birliklar yozuvchi asarlari nutqining jonli, obrazli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qilib, ifodalanyotgan voqelikni badiiylashtirishda, epik turga xos syujetning poetik xususiyatini kitobxon tafakkurida obrazli ifodalanishida etakchi lisoniy vositaga aylanadi va haqiqiy ma’noda lingvopoetik qimmat kasb etadi. Ahmad A’zam faqat umumtil iboralarini qo‘llash bilan qanoatlanib qolmay, balki bunday iboralarga turli o‘zgartirishlar kiritib, ularning qo‘llanish doiralarini kengaytirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Iboralar va ularning lug‘aviy tavsifiga chizgilar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 3.
2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 53.
3. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 375.
4. Toshxo‘jaeva Sh. Erkin A’zam asarlari lingvopoetikasi. Monografiya. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2016. – B. 106.
5. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari: O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 1998. – B. 130-141.

FILOLOGIYA

JEK LONDONNING “MARTIN IDEN” ROMANIDA BADIY KONSEPSIYASINI IFODALASHDA OBRAZLARNING AHAMIYATI

UO‘K 95.(321)

**Ataboyeva Malika,
Urganch Davlat
universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jek Londonning “Martin Iden” romanida badiiy konsepsiyani shakllantirishda obrazlar tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asardagi bosh va ikkinchi darajali obrazlarning g‘oyaviy-estetik yuklamasi, ularning syujet rivoji, konflikt echimi hamda bosh qahramonning ichki evolyutsiyasini yoritishdagi funksiyasi aniqlanadi.

Аннотация: В данной статье анализируется значение системы художественных образов в формировании художественной концепции романа Джека Лондона «Мартин Иден». В ходе исследования рассматриваются идейно-эстетическая нагрузка главных и второстепенных персонажей, их роль в развитии сюжета, разрешении конфликта и раскрытии внутренней эволюции главного героя.

Annotation: This article analyzes the significance of the system of artistic images in expressing the artistic concept of Jack London’s novel “Martin Eden.” The study examines the ideological and aesthetic functions of major and secondary characters, their role in the development of the plot, the resolution of conflicts, and the depiction of the protagonist’s inner evolution.

Kalit so‘zlar: Jek London, “Martin Iden”, badiiy obraz, badiiy konsepsiya, bosh qahramon, ikkinchi darajali obrazlar, individualizm, ijtimoiy muhit, realizm.

Ключевые слова: Джек Лондон, «Мартин Иден», художественный образ, художественная концепция, главный герой, второстепенные персонажи, индивидуализм, социальная среда, реализм.

Key words: Jack London, Martin Eden, artistic image, artistic concept, protagonist, secondary characters, individualism, social environment, realism.

Jahon adabiyotida o'ziga xos badiiy tafakkuri bilan ajralib turadigan Jek London ijodi inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va shaxs kamoloti masalalarini chuqur yoritishi bilan ajralib turadi. Yozuvchining "Martin Iden" romani esa uning eng muhim va falsafiy asarlaridan biri bo'lib, unda ijodkor shaxsning jamiyat bilan munosabati, individualizm, ma'naviy izlanish hamda ijtimoiy tengsizlik muammolari badiiy konsepsiya darajasida ifodalanadi. Asar markazida turgan Martin Iden obrazi orqali muallif insonning o'zligini anglash yo'lidagi kurashi va bu yo'ldagi fojiali ziddiyatlarni yoritadi.

Mazkur romanda badiiy konsepsiyani shakllantirishda obrazlar tizimi muhimdir. Asardagi har bir asosiy va yordamchi obraz muallif g'oyasini ochish, davr ijtimoiy-ruhiy muhitini aks ettirish hamda bosh qahramonning ichki evolyutsiyasini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Jek Londonning "Martin Iden" romanida badiiy konsepsiyani ifodalashda obrazlarning tutgan o'rni va ularning g'oyaviy-estetik yuklamasi tahlil ostiga olingan. Obrazlar orqali muallif ilgari surgan asosiy g'oyalar, shuningdek, asarning falsafiy mazmuni va badiiy yaxlitligini ta'minlashdagi ularning roli ochib berishga harakat qilinadi.

Asar yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosan yozuvchining biografik omillari, individualizm g'oyasi, ijtimoiy tengsizlik masalalari hamda bosh qahramon fojiasi tahlil markazida bo'ladi. "Martin Iden" romani muallifning avtobiografik asari sifatida talqin qilinib, undagi badiiy obrazlar Jek Londonning shaxsiy hayoti va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi.

Tahlil jarayonida adabiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik va struktural-semantik metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar majmui Jek Londonning "Martin Iden" romanida obrazlar orqali ifodalangan badiiy konsepsiyani chuqur va tizimli o'rganish imkonini beradi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Badiiy obraz tushunchasi hayotiy voqea-hodisalarni aniq va individual ko'rinishda badiiy qayta yaratish sanaladi. Bunda obrazning vazifasi borliqni shunchaki nusxalash emas, balki uni muallif ijodiy tafakkuri orqali muayyan shakllarda yangicha ifodalashdan iborat bo'ladi. Badiiy asarda qatnashuvchi personajlar asardagi o'rni va bajaradigan vazifasiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Agar personaj asar voqealarining markazida turib, syujet rivojiga turtki bersa, konfliktning echimida hal qiluvchi rol o'ynasa hamda muallif g'oyasini yoritisa, u asarning bosh obrazi vazifasini bajaradi[3, 123]. Jumladan, "Martin Iden" romanida Martin Iden shunday markaziy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda esa asar markazida bir emas, balki o'teng ahamiyatli bo'lgan bir nechta

obrazlar qatnashadi. Xususan, Ruf obrazi Martin bilan yonma-yon syujetda ishtirok etib, har ikkisini ham bosh obraz deb atash mumkin.

Asar markazida bo‘lmagan, biroq muallif g‘oyasini ochishga yoki uni boyitishga xizmat qiladigan personajlar ikkinchi darajali obrazlar deb yuritiladi. “Martin Iden” romanidagi Brissenden, mister va missis Mors, Jo hamda Gertruda kabi qahramonlar shular sirasiga kiradi. Ingliz tilidagi adabiy manbalarda ham bosh va ikkinchi darajali obrazlar shu mazmunda izohlanadi. Xususan, bosh yoki markaziy qahramonlar (*major or central characters*) asardagi ziddiyatning rivojlanishi va echim topishida muhim o‘rin tutadi. Ya’ni, syujet voqealari va konflikt bilan bog‘liq kurash aynan shu qahramonlar atrofida yuz beradi. Kichik, yoki ikkinchi darajali qahramonlar (*Minor (Secondary or Supporting) characters*) bosh obrazni to‘ldirishga, shuningdek, syujet voqealarini oldinga harakatlanishiga xizmat qiladi [6, 89]

Realistik adabiyotning asosiy belgilaridan biri insonni real hayotdagi kabi murakkab, serqirra va turfa xarakter egasi sifatida tasvirlashdan iboratdir. Shu jihatdan Jek London o‘z ijodida obrazlarning rang-barangligi, estetik boyligi va ko‘p qirraliligini hayotning murakkab tabiati bilan uyg‘un holda namoyon etgan oldi. Yozuvchi yaratgan betakror obrazlar orqali inson tabiatining ichki ziddiyatlari va ruhiy kechinmalari ishonarli tarzda ochib beriladi. Xususan, biografik xarakterga ega Martin obrazi mukammal va etuk badiiy timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Jek London Martin Iden portretini yaratishda uning shaxsiyati va xarakterini belgilovchi barcha muhim jihatlarni qamrab olishga intiladi. Bosh qahramon obrazini to‘laqonli anglash uchun uni alohida tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Martinning tashqi qiyofasi asarda quyidagi tarzda tasvirlanadi:

“Uning ko‘zlari nomusli odamning ko‘zi, ularda na razolat va na makr bor. Uning quyosh tig‘idagi og‘ir mehnat natijasida qoraygan va qadoq qo‘llari, bug‘doyrang yuzi aslida oppoq bo‘lgan: “O‘z badanining Martinnikidek oqligi (oftob tegmagan erlari, albatta) bilan maqtana oladigan ayollarning dunyoda juda kamdan-kamligi uning xayoliga ham kelmas edi. Uning og‘zi suratdagi malaklar og‘ziga o‘xshab ketardi. Bu jangchi va oshiqning dudoqlari edi... Martinning iyagi va bir oz salobatli pastki jag‘i amirona qiyofani ta’kidlardi. Undagi kuch, ehtirosini muvozanatda saqlab turardi, shuning uchun ham u sog‘lom go‘zallikni yoqtirar va sog‘lom tuyg‘ulargagina berilardi. Uning hali biron marta ham tish doktorining yordamiga muhtoj bo‘lmagan sog‘lom tishlari

lablari orasida yiltillab ko‘rinardi. Tishlari oppoq, baquvvat va tep-tekis edi” [1, 40]. Martin Idenning tashqi qiyofasi chizgilarida muallifning subyektiv munosabati sezilib turadi. Uning terisi, dudog‘i, tishlari tasviri shunchalar go‘zal ifodalanidiki, beixtiyor bu qahramonga nisbatan kitobxonda simpatiya paydo bo‘ladi. U jismonan sog‘lom, shu qadar sog‘lomki, bunaqasi mingta hatto o‘n mingtadan bittada uchraydi. Shuningdek, baquvvat: “qizning ayollarga xos sinchikov ko‘zlari yigitning halpillatib tikilgan beso‘naqay kostyumiga, elkalarining qat-qatiga, baquvvat mushaklari turtib turgan englarining g‘ijimiga tushdi” [1, 8]. Martin qiyofasi o‘zgacha bir xislat bilan boyitilganki: “O‘zining ayollar qalbida muhabbat uyg‘otadigan allaqanday xislati borligidan va ayollarning, aynan shu sababli astoydil urinishib, uning e‘tiborini jalb qilishga intilishlaridan aslo bexabar edi” [1, 38]. “Martin Iden” avtobiografik asar bo‘lgani uchun muallif Martin obraziga o‘zining xarakterini singdirganligi aniq: “Uning tabiatidagi dilkashlik va xushfe‘llik xislatlari uning boshqacha harakat qilishiga imkon bermas edi ham” [1, 55]. Quyidagi ta‘rif va asar sujetidagi harakatlari uning moslashuvchan ekanligini anglatadi: “Ruf Martinning diqqatga loyiq, muhim tomonlarini payqamas, yoki tushunmasdi, bu undan ham yomon edi. Inson hayotida mavjud bo‘lgan har qanday shaklga ham moslana oladigan halimday yumshoq bu odamni Ruf o‘jar va qaysar deb hisoblardi, chunki u Martinni o‘zi bilgan birdan-bir qolipga solishga ojiz edi” [1, 212]. Muallif yaratayotgan obrazining aql-zakovati va tirishqoqligini quyidagicha ta‘riflaydi: “Uning miyasi xuddi xotiralar va uydirmalar to‘la kattakon omborga o‘xshardi, omborning eshigi esa doimo ochiq turardi. Qanday kor-hol ro‘y bermasin, Martinning xayoli o‘sha ombordan bir zumda bir-biriga o‘xshash yoki aksincha, bir- biriga zid narsalarni olib chiqardi-da, uni yorqin obrazlarda ifodalab berardi. Bu ish tamomila g‘ayri ixtiyoriy ravishda bajarilardi, mavjud hayotdan olingan har bir hodisaga, albatta, xayolan yaratilgan lavhalar qo‘shilib ketardi. Tunov kuni Rufning ko‘zida rashkdan paydo bo‘lgan uchqunlar unga oy nuridagi po‘rtanani eslatganidek, hozir professor Kolduell ko‘z oldida botib borayotgan quyosh nurlaridan qirmizi rangga bo‘yalgan dengiz manzarasini va shimoli — sharqiy tropik shamol quvayotgan oq ko‘pikli to‘lqinlarni keltirardi. Qahramonning tasavvur olami shu qadar boyki, inson fe‘l-atvoriga xos xususiyatlarni tabiatning betakror go‘zalligi bilan parallel idrok eta oladi.

Jek London ta‘kidlashicha, kitobxonlarning aksariyati asardagi qahramonning fojiali yakuniga uncha e‘tibor qaratmagan, aksincha, Martinning muvaffaqiyat sari intilishi va erishgan yutuqlaridan ruhlangan. Roman nafaqat

yosh ijodkorlar, balki og‘ir mehnat va mashaqqatli kurash orqali o‘z maqsadiga etishga intilayotgan har bir inson uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shuni alohida qayd etish joizki, bugungi kunga qadar ham “Martin Iden g‘oyalari” ko‘plab kitobxonlarni hayot sinovlariga qarshi kurashishga undovchi kuch manbai sifatida qabul qilinmoqda. Asar yakuni fojiali bo‘lishiga qaramay, roman umumiy ruhiyatiga ko‘ra optimistik xarakter kasb etadi. Undagi voqealar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda izchil rivojlanib boradi. Martinning Rufga nisbatan kechinmalari, ularning o‘zaro munosabatlari, bosh qahramonning bilim olish yo‘lidagi tinimsiz sa’y-harakatlari, zodagonlar jamiyatida o‘z o‘rnini topishga intilishi hamda ushbu muhit tomonidan uning yozuvchilik iste’dodi tan olinishi uchun olib borgan kurashi asarning asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. [4, 82]

Asarda bosh qahramonlar bilan bir qatorda ikkinchi darajali obrazlar ham muhim o‘rin tutib, mavzu va g‘oyaning ochilishiga, shuningdek, syujet rivojiga xizmat qiladi. Ular voqealar harakatini ta’minlovchi va asarning badiiy yaxlitligini mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Romanda Ruf, Morzlar oilasi, Martinning opalari Gertruda va Merien, pochchasi Bernard Higginbotam, shuningdek German Shmidt, janob Betler, sudya Blaunt, baqqol hamda chin do‘stlik timsoli bo‘lgan Jo, Brissenden, Lizzi Konolli, professor Kolduel kabi ko‘plab obrazlar asar tuzilmasida faol ishtirok etadi. Ushbu qahramonlarning har biri muallif g‘oyasini ochib berishda va bosh qahramon xarakterining shakllanishida muayyan vazifani bajaradi.

Morzlar oilasi asar boshidayoq kitobxonga tanishtiriladi: ularning jamiyatdagi mavqei, yashash tarzi va ijtimoiy muhitiga alohida e’tibor qaratiladi. Dabdabali uy-joyi, zodagonlarga xos viqorli qiyofasi, nafis nutqi hamda taomlanish madaniyati ularning jamiyatning kibor tabaqasiga mansub ekanini yaqqol namoyon etadi. Martin Morzlar xonadoniga ilk bor tashrif buyurganida ularga nisbatan chuqur hurmat va ixlos bilan qaraydi, bu qatlamni hayotning eng yuqori pog‘onasi deb biladi va ana shunday jamiyat vakillari qatoriga qo‘shilishga intiladi. “Martin Iden” da Ruf obrazi asosiy obraz qatorida tasvirlanadi. Bu obraz asar bosh qahramonining muhabbati o‘laroq, asardagi asosiy voqeliklarni harakatga keltiradi. Umuman olganda, adib asarini mazmunan boyitish, asosiy g‘oyani etkazib berishda turli obrazlar silsilasidan mohirona foydalana olgan.

Jek Londonning “Martin Iden” romani badiiy konsepsiyasi obrazlar tizimi orqali mukammal va ta’sirchan tarzda ifodalangan asarlardan sanaladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, romandagi har bir obraz muallifning g‘oyasini

ochish, asarning falsafiy-ijtimoiy mazmunini yoritish hamda syujet va konflikt rivojini ta'minlashda muhim vazifani bajaradi. Ayniqsa, Martin Iden obrazi orqali yozuvchi shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, ijodkor taqdirining fojiali qirralarini badiiy umumlashtirgan.

Xulosa qilib aytganda, "Martin Iden" romanida obrazlar nafaqat voqealar ishtirokchisi, balki muallif badiiy konsepsiyasining asosiy tashuvchisi sifatida aks etadi. Aynan obrazlar orqali Jek London inson taqdiri, ijod erkinligi va jamiyat bosimi haqidagi chuqur falsafiy g'oyalarini ifodalagan. Shu jihatdan, roman badiiy obrazlarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini o'rganishda muhim ilmiy va adabiy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. London J. Martin Iden. Ruschadan Qodir Mirmuhamedov taijimasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. — 608 b.
2. London J. Jack London and his times, Published by University of Washington Press, 1968. Description: XVII, 385 p.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — B. 34-bet.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
5. Литературный энциклопедический словарь/ Под редакцией В.М.Кожевникова, П. А. Николаева. — М.: СЭ, 1987. — С. 487.
6. <https://www.hohschools.org/cms/lib/NY01913703/Centricity/Domain/378/Characterization%20upload>

FILOLOGIYA

ERKIN VOHIDOV IJODIDA URUSH DAVRI MANZARALARI



**Sultanova Maftuna,
Urganch Davlat
universiteti
magistranti**

UO‘K 95.(47)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidovning urush mavzusiga bag‘ishlab yaratgan asarlari o‘rganilgan. Adibning Ikkinchi jahon urushiga atab yozilgan she‘r va dostonlari zamondosh ijodkorlari asarlari bilan solishtirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются произведения Эркина Вохидова, посвященные военной тематике. Стихи и эпосы поэта, посвященные Второй мировой войне, сравниваются с произведениями современных писателей.

Annotation: This article studies the works of Erkin Vohidov dedicated to the theme of war. The poet's poems and epics dedicated to the Second World War are compared with the works of contemporary writers.

Kalit so‘zlar: urush, front, qo‘ltiqayoq, bolalik, ota, alifbe, atom, jo‘xori poya, kotiba, oqsoqol.

Ключевые слова: война, фронт, костыль, детство, отец, алфавит, атом, кукурузный стебель, секретарь, старейшина.

Key words: war, front, crutch, childhood, father, alphabet, atom, sorghum stalk, secretary, elder.

O‘zbek adabiyotining taniqli namoyondasi, xalqimiz sevgan shoir, mahoratli publitsist va tarjimon, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov o‘z ijodida turli xil mavzularga yuzlanganining guvohi bo‘lib kelmoqdamiz. Bu hoh vatan mavzusi bo‘lsin, xoh ozodlik mavzusi, xoh shoirlik va she‘r mavzusi yoki ijtimoiy holatlar haqida bo‘lishi mumkin. Biroq adibning urush mavzusida yaratgan satrlari, she‘r-u dostonlari uning ijodida alohida o‘ringa ega.

Bilamizki, barchaning yodida daxshatli va o‘chmas iz qoldirgan Ikkinchi jahon urushida ellik million odam halok bo‘lgan, shulardan bir yarim millioni aynan o‘zbeklarga to‘g‘ri keladi. Bu esa taniqli shoiramiz Zulfiya aytganidek, ko‘plab o‘zbek farzandlarining otasiz qolishi demakdir

*Urush noming o‘chsin jahonda
Hamon bitmas sen solgan alam
Sen tufayli ko‘p xonadonda*

Ota nomli buyuk shodlik kam...[1]

Zulfiya ijodiga mansub bu she'r mazmuniga mos keladigan, ya'ni urush tufayli otasiz, etim qolgan bolalar taqdiri haqida yaratilgan doston Erkin Vohidov ijodining cho'qqisi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan Nido dostoni yozuvchiga ulkan muvaffaqiyat olib kelgan doston hisoblanadi. Bu dostonda yozuvchi beg'ubor bolaligini g'am-g'ussasiz o'tkazish o'rniga otasiz, og'ir va mashaqqatli hayotni boshidan kechirgan bola haqida hikoya qiladi. Shoir lirik qahramon tilidan bolalikka shunday ta'rif beradi:

Xayolning tumanli pardasi aro

Yillar ko'z oldimda charx urayotir.

Qishloq ko'chasidan [zanjiday qaro](#)

Olov bolaligim yugurayotir...[2, 142-bet]

Shoir nima uchun bolalikka aynan shunday o'xshatishni qo'llaydi, inson umrining eng go'zal va qayg'u hasratlardan yiroq, esda qolarli davri bo'lgan bolalik uchun go'zal tashbehlar qo'llash o'rniga nega aynan qoralik, g'am-qayg'u ma'nosini beradigan so'z birikmasidan foydalanadi? Albatta, buning sababi yoshu qarini birdek mashaqqatga solgan, ko'plarning beva, ko'plarning esa etim qoldirgan va eng daxshatlisi necha minglab insonlarning uvoliga qolgan bu urush edi. Shoir urushga ketib halok bo'lgan otasiga bo'lgan ichidagi gaplarini go'yoki bu dostonda lirik qahramon - bolakay tilidan aytgisi keladi.

44-yil

Sentabr tongi otdi.

Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg'otdi.

Ko'k jildimda alifbe va bir burda non,

Birinchi bor qadam qo'ydim maktab tomon. [2, 147-bet]

Urush tasviri berilgan bu dostonning har bir satri insonni bejiz o'ygatoldiradi, go'yoki uni o'qiyotgan kitobxon ko'z o'ngida voqealar ketma-ket o'ta boshlaydi. Kimdir o'z otasining cho'loq bo'lib qaytganini aytsa, kimdir qo'lsiz qaytganini aytadi, yana kimdir esa otasidan o'sha mash'um qoraxat kelganini aytib yig'laydi. Shoir shu hodisalar tasviriga to'xtalish bilan bir qatorda yana bir go'zal o'xshatishga yuzlanadi:

Eshit, ingrayapti Ona Yer

Qo'ltiqtayoqlarning zahmidan,

Bu tuproq yuragi poradir

Atom zontlarining vaxmidan. [3, 154-bet]

Yuqorida aytib o'tganimizdek, urush tufayli aziyat chekayotgan qanchadan qancha insonlarga madad bo'layotgan qo'ltiqtayoqlar zahmidan ingrayotgan Yer tasviri juda go'zal gavdalandirilgan. Albatta, yozuvchining beqiyos mahorati

tufayli er yuzini larzaga solgan daxshatli urush tasviri ko‘z oldimizda haqiqiydek paydo bo‘ladi va uni o‘qigan har bir insonni chuqur o‘yga tolishga majbur etadi.

Erkin Vohidov ijodida urush manzaralari yuqorida guvohi bo‘lganimizdek juda chiroyli o‘xshatishlar orqali ko‘plab uchraydi. Buni yana bir “Oqsoqol” she‘ri misolida ham aytishimiz mumkin. Ko‘plab kitobxonlarning sevimli kitobi bo‘lmish “Ikki eshik orasi”dagi Umar zakunchi obraziga o‘xshash holda tasvirlangan ushbu she‘rdagi oqsoqol obrazi ham juda murakkab obraz hisoblanadi. Bunda non kutib navbatda turgan insonlar hamda oqsoqolning qattiqqo‘lligi juda chiroyli tasvirlangan:

Non kam, xaloyiq ko‘p,

Ne qilar edik?

Shunda etib kelar edi “oqsoqol”,

Qo‘lida o‘ynatib tol xivchini.

Tartibga kelardi odamlar darxol,

O‘shanda bilganman qo‘rquv kuchini... [4, 94-bet]

Tabiiyki, asarlardagi har bir qahramonning xoh u ijobiy bo‘lsin, xoh salbiy bo‘lsin o‘ziga yarasha o‘zini oqlaydigan sabablari bor, xuddi oqsoqoldek. Albatta, u ham qaysidir ma‘noda o‘z vazifasini sidqidildan bajargan, front ortidagilarga bosh bo‘lib, urushga ko‘p ma‘noda foydasi tekkan bo‘lishi mumkin, biroq bu kimlarningdir zulm ostida qolishiga va jabr ko‘rishiga sababchi bo‘lgan. Shuning evaziga qahramonimiz “Oqsoqol” bo‘lib elga tanilgan.

Anglaganimizdek, Erkin Vohidov ijodiy merosidan joy olgan urush mavzusidagi asarlarning deyarli ko‘pchiligida aynan janggoh tasviri emas, balki front ortida qolgan xalq: farzandidan judo bo‘lgan onalar oh-u fig‘oni, otasini faqat xotiralarida eslaydigan bolalarning achchiq hayoti va oila boshi bo‘lgan erining urushdagi vafoti tufayli hamma yukni elkasiga olgan bevalar timsoli yaqqol gavdalanadi. Buni shoirning o‘z xotiralari misolida ko‘rishimiz mumkin: “*Otam frontda ekanida onam qishloq kengashida kotiba bo‘lib ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo‘xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo‘shilib kunjara eganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o‘zi kechgacha yig‘laganini unutmayman*” [5]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zining takrorlanmas ijodi bilan XX asr nazmiga ulkan hissa qo‘shgan, asarlarida quvonch-u shodlikni ham, qayg‘u-hasratni ham birdek betakror tarzda ko‘rsatib bera olgan adib Erkin Vohidovning urush mavzusida yaratilgan she‘r va dostonlarini o‘qigan har bir inson qalbiga urushning daxshati va azobi, buning oqibatida chekilgan dard-u alamlar, u yoki bu insonlar bardosh bera olmaydigan darajadagi qiynoqlar haqiqiy ayon bo‘lgandek tuyuladi. Mahoratli yozuvchi o‘zi yaratgan bir qancha ijod

mahsuli orqali butun insoniyatga qarata bu sovuq urushning ayanchli oqibatlarini yana bir bor yodga solgandek bo‘ladi, go‘yo. Shuning uchun ham asarlardagi urush tasvirlariga nafrat hamda bugungi tinchlik, osoyishtalik zamoniga esa shukronalik hissi tuyushimiz shubhasiz, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://tafakkur.net/oglim-sira-bolmaydi-urush/zulfiya.uz>
2. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018, 141-155-betlar
3. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018, 154-bet
4. Erkin Vohidov. Yoz harorati: ikkinchi jild. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2015, 94-96-betlar
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_Vohidov

FILOLOGIYA

SEMANTIK VALENTLIK VA EMOTIV MA'NO: BADIY MATNING LINGVOPOETIK MEXANIZMI

UO'K 95.(47)

Marufova Zulfiya,
O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti dotsenti,
Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

***Annotatsiya:** Badiiy ma'no yaratilishini lisoniy darajada izohlash semalarning o'zaro munosabati va ularning bog'lanish imkoniyatlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Mazkur maqolada ushbu jarayon predikat semasining semantik valentlik xususiyati orqali ilmiy jihatdan asoslanadi.*

***Аннотация:** Интерпретация художественного смысла на языковом уровне предполагает анализ взаимосвязи сем и их сочетаемостных возможностей. В данной статье этот процесс научно обосновывается через семантическое свойство валентности предикатной семы.*

***Annotation:** The interpretation of artistic meaning at the linguistic level requires the analysis of interrelations between semes and their combinatorial potential. In this article, this process is theoretically substantiated through the semantic valency property of the predicate seme.*

***Kalit so'zlar:** valentlik, emotiv sema, noodatiy bog'lanish, sema, predikat, agents.*

***Ключевые слова:** война, фронт, костыль, детство, отец, алфавит, атом, кукурузный стебель, секретарь, старейшина.*

***Key words:** valency; emotive seme; unconventional collocation; seme; predicate; agent.*

Badiiy adabiyotda muallifning voqelikka nisbatan subyektiv, aksiologik va estetik munosabatlari til orqali ifodalanar ekan, mazkur jarayon tasodifiy emas, balki muayyan kognitiv mexanizmlar tizimiga tayanadi. Aniqroq aytganda, muallif tafakkurida shakllangan olam manzarasi assotsiativ-pragmatik bog'lanishlar, kognitiv-mental modellar va konseptual strukturalar orqali lisoniy shakl oladi. Bu esa badiiy ma'no yaratilishini faqat stilistik vositalar darajasida

emas, balki kognitiv va diskursiv jarayonlar uygʻunligida talqin etishni taqozo qiladi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada taklif etilayotgan integrativ yondashuv — stilistika, lingvopoetika va badiiy diskurs tahlilini bir tizimda qarash — muallif subyektiv pozitsiyasining tilda qanday namoyon boʻlishini izohlashga xizmat qiladi. Stilistik tahlil muallifning ifodaviy tanlovlarini aniqlasa, lingvopoetik tahlil bu tanlovlarning estetik va konseptual maʼno yaratish mexanizmlarini ochib beradi. Badiiy diskurs tahlili esa mazkur maʼnolarni muallifning bilish tajribasi, milliy-etnik mansubligi va madaniy qadriyatlar tizimi bilan bogʻliq holda talqin qilish imkonini yaratadi.

Demak, muallifning voqelikka munosabati lisoniy shaklda ifodalanish jarayoni individual kognitsiya bilan cheklanib qolmay, balki jamoaviy madaniy tajriba va diskursiv anʼanalar bilan uzviy bogʻliq holda namoyon boʻladi. Bu esa badiiy matn tahlilida shakl, maʼno va kontekstni yaxlit holda oʻrganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Valentlik tushunchasi leksik semantika va sintaktik tashkillanishni oʻrganishda asosiy nazariy prinsiplardan biri sifatida qaraladi. Valentlik nazariyasi, avvalo, bogʻlanish grammatikasi doirasida shakllanib, ayniqsa predikatlarning muayyan miqdor va turdagi argument sememalar bilan bogʻlanish qobiliyatini izohlashga xizmat qiladi. Ushbu konsepsiyaning eng taʼsirchan taʼriflaridan biri **G. Xelbig** tomonidan berilgan boʻlib, unda semantik valentlik maʼno tarkibidagi alohida semalarning oʻzaro chatishuviga asoslanishi taʼkidlanadi. Xelbigga koʻra, soʻzlarning birikish imkoniyati faqat sintaktik talablar bilan emas, balki semantik muvofiqlik bilan belgilanadi (Helbig, 1983).

Anʼanaviy tadqiqotlarda semantik valentlik, asosan, denotativ maʼno munosabatlari asosida izohlanib, predikat va argument oʻrtasidagi mantiqiy-mazmuniy muvofiqlikka eʼtibor qaratilgan. Biroq keyingi davr semantik va kognitiv tilshunoslik tadqiqotlari tildagi maʼno yaratilish jarayonini faqat mantiqiy bogʻlanishlar bilan cheklab boʻlmasligini koʻrsatdi. **V.Z.Demyankov** taʼkidlaganidek, maʼno interpretatsiya jarayoni kognitiv, baholovchi va pragmatik

omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu holat me’yordan og‘ish sifatida baholanadigan birikmalarni kognitiv jihatdan asoslangan hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi (Demyankov, 1994).

Badiiy nutqda, ayniqsa poetik matnlarda, me’yoriy birikuv qoidalaridan chetga chiqish estetik ma’no yaratishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Kognitiv poetika sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, she’riy ma’no til shakli va kognitiv jarayonlar — metaforalashuv, obraz yaratish, emotsional baholash — o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. **P.Stokvell** poetik tildagi g‘ayriprototipik birikmalar o‘quvchi ongida emotsional reaksiya va konseptual qayta tuzilishni rag‘batlantirishini ta’kidlaydi (Stockwell, 2020). Shu ma’noda, noodatiy semantik bog‘lanishlar til me’yorining buzilishi emas, balki badiiy ifodaga xos qonuniy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida valentlikning alohida ko‘rinishi sifatida **emotiv valentlik** masalasi **S.Muhamedov**ning tadqiqotlarida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif harakat fe’llari misolida emotiv valentlikni semantik valentlikning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilib, so‘zlarning nutqda denotativ emas, balki emotsional-ekspressiv semalar asosida birikish holatlarini ko‘rsatadi (Muhamedova, 2002). Bu yondashuv poetik matn tahlili uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki she’riyatda ko‘pincha mantiqiy muvofiqlik emas, balki emotsional ta’sir ustuvor bo‘ladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda emotiv valentlikning lingvopoetik salohiyati, ayniqsa o‘zbek she’riyati misolida, etarlicha chuqur va tizimli o‘rganilmagan. Ko‘p hollarda valentlik nazariyasi grammatik yoki alohida stilistik tahlil doirasida qolib ketadi. Ushbu maqolada esa mazkur nazariy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida valentlik nazariyasi lingvopoetik tahlil bilan integratsiya qilingan holda, Muhammad Yusuf she’rlarida semantik va emotiv valentlikning badiiy ma’no yaratishdagi roli tadqiq etiladi.

Shu ma’noda, badiiy matnda ma’no yaratilishi faqat konseptual va diskursiv omillar bilan emas, balki til birliklarining o‘zaro semantik bog‘lanish

imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Ana shu bog‘lanish mexanizmlarini tushuntirishda predikat semasining semantik valentlik xususiyati muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Predikat semasining asosiy xususiyati ma’lum miqdordagi argument sememalar bilan bog‘lana olish imkoniyatidir. Bu ularning **semantik valentliklari** hisoblanadi. So‘zda bir semaning boshqa bir so‘z ma’nosining mantiqiy semasi bilan mos bo‘lishi, shu so‘z bilan birikish imkoniyatining yuzaga chiqishi semantik valentlikdir. G.Xelbig ta’rifi bilan aytganda, “Semantik valentlik ma’noning alohida semalari chatishuviga asoslanadi” [5, 99].

Valentlik nazariyasining **emotiv** valentlik deb atalmish yana bir turi borki, bu mavzu birinchi marta o‘zbek tilshunosligida S.Muhamedovaning “Harakat fe’llarining emotiv valentligi” maqolasida jiddiyroq tadqiq etildi [4, 24-27]. Emotiv valentlikni ham semantik valentlikning bir ko‘rinishi deb hisoblash mumkin, deb ta’kidlaydi S.Muhamedova. Bizga ma’lumki, so‘z semantik tuzilishi denotativ (atash), konnotativ (ifodaviy) va funksional (vazifaviy) semalarni o‘z ichiga oladi. S.Muhamedovaning ta’kidlashicha, emotiv valentlik so‘zning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘iga asoslanadi. Ba’zan birikuvchi yoki biriktiruvchi leksemalar ma’nolari muvofiq kelmagani holda, ular nutqda birikishi mumkin. Bunda me’yoriy valentlik buzilib, ko‘chma ma’no hosil bo‘ladi. Semantik valentlikda so‘zlar denotativ ma’nolariga ko‘ra biriksalar, emotiv valentlikda ko‘chma ma’nolari (emotsional semalari) asosida birikadilar.

Emotiv valentlikka ega bo‘lgan so‘z kutilmagan, noodatiy birikuvlarda ishtirok etadi. Ayni holatda “noodatiylik” belgisi sintaktik qurilmaning faqat mazmun planiga tegishli bo‘lib, struktur qurilish, sintaktik modellar odatdagi shaklni saqlab qoladi. Noodatiy bog‘lanishlar badiiy adabiyot, asosan, she’riyat tilida ko‘p uchraydi. “She’riyatda normadan chekinish, leksik va grammatik ma’nolar ustidan tajribalar qilish, valentlikni buzgan holda til birliklarini noodatiy tarzda biriktirish kabi holatlarga ruxsat etiladi” [2, 65].

Emotiv semalar asosida birikkan noodatiy bog‘lanishlar M.Yusuf she’riyatida kutilmagan tashbehtar, okkazional poetik ifodalar yaratishga xizmat

qilgan. Ulardagi noodatiy qurilmalar shoirning his-tuyg'ularini, emotsional-eksressiv holatlarini ifodalash bilan birga tabiat hodisalariga lirik yondashuvning namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'nglim ayvonida kuz hushtak chalar,

Ko'zimdan yosh bo'lib yog'adi yaproq.

Do'stlarim — takabbur shoirvachchalar


O'zlarin sevishar yoridan ko'proq ("Maktub").

"Ko'ngil ayvoni" birikmasi mavhum va aniq otlarning o'zaro emotiv sema asosidagi munosabatidan iborat. *Ayvon* so'zida "ochiqlik" semasi mavjud. Ya'ni ayvon uyning atrofi o'ralmagan, ochiq qismi. Shoirning maqsadi kuz tabiatini berish bo'lgani sababli ko'ngilning ichkarisini emas, tashqari qismini tanlagan (ayvon). Chunki ichkarida kuzga tegishli manzaralar ko'rinmaydi. Hushtak chalish harakati insonga xos bo'lib, *ovoz, churillash, sas semalari* bilan xarakterli. Kuz shamolining g'uvillashi *Kuz+hushtak chalish* modeliga asos bo'lib, **kuz** harakat bajaruvchi sifatida fe'lining agens valentligi realizatori bo'lib kelgan.

"Ko'zimdan yosh bo'lib yog'adi yaproq" jumlasida kuz mavzusining uzviy davomi sifatida yuzaga chiqadi. "Yog'moq" fe'li mantiqan qor, yomg'ir, do'l kabi yog'ingarchilik turlarini anglatuvchi agensni talab qiladi. Ammo *ko'zyosh* va *yomg'ir* leksemalari o'zaro *suv, nam, oqmoq* semalari bilan uyg'unlashib, 1-qatlamdagi akti ("ko'zyosh bo'lib yog'adi") hosil qiladi. "Yaproq yog'adi" birikmasi esa *yaproq* va *yog'moq* leksemalariga xos bo'lgan *vertikal harakat, yuqoridan quyiga, tartibsiz* semalari bilan umumiylik hosil qiladi va 2-qatlamdagi akti harakatga keltiradi:

yosh bo'lib yog'adi – yaproq yog'adi.

Ifodada shoirning individual uslubi ko'zga tashlanadi. Ko'p hollarda kognitiv metaforalar mexanizmi shakl, rang, hajm, vazifa, xususiyat o'xshashligi asosida ishlaydi. Ammo ushbu konstruksiyada emotivlik *yo'nalish* vositasida namoyon bo'ladi. Mazkur ikki qatlamli birikmani quyidagi sxemada ko'rish mumkin:



Tovoning oʻpadi ariqdagi suv,

Koʻylaging etagin oʻpadi maysa.

Men-chi, bir giyohcha boʻlolmadim-ku,

Ey, koʻzlari jayron, kiprigi nayza!

Peshonam shu ekan, peshonang shudir,

Tushimga kir jonim, tushlarimga kir (“Tushlarimga kir”).

“Koʻylaging etagin oʻpadi maysa” – sintaktik qurilmasida maysa etakni oʻpishi, yaʼni subyekt-predikat munosabati noodatiy bogʻlanish asosida qurilgan. Avvalo, agens va predikat munosabatini (*maysa oʻpadi*) obyekt valentligisiz (*koʻylaging etagi*) yuzaga chiqarib boʻlmaydi. Buni tushunish uchun quyidagi mexanizmga eʼtibor qaratamiz:

“Koʻylak etagi” hamda “maysa” leksemalari ongimizda

1-dan: “oʻrin” maʼnosi bilan assotsiatsiyalashadi. Chunki idrokdagi tasavvur boʻyicha, maysaning boʻyi (vertikal holatda) uzun koʻylak etagining oxiri bilan tutashadi. Yoki boshqacha aytganda, koʻylak etagi tugagan joyda maysaning boshi boshlanadi.

2-dan: “harakat”, “taʼsir” maʼnosi bilan umumlashadi. Chunki bir oz egilib turgan maysa bosh qismining koʻylak etagiga tegishi, tekkanda ham mayin, yumshoq tegishi tabiiy hol. “Oʻpmoq” soʻzining “harakat”, “yumshoq tegish”, “mayinlik”, “choʻlpillash”, “egilmoq (egilib oʻpmoq)” kabi semalari mavjudligini yodga oladigin boʻlsak, shular ichidan “yumshoq tegish”, “mayinlik”, “egilmoq” semalari mazkur soʻzni “maysa” soʻzi bilan bogʻlashga xizmat qilgan. Chunki xuddi shu semalar “maysa” leksemasiga ham tegishli. Lab tananing bosh qismida boʻlgani sababli maysa bosh qismining bir oz egilgan holda koʻylak etagiga mayin tegishi – egilib qiz etagini oʻpayotgan odamga oʻxshatilgan. Ifodada “maysa” hamda “etagini oʻpmoq” birliklari “mayin”, “yumshoq tegish”, “egilmoq”,

“harakat” umumiy semalari orqali obraz yaratishga xizmat qigan bo’lsa, “lab”, “cho’lpillash” – “mato”, “libos”, “uzun”, “kalta”, “guldor”, “gulsiz” singari farqlovchi semalar zidlash funksiyasini bajaradi. Shoir tilimizda mavjud “tiz cho’kdi”, “oyog’ini o’pdi” kabi turg’un birikmalarga sinonim bo’lgan “etagini o’pdi” birikmasini maysaga nisbatan qo’llab, yorning go’zalligini ilohiylashtirgan.

Osmon olis, osmon jim,

Osmon yulduz to’shaydi.

Bilagingda barmog’im

Izi borga o’xshaydi (“Yor-yor”),

misralaridagi *osmon yulduz to’shaydi* sintaktik qurilmasida ham subyekt va obyekt valentligining noodatiy tarzda reallashuvini kuzatish mumkin. “Osmon” leksemasi *yuqori, moviy, qoplanmoq, tiniq, yog’moq, baland, ko’k* kabi semalarga ega. Shuningdek, *quyosh, oy, yulduz, bulut, yomg’ir, fazo, koinot* singari so’zlar bilan bir klassemani tarkib toptiradi.

“To’shamoq” so’zining lug’aviy ma’nosi “O’zbek tilining izohli lug’ati”da shunday berilgan: 1. *To’shama solmoq, bosmoq, yotqizmoq, to’shama bilan qoplamoq.* 2. *Solmoq, yozmoq* [3].

Osmon va **to’shamoq** so’zlarini **qoplanish** – **qoplash** harakati umumlashtirib turadi. Odatiy holatda **osmon** (yulduz bilan, bulut bilan) **qoplandi** tarzida (ya’ni, “qoplamoq” fe’li o’zlik nisbatda) qo’llanadi. She’rda **osmon** kosmonimi subyekt valentligini reallashtirib, harakatni o’zi bajaryapti, ya’ni gapning mantiqiy egasiga aylanyapti. **To’shamoq** so’zining izohida “to’shama bilan qoplamoq” birikmasining ham bor. “Qoplamoq” so’zi “osmon” va “to’shamoq” so’zlarini ma’noviy birlashtiradi. “To’shamoq” va “yulduz” o’zaro *yoyilmoq, gorizental holatda* semalari orqali assotsiatsiyalashadi. Shu tarzda tasavvurda yulduz bilan qoplangan osmon manzarasi gavdalantiriladi.

“Kishilarning his-tuyg’ularisiz hech mahal kishilarda haqiqat qidirish bo’lmagan, bo’lmaydi va bo’lishi ham mumkin emas” [1].

His-tuyg'ular tufayligina badiiy adabiyot tilida odatiy holatlardan chekinishlar yuz beradi. Adib tasavvuridagi lavha va manzaralarni haqqoniy tasvirlash zarurati tufayli mantiqiy bog'lanishlar buzilib, g'ayrioddiy birikuvlar paydo bo'ladi. Chunki odatiy fikr ifodalash usullari shoir xayolidagi haqiqatni anglashga ojizlik qilib qoladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, badiiy ma'no faqat alohida til birliklari yoki stilistik vositalar orqali emas, balki semalarning o'zaro munosabati, ularning bog'lanish imkoniyatlari va valentlik xususiyatlari orqali shakllanadi. Ayniqsa, predikat semasining argument sememalar bilan bog'lana olish qobiliyati badiiy matnda ma'noni tashkil etuvchi asosiy omillardan biri ekani aniqlandi.

Emotiv valentlik asosida shakllangan, me'yoriy til qoliplaridan chetga chiquvchi noodatiy semantik bog'lanishlar badiiy matnda estetik ma'no yaratish, obrazlilikni kuchaytirish va muallifning subyektiv-emotsional munosabatini ifodalashda faol vosita sifatida namoyon bo'lishi isbotlandi. Bunday birikmalarda denotativ muvofiqlik emas, balki emotiv va assotsiativ semalarning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari semantik va emotiv valentlikni badiiy ma'no yaratilishining muhim lisoniy-kognitiv mexanizmlari sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv badiiy matn tahlilida semantik, lingvopoetik va kognitiv aspektlarni uyg'un holda o'rganish zarurligini tasdiqlaydi hamda badiiy tilshunoslikda valentlik nazariyasining tahliliy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Гальперин И. Р. К проблеме необычных сочетаний // Проблемы общего и германского языкознания. – Москва, 1978. – С. 65.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2006–2008.
4. Мухамедова С. Ҳаракат феълларининг эмотив валентлиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2002. – № 4. – Б. 24–27.

5. Helbig G. Valenz, Semantik und Satzmodelle. – Leipzig, 1983. – S. 99.
6. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: “Шарқ”, 2007.
7. Кубрякова Е. С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
8. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: Гнозис, 2004.

FILOLOGIYA**ADABIY TIL ME'YORLARI VA UNING BUGUNGI IJTIMOIIY
TARMOQLARDAGI AHAMIYATI**

**Olimjanova Gulzoda,
Xalqaro Nordik
universiteti
magistranti**

UO'K 95.(47)

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy til me'yorlarining shakllanishi va rivojlanishida jadid matbuotining tarixiy o'rni hamda zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda ushbu me'yorlarning qo'llanish holati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy va zamonaviy til jarayonlari qiyosiy o'rganilib, adabiy til me'yorlarini saqlash va rivojlantirishda jadid matbuoti tajribasi hamda bugungi axborot makonining ahamiyati asoslab beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируется историческая роль издательства «Джадид» в формировании и развитии норм литературного языка и применении этих норм в современных социальных сетях с научной, теоретической и практической точек зрения. Исследование сравнительно изучает исторические и современные языковые процессы и обосновывает опыт издательства «Джадид», а также важность современного информационного пространства в сохранении и развитии норм литературного языка.

Annotation: This article analyzes the historical role of the Jadid press in the formation and development of literary language norms and the application of these norms in modern social networks from a scientific, theoretical and practical perspective. The study comparatively studies historical and modern language processes, and substantiates the experience of the Jadid press and the importance of today's information space in preserving and developing literary language norms.

Kalit so'zlar: adabiy til, jadid matbuoti, ijtimoiy tarmoqlar, nutq, til jarayonlari, uslubiy me'yorlar.

Ключевые слова: литературный язык, джадидская печать, социальные сети, речь, языковые процессы, стилистические нормы.

Key words: literary language, Jadid journalism, social networks, speech, linguistic processes, stylistic norms.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat tilining jamiyat hayotidagi mavqeini mustahkamlash, bundan tashqari adabiy til me'yorlariga amal qilish va nutq madaniyatini yuksaltirish masalalari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda mavjud muammolarga ham davlat miqyosida turli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy o'zlikni mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish hamda davlat tilining nufuzi va funksional imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab o'tilgan. Shuningdek, bu jarayonda adabiy til me'yorlarini saqlash va ularni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiy til me'yorlari jamiyatning madaniy saviyasi, ijtimoiy tafakkuri va kommunikativ muhitini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida jadidchilik harakati va jadid matbuoti alohida tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur davrda til me'yorlari isloh qilingan. Shuningdek, adabiy til xalqchil va zamonaviy darajaga ko'tarilgan. Bundan tashqari, jadid nashrlari – gazeta va jurnallar orqali adabiy tilning leksik, grammatik va uslubiy me'yorlari izchil targ'ib qilinib, matbuot tili ijtimoiy ongni shakllantirish vositasiga aylangan. Jadidlar tilni millat taraqqiyotining asosiy sharti deb bilib, uni ma'rifat, siyosat va madaniyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirishga intilgan. XX asr boshlarida vujudga kelgan jadid matbuoti o'zbek adabiy tilining shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Jadidlar matbuotni nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki tilni isloh qilish va milliy ongni uyg'otish quroli sifatida baholadilar. “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna”, “Hurriyat” kabi nashrlarda tilning soddaligi, aniqligi va xalqchilligi asosiy tamoyil sifatida ilgari surildi.

Maqolada adabiy til me'yorlarining shakllanishi va rivojlanishida jadid matbuotining tarixiy o'rni hamda bugungi ijtimoiy tarmoqlarda ushbu me'yorlarning qo'llanish holati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Jadid matbuoti materiallari asosida o'zbek adabiy tilining leksik, grammatik va uslubiy me'yorlari mustahkamlanganligi yoritiladi.

Jadid matbuoti tilining muhim xususiyati shundaki, unda adabiy til me'yorlari tayyorlangan materiallar orqali targ'ib qilingan. Murakkab va eskirgan arabcha-forscha birliklar imkon qadar cheklangan, xalq tiliga yaqin leksika faol qo'llanilgan. Grammatik qurilishda aniqlik va mantiqiylikka intilish, uslubda esa publitsistik ohang ustuvor bo'lgan. Jadidlar uchun til – millat taraqqiyotining kaliti bo'lib, adabiy til me'yorlariga amal qilish ma'rifatli jamiyat barpo etishning muhim sharti sifatida qaraldi.

Shu jihatdan jadid matbuoti til uslubi mas'uliyat, me'yoriylik va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi. Har bir matn jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatish, savodxonlikni oshirish va milliy tafakkurni shakllantirish vazifasini bajargan.

Bugungi davrda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar til muhitining tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni, ijtimoiy tarmoqlar keng omma uchun asosiy muloqot maydoniga aylangan bo'lib, unda yozma va og'zaki nutq unsurlari qorishib bormoqda. Tezkorlik, qisqalik va emotsionallik ijtimoiy tarmoqlar tilining yetakchi xususiyatlari hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ushbu jarayonda adabiy til me'yorlariga amal qilish ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Imlo va grammatik xatolar, so'zlashuv uslubining mutlaq ustunligi, begona til birliklari va sun'iy qisqartmalarning ko'pligi adabiy tilning normativ funksiyasini zaiflashtirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda til ko'pincha shaxsiy erkinlik doirasida baholanib, uning ijtimoiy mas'uliyati yetarli darajada emas. Ammo, ijtimoiy tarmoqlarni mutlaqo salbiy hodisa sifatida baholash ham mutlaqo joiz emas. Ular adabiy tilni ommalashtirish, davlat tilining qo'llanish doirasini kengaytirish va til madaniyatini targ'ib qilish uchun ham katta imkoniyatlarga ega. Ijtimoiy tarmoqda tilning qo'llanilishi shaxsiy muloqot, marketing, axborot almashishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoq uslubi doimiy ravishda rivojlanib boradi, yangi platformalar yaratiladi.

Avvalgi davrlarda ya'ni jadid matbuoti, gazeta va jurnallarida til va uslub qanday rivojlangan va targ'ib etilgan bo'lsa, hozir aynan shu vaifasi ijtimoiy tarmoqlar bajaradi. Biznes va hamkorlik ishlarida davlat tashkilotlari hujjatlarida adabiy til me'yorlariga rioya etiladi. Ammo ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy suhbatlarda adabiy til me'yor va uslublarida chetga chiqish juda ko'p kuzatiladi. To'g'ri adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilgan holda fikr almashish qiyin

ammo aynan qisqa ifodalangan xabarlarda ham millat tilining uslubi saqlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dilni xira qiladigan yana bir holat borki, ba'zi ijtimoiy tarmoqlar, xususan Instagram va telegramda blog yurituvchi ayrim kanallar ham qaysidir ma'noda xalqimiz savodxonligiga putur yetkazib, o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Postlarda, xabarlarda shevadan foydalanish, adabiy til me'yorlaridan chetlashish yoki mutlaqo amal qilmaslik, gap va jumladagi g'alizlik, fikrlarni to'liq yetkaza olmaslik ya'ni tarqoqlik kabi salbiy jihatlar juda ko'paygan. Misol uchun: "Har bir ayol eri uni yaxshi **ko'rishligini** xohlaydi" (Uzbek Gold kanalidan). Ushbu jumladagi ko'rishligini so'zi ko'rishini so'zi bilan almashtirilsa so'zdagi g'alizlik yo'qoladi va o'quvchiga tushunarli bo'ladi.

Yuqoridagi misollarda arzimasek tuyilgan g'alizlik, imloviy xatolar barchasi o'sha kanallar kuzatuvchilari uchun bora-bora odatiy holga aylanadi. Aslida esa har qanday blog yoki telegram kanallardagi postlar o'sha davlatning imloviy va uslubiy til qonunlari asosida yuritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jadid matbuotida til ijtimoiy mas'uliyat vositasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, ijtimoiy tarmoqlarda til ko'proq shaxsiy ifoda maydoni sifatida namoyon etilmoqda. Biroq har ikki holatda ham til jamoatchilik ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda ham adabiy til me'yorlariga ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini namoyon etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda Facebook'da 4,7 mln, Instagram'da 3,7 mln, LinkedIn'da 288 ming, Telegram'da 18 mln, Odnoklassniki'da 16,7 mln, Twitter'da 51,6 ming va Vkontakteda 2,6 mln foydalanuvchi mavjud. Albatta, bu ko'rsatgich hozirgi kunda bundanda yuqori darajada. Ba'zi kanallardagi postlarda og'zaki va yozma nutqning aralash qo'llanilishi bora-bora aynan o'sha auditoriya uchun bu uslub odatiy holga aylanishiga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi juda ko'p sonli foydalanuvchilar uchun esa bu teskari islohot bo'lib qolishi ham mumkin.

Jadid adabiyoti namoyondalari til va imloga jiddiy e'tibor qaratgan. Ular milliy davlatchilik tayanchi sifatida avvalo alifbo masalasini ko'rgan. Bu uchun esa arab yoki rus emas, balki lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini tanlagan. Bu millatning ruhi va kelajagi ham ayni tilda mujassam. Yillar

davomida sayqallanib kelayotgan va ajdodlarimiz tomonidan sof holatda yetkazilgan ona tilimizni asrash har birimizning burchimiz desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Jadid namoyondasi Ashurali Zohiriy “Ona tili” maqolasida “Nechukki, olimlarimizdan biri biror yergʻa xat yozsa yoki birovgʻa bergan narsasini xotira daftariga yozsa oʻz ona tilini qoʻyib fors tilida yozadurlar. Yoshlarimiz boʻlsalar oʻz yerliklaridan birini ziyofatigʻa chaqurib xat yozsalar usmonlicha yoki tatarcha yozadurlar. Bularning sababi ham ravshandurki, birinchilari: oʻzlarining Eron adabiyoti taʼsiri bilan nurlagan boʻlsalar, ikkinchilari: tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochgandurlar. Shuning uchun ham har ikki guruh ham oʻzlarining “tur” olgʻon taraflarigʻa qarab tortadurlarda oʻz ona tillarigʻa haqorat nazari bilan boqub kundan kun esdan chiqarmoqgʻa boshlaydurlar”, deb kuyunib yozgan. Ushbu jumlar hozir ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan, hozirgi davr insonlari uchun ham mos. Oʻz tilida soʻzlangan yoki yozilgan har bir gap millat haqida ham “gapiradi”. Milliy gʻurur va faxrdan darak beradi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, adabiy til meʼyorlarini targʻib qilishda jadid matbuotiga xos aniqlik, soddalik va maqsadga yoʻnaltirilganlik tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa nafaqat til madaniyatini yuksaltirishga, balki yosh avlodning lingvistik tafakkurini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Jadid.uz” (2024) Toshkent.
2. www.lex.uz – Oʻzbekiston qonunchilik maʼlumotlarimilliy bazasi.
3. Abdiyeva G. Zamonaviy oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. <https://scientificjl.com/uuc/article/view/18664>

FILOLOGIYA

BELGI-XUSUSIYAT BILDIRUVCHI TIL BIRLIKLARIDA NAMOYON BO‘LADIGAN ANTROPOMORFIZM: LINGVOMADANIY YONDASHUV



**Yusupova Adiba,
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti tayanch
doktoranti**

UO‘K 95.(47)

Annotatsiya: Mazkur maqolada xususiyat bildiruvchi til birliklarida namoyon bo‘ladigan lingvistik antropomorfizm lingvomadaniy yondashuv asosida tadqiq etiladi. Antropomorfizm hodisasining til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqligi, insonga xos belgi va xususiyatlarning jonsiz obyektlarga ko‘chirilish jarayoni tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье лингвистический антропоморфизм, проявляющийся в языковых единицах, обозначающих признаки и качества, исследуется с позиций лингвокультурологического подхода. Анализируется неразрывная связь языка и культуры, а также процесс переноса человеческих признаков и характеристик на неодушевлённые объекты.

Annotation: This article examines linguistic anthropomorphism manifested in language units expressing qualities and characteristics from a linguocultural perspective. The study analyzes the intrinsic relationship between language and culture, as well as the process of transferring human features and attributes to inanimate objects.

Kalit so‘zlar: lingvistik antropomorfizm, belgi-xususiyat bildiruvchi til birliklari, lingvomadaniyat, antropomorfik ma‘no, baholovchi sifatlar, til va madaniyat.

Ключевые слова: лингвистический антропоморфизм, языковые единицы признака и качества, лингвокультура, антропоморфное значение, оценочные прилагательные, язык и культура.

Key words: linguistic anthropomorphism, quality-denoting language units, linguoculture,

anthropomorphic meaning, evaluative adjectives, language and culture.

Zamonaviy tilshunoslikda antropomorfizm hodisasi insonning atrof-muhitni idrok etish jarayoni bilan chambarchas bogʻliq holda oʻrganiladi. Antropomorfizm orqali jonsiz tabiat hodisalari, mavhum tushunchalar va predmetlarga insonga xos belgi va xususiyatlar nisbat beriladi. Bu jarayon til birliklari orqali ifodalanib, muayyan xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va mentalitetini aks ettiradi. Xususan, belgi-xususiyat bildiruvchi til birliklari (sifatlar, sifatdoshlar, baholovchi birliklar) lingvistik antropomorfizmning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali til egasi borliqni inson obrazida tasvirlaydi hamda lisoniy manzarani madaniy maʼno bilan boyitadi. Ushbu maqolada belgi-xususiyat bildiruvchi til birliklarida namoyon boʻladigan antropomorfizm lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — belgi-xususiyat bildiruvchi birliklar orqali yuzaga keladigan antropomorfik ifodalarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash va ularning mazmunini ochib berishdan iborat.

Lingvistik antropomorfizm til birliklari orqali jonsiz obyektlar, tabiat hodisalari va mavhum tushunchalarga insonga xos boʻlgan belgi hamda xususiyatlarning oʻtishi bilan tavsiflanadi. Bu hodisa tilning faqat stilistik imkoniyati emas, balki inson tafakkurining borliqni anglash usuli bilan chambarchas bogʻliq kognitiv va madaniy jarayon hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikda antropomorfizm metaforik tafakkur mahsuli sifatida izohlanadi. Xususan, J.Lakoff va M.Johnson inson mavhum tushunchalarni tushinishda oʻz jismoniy va ruhiy tajribasiga tayanganini taʼkidlaydi. Ularning fikricha, metaforalar inson tafakkurining asosiy mexanizmi boʻlib, aynan shu mexanizm orqali jonsiz hodisalar insoniy sifatlar bilan talqin qilinadi[1.52]. Bu yondashuv lingvistik antropomorfizmning tabiiy va universal xarakterga ega ekanini koʻrsatadi. Z.Kövecses antropomorfik metaforalarning emotsional va baholovchi xususiyatlariga eʼtibor qaratadi. Olimning fikricha, insoniy ruhiy holatlar va xarakter belgilarining jonsiz obyektlarga koʻchirilishi tilning obrazlilik darajasini oshiradi va madaniy tajriba bilan chambarchas bogʻliq boʻladi[2.Chapters 2–3]. Masalan, “*munqli tun*”, “*gʻazabl原因 shamol*” kabi birikmalar insonning ichki kechinmalarini tashqi borliq orqali ifodalashga xizmat qiladi. G.Fauconnier va M.Turner ishlab chiqqan konseptual integratsiya (sintez) nazariyasiga koʻra, inson tafakkurida turli konseptual sohalarning qoʻshilishi natijasida yangi

ma'nolar yuzaga keladi. Aynan shu jarayonda jonsiz obyektlar insonga xos xususiyatlar bilan talqin qilinib, antropomorfik ifodalar shakllanadi[3.103]. Bundan ko'rinadiki, antropomorfizm til tizimida tasodifiy emas, balki ong faoliyatining mahsuli sifatida yuzaga chiqadi. Mazkur nazariy qarashlar o'zbek tilshunosligidagi lingvomadaniy tadqiqotlar bilan uyg'unlashadi. Olim N.Mahmudov tilni milliy tafakkur va madaniyatning ifodachisi sifatida baholab, til birliklarining ma'nosi inson omili bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi[5.10-13]. Bu yondashuv belgi-xususiyat bildiruvchi birliklar orqali yuzaga keladigan antropomorfik ma'nolarni lingvomadaniy jihatdan izohlashga imkon beradi. O'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yo'nalishning shakllanishi va rivoji D.Xudoyberganova tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Ustozning ilmiy qarashlariga ko'ra, til birliklarini madaniy kontekstdan uzib tahlil qilish ularning haqiqiy mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Antropomorfizm ham aynan madaniy tajriba, xalq tafakkuri va an'anaviy tasavvurlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Olimaning fikricha, til birliklaridagi madaniy semantika insonning milliy dunyoqarashi va mentaliteti bilan belgilanadi[Xudoyberganova,2020]. Demak, belgi-xususiyat bildiruvchi birliklar orqali ifodalangan antropomorfik ma'nolar ham milliy mentalitetning til vositasida namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Bu holat lingvistik antropomorfizmni madaniy tafakkur mahsuli sifatida talqin etishga asos yaratadi. Xususan, xorijiy kognitiv yondashuvlar hamda o'zbek tilshunosligida shakllangan lingvomadaniy qarashlarning uyg'unligi shuni ko'rsatadiki, lingvistik antropomorfizm inson tafakkuriga tayanuvchi, til orqali milliy va umuminsoniy tajribani aks ettiruvchi murakkab va ko'p qirrali hodisadir.

Mazkur tadqiqot lingvomadaniy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy-tahliliy, semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Manba sifatida O'zbek tilining izohli lug'atidan olingan *dilxun*, *serqiliq*, *badjahl*, *daydi* belgi-xususiyat bildiruvchi sifat birliklari tanlab olinib, ularning antropomorfik qo'llanilishi nutqiy kontekstda o'rganildi. Tahlil jarayonida bu kabi birliklarning dastlabki o'z ma'nosi hamda tabiat, tabiiy hodisalar va jonsiz obyektlarga nisbatan qo'llangan holda ko'chma ma'nosi qiyoslab tahlil qilindi. Shu asosda mazkur birliklarning lingvomadaniy mazmuni va baholovchi vazifasi aniqlashtirildi.

Dilxun 2 *ko'chma* Kishiga azob beruvchi, yoqimsiz, jirkanch[7.859].

Izohli lug'atlarda dilxun leksemasi ko'chma ma'noda **kishiga azob beruvchi, yoqimsiz, jirkanch** xususiyatlarni ifodalovchi sifat sifatida qayd etiladi.

Ushbu semantik mazmun badiiy diskursda antropomorfik metafora sifatida faol qo'llanilib, inson ruhiyatiga xos salbiy emotsiyalarni noinsoniy obyektlar va tabiat hodisalariga ko'chirish orqali ifodalanadi. O'zbek lingvomadaniyatida insonning ichki kechinmalari va ruhiy holati ko'pincha tabiat manzaralari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Shu jihatdan *dilxun* leksemasi madaniy kod sifatida insonning bezovtalik, noqulaylik va ichki iztirob holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *dilxun shamol*, *dilxun tun*, *dilxun manzara* kabi birikmalarda tabiat hodisalari insonning salbiy emotsional holatini o'zida mujassamlashtirgan obraz sifatida idrok etiladi. Leksema noinsoniy predmet va hodisalar bilan birikkanida semantik ko'chish yuz beradi va insoniy xususiyat obyektga yuklanadi. Bu holatda leksema denotativ ma'nodan konnotativ ma'noga o'tadi. Ya'ni *dilxun* obyektning real, fizik xususiyatini emas, balki unga nisbatan subyektning hissiy munosabatini ifodalaydi. Bu esa leksemaning baholovchi xarakterini kuchaytiradi. Tabiat hodisasi insoniy sifat bilan baholanadi va badiiy obrazga aylanadi. Ushbu metaforik ko'chish o'quvchiga qahramonning ichki holatini bevosita emas, balki bilvosita, tasviriy vositalar orqali anglash imkonini beradi. *Dilxun* antropomorf metaforasi o'zbek badiiy matnlarida insonning salbiy ruhiy holatini ifodalovchi muhim lingvomadaniy vosita hisoblanadi. U metaforik modellash tirish orqali noinsoniy obyektlarni insoniy emotsiyalar bilan bog'laydi hamda o'zbek lingvomadaniyatiga xos kognitiv tasvir usullarini yaqqol namoyon etadi. G'am sepib ketilgan *tabiat dilxun*, *Kunda ham, tunda ham o'zgarmas o'yi. Dekabr iliqlik ulashaman, deb Dillarga mo'ralar ko'rsatib bo'yin*. Saodat Fayzieva, She'rlar. *Bedoru dilxun* sokinlikda jang suronidan qutulgan yobonlar bir maromdagi munglig' chirildoq sadolariga to'ldi. Asqad Muxtor, Insonga qulluq qiladurmen. *Osmonimni yoritmaydi Kun. Kun rangidan to'kildi ohor. Telbalarcha yig'ladi dilxun*, *Ko'z o'ngimda ko'k kiygan bahor!* Gulbahor Said G'ani, Birinchi aprel. *Dutorim tori ikkidur: Biri quvnoq, biri mahzun Ki, baytim satri ikkidur: Biri dilxush, biri dilxun*. E.Vohidov, Dutorim tori ikkidur.

DAYDI – joyida tinch o'tirmaydigan, maqsadsiz kezuvchi, yo'ldan adashgan, boshpanasiz, yo'nalishini tez-tez o'zgartiradigan betartib harakat qiluvchi. *Daydi* so'zi asosida shakllangan ushbu metaforik ma'no insonning bemaqsad tentirab yurish holatini tabiat unsurlari va tabiiy hodisalarning tartibsiz, beqaror harakat xususiyatlari bilan assotsiativ bog'lash natijasida yuzaga kelgan. Xususan, shamolning yo'nalishsiz esishi, bulutlarning uzluksiz siljishi, suv to'lqinlarining betinim harakati insondagi daydilik xususiyatining tabiiy analogi sifatida idrok etiladi. Mazkur metaforalashuv

jarayonida insonga xos belgi-xususiyat (daydilik) jonsiz tabiat obyektlariga ko‘chiriladi. Bu esa jonlantirishga asoslangan tafakkur shakliga xos bo‘lgan “tabiat – bu odam” umumiy konseptual modeli bilan izohlanadi. Natijada tabiat hodisalari inson xatti-harakati bilan qiyosiy asosda talqin qilinadi va ularning harakat tarzi ong ostida yashirin tarzda o‘zaro qiyoslanadi. Ushbu kognitiv jarayon mahsuli sifatida *daydi* belgini bildiruvchi so‘z jonsiz obyektlarga nisbatan qo‘llansa-da, til sohibining kognitiv faoliyatida inson va tabiat harakati o‘rtasidagi o‘xshashlik asosiy tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois *daydi* metaforasi lingvomadaniy kod sifatida badiiy matnlarda tasviriylilik, emotsionallik va poetik jonlilikni ta’minlash maqsadida faol qo‘llanadi. *Oy daydi qum tarafga botay-botay deb turibdi. Cho‘g‘dek qizigai qum tepalar ustidan iliq-miliq bo‘lib keladigan shamol endi tanni junjntadi. Qumlar ham, tepaliklar ham sovugan.* S.Ahmad, Ufq. *Sayyoralar aro sayyora, Bitta arzandaman Boqiy quyoshga. Uchrab qolmagay, deb Bir daydi toshga, Meni asrash bilan borliq ovvora.* H.Sa’dulla, Zamin sadosi. *Daydi shamol bu suratlarni, Bir xamlada barin buzadi. Pisand qilmay bulut ularni, Samo taftin yayov kezadi.* Abdulla Po‘latov, Bulutning umri.

Yuqoridagi tabiiy predmet bilan birikma holda sifatlovchi bo‘lib kelgan belgi-xususiyatni bildiruvchi antropomorf metafora bu modelda inson holati (nishon-target soha-domain) tabiat yoki jismoniy obyekt (manba-source soha-domain) orqali konseptuallashtirilishini kuzatishimiz mumkin. Antropomorf metaforik model inson xulq-atvori va ruhiy holatini moddiy dunyo obyektlari bilan qiyoslash orqali tilning konseptual imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada tabiiy obyektlarga insoniy ma’no yuklanadi, til birliklarida esa semantik ko‘p qatlamlilik hosil bo‘ladi.

Serqiliq (osmon) 2 ko‘chma Tez o‘zgarib turadigan, injiq[7.609].

SERQILIQ sifati tilshunoslik va badiiy matn tahlilida inson ruhiy kechinmalari va tabiat hodisalarining o‘zaro assotsiatsiyasini ifodalovchi belgi sifatida ahamiyatlidir. Lug‘at ma’nosida *serqiliq* tez o‘zgarib turadigan, injiq, kayfiyati o‘zgaruvchan insonni bildirsa, ko‘chma ma’nosi esa osmon, ob-havo yoki boshqa tabiat hodisalarining tez-tez o‘zgarishi bilan bog‘lanadi. Kognitiv-lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, *serqiliq* sifati inson ruhiy holatidagi o‘zgarishlar va tabiat hodisalarining o‘zgaruvchanligi orasida metaforik bog‘lanish yaratadi. Shu tarzda “tabiat bu – odam” konseptual modeli hosil bo‘ladi: jonsiz tabiat obyektlari insoniy sifatlar bilan uyg‘unlashadi va o‘quvchida

assotsiativ tasvir paydo bo‘ladi. Lingvistik antropomorfizm doirasida *serqiliq* sifati tabiat hodisasiga insoniy xususiyatlarni ko‘chirish orqali obrazli ifodani kuchaytiradi. Bu yerda metafora va semantik kodlash faol ishlaydi: masalan, osmonning tez-tez o‘zgarishi yoki shamolning injiqligi inson kayfiyatidagi o‘zgarishlar bilan qiyoslanadi. Shu bilan matn tasviriy va konseptual boylikka ega bo‘ladi. Badiiy matnlarda *serqiliq* sifati quyidagicha ifodalanadi: “*Hayot ba’zan serqiliq, Nechun nadomat ammo? Kechmadi umrim silliq, Yashadim Rus, deb tanho!*”. A.Azim, **Tong tabassumi**. “*U, uzoq Farg‘ona qishlog‘ining serqiliq iqlimini bolaligidan bilgani uchunmi, buyuqda qolganday egniga brezent chakmon, boshiga oq namat qalpoq kiygan*”. H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar. Shu misollar orqali ko‘rinadiki, *serqiliq* sifati matnga tasviriylik va obrazlilik baxsh etadi, tabiat hodisasini inson ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashtiradi. Lingvistik antropomorfizm yordamida tabiat jonsiz obyekt bo‘lishiga qaramay, insoniy xususiyatlar bilan jonlanadi va matn konseptual, estetik jihatdan boy bo‘ladi. Bu satrlarda metafora — nafaqat badiiy bezak, balki inson tafakkurining konseptual modelidir. Shu tariqa *serqiliq* sifati badiiy matnda konseptual ko‘prik vazifasini bajaradi, o‘quvchida tabiat va inson orasidagi semantik va kognitiv bog‘lanishni yuzaga keltiradi.

Badjahl 2 ko‘chma Quadratli, kuchli; haybatli, dahshatli.

Izohli lug‘atda **badjahl** leksemasi tez jahli chiqadigan, g‘azabkor va asabiy shaxsni ifodalovchi sifat sifatida qayd etiladi. Semantik nuqtayi nazardan, u insonning salbiy emotsional xususiyatlarini, xususan, g‘azab, sabrsizlik va taranglikni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, leksema insonning psixologik xatti-harakatini ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog‘laydi, ya’ni uning semantik yadrosi shaxsning ichki hissiy holatini tashqi obyektlar orqali konseptuallashtirish imkonini beradi. Badiiy diskursda *badjahl* leksemasi ko‘pincha antropomorfik ko‘chishga uchraydi. Masalan, *badjahl tabiat, badjahl shamol, badjahl daryo* kabi birikmalarda insonning g‘azab va taranglik bilan bog‘liq semantik komponentlari tabiiy obyektlarga yuklanadi. Mazkur modelda tabiat hodisalari yoki makon obyektlari inson ruhiyati bilan bog‘liq atributlarga ega bo‘ladi. Natijada badiiy matnlarda shamol, daryo yoki boshqa tabiiy element insonning g‘azab va keskin kayfiyatini aks ettiruvchi obraz sifatida idrok qilinadi. Shu tarzda tasvirlangan hodisa o‘quvchida vizual va emotsional tajribani kuchaytiradi, badiiy matnning semantik va baholovchi funksiyasini mustahkamlaydi. *Badjahl* leksemasi o‘zbek madaniyatida insonning keskin salbiy emotsiyalarini ifodalovchi birlik sifatida baholanishi mumkin. Bu birlik badiiy diskursda nafaqat

individual hissiyotlarni, balki jamiyat va tabiat bilan insonning o‘zaro munosabatini aks ettiradi. Shu sababli “badjahl” antropomorfik metafora sifatida emotsional yukni kuchaytiruvchi vosita sifatida o‘zbek lingvomadaniyatida muhim ahamiyatga ega. **Belgi-xususiyat lingvomadaniy kodi hisoblangan bu metafora badiiy matnlarda tasviriylikni yaratish maqsadida faol qo‘llanadi:** *U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo‘lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko‘rimsiz yuzi badjahl ma‘budlarning haykaliga o‘xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi.* Nazar Eshonqul, Maymun yetaklagan odam.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, *dilxun*, *serqiliq*, *daydi* va *badjahl* birliklari o‘zbek tilida belgi-xususiyat bildiruvchi semantik strukturalar sifatida lingvistik antropomorfizmning aniq namunasidir. *Dilxun*, *serqiliq* va *daydi* leksemalari ijobiy insoniy fazilatlarni aks ettirsa, *badjahl* salbiy xususiyatlarni ifodalaydi. Shu tarzda, bu birliklar til orqali shaxsiyat va xarakterni, milliy mentalitet va madaniy tafakkurni ko‘rsatadi. Natijalar til birliklarining nafaqat ma‘no, balki madaniy va ijtimoiy funksiyasini ham ochib beradi, lingvistik antropomorfizmning murakkabligini yoritadi.

Ushbu maqolada o‘zbek tilida belgi-xususiyat bildiruvchi birliklar va ularning lingvistik antropomorfizm kontekstidagi roli o‘rganildi. Tahlil misollari, xususan, *dilxun*, *serqiliq*, *daydi* va *badjahl* leksemalarida insoniy xususiyatlarning ijobiy va salbiy jihatlarini qanday aks ettirishini ko‘rsatdi. Yuqoridagi tahlillardan shu ma‘lumki, insonga xos serqirrali ruhiy, emotsional va ma‘naviy belgilarni tabiiy hodisalar orqali ifodalash inson tafakkuriga xos qonuniy jarayon hisoblanadi. Chunki inson ichki dunyosiga oid holatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatilmaydigan, mavhum xususiyatga ega bo‘lgani sababli, ularni idrok etish va ifodalashda inson ko‘zga ko‘rinadigan, his etiladigan olamga murojaat qiladi. Ana shu ehtiyoj natijasida inson tafakkurida ichki holatlar tashqi tabiat hodisalari bilan qiyosiy asosda bog‘lanadi. Inson o‘zining ruhiy holatini tabiat manzaralari, makon holati yoki tabiiy harakatlar orqali ifodalashga intiladi. Bu bog‘lanish tasodifiy emas, balki inson tajribasida shakllangan assotsiativ munosabatlarga tayanadi. Lingvistik antropomorfizmning yana bir muhim jihati shundaki, u nafaqat semantik hodisa sifatida, balki milliy mentalitet, madaniy tafakkur va umuminsoniy tajribani til orqali ifodalash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, o‘zbek tilidagi belgi-xususiyat bildiruvchi birliklar til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lakoff G., & Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press, 2010.
3. Fauconnier G., & Turner M. *The Way We Think*. New York: Basic Books, 2002.
4. Guthrie S. *Faces in the Clouds: A New Theory of Religion*. Oxford: Oxford University Press, 1993.
5. Маҳмудов Н. Тилининг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10-13.
6. Худойберганава Д. Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020.
7. О'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. (A.Madvaliyev, D.Xudayberganova tahriri ostida) Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.. 2024.

FILOLOGIYA

“DISKURS” TUSHUNCHASINING UMUMLINGVISTIK MAVQEI MASALASI

UO‘K 95.(47)

Kuldashev Akram,
O‘zbekiston davlat
jahon tillari
universiteti professor,
filologiya fanlari
doktori (DSc)

Ochilova Vazira,
O‘zbekiston davlat
jahon tillari
universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada “diskurs” tushunchasining umumlingvistik mavqe hamda uning nazariy talqinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tilning tabiati, uning borliqni anglash jarayonidagi roli hamda ong va tafakkur bilan o‘zaro munosabati masalalari ilmiy asosda yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется общее лингвистическое положение понятия «дискурс» и его теоретические интерпретации. Также освещается природа языка, его роль в процессе понимания существования и его связь с сознанием и мышлением на научной основе.

Annotation: This article analyzes the general linguistic position of the concept of "discourse" and its theoretical interpretations. It also sheds light on the nature of language, its role in the process of understanding existence, and its relationship with consciousness and thinking on a scientific basis.

Kalit so‘zlar: diskurs, matn, lisoniy muloqot, pragmatika, madaniyat, kontekst, eksplikatsiya, implikatsiya, propozitsiya, presuppozitsiya.

Ключевые слова: дискурс, текст, языковая коммуникация, прагматика, культура, контекст, экспликация, импликация, пропозиция, пресуппозиция.

Key words: discourse, text, verbal communication, pragmatics, culture, context, explication, proposition, presupposition.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning muhim muammolaridan biri “diskurs” tushunchasining nutq, matn, fikr, dialog kabi tushunchalar bilan munosabatini aniqlashdir. Tilshunoslikda XX asrning oxirgi choragida matn va diskurs tushunchalarini vaziyat kategoriyasiga suyangan holda farqlashga urinishlar bo‘ldi va bu borada Yevropa tilshunoslarining fikrlari deyarli bir xil. Shunday diskurs “matn plus vaziyat” tarzida va ayni damda matn “diskurs minus vaziyat”

shaklida izohlandi. [2] Ko‘plab ishlarda “diskurs” va “matn” atamasi farqlanmay qo‘llandi va bunday talqin unchalik ommalashmadi. “Diskursdan farqli ravishda matn aniq vaqtga qat’iy bog‘langan emas, uning vaqt bilan aloqasi bilvosita namoyon bo‘lish xarakterida bo‘ladi. Matn tabiiy ravishda o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lmaydi, balki har qanday eskirishga va parchalanib ketishga mahkum bo‘lgan mavjud ob’yektlar kabi matn ifodasi - ob’jekt material qobig‘ida mavjud bo‘ladi. Aslida matn buvaqtda emas, balki madaniyat ko‘lami vaqtidamavjud bo‘ladi.” shu ma’noda matn eshitish, eslash, xotirlash maqsadida tuziladi, diskurs uchun bunday xususiyatlar xos emas, u zamonning ma’lum vaqtida mavjud bo‘ladi. Diskurs olingan “ma’lumot”ning grafigi belgilari bilan izchil shakllangan videoyozuv yordamida matnga aylanishi mumkin. M.Ya.Dimarskiyning fikricha, faqat matngina ma’lumotlarni to‘play oladi, diskurs esa xabar yetkazishni ta’minlovchi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan matn - birinchidan kelib chiqqan ikkilamchi kommunikatsiyadir.

Diskurs - bu til birikmalarining ma’lum vaqtda va ma’lum joyda ma’lum maqsad bilan qo‘llanilishi, ularning izchil bog‘lanishidir. [1]

Zamonaviy tilshunoslik “diskurs” tushunchasiga turli-tuman yondashuvlar bilan boydir. A.M.Kaplunenko “diskurs” va “matn” tushunchasi munosabatini aniq ifodalaydi. Tilshunosning fikriga ko‘ra “diskurs ancha keng universal tilshunoslik ob’yekti bo‘lib, u nafaqat nutqning til strukturasini o‘z ichiga oladi, balki kommunikativ situatsiyalarning bir tipdagi parametrlarini, kommunikantlarning o‘ziga xosliklarini, muloqot qurilishi strategiyasini o‘z ichiga oladi. Diskursdan farqli ravishda matn nutqning struktur-ma’noviy parametrlari doirasidan tashqari chiqmaydigan ancha spesifik va tor ko‘rinishni namoyon qiladi. [8] Diskursni bunday keng tushunish butun bu masalaga tegishli barcha lingvistik adabiyotlarda uchraydi. Albatta, bularning hammasi qamrab ololmaymiz va asos sifatida T.Van Deykning qarashini qabul qilamiz. Unga ko‘ra diskurs bu murakkab kommunikativ hodisa, u matndan tashqari ekstralingvistik faktorlarni (matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan dunyo haqidagi bilim, fikrlar, qarashlar, adresatning maqsadini) ham o‘z ichiga oladi. Olimning qarashlariga ergashib diskursni uch aspektida ko‘ramiz:

- 1) tilning ishlatilishi;
- 2) g‘oya va e’tiqodlarining berilishi (muloqot);
- 3) ijtimoiy-shartli situatsiyalarda o‘zaro harakat.

Aniq ko‘rinib turibdiki, 3 aspektni o‘rganishga integratsion yondashuv til ishlatilishining g‘oya va e’tiqodlarning berilishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi va

aksincha, o‘zaro harakat aspektlari kishilarning qanday gapirishlariga qanday ta’sir ko‘rsatishlari va muloqot jarayonida e’tiqodlar til ishlatilishi va o‘zaro harakatga qanday ta’sir etishi haqida tasavvur beradi.

Diskurs atamasi subyektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek stereotip, presedent (namunali) fikrlar monolog va diolog ko‘rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab oladi. [5] Amalda, diskurs - bu matnning shakllanish usulidir. Diskurs ilmiy atama sifatida sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatga ega. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya’ni strukturasiga, semantik jihatdan mazmun-ma’no planiga, pragmatik jihatdan esa perlokusiya - xabar planiga ko‘ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan tashkil topgan faoliyat sifatida tavsiflanadi. [3]

Hozirgi kunda tilshunoslik nazariyasida “diskurs” va “matn” termini va tushunchasining o‘zaro munosabatlariga oydinlik kiritish maqsadida diskurs tushunchasini tahlil etish talab etiladi. Matn diskursga nisbatan umumiyroq tushunchadir. Diskurs ham matn faqat kommunikativ birliklardan tashkil topgan matn. Gaplarning kattaroq birliklarga birikishi va ularning ichki ma’noviy bog‘lanishlariga ega bo‘lishi ularning bir butun tuzilma deb hisoblashga imkon beradi. Diskurs deb, masalan, hikoya, matnlar, maqolalar, chiqishlar, she’rlarni hisoblash mumkin. Ba’zi nazariyachi tilshunoslar “diskurs” va “matn” kategoriyasini farqlashga harakat qilib, bu tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni aniqlamoqchi bo‘ladilar. Til va nutqni formal o‘rganuvchilar uchun xarakterli bo‘lgan ushbu yondashuv bu kategoriyalarni lisoniy borliqning faqat ikki shakliga - yozuvdan foydalanuvchi va foydalanmaydiganlarga bo‘lib o‘rganishni nazarda tutadi. Bu dixotomiyaga asoslanib bir qator tilshunoslar diskurs tahlilni ob’yekti og‘zaki nutq va yozma matn tilshunosligi bo‘lishi kerak degan fikrdalar. Juda ko‘p funksional yo‘naltirilgan tadqiqotlarda diskurs va matnni bir qancha oppozitiv kriteriyalar: funksionallik - strukturaviylik, jarayon-produkt kriteriyalari bo‘yicha qarama-qarshi qo‘yish tendensiyasi kuzatiladi. Shunga ko‘ra struktur matn - produkt (mahsulot), funktsional diskurs-jarayon deb farqlanmoqda. Ba’zi tilshunoslar diskursni odatda bir muallifga tegishli bo‘lgan matnga qarama-qarshi ravishda o‘zaro nutqiy ta’sirning interaktiv usuli deb tushuntirmoqdalar. Bunday qarama-qarshi qo‘yish diolog va monologning an’anaviy oppozitsiyasiga yaqin. Shunday qilib, diskurs va matn o‘rtasidagi farqlarga qaramasdan, ular o‘rtasidagi o‘xshashliklar bor. Gap ham fikrda

aktuallashadi. J.Lich aytganidek, matn xabarda reallashadi va bu orqali diskurs amalga oshadi. [6]

Funksional lingvistikada funksionallik-strukturalilik, jarayon-natija, dinamiklik-turg'unlik, faollik-nofaollik kabi diskurs/matn mezonlarini belgilashda qarama-qarshilikka asoslangan oppozitsion yondashuv yetakchilik qiladi. Shunga ko'ra "matn-natija" tuzilishi va funksional "diskurs-jarayon sifatida" ko'rinishi o'zaro muvofiq keladi. Shunday ekan, gap matn bilan bog'liq, fikr esa diskursga tegishli hisoblanadi.

Har qanday matn/diskursning funksional tahlili ifodaning ma'noviy asoslari diskurs kategoriyalari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Diskurs nazariyasining muhim tushunchalari sifatida propozitsiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura, inferensiya va referensiya kabilarni ko'rsatish mumkin.

Propozitsiya - qator gaplarning paradigmatic qayta o'zgarishlar bilan aloqador, fikrlarning tasdiq, buyruq, so'roq kabi turli kommunikativ vazifalari bilan o'zaro bog'liq invariant ma'nolaridir. U nutqiy vaziyatni ifodalab, tildagi lisoniy hodisalar vositasida tavsiflash, so'zlovchi yoki yozuvchini fikr ifodalashda asosli dalillar bilan qurollantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Gapning obyektiv mazmuni deganda, gap orqali ifodalangan va inson ongida aks etgan obyektiv voqelikni tushunadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo'nalishida propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Propozitsiya ma'lum gap semantikasida o'z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa hisoblanadi". [4] Umuman olganda, propozitsiya bilish jarayoni bilan bog'liq baholash xarakteridagi tushuncha bo'lib, semantik jihatdan ifodalanayotgan fikrning voqelik faktlariga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi.

Propozitsiya har qanday holatda ham tilning funksional tabiatini aks ettiradi va gapda diskriptiv yoki propozitsional konsept modusi sifatida ifodalaydi. Fikrning haqiqiy ma'nosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan propozitsiyaning namoyon bo'lish usulini belgilashda so'zning voqelikka mos kelish yoki kelmasligiga bog'liq holda rost yoki yolg'on sifatida qaralishi, amalga oshish yoki oshmasligiga e'tibor beriladi. Presuppozitsiyaning o'rganilishida har bir muallifning o'ziga xos yondashuvini ko'rish mumkin. [7] Bunday yondashuvni presuppozitsiya hodisasiga bergan ta'riflarda, tasniflarda va uning tabiatini belgilashda ko'rishimiz mumkin. Ularning barchasida gapning to'g'ri qo'llanilishi va to'g'ri anglanishi uchun zarur bo'lgan va oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyatni o'z ichiga olish xususiyatidan kelib chiqilgan holda taqdqiq etiladi. Bunday har xillikni, bizningcha, shu

hodisaning o'zidan qidirish kerak bo'ladi. Chunki, presuppozitsiya hodisasi nihoyatda keng qamrovli bo'lib, har qanday gapda u yoki bu tarzda mavjud bo'ladigan murakkab hodisa bo'ladi. Pressupozitsiya gapning to'g'ri qo'llanilishi va to'g'ri anglanishi uchun zarur bo'lgan va so'zlovchi haqida tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyat kabi murakkab elementlarni o'z ichiga olganligi bilan ham keng ko'lamda o'rganilishi kerak bo'lgan hodisa hisoblanadi.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkin-ki, diskursning kognitiv - konseptual tahlilining asosiy unsurlari quyidagilardan iborat. Diskurs kognitiv - konseptual jihatdan tahlil qilishda mentalistik yondashuv yetakchi rollardan birini o'ynaydi. Bu yondashuvda asosiy unsur sifatida ijtimoiy voqealantirish, g'oyaviy ba'za, ijtimoiy - siyosiy holat, sinfiy idrok, voqea yoki hodisani yangilik sifatida taqdim etish, diskursni idrok etishni modellashtirish, axborotga so'zlovchining munosabati, axborotga voqea - hodisa ishtirokchilarining munosabati, kontekstual axborotning prototiplik kategoriyalariga munosabati, matnni tahlil qilishda qism-butun o'rtasidagi munosabatlar tabiati kabi tushunchalar muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burton F., Carlen I. Official discourse: on discourse analysis, government publications, ideology and the state. - London, 2013. - 142 p.
2. Chafe W. Discourse, consciousness and Time. - Chicago, 1994. – 311 p.
3. Kuldashv, A. M., & Kuldashva, S. A. (2021). On the nature of changes in Germanic languages under the influence of the great migration of peoples. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (96), 325-331.
4. Kuldashv, A.M. (2020). Tilshunoslikda tarikhiylik tamoyili. Toshkent: Yangi Davr.
5. Qo'ldasheva, S. A. (2024). Dunyoning til yordamida bilishda ongning roli. "Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, b.750–752. Retrieved from <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/352>
6. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. DDA, Toshkent, 2001- 39 bet.
7. Очилова В.Р. Талабаларга инглиз тилидаги лексик бирликларни метакогнитив ёндашув асосида ўргатиш. (Монография) – Тошкент: "BAYOZ", 2023. – 120 бет.
8. Чернявская В.Е. - От анализа текста к анализу дискурса: немецкая школа дискурсивного анализа // Филологический науки, 2003. - № 3. – С. 68-76.

FILOLOGIYA**ALEKSANDR BOROVKOVNING “ALISHER NAVOIY” MAQOLASI
HAQIDA MULOHAZALAR****UO‘K 95.(47)**

**Iroda Ishonxanova,
Pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori (PhD),
dotsent**

Annotatsiya: Mazkur maqolada g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodini o‘rganishda rus sharqshunos olimlarining, xususan Aleksandr Borovkov tadqiqotlari tahlil qilinadi. Unda Borovkovning “Alisher Navoiy” nomli maqolasi tarjimasi asosida so‘nggi qariyb 85 yil davomida Navoiy hayoti va ijodiga doir qarashlardagi o‘zgarishlar qiyosiy yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются исследования российских востоковедов, в частности Александра Боровкова, посвященные личности и творчеству султана газелей Алишера Навои. Приводится сравнительный анализ изменений взглядов на жизнь и творчество Навои за последние 85 лет, основанный на переводе статьи Боровкова «Алишер Навои».

Annotation: This article analyzes the research of Russian orientalists, in particular Alexander Borovkov, in studying the personality and work of the sultan of ghazal, Alisher Navoi. It provides a comparative analysis of the changes in views on Navoi's life and work over the past 85 years, based on a translation of Borovkov's article "Alisher Navoi".

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Borovkov, maqola, tarjima, sharqshunos, ilmiy tadqiqot

Ключевые слова: Алишер Навои, Боровков, статья, перевод, востоковед, научное исследование

Key words: Alisher Navoi, Borovkov, article, translation, orientalist, scientific research

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda ko‘plab rus hamda xorij olimlari Sharq madaniyati, tili va adabiyotiga katta qiziqish bildirishgan. Buning natijasi o‘laroq, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bevosita Sharq mavzusi bilan shug‘ullangan rus olimlaridan biri Aleksandr Konstantinovich Borovkovdir. U 1904-yilda Toshkentda ishchi oilasida tug‘ilgan. O‘rta Osiyo davlat

universitetining Sharqshunoslik fakultetida tahsil olgan. Talabalik bilan birga, Oʻrta Osiyo muzeyida ilmiy xodim sifatida ishlaydi (Oʻrta Osiyo muzeyi 1876-yilda tashkil etilgan, bugungi kungacha bir necha marta nomi oʻzgargan). Olim Toshkent va Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)ning turli ilm muassasalarida tadqiqotchi, ilmiy kotib, muxbir aʼzo sifatida faoliyat koʻrsatadi, qator unvonlar (masalan, “Hurmat belgisi” ordeni) bilan taqdirlanadi.

Aleksandr Borovkov ilmiy faoliyatining asosiy yoʻnalishlari dialektologiya va leksikografiya, oʻzbek tili va adabiyoti, qorachoy-bolqor tili grammatikasi, Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyati kabi soha va yoʻnalishlar boʻldi. Uning chagʻatoy tilining yozma yodgorliklari sohasidagi tadqiqotlari ham katta ahamiyatga ega. Olim “Qurʻon” tafsirining tili borasida ham izlanishlar olib borgan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi tadqiqi Borovkov ilmiy faoliyatining bir qismi hisoblanadi. Olimning “Alisher Navoiy” nomli maqolasi ulugʻ shoir tavalludining 500 yillik yubileyi munosabati bilan yozilgan. Maqola SSSR Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining 1940-yildagi toʻplamida eʼlon qilingan. Olim Alisher Navoiy tarjimayi holi hamda ijodiga doir mulohazalar bildiradi, oʻz fikrlarini dalillash maqsadida Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh, Mirxond, Zahiriddin Muhammad Bobur va, albatta, Alisher Navoiy yozib qoldirgan manbalarga asoslanadi. Shuningdek, maqolada xorij adabiyotlaridan ham iqtiboslar olingan.

Biz, imkon darajasida maqolani oʻzbek tiliga xolis oʻgirishga harakat qildik. Baʼzi asarlardan olingan parchalarni (xususan, “Mahbub ul-qulub” va “Boburnoma”) bugungi kunda qoʻlimizda mavjud variantlaridan keltirdik.

A. K. B O R O V K O V
ALISHER NAVOIY
(tavalludining 500 yilligiga)

Oʻtmishdagi buyuk yozuvchilar va olimlarning asarlari Sovet madaniyatining oltin fondiga kiritilgan. Sovet mamlakati isteʼdodlarni qadrlaydi, Sovet Ittifoqi xalqlarining madaniy merosidan eng yaxshi va ilgʻor asarlarni sinchkovlik bilan tanlaydi. Ular bilan mamlakatimiz haqli ravishda faxrlanadi.

O‘tmishdagi buyuk yozuvchilar sirasida haqli ravishda bularga mansub bo‘lgan o‘zbek shoiri Nizomiddin Alisher bo‘lib, u Navoiy she‘riy taxallusi ostida ijod qildi (Alisher Navoiyning millati haqida ba‘zan “tom ma’noda turkiy” sifatida qarashga intilgan munozaralarga kirishishning hojati yo‘q. Tarixan o‘zbek xalqi Alisher Navoiy madaniy merosining vorisidir. – A.B.).

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotida tug‘ilgan va 1501-yil 3-yanvarda vafot etgan (A. Semyonov tomonidan uning tug‘ilgan sanasi aniqlangan, qarang: “Литература и искусство Узбекистана”, 2-китоб. (Тошкент, 1938, 124-бет). – A.B.). Alisher Navoiy kelib chiqishi bo‘yicha Temuriyzoda zodagonlar xizmatchilariga mansub edi: uning otasi G‘iyosiddin Kichkina temuriyzoda Abu Qosim Bobur davrida Sabzavor shahrining hukmdori edi. Alisher Navoiyning biograflari ta’kidicha, u Xuroson hukmdori bo‘lgan mashhur shoir temuriyzoda Sulton Husaynga maktabdosh bo‘lgan va Alisher umrining ko‘p qismini saroyda o‘tkazgan. Alisher Navoiyning mashhur zamondoshi sulton Zahiriddin Bobur u haqida Sulton Husayn saroyidagi faoliyatining birinchi davrida muhrdor, o‘rta davrda Astrobodda bir necha bor bek va hukmdor bo‘lganligi, so‘nggi davrda u ma’muriy faoliyatdan bosh tortganligi, Mirzo Sulton Husayndan hech narsa olmagan va aksincha, uning o‘zi har yili Mirzoga qimmatbaho sovg‘alar taqdim etib turganini yozgan [4: 133].

Alisher Navoiy ma’muriy vazifalar malol kelgani, birinchi qulay fursatdayoq siyosiy hayotdan chetlashgani va zohidona hayotni afzal ko‘rgani haqida keng tarqalgan afsona so‘nggi tadqiqotlar tufayli rad etildi [1: 100]. U mamlakat siyosiy hayotining markaziy shaxsi va Sulton Husayn davrida eng ko‘zga ko‘ringan arbob bo‘lgan.

Temur vafotidan keyin bu hukmdorning ulkan imperiyasi bo‘laklarga ajralib ketdi. Alisher Navoiy hayotligida Temur avlodlari o‘rtasida hokimiyat uchun shiddatli kurash davom etdi. Temurning kenja o‘g‘li Shohruh vafot etgach, Alisher Navoiyning otasi siyosiy va iqtisodiy inqiroz tufayli Xurosondan oilasi bilan Eronga qochishga majbur bo‘ldi, shundan so‘ng u sulton Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirdi, yosh Alisher ham ushbu saroyda sulton vafotiga qadar

yashadi. Abu Said Xurosonda hokimiyatni qo'lga kiritganidan keyin Alisher Navoiy to'xtab qolgan ta'limini davom ettirdi, avval Mashhadda, keyin Hirotida va nihoyat Xurosonning yangi hukmdori Abu Said tomonidan surgun qilingan Samarqand shahrida davom ettirdi [1: 125]. 1468 yilda Abu Said vafot etdi va hokimiyat Sulton Husayn qo'lga o'tdi. Alisher Navoiy Hirotga qaytdi va umrining oxirigacha shu yerda qoldi.

Navoiy davridagi Hirot butun O'rta Osiyo uchun madaniy markaz bo'lgan. Bu davrda Temur va uning nabirasi Ulug'bekning ajoyib poytaxti – Samarqandda bu davrda, diniy feodal – naqshbandiya ta'limoti shayxi Xo'ja Ahror – aslida ta'lim va madaniyatning ashaddiy dushmani hukmronlik qilgan. Hirotida taniqli olimlar va shoirlar to'plangan. Zahiriddin Bobur o'z xotiralarida: "Butun dunyoda Hirot kabi boshqa shahar yo'q", deb ulkan hayajon bilan yozgan. Boburning fikrlariga ko'ra, Hirotida, har qanday ish bilan shug'ullangan kishi uni mukammallikka olib kelishga harakat qiladi. O'sha davrdagi Hirot xalqi nazarida Samarqand shahri madaniyatga begona edi. Tarixchi Abdurrazzoqning hikoya qilishicha, Hirotidan Samarqandga ketayotgan mashhur shayx-ul islom Burhoniddinga shoir Orif o'z she'rlarini taqdim eta turib, bularni o'zi bilan olib ketishni tavsiya qiladi, chunki "bunday lazizliklarni Samarqand va Buxoroda topish qiyinligini aytadi".

Madaniy Hirotning asosiy namoyandalari – Alisher Navoiy va mashhur fors shoiri, tarixchi, faylasuf va tilshunos Abdurahmon Jomiy bo'lgan. Shoirlar, tarixchilar, rassomlar, me'morlar va xattotlar o'z davrida O'rta Osiyoning eng bilimdon kishisi sanalmish Alisher Navoiy atrofida birlashdilar. Alisher Navoiyning qiziqish doirasi juda keng edi. Chin ma'rifat tarqatuvchi sifatida u adabiyot, tarix fani, rasm va musiqa rivojiga bir xil darajada qiziqdi. Zahiriddin Bobur: "Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila

muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar"[4: 132].

Taniqli tarixchi Mirxond – ko'p jildli "Ravzat-us-safo" ("Jannat bog'i") umumtarixiy kitob muallifining aytishicha, Alisher Navoiy bayonda aniqlikni saqlash, muallifning me'yordan ortiq batafsilliklar yoki haddan tashqari qisqalik o'rtasida turishi uchun noo'rin bezaklarsiz, metafora va allegoriyalarni yuklamasdan, boshqa mualliflar yozuvlaridan ko'chirmasdan yozish kerakligiga alohida e'tibor bergan. Bu fikr Alisher Navoiy obro'sini oshiradi, zero, uning davrida bo'rttirib va mavhum yozish odat tusiga kirgan edi. Alisher Navoiy atrofidagi shoirlar bilan munosabatlarda nihoyatda xushmuomala bo'lgan. Hatto u bilan bo'lgan kelishmovchilikdan keyin do'stona munosabatda bo'lmay qolgan shoir Binoiyga baho berishda ham Navoiy, birinchi navbatda, me'yorni saqlay olmagan bu shoirning iste'dodini e'tirof etadi.

Alisher Navoiy hayotlik davridayoq o'z zamonining eng old shoiri va olimi sifatida shuhrat qozondi. Uning zamondoshi, yuksak darajali shoir Zahiriddin Muhammad Bobur "Xamsa" ("Beshlik") va Navoiyning she'riy devonlarini ajratib ko'rsatgan:

"Turkiy til bila to she'r aytubdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana bir "Mantiq ut-tayr"(Fariduddin Attorning mashhur dostoni. – A.B.) vaznida "Lison ut-tayr" ("Qushlar tili") otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodirush-shabob", "Badoyi ul-vasat" , "Favoyid ul-kibar" otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarga boqa pastroq va sustroq voqe bo'lubtur"[4: 132].

Bobur Navoiyning nisbatan bo'sh asarlari qatoriga Jomiy(ga yozgan) maktublariga o'zgartirishlar kiritib tuzilgan "Munshaot" asari, aruz vazniga bag'ishlangan "Mezon al-avzon" risolasi va forsiy she'rlarini kiritadi. Bobur Navoiy qalamiga mansub bir qancha yaxshi musiqaga oid asarlarini ham qayd etmay qolmadi. Navoiyning yana bir tarixchisi Davlatshoh ham "Xamsa" va to'rt turkiy devonni birinchi o'ringa qo'ygan.

Alisher Navoiyning mashhurligi Markaziy Osiyo va undan tashqarida vafotidan keyin ham soʻnmadi. Navoiy asarlarining qoʻlyozmalari qayta koʻchirildi va ular juda keng tarqaldi; litografiyalar paydo boʻlishi bilan uning asarlarining litografik nashrlari paydo boʻla boshladi. Navoiy ijodiga boʻlgan qiziqish Eron va Turkiyada uning asarlari negizida bir qator lugʻatlarning paydo boʻlishiga sabab boʻldi.

Alisher Navoiy ijodining Yevropa tanqidi masalasini nazardan chetda tutib boʻlmaydi. Oʻtgan asrning oʻrtalarida fransuz sharqshunosi, Fransiyaning Konstantinopoldagi elchixonasi kotibi hamda tarjimoni M.Belen va rus sharqshunosi, Sankt-Peterburg universiteti magistri M. Nikitskiy bir-biridan mustaqil ravishda Alisher Navoiy ijodiga yuksak baho berishdi. Keyingi vaqtda fransuz sharqshunosi Ye.Bloshe va Sharqning mashhur rus tarixchisi akad. V.V.Bartold undan oldin kutilmaganda Alisher Navoiyni oʻziga xoslikdan mahrum taqlidchilar va tarjimonlar toifasiga kiritib, obroʻsizlantirishdi.

Ye.Bloshe Navoiy asarlariga sharhida yozadi: “... ular tasavvurlarining yorqinligi, ilhomning ilohiy olovi nuri bilan porlamaydi, balki doim fors adabiyoti yilnomalarida ulugʻlangan shoirlarga sust taqlid bilan cheklangan”.

V. V. Bartoldning 1917-yilda yozgan hukmi ham ancha jiddiy: “Temurlang va uning avlodlari davrida, fors tilida yozishga taqlidlar boʻlganidek, turkiy tilda sheʼriy asarlar yaratishga urinishlar boʻldi; bunday shoirlar guruhiga mansub Mir Alisher Konstantinopoldan Tobolskkacha boʻlgan turkiy xalqlarning oʻqimishli sinfining sevimli shoiriga aylandi... Lekin, Mir Alisherning sheʼriyati faqat taqliddan iborat; Mir Alisher turkiy tilning fors tilidan qolishmasligini isbotlashga urindi va buning uchun fors adabiyotidan oʻziga maʼlum boʻlganlarga oʻxshash, baʼzan xuddi shu nomlar ostida asarlar yozgan”[5: 10-11].

Bu mulohazalar nafaqat “tadqiqotchilar Navoiyning fors shoirlariga tobeligini bilishlari bilan bogʻliq, balki u qanday shaklda ifodalanganligi ular tomonidan aniqlanmagan” [1: 27]. Bu faqat qisman toʻgʻri, masalaning mohiyati shundaki, bu sharhlar turkiy xalqlarning begona madaniyat va taʼsirga toʻliq

qaramligi haqidagi eski burjua mafkuraviy tushunchaning ifodasidir. Shu sababli, “umumturkiy madaniyat” chin tarixiy sharoitlardan qat’i nazar “umumeron madaniyati” ga zid qo’yilgan edi.

Temur va temuriyzodalar davrida buyuk davlat bo’lgan Markaziy Osiyo, uning madaniyati – somoniylar davri madaniy merosi hamda Xorazm, Xuroson va Movoraunnahrning “musulmon hududlari” madaniy yutuqlarining sintezidan iborat edi; Navoiy davrida, turgan gapki, diniy mafkura hukmron bo’lganligi, diniy qobiq ichida badiiy adabiyotda ham sinfiy kurash olib borilganligi, albatta, Alisher Navoiy asarlarida o’z aksini topganligi ham shubhasizdir. O’rta Osiyoda o’sha davrning hukmron adabiy tillari bo’lgan arab va fors tillarida yaratilgan katta adabiyot Alisher Navoiy uchun mezon vazifasini o’tagan.

Shunday bo’lsa-da, adabiyotda allaqachon ommalashgan mavzular bilan chiqqan hollarda ham Alisher Navoiy taqlidchilikdan yiroq bo’ldi. Buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiyni (1141-1203) “Xamsa”siga (“Beshlik”) taqlidida va ayniqsa, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” she’riy romanlarida Alisher Navoiy faqat mashhur syujetlardangina foydalangan. Aslida, Alisher Navoiy bu mavzularga murojaat qilgan yagona shoir emas edi. O’rta asrlar Yevropasida Tristan va Izolda hikoyasi ko’plab she’riy va nasriy qayta ishlanishlarda tarqalgani kabi, Majnun va Laylining arabcha sevgi hikoyasi Sharqda sevimli nazmiy mavzu bo’lgan va u ko’p marta qayta ishlangan. Xusrav Parvizning hikoyasi Shirinniki kabi mashhur bo’lgan.

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Farhod va Shirin” romani mutlaqo yangicha qiyofa kasb etdi. Alisher Navoiy Farhod, Xusrav va Shirin obrazlarini yangicha mazmun, yangicha dramatik maqom (ko’rinish)lar bilan yaratib, mohiyatan yangi asar yaratdi. Navoiyning bu asari milliyligi bilan hayratlanarli; bu asar xalq ijodiyotini o’ziga singdirganligi bilan hayratlanarli va Farhod va Shirin haqidagi bir qator xalq afsonalari uning she’riy romanida shunchalik sado berishi bejiz emas. Aynan shular Navoiyning mazkur roman asosida yozilgan yangi, zamonaviy o’zbek “Farhod va Shirin” musiqiy spektaklining ulkan muvaffaqiyatini asoslaydi.

“Xamsa” va “Lison ut-tayr” (“Qushlar tili”) she’riy devonlaridan tashqari, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” (“Nafislar majlislar”) kabi ko‘plab she’riy va nasriy asarlar qoldirgan. Tan olingan “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarnig sevgani”), “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki tilning nizosi”) va “Mezon al-avzon” risolasi haqida allaqachon aytib o‘tilgan (Alisher Navoiy asarlarining aniq soni va ular nomlari nihoyalanmagan. Turli manbalarda uning 19 dan 27 gacha asarlari keltirilgan. Ro‘yxat va maqoladagi adabiyotlarga havolalarga qarang. A. Ромаскевич. “Новый чагатайско-персидский словарь”, (“Мир-Али-Шир” to‘plami, 88–89-betlar). – A.B.).

“Majolisun nafois” – “Nafislar majlislari”ning sakkiz qismida (Belenda: «Galerie des poe`tes») Alisher o‘z asarlaridan parchalar keltigan, zamondosh va o‘tmishdosh shoirlar haqida juda qimmatli ma’lumotlarni to‘plangan, XV asr chag‘atoy adabiyoti deb atalmish adabiyot haqida, bizga yetib kelmagan asarlar, ko‘plab shoirlar va ular haqidagi ma’lumotlar shu asar tufayligina bizgacha yetib keldi. “Nafislar majlislari”ning kirish qismidan parchalar va yettinchi qismida Navoiy haqidagi Belenning maqolasi o‘rin olgan.

Alisher Navoiyning (“Mahbub ul qulub” —) “Qalblarning sevgani” kitobi ko‘p jihatdan Sa’diyning mashhur “Guliston” asari bilan bir taxlitda qurilgani diqqatga sazovordir. “Qalblarning sevgani”ning birinchi qismida amaldorlar, ruhoniylar, savdogarlar, madrasalar, hunarmandlar, dehqonlar va boshqalar haqida munozaralar haqida, ikkinchi qismda maqtovli va yomon xususiyatlar haqida, uchinchisida ibratli hikoyalar va aforizmlar to‘plangan. Alisher Navoiy aforizmlarida dono hikmatlar singdirilgan. Ulardan ba’zilarini keltiramiz: “Er kishi uchun donolik va bilim bezakdir”; “Ilm o‘rganadigan, lekin uni amalda qo‘llay olmagan kishidek, go‘yo ariq qazib, (yerga) urug‘ sepmagan yoki urug‘ sepib, hosilidan foyda ko‘rmagan odamga o‘xshaydi”; “Bilingki, xalqning aybi haqida gapirishga tayyor bo‘lgan odam, o‘z aybini oshkor qilishga ham tayyor bo‘lsin”; “Mol-mulk shunday narsaki, xalq undan ulush oladi, agar dushman ham undan foydalansa, zahar-u asalga teng bo‘lib qoladi”; “Do‘stingizni bu haqiqat

ekanligiga ishontirib, qayg‘uli xabarni yetkazmang”; “Agar kimdir xato qilsa, buni uning yuziga solmang”; “To‘g‘ri so‘z – obro‘ keltiradi, so‘zning yaxshisi – qisqasi”; “Yolg‘on gapirgan kishining yolg‘oni oshkor bo‘lishi bilan uyatga qoladi”; “Ko‘p gapirgan odam ko‘p adashuvchi, bir gapni takrorlayveradigan inson esa tentakdir”.

Alisher Navoiyning ushbu asari tarjima qilinmaganidan afsuslanish avvalda bildirilgan, bu haqda birmuncha batafsil ma‘lumot faqat yuqorida tilga olingan Belenning maqolasida keltirilgan.

Alisher Navoiyning “Ikki til muhokamasi” (“Muhokamat ul-lug‘atayn”) asari juda mashhur. “Muhokama(t)” da Alisher Navoiy O‘rta Osiyo-turkiy tilida ijod qilgan yozuvchi va shoirlar ahamiyatini kamsitgan adiblarga qarshi chiqdi. Vatandoshlarining asarlarini asos qilib, ona tili va uning adabiy til sifatidagi xizmatlarini himoya qildi. Navoiy vatandosh shoirlarga o‘z ehtiromini bildiradi va Lutfiyini XV asrdagi barcha O‘rta Osiyo shoirlaridan yuqoriroq pog‘onaga qo‘yadi. “Hulaguxon zamonidin, - deb ta’kidlaydi Navoiy, - sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirigacha turkiy tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab’ salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar. Va forsiy mazkur bo‘lg‘on shuaro muqobalasida kishi paydo bo‘lmadi, bir Mavlono Lutfiydin o‘zgakim, bir necha matla’lari borkim, tab’ ahli qoshida o‘qusa bo‘lur”[3: 35].

Navoiy davrida Arab va fors tillari hukmron bo‘lgan. U birinchilardan bo‘lib ona tilini qizg‘in himoya qildi. U, ehtimol, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan biroz soddaroq usulda bo‘lsa ham fors tili lug‘at boyligiga havolalar qilish orqali ona tilining grammatik shakllarga boy, xilma-xil va moslashuvchan bo‘lganligi uchun ona tilining ustunligini isbotlashga intildi. Navoiyning fikricha, fors tili birmuncha yengil bo‘lganligi tufayli afzal ko‘rilgan.

Keksa yozuvchining ushbu munozaraviy asarida vatanparvarlik fazilati aniq namoyon bo‘lgan. “Uning yevropalik biografi – Belen: Ali-Shir Navoiy

milliy til – “turkiy” (ya’ni, O’rta Osiyo turkiy tili - A. B.)ga murojaat qilib, uni shubhasiz va so‘zsiz ma’qullash orqali uning chin vatanparvarligi ko‘rindi, - deb yozgan”.

Alisher Navoiyni haqli ravishda o‘zbek adabiy tilining asoschisi, deyish mumkin va bu til o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga negiz bo‘la oldi, deya olamiz. Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy va har tomonlama o‘rganish 1941 yilda, ushbu buyuk o‘zbek yozuvchisi tavalludining besh yuz yilligi munosabati bilan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Мир-Али-Шир», сборник к пятисотлетию со дня рождения. Ленинград, Издательство академии наук СССР, 1928. – 174 стр.
2. А.К.Боровков. Алишер Навои // Советское востоковедение I. М.-Л., Издательство академии наук СССР, 1940. – стр. 107-111.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. XVI т. Муҳокамат ул-луғатайн ва б. – Тошкент: Фан, 2000. – 458 б.
4. Бобур, Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.
5. В. Бартольд. Из прошлого турок. Петроград, 1917, 16 стр.
6. В. В. Бартольд. Улугбек и его время. Петроград: Типография Российской Академии наук, 1918. — 188 с.
7. Семенов, А. А. Мир-Али-Шир Наваи. (Биографическо литературный очерк) // Литература и искусство Узбекистана. Кн. II. Т., 1938. — С. 124–138.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

FILOLOGIYA**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILIDA QORA LEKSEMASI**

**Masharipova Umida,
Ajiniyoz nomidagi
NDPI o‘qituvchisi**

UO‘K 95.(47)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillarida qora leksemasining semantik xususiyatlari, ko‘pma’noliligi va stilistik imkoniyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida qora rangni ifodalovchi birliklarning asosiy va ko‘chma ma’nolari, ularning tarixiy ildizlari hamda turkiy tillardagi umumiy va farqli jihatlari yoritiladi.

Аннотация: В статье проводится сравнительно-семантический анализ лексемы qora (чёрный) в узбекском и каракалпакском языках. Рассматриваются основные и переносные значения данной лексемы, её стилистические функции и историко-этимологические особенности в системе тюркских языков. Особое внимание уделяется экспрессивно-оценочному потенциалу слова qora в художественной и разговорной речи.

Annotation: This article provides a comparative semantic analysis of the lexeme qora (black) in the Uzbek and Karakalpak languages. The study examines its primary and figurative meanings, stylistic functions, and historical-semantic development within Turkic languages. Particular attention is paid to the expressive and evaluative features of the lexeme in literary and everyday discourse.

Kalit so‘zlar: qora leksemasi, rang bildiruvchi so‘zlar, semantika, ko‘chma ma’no, turkiy tillar, o‘zbek tili, qoraqalpoq tili.

Ключевые слова: лексема qora, цветообозначения, семантика, переносное значение, тюркские языки, узбекский язык, каракалпакский язык.

Key words: qora lexeme, color terms, semantics, figurative meaning, Turkic languages, Uzbek language, Karakalpak language.

Qora so‘zi rang-tusni bildiradi. Masalan, ko‘mir, qurum, qoraquya, móm kabi predmetlar qora rang orqali ifodalanadi. Qora so‘zi ko‘pincha oq so‘zining (ba‘zan esa qizil so‘zining) antonimi sifatida ham xizmat qiladi. Qora o‘zbek tili

lugʻat fond. Quyida matn lotin yozuvida, imlo va uslub jihatidan toʻgʻrilangan va izchil shaklda berildi. Qora soʻzining turkiy tillardagi variantlari quyidagicha:

oʻzb. – qora;

qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq – qara;

ozarbayjon, turkman – gara;

xakas – hara;

buryat, moʻgʻul – hara;

chuvash – ****hura**** va boshqalar. Qora soʻzi rang bildirish bilan birga, rang bildiruvchi soʻzlar oldidan qoʻllanib, muayyan ranglarning ****ottenka** (tus) turlarini******, yaʼni ****qoramtir**, toʻq ranglarni****** belgilashda ham ishlatiladi.

Masalan:

****qora qizil*** – toʻq qizil;

****qora sariq*** – odam rangiga nisbatan;

****qora toʻriq*** – ot rangiga nisbatan va boshqalar.

Shuningdek, qora soʻzi odamning rangi, yuz, qoʻl-oyoq tusini ifodalash uchun ham qoʻllanadi. Biroq bu holatda u ****nisbiy maʼnoga**** ega boʻladi. Yaʼni koʻmirning qoraligi bilan inson badanining qoraligi oʻrtasida katta farq mavjud. Masalan: Yoʻgʻon gavdali qora yigit Kenja nutqini shu soʻzlar bilan tugatdi* (Abdulla Qahhor). Shu kabi birikmalar ham uchraydi: qora bola, qora qiz, qora kishi, qora xola* va boshqalar.

Rang bildiruvchi soʻzlar semantikasi turkiy tilshunoslikda koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Xususan, qoraqalpoq tilidagi rang nomlari va ularning koʻpmaʼnoliligi izohli va omonimlar lugʻatlarida tizimli tarzda yoritilgan. Oʻzbek tilshunosligida esa qora leksemasining badiiy nutqdagi ekspressiv imkoniyatlari va koʻchma maʼnolari alohida eʼtiborga sazovor. Mavjud tadqiqotlar mazkur leksemaning tarixiy va semantik jihatdan chuqur ildizga ega ekanini koʻrsatadi, biroq oʻzbek va qoraqalpoq tillari doirasida qiyosiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, semantik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Oʻzbek va qoraqalpoq tillaridagi izohli hamda omonimlar lugʻatlaridagi maʼlumotlar asosiy manba sifatida olindi. Shuningdek, badiiy matnlar va folklor namunalaridan misollar keltirilib, leksemaning kontekstual maʼnolari tahlil qilindi. Olingan natijalar umumlashtirilib, rang bildiruvchi soʻzlarning semantik rivojlanish qonuniyatlari aniqlandi.

Qora soʻzi ayrim hollarda odamlarga laqab sifatida, hatto shaxsni nomlash vositasi** sifatida ham qoʻllanadi:

QORA I. Rang nomi: eng toʻq rang; oq rangning qarama-qarshisi.

Masalan: qora koʻz, qora kiyim.

QORA II. Koʻrinish, silueti, uzoqdan bilinadigan shakl; soya, elas-elas koʻrinish.

Masalan: uzoqdan bir qora koʻrindi.

QORA III. Chorva mollarining umumiy nomi (asosan qoramol, baʼzan yirik hayvonlar maʼnosida).

Masalan: bir qarasi ikki boʻldi.

QORA IV. Koʻchma maʼnoda: yomon, salbiy, ogʻir, kulfatli. Masalan: qora kunlar, qora xabar.

QORA V. Buyruq yoki murojaatda: qaramoq, eʼtibor qaratmoq maʼnosida (feʼl shaklida). Masalan: menga qora!

Qoraqalpoq tilidagi **Qara** soʻzi: «Qaraqalpaq tilini omonimlar soʻzligi» dagi koʻrinishi:

Qara I túr-tús, reń. Jawdırap *qara* kózleri... (I.Yusupov). – **Qora I** tur-tus, rang. Jovdirab **qora** koʻzlari... (I.Yusupov).

Qara II eles, saǵım. Alistan bir *qara* kórindi (A.Áliev). – **Qora II** sharpa, sarob. Uzoqdan bir **qora** koʻrindi (A.Aliyev).

Qara III sıyr, ógiz, jılqı, túye. Sharwanıń da malı tuwar, bir *qarası* eki bolar (naqıl).

Qora III sigir, hoʻkiz, yilqi, tuya. Chorvaning ham moli tugʻar, bir **qorasi** ikki boʻlar (maqol).

Qara IV kór, kewil awdar [1]. Maǵan *qara*, – dedi ol (ertek). – **QORA IV.** Koʻr, eʼtibor tort [2]. **Menga qara, – dedi u (ertak).**

Oʻzbek tilidagi **Qora** soʻzi: koʻmir tusidagi, eng toʻq rang. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni va boshqa bir necha maʼnoni anglatgan bu sifat asli qora tarzida talaffuz qilingan (Devon III, 240).

«Qaraqalpaq tilini túsindirme soʻzligi»dagi maʼnolari:

QARA I at. 1. Eles, saǵım. Kóz ushında bir **qara** kórinedi. 2. Sıyr, ógiz, jılqı, túye. Bazarǵa satsam aparıp, Jalgız **qara** bolmaydı, Barlıq kórpe-tósegim (A. Dabilov).

QORA I ot. 1. Eles, sarob. Koʻz uchida bir qora koʻrinadi. 2. Sigir, hoʻkiz, yilqi, tuya. Bozorga sotsam oborib, Yolgʻiz qora boʻlmaydi, Barcha koʻrpa-toʻshagim (A.Dabilov).

QARA II kel. Túr-tús, aqqa qarama-qarsı tús. Qazannan *qara* náirse joq, Assań qarın toydırar (QQ.x.n.).

QORA II kel. Tur-tus, oqqa qarama-qarshi tus. Qozondan qora narsa yo‘q, Oshlasang qorin to‘ydirar (QQ.x.n.).

QARA III qaraw [3]. – **QORA III** qorash.

«Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi» ndegi kórinisi:

QARA I at. 1. Eles, saǵım. Kóz ushında bir **qara** kórinedi. 2. Sıyır, ógiz, jılqı, túye. Bazargá satsam aparıp, Jalǵız **qara** bolmaydı, Barlıq kórpe-tósegim (A.Dabılov).

QARA II kel. Túr-tús, aqqa qarama-qarsı tús. Qazannan *qara* náirse joq, Assań qarın toydırar (QQ.x.n.).

QARA III qaraw [3].

Qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi rang bildiruvchi so‘zlar semantikasining rivojlanishini va matndagi ma’no xususiyatlarini batafsilroq kuzatib va tahlil qilib ko‘ramiz.

Turkiy tillardagi *qora* so‘zining semantik doirasi juda keng. *Qora* so‘zi turkiy tillarda turli fonetik va semantik variant tarzida uchraydi. Bu so‘zning qadimdan kelayotganligiga qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va hozirgi ba’zi turkiy tillarning manbalari guvoh. *Qora* so‘zining arxisemasiga nazar solsak, qadimgi turkiy tilining o‘zida bir necha ma’nosi bo‘lgan. Mo‘g‘ul tilidagi har so‘zi qoraqalpoq tilidagi *qora* so‘ziga ma’no jihatidan mos keladi. Qadimgi turkiy tilda ham, mo‘g‘ul tilida ham va boshqa turkiy xalqlarning tillarida asosiy ma’nosi bilan semantik rivojlanishi bir xil ekanligi ko‘rinadi.

Qara: qadimgi yozma yodgorlikdagi I. 1. *Qora (rang)*; 2. Qorong‘i (yorug‘lik yo‘q); 3. *Ko‘chma*. Baxtsizlik, muvaffaqiyatsizlik, qayg‘uli; 4. *Ko‘chma*. Yomonlik, *qora ko‘ngil*; 5. *Ko‘chma*. Kundalik, oddiy; 6. Iflos; 7. Siyoh; *qora yer* – ko‘chma. Tobut, chirik; qora yuz – xizmatchi; qora o‘run – avliyo; qora yel – qattiq shamol; qora yog‘ – neft; qora boguq – shishning turi; qora o‘t – o‘simlik; *qora mirs* – qora murch; *qora qoraq* – qorachiq; qora – burgut; qora o‘rik – olxo‘ri; *Qora* terim yugurti (Ton,52); *Qora* terimni oqizdim. II. Guruh, ko‘pchilik: *qora* bodun – fuqaro; *qora* bosh – qul (DTS, 108,169,423-b.).

Bu ma’nodagi so‘zlar boshqa qo‘shma so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lgan: qarataban, qarataqan, qaratal, qaratalaq, qora choy, qora fuqaro, qora to‘rg‘ay, qora *qarg‘a*, *qoramol*, *qora* so‘z va h.k.

"Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati"da "*qara*" so‘zining ma’nolari

quyidagicha berilgan: **qara bawır** – ishki dúnya. /*Qara bağrım* meniń sonı tiledi, Bul dúnyağa shıqqanımnan ne payda (Ótesh). /*qora jigar* – ichki dunyo. Qora bag‘rim mening shuni tiladi, Bu dunyoga chiqqanımdan ne foyda (O‘tesh).

Qara gúz – gúzdiń aqır, kesh. / **Qora kuz** – kuzning oxiri, kech.

Qara qaygı – uwayım, muń. / **Qora qayg‘u** – tashvish, g‘am.

Qaranar – túyeniń bir túri, jalğız órkeshtli túye; / **Qoranor** – tuyaning bir turi, yolg‘iz o‘rkachli tuya;

Qarapáreń – adam reńkiniń qaralaw túri; / **Qoramtir** – odam rangining qoramtir turi;

Qara soyıw – iri mal soyıw; / **Qora so‘yish** – yirik mol so‘yish;

Qara tigiliw – jesir bolıw, jaman is bolıw, zıyan bolıw; / **Qora tigilish** – beva bo‘lish, yomon ish bo‘lish, ziyon bo‘lish;

Qara kesek – súyeksiz, maysız gósh, góshtıń nıgız jeri; / **Qora kesak** – suyaksız, yog‘siz go‘sht, go‘shtning zich joyi;

Qara kiyiw – jas óli shıqqan úydiń hayalı yamasa apalarınıń qara kiyip júriwi, azalawı; / **Qora kiyish** – yosh o‘lik chiqqan uyning xotini yoki opalarining qora kiyib yurishi, motam tutishi;

Qarapayım xalıq – jay, qarapayım adamlar; / **Oddiy xalq** – oddiy, oddiy odamlar;

Qara suwıq – jerde qar az bolıp, ızğar samal esip turğan waqtağı qattı suwıq; / **Qora sovuq** – yerda qor kam bo‘lib, nam shamol esib turgan paytdagi qattıq sovuq;

Qara ter bolıw – qattı terlew; / **Qora ter bo‘lish** – qattıq terlash;

Qara basqır – ğarğanıp sógiw; / **Qora bosqır** – qarg‘anib so‘kish;

Qara júrek – jaman niyetli adam; / **Qora yurak** – yomon niyatli odam;

Qaraqanı bolıw – ğarğanıw, azarlanıw, sóginiw; / **Qoraqoni bo‘lish** – qarg‘anish, ozorlanish, so‘kish;

Qara jarma – asqatıqsız jarma, aǵarǵansız jarma; / **Qora yorma** – oshqovoqsız yorma, oqartirilmagan yorma;

Qara kórim – aralıq ólshewi shama menen bir kilometrdey; / **Qora ko‘rim** – masofa o‘lchovi taxminan bir kilometrcha;

Qara kókshil – qara menen kóktiń aralaspasınan payda bolǵan túr, reń; / **Qora-ko‘kish** – qora bilan ko‘kning aralashmasidan hosil bo‘lgan tus, rang;

Qaramañlay – sorlı, sorı qaynaǵan, mañlayı sorlı; / **Qaramonlay** – sho‘rli, sho‘ri qaynagan, peshonasi sho‘rli;

Qara tigiliw – baxıtsız bolıw, wayran bolıw; / **Qora tikilish** – baxtsiz

bo‘lish, vayron bo‘lish;

Qara tiyin – aqsha birligi; / **Qora tiyin** – pul birligi;

Qara malayliq – qara jumis penen shug‘illanish, jumissh; / **Qora malaylik** – qora ish bilan shug‘ullanuvchi, ishchi;

Qara tunek – a) tas tunek, qarang‘i, b) qiyinshilik, awir kunler; / **Qora zulmat** – a) zimiston, qorong‘i, b) qiyinchilik, og‘ir kunlar;

Qara topiraq – topiraqtin qara turi; / **qora tuproq** – tuproqning qora turi;

Qara uy – kiyiz uy; / **Qora uy** – kigiz uy;

Qara xizmet – qol kushi menen islenetugin jumis; / **Qora mehnat** – qo‘l kuchi bilan bajariladigan ish;

Qarasin koriw – uzaqtan eles-eles koriw; / **Qarasini ko‘rish** – uzoqdan elas-elas ko‘rish;

Qaras shogiw – koz ilmeytugin bolw, korinbew; / **Qorasi cho‘kish** – ko‘z ilg‘amas bo‘lish, ko‘rinmaslik;

Qaras batiw – a) kelmew, gidiriw, egleniw, irkiliw, b) tuniliw, kewili qalw; / **Qorasi botish** – a) kelmaslik, kechikish, kechikish, to‘xtalish, b) umidsizlik, ko‘ngil qolish;

Qaras semiw – alislap ketiw, korinbew; / **Qorasi semish** – uzoqlashib ketish, ko‘rinmaslik;

Qara soz – ishinde qosigi joq gap, angime; / **Qora so‘z** – ichida she‘ri yo‘q gap, hikoya;

Qara aspandi qapiltiw – qiyinshilqti boldiriw, aqirzaman qilw; / **Qora osmonni qopiltirish** – qiyinchilikni bo‘ldirish, qiyomat qilish;

Qara suwiq – qurgaq qarsiz suwiq; / **Qora sovuq** – quruq qarshi sovuq;

Qara shimildiq – aspannin bultlasip tumeriwi; / **Qora chimildiq** – osmonning qorayish

Qara qagaz – urisqa ketip, urista olgen adamlardin uyine keletugin esittiriw qagaz, xat; / **Qora qog‘oz** – urushga ketib, urushda o‘lgan odamlarning uyiga keladigan eshittirish qog‘ozi, xat; /dan

Qara qaygi – uwayim, mun, sher, qaygi; / **Qora qayg‘u** – tashvish, g‘am, dard, qayg‘u; /dan

Qara shirik – oyga tusken shoplerdin shiriwi; / **Qora chirik** – pastga tushgan o‘tlarning chirishi; /dan

Qaraquptan – jatar waqtin ald; / **Qoraqundan** – yotish vaqtining oldi; /dan

Qara jamg'ir – qara jawin, nóser jawin, qattı jawin; / Qora yomg'ir – qora yomg'ir, jala yomg'ir, kuchli yomg'ir; /dan

Qara jer – a) topıraq, jer, b) pántlew, eziw; / Qora yer – a) tuproq, yer, b) aldash, ezish; /dan

Qara zil – a) júdá awır náirse; b) uwayım, muń, sher [4]. / Qora zil – a) juda og'ir narsa; b) tashvish, g'am, qayg'u.

Misollardan ko'rinib turganidek, rang bildiruvchi bu so'zning o'ziga xos semantik strukturalari va stilistik xususiyatlari ot leksema bilan birlashish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkazional semalarni ifodalash xususiyati nutq jarayonida yoki matnda yuzaga chiqadi.

Qora leksemasi matnda faqat narsaning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanilganda emotsional-ekspressivlikka ega emas, uning vazifasi rang haqida xabar, ma'lumot berish bilan chegaralanadi. Qora leksemasi yozuvchining diqqati qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabatiga bog'liq ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni tasvirlashi mumkin. Bu leksemaning orttirma darajadagi shakli faqat rangni ifodalash uchun emas, balki ma'noni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Odamning qosh, ko'z, soch a'zolariga bog'liq **qora** leksemasi epitet bo'lib qo'llanilganda ijobiy munosabat semasi ma'lum darajada ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пахратдинов Қ., Бекбергенов Қ.Қарақалпақ тилинің омонимлер сөзлиги. Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2015, 36-б.
2. Пахратдинов Қ., Бекбергенов Қ. Қарақалпақ тилинің омонимлер сөзлиги. Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2015, 36-б.
3. Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлиги. I т. Нөкис: Қарақалпақстан, 1982. 123-б.
4. Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлиги. Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. 123-125-б.

FILOLOGIYA

FUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

UO‘K 95.(47)

**Nurjanova Rayxan,
Toshkent iqtisodiyot
va pedagogika
universiteti,
“Tillar va
maktabgacha ta’lim”
kafedrasi dotsenti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini funksional yondashuv asosida rivojlantirish masalasi, kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda funksional yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida pedagog kadrlarning professional tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы развития профессиональной компетентности будущих воспитателей на основе функционального подхода, сущность понятия профессиональной компетентности, ее структурные компоненты и теоретические основы функционального подхода. Также обосновано, что совершенствование профессиональной подготовки педагогических кадров в условиях модернизации системы дошкольного образования является актуальной задачей.

Annotation: This article analyzes the issues of developing the professional competence of future educators based on a functional approach, the essence of the concept of professional competence, its structural components, and the theoretical foundations of a functional approach. It is also substantiated that improving the professional training of pedagogical personnel in the context of modernizing the preschool education system is a pressing task.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, funksional yondashuv, bo‘lajak tarbiyachi, pedagogik faoliyat, pedagogik tayyorgarlik, pedagogik amaliyot.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность,

функциональный подход, будущий воспитатель, педагогическая деятельность, педагогическая подготовка, педагогическая практика.

Key words: *competence, professional competence, functional approach, future educator, pedagogical activity, pedagogical training, pedagogical practice.*

Yurtimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy talablar asosida uning sifat darajasi va samaradorligini oshirish masalalari bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, maktabgacha yosh davri shaxs kamolotining poydevori bo'lib, bu jarayonda tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi, bilim, ko'nikma va malakalari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi [1]. Hozirgi kunda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida an'anaviy bilimga yo'naltirilgan ta'limdan kompetensiyaga asoslangan ta'limga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda funksional yondashuvdan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Funksional yondashuv pedagogik jarayonni alohida-alohida qismlar sifatida emas, balki bir butun tizim sifatida ko'rish kerakligini anglatadi. Bu tizimda: har bir qism (masalan, tarbiyachi, bola, metod, mashg'ulot shakli) o'z vazifasini bajaradi; har bir qismning ishlashi umumiy maqsadga xizmat qiladi; bir qismdagi o'zgarish butun jarayonga ta'sir qiladi. Ya'ni, ta'lim jarayonini tushunish uchun faqat bitta jihatni emas, balki hammasini o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqish zarur. Chunki pedagogik jarayon – bu o'zaro bog'langan elementlardan iborat yagona tizimdir. Mazkur yondashuv orqali tarbiyachilarning kommunikativ, tashkiliy, metodik, refleksiv va innovatsion kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Funksional yondashuv ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyat jarayonida bajaradigan funksiyalarini aniqlash, ularni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish, nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy bajarishga tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini funksional yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, mazkur jarayonni

takomillashtirish yo‘llarini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika sohasida muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, mazkur muammo bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlik pedagogning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy faoliyatni samarali tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarga ijodiy yechim topish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

I.Zimnyayaning fikricha, kompetensiya inson ongida mavjud bo‘lgan, lekin har doim ham bevosita ko‘rinmaydigan ichki imkoniyatdir. U shaxsning egallagan bilimlari, tasavvurlari hamda muayyan vaziyatda qanday harakat qilishni belgilovchi ichki “harakat rejasi” yoki algoritmlarini o‘z ichiga oladi. Ya’ni, kompetensiya – bu amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan, shaxs ichida shakllangan tayyorgarlik va salohiyatdir [8]. Kasbiy kompetentlik – faqat bilim va ko‘nikmalar to‘plami emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash samaradorligi bilan belgilanadigan professional sifat [7].

S.Molchanov, **kasbiy kompetentlikni** insonning o‘z kasbini zamon talablari darajasida samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlarining bir butun yig‘indisi [2], deb ta’kidlaydi. Ya’ni, jamiyat barcha tarixiy davrlarda kasb egalariga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. Masalan, hozirgi kunda tarbiyachidan nafaqat bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, balki ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ota-onalar bilan samarali muloqot qilish va ijodkor bo‘lishni ham talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining kasbiy kompetensiyalarining asosiy guruhlarini aniqlashga yondashuvlarning asosi jamiyat rivojlanishining muayyan tarixiy davrida mehnat predmeti va obykti bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonida kasbiy vazifalarni bajarish kabi omillar bilan bog‘liq faoliyatning funksional tahlili hisoblanadi [6].

Xorijiy olimlardan J.Raven [4], R.White [5] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida kompetentlik tushunchasini shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin qiladilar. Ularning ishlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda funksional yondashuv muhim metodologik vosita sifatida e’tirof etiladi.

N.A.Muslimov va K.Sh.Kadirovlar [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning didaktik, metodik va tashkiliy jihatlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida bajaradigan funksiyalari ta'limiy, tarbiyaviy, kommunikativ, tashkiliy va diagnostik funksiyalar asosida kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida funksional yondashuv asosida mutaxassis tayyorlash masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, muammoli vaziyatlar tahlili va refleksiv faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, mavjud tadqiqotlarda funksional yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yaxlit modeli va uni amalga oshirish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda funksional yondashuvni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini funksional yondashuv asosida rivojlantirishni o'rganishga qaratilgan **tajriba-sinov ishlari davomida** funksional yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi amaliyotga joriy etilib, uning samaradorligi tahlil qilindi. **Faoliyatga yo'naltirilgan** muammoli vaziyatlar, keys-stadi, rolli o'yinlar va amaliy topshiriqlar orqali bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy funksiyalarni bajarish ko'nikmalari rivojlantirildi.

Mazkur metodlar majmuasi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini funksional yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini o'rganish va uning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini funksional yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba davomida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida muhim hisoblangan ta'limiy, tarbiyaviy, kommunikativ, tashkiliy va refleksiv funksiyalarni bajarish darajasi tahlil qilindi.

Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqot ishtirokchilarining aksariyatida kasbiy kompetentlikning shakllanish darajasi o'rta va past ko'rsatkichlarda bo'lib, ayniqsa amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik qarorlar qabul qilish va o'z faoliyatini refleksiya qilish ko'nikmalarida

yetarli tayyorgarlik mavjud emas edi. Bu holat bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida funksional yondashuvdan tizimli foydalanilmayotganligini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov jarayonida funksional yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimi, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, keys-stadi va rolli o‘yinlar tajriba guruhida bosqichma-bosqich joriy etildi. Natijada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatish, mashg‘ulotlarni rejalashtirish va o‘tkazish hamda innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Nazorat va tajriba guruhlari natijalarini taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida kasbiy kompetentlikning yuqori darajasi sezilarli oshgan, past darajadagi ko‘rsatkichlar esa kamaygan. Bu esa funksional yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini samarali rivojlantirishga xizmat qilganligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, funksional yondashuvning kompetensiyaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, kasbiy kompetentlikning rivojlanishi pedagogning real faoliyat funksiyalariga tayangan holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu ilmiy xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarda o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish kuchaygani aniqlandi. Bu esa funksional yondashuvning nafaqat kasbiy kompetentlikni, balki shaxsiy va motivatsion jihatlarni ham rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari funksional yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini, mazkur yondashuvni oliy pedagogik ta’lim muassasalarida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotda asoslab berilgan funksional yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida bajaradigan asosiy funksiyalariga tayangan

holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi hamda nazariy bilimlarning amaliyot bilan uzviy bog'lanishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va keys-stadi materiallari maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish uchun tavsiya etiladi. Ushbu materiallar bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida, pedagogik amaliyotni tashkil etishda hamda tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishini baholash mezonlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, funksional yondashuv asosida ishlab chiqilgan kompetentlik ko'rsatkichlari bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashda diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot xulosalari va tavsiyalari pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish, fanlar mazmunini kasbiy funksiyalar asosida qayta ko'rib chiqish hamda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari funksional yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga, raqobatbardosh va zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, kasbiy kompetentlikning rivojlanishi pedagogning real faoliyat funksiyalariga tayangan holda tashkil etilganida yuqori samaradorlikka erishiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu ilmiy xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, tajriba jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat, mustaqil fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kuchaygani aniqlandi. Bu esa funksional yondashuvning nafaqat kasbiy kompetentlikni, balki shaxsiy va motivatsion jihatlarni ham rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari funksional yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini, mazkur yondashuvni oliy pedagogik ta'lim muassasalarida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021 y., 06/21/26/1111-son.
2. Молчанов С.Г. Профессиональная компетентность педагога // Актуальные проблемы управления качеством образования: сб. науч. ст. – Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 2001. – Вып. 6. – 136 с.
3. Муслимов Н.А., Кадыров Х.Ш. Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов на основе применения информационных и педагогических технологий // Молодой учёный, 2012. – №1, том 2. – С. 102-106.
4. Raven J. *Competence in modern society: Its identification, development and release*. – London: H. K. Lewis & Co., 1984. – 286 p.
5. Robert W.W. Motivation reconsidered: The concept of competence // *Psychological Review*, 1959. – Vol. 66. – P. 297-333.
6. Сваталова Т.А. Функционально-деятельностный подход к определению «ключевых» видов компетентности педагога дошкольного образования // Образование и наук, 2009. – № 4 (61). – С. 56-64.
7. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика, 2003. – № 10. С. 51-55.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высш. образование сегодня, 2003. – № 5. – С. 17-25.

FILOLOGIYA**ARAB TILIDA VAQT TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI**

**Erkinova Gavhar,
Oriental universiteti
magistranti**

UO‘K 95.(47)

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi vaqtga taalluqli frazeologizmlar, ko‘chma ma’nodagi iboralar va maqollar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi (qachon?) so‘rog‘iga bilvosita, umumiy va ko‘chma ma’nodagi javob beruvchi birliklarni aniqlash, ularning semantik guruhlarini belgilash va tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlashdan iborat. Mazkur maqolada klassik va zamonaviy arab tilidan olingan misollar asosida tahlil olib boriladi.

Аннотация: В данной статье проводится систематический анализ фразеологизмов, образных выражений и пословиц, связанных со временем в арабском языке. Главная цель исследования — выявление единиц, отвечающих на вопрос (когда?) в косвенном, общем и образном смысле, определение их семантических групп и их лингвистическая интерпретация. В статье анализируются примеры из классического и современного арабского языка.

Annotation: This article systematically analyzes phraseologisms, figurative expressions and proverbs related to time in the Arabic language. The main goal of the study is to identify units that answer the question (when?) in an indirect, general and figurative sense, to determine their semantic groups and interpret them from a linguistic point of view. This article analyzes examples from classical and modern Arabic.

Kalit so‘zlar: vaqt, tushunchalar, umumiy yo‘nalish, nazariy-amaliy prinsiplar vaqtni ifodalovchi barqaror birliklar.

Ключевые слова: время, концепции, общее направление, теоретические и практические принципы, стабильные единицы измерения времени

Key words: time, concepts, general direction, theoretical and practical principles, stable units representing time.

Til — millat tafakkuri va madaniyatining asosiy ko‘zgusidir. Har bir til tizimida vaqt tushunchasi alohida o‘rin egallaydi. Vaqt nafaqat grammatik kategoriyalar orqali, balki frazeologizmlar, ko‘chma ma’nodagi iboralar va maqollar orqali ham ifodalanadi. Ayniqsa arab tilida vaqt tushunchasi chuqur falsafiy, diniy va badiiy mazmunga ega bo‘lib, u ko‘plab barqaror birliklar orqali umumiy, noaniq, takroriy yoki davomiy ma’nolarda namoyon bo‘ladi.

Vaqt — inson tafakkurida eng murakkab va mavhum kategoriyalardan biridir. Arab tilshunosligida vaqt tushunchasi العصر الدهر، الوقت، الزمن kabi birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu birliklar nafaqat fizik vaqtni, balki hayot, taqdir, o‘zgarish va davomiylikni ham anglatadi. Arab adabiyoti va diniy manbalarda vaqt ko‘pincha mustaqil kuch sifatida talqin qilinadi. Masalan, الدهر so‘zi klassik matnlarda inson taqdiriga ta’sir etuvchi kuch sifatida ishlatiladi. Bu holat vaqt bilan bog‘liq frazeologizmlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Arab tilida vaqtni ifodalash faqat fe’l zamonlari bilan cheklanib qolmaydi. Frazeologik birliklar va ko‘chma ma’nodagi iboralar orqali vaqt: - umumiy (har doim, har zamon), - noaniq (ba’zan, vaqti-vaqti bilan), - davomiy (uzluksiz), - kechikkan yoki o‘tib ketgan ma’nolarda ifodalanadi.

Masalan, مرّ على (vaqti-vaqti bilan) والأخرى الفينة بين (har doim) الدوام على (kunlar osha) kabi birliklar aniq vaqt nuqtasini emas, balki umumiy vaqt tasavvurini beradi.

Vaqtga oid frazeologizmlar va ko‘chma ma’nodagi iboralar

Frazeologizmlar — tarkibi barqaror, ma’nosi butunlay yoki qisman ko‘chma bo‘lgan til birliklaridir. Arab tilidagi vaqtga oid frazeologizmlar ko‘pincha obrazli bo‘lib, inson tajribasi va kuzatuvlariga asoslanadi.

“Har doim” ma’nosini bildiruvchi ko‘chma ma’nodagi birliklar

Quyidagi birliklar vaqtning uzluksizligini bildiradi:

على الدوام — doimo

ليل نهار — kechayu kunduz

نَاءَ اللَّيْلِ النَّهَارَ وَأَطْرَافَ — tunu kun

Ushbu birliklar “متى؟” so‘rog‘iga umumiy va cheklanmagan javob beradi.

“Ba’zan , vaqti-vaqti bilan” ma’nosidagi birliklar

ba’zan-من حين لآخر

vaqti-vaqti bilan-بين الفينة والأخرى

goh-goh-حيناً بعد حين

Bu iboralar vaqtning takroriy, ammo uzluksiz emasligini bildiradi.

“Har qanday payt” ma’nosidagi birliklar

istalgan payt-في أي وقت

qachon bo’lsa ham-متى ما

har safar qachonki-كلما

Bu birliklar umumlashtiruvchi va shartli vaqt ma’nosiga ega.

“Hech qachon , noma’lum va imkonsiz vaqt” ma’nosini bildiruvchi
majoziy birliklar.

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “*tuyaning dumi yerga tekkanda*” kabi ifodalar bilan semantik jihatdan yaqin bo‘lgan, arab tilida vaqtning hech qachon sodir bo‘lmasligi yoki noma’lum, imkonsiz payt sifatida talqin qilinadigan majoziy birliklarga ko‘rib chiqiladi.

1.) إذا شاب الغراب - qarg’a oqarganda (ya’ni hech qachon

Misol:

سيحدث هذا إذا شاب الغراب.

Bu holat qarg’a oqarganda sodir bo‘ladi.

Izoh: Ushbu ibora tabiatan imkonsiz holatga asoslangan bo‘lib, voqeaning hech qachon ro‘y bermasligini bildiradi.

2.) في المشمش - hech qachon, noma’lum vaqtda

Misol:

قال إنه سيدفع المال في المشمش.

U pulni hech qachon bermasligini aytdi.

Izoh: So‘zlashuv tilida keng qo‘llaniladi va bajarilmaydigan va’dani ifodalaydi.

3.) عند نزول الغيث من السماء ذهباً - osmondan oltin yomg‘ir yog‘ganda

Misol:

سأوافقك عند نزول الغيث من السماء ذهباً.

Men bunga osmondan oltin yog'ganda rozi bo'laman.

Izoh: Kuchli obrazlilik orqali mutlaqo imkonsiz vaqt ifodalanadi.

4. بعد ألف سنة - ming yildan keyin (ya'ni amalda hech qachon)

Misol:

قد يتحقق هذا بعد ألف سنة.

Bu ish ming yildan keyin amalga oshar.

Izoh: Bu birlik mubolag'a asosida qurilib, vaqtning nihoyatda uzoqligini bildiradi.

5. حين يبيض الفحم ko'mir oqarganda

Misol:

سيعود إلى رأيه حين يبيض الفحم.

U fikridan ko'mir oqarganda qaytadi.

Izoh: Imkonsiz tabiiy holat orqali vaqtning hech qachon kelmasligi ifodalanadi.

“Bir zumda , juda tez fursatda” ma'nosini bildiruvchi majoziy birliklar.

Endi esa hodisaning juda qisqa vaqt ichida, kutilmagan yoki favqulodda tezlik bilan sodir bo'lishini bildiruvchi arab tilidagi majoziy va frazeologik birliklarni tahlil qilamiz. Bu birliklar “متى” so'rog'iga “bir zumda”, “darhol” mazmunida javob beradi.

1. في لمح البصر ko'z ochib-yumguncha

Misol:

اختفى الرجل في لمح البصر.

Erkak ko'z ochib-yumguncha g'oyib bo'ldi.

Izoh: Ko'rish jarayonining juda qisqaligiga tayangan holda tezlik ifodalanadi.

2. في غمضة عين ko'z yumguncha

Misol:

تغير كل شيء في غمضة عين.

Hamma narsa ko'z yumguncha o'zgardi.

Izoh: Hodisaning nihoyatda tez va kutilmaganda yuz berishini bildiradi.

3. في طرفة عين. - bir lahzada

Misol:

انتشر الخبر في طرفة عين.

Xabar bir lahzada tarqaldi.

Izoh: Ushbu birlik arab tilida eng keng tarqalgan tezlik ifodalovchi majoziy birliklardan biridir.

4. -على الفور darhol

Misol:

أجاب على السؤال على الفور.

U savolga darhol javob berdi.

Izoh: Bu birlik kechikishsiz sodir bo'ladigan harakatni bildiradi.

5. -بغتة to'satdan, kutilmaganda

Misol:

ظهر أماننا بغتة.

U to'satdan oldimizda paydo bo'ldi.

Izoh: Tezlik bilan birga kutilmaganlik semantikasi ham mujassam.

6. - بين عشية وضحاها bir kechada, juda qisqa vaqt ichida

Misol:

تغيرت أحواله بين عشية وضحاها.

Uning ahvoli bir kechada o'zgardi.

Izoh: Juda qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lgan keskin o'zgarishni bildiradi.

“VAQTNI BOY BERISH , FURSAT O'TIB KETISHI” MA'NOSINI BILDIRUVCHI

MAJOZIY BIRLIKLAR.

Muayyan imkoniyatdan o'z vaqtida foydalanmaslik, kechikish natijasida natijaning yo'qqa chiqishi yoki foydasiz bo'lib qolishini ifodalovchi arab tilidagi majoziy va frazeologik birliklarni tahlil qilamiz. Bu birliklar “متى؟” so'rog'iga “kech bo'lgach”, “fursat o'tib ketgach” mazmunida javob beradi.

1. - فات الأوان. - vaqt o'tib ketdi, endi kech

Misol:

حاول الاعتذار، لكن فات الأوان.

U uzr so'rashga urindi, ammo endi kech edi.

Izoh: Ushbu birlik imkoniyatning qaytmasligini va vaqtning o‘tib ketganini bildiradi.

2. ضَيِّع الفرصة - fursatni boy berdi

Misol:

ضَيِّع الفرصة بسبب ترده.

U ikkilanib, fursatni boy berdi.

Izoh: Bu birlik faol harakat qilinmagani sababli vaqt va imkoniyat yo‘qotilganini ko‘rsatadi.

3. ذهب الوقت سُدىً - vaqt behuda ketdi

Misol:

ذهب الوقت سُدىً دون نتيجة.

Vaqt behuda, natijasiz ketdi.

Izoh: Harakatning foydasizligi va vaqtning samarasiz o‘tganini bildiradi.

4. سبق السيف العذل -ish o‘tib bo‘ldi (kech bo‘ldi)

Misol (izohli):

Ushbu maqol qaror kech qabul qilinganini va vaziyatni o‘zgartirish imkoni qolmaganini bildiradi.

Izoh: Vaqtni boy berish g‘oyasi obrazli va tarixiy asosda ifodalangan.

5. بعد فوات الأوان - vaqt o‘tib ketgandan keyin

Misol:

جاء ندمه بعد فوات الأوان.

Uning pushaymoni vaqt o‘tib ketgandan keyin keldi.

Izoh: Kechikkan harakatning foyda bermasligi ma’nosini bildiradi.

Arab maqollarida vaqt tushunchasining kinoyaviy ifodasi

Arab maqollari (الأمثال العربية) xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, tarixiy xotirasi va falsafiy qarashlarini mujassam etgan barqaror birliklardir. Vaqtga oid maqollar “متى؟” (qachon?) so‘rog‘iga aniq sana yoki lahza bilan emas, balki umumlashtirilgan, hayotiy va kinoyaviy ma’noda javob beradi.

Ushbu qismda vaqtning o‘tuvchanligi, fursatning qadri, kechikish va sabr tushunchalari bilan bog‘liq maqollar semantik guruhlar asosida tahlil qilinadi.

Vaqtning o'tuvchanligi va o'zgaruvchanligini ifodalovchi maqollar

1. الأيام دول

Kunlar almashib turadi.

Izoh: Ushbu maqol vaqtning barqaror emasligini, inson hayotida yaxshi va yomon davrlar navbat bilan kelishini bildiradi.

2. دوام الحال من المحال

Hech bir holat abadiy emas.

Izoh: Vaqt doimo o'zgarishda bo'lishi va hech bir vaziyat doimiy emasligi falsafiy tarzda ifodalanadi.

Fursat va imkoniyat bilan bog'liq maqollar

3. الفرصة تمرّ مرّ السحاب

Imkoniyat bulut kabi o'tib ketadi.

Izoh: Bu maqol fursatning tez o'tishini va undan o'z vaqtida foydalanish zarurligini obrazli tarzda ifodalaydi.

4. من ضيّع الوقت ضيّع نفسه

Kim vaqtini boy bersa, o'zini boy beradi.

Izoh: Vaqtini qadrlamaslik shaxsiy va ijtimoiy yo'qotishlarga olib kelishini ta'kidlaydi.

5. لا ينفع الندم بعد فوات الأوان

Vaqt o'tib ketgach, pushaymon foyda bermaydi.

Izoh: Kechikkan qaror va harakatning samarasizligini bildiruvchi keng tarqalgan maqol.

“Har vaqtning o'z payti bor” mazmunidagi maqollar.

6. لكلّ وقتٍ أذان

Har vaqtning o'z chaqirig'i bor.

Izoh: Har bir ish va hodisa uchun mos vaqt mavjudligi g'oyasini ifodalaydi.

7. لكلّ حادثٍ حديث

Har gapning o'z vaqti bor.

Izoh: Vaqt va vaziyat o'zgarishi bilan baho va qarashlar ham o'zgarishini anglatadi. Vaqt va sabr munosabatini ifodalovchi maqollar

8. بعد الصبر الظفر

Sabr ortidan g'alaba keladi.

Izoh: Vaqtni sabr bilan kutish ijobiy natijaga olib kelishini bildiradi.

9. مع العسر يُسر

Qiyinchilik bilan birga yengillik keladi.

Izoh: Qiyin davr vaqtinchalik ekanini va vaqt o'tishi bilan yengillik kelishini anglatadi.

Mazkur maqolada arab tilida vaqt tushunchasining frazeologizmlar, majoziy (ko'chma ma'nodagi) birliklar va maqollar orqali ifodalanishi tizimli ravishda yoritildi. Tadqiqot davomida vaqt faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki xalq tafakkuri, madaniy tajriba va obrazli fikrlash mahsuli sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, arab tilida “متى؟” (qachon?) so'rog'iga javob beruvchi ko'plab barqaror birliklar aniq vaqt nuqtasini emas, balki **umumiylik, noaniqlik, davomiylik, tezlik yoki kechikish** kabi semantik belgilarni ifodalaydi. Xususan, “har doim”, “ba'zan”, “hech qachon”, “bir zumda” hamda “vaqtni boy berish” ma'nolarini bildiruvchi birliklar tilning obrazlilik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, arab maqollarida vaqt tushunchasi hayotiy tajriba asosida umumlashtirilib, fursatning qadri, kechikishning oqibati va sabrning ahamiyati kabi g'oyalar orqali ifodalangan. Bu maqollar vaqtni chiziqli emas, balki **jarayon va o'zgarish** sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilidagi vaqtga oid majoziy va frazeologik birliklarni o'rganish nafaqat tilning semantik boyligini ochib beradi, balki arab xalqlarining dunyoqarashi va madaniy tafakkurini chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda frazeologiya sohalarida keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

**1-son, 2-qism (36)
2026-yil, yanvar.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	S.Samandarova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 15,5 b.t. Buyurtma №1/26.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22